6. Карнаухова Е.С. Учет общественных затрат труда в сельском хозяйстве.- М.: Экономика, 1967.- 18-35с.
7. Ларионов А.Д. Актуальные проблемы учета и калькулирования себестоимости сельскохозяйственной продукции.- Международный сельскохозяйственный журнал.-№4, 1981.- с.109-110.
8. Мухин А.Ф. Учет производства в США: Автореф. дисс. д-ра экон. наук.М., 1964.- с.19.
9. Нарисбаев К.Н. Организация бухгалтерского учета в США.- М.: Финансы, 1979,- с.78.
10. Солнцева М. Проблемы реформы системы ценообразования и цен в КНР./ Вопросы экономики.-№9, 1990.-С.112-122.
11. Струмилин С.Н. Ученые записки по статистике, т.П.-М.: Изд-во АН СССР, 1956-245-252.

Abdullaev Abdurauf

Andijon davlat texnika instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori
+998 94 569-69-02, +998 93 061-04-02,
abduraufabdullayev679@gmail.com

QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA MAHSULOT SOTISH VA MOLIVAVIY NATIJALARNI HISOBGA OLISH

Абдуллаев Абдурауф

Профессор Андижанского государственного технического
института, доктор экономических наук
abduraufabdullayev679@gmail.com

УЧЁТ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ И ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

ACCOUNTING FOR PRODUCT SALES AND FINANCIAL RESULTS IN AGRICULTURAL ENTERPRISES

Abdullaev Abdurauf

Professor at Andijan State Technical Institute,
Doctor of Economic Sciences

abduraufabdullayev679@gmail.com

Annotatsiya. Xo‘jalik faoliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimida ishlab chiqarish faoliyati va uning natijalarini baholovchi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin tutadi. Bu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xarajatlari, yalpi mahsulot, foyda, shaxsiy iste‘mol xarajatlari. Bu ko‘rsatkichlar buxgalteriya hisobi tizimida shakllantiriladi. Fermer xo‘jaligi faoliyati natijalarini ishonchli va to‘g‘ri aks ettirish uchun xarajatlarni shakllantirish, ishlab chiqarish natijalari va ularni taqsimlash metodologiyasini ishlab chiqish zarur. Metodologiyani ishlab chiqish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq xarajatlar tarkibini aniqlash, mehnat haqi xarajatlarini aniqlashtirish, shaxsiy iste‘mol xarajatlarining roli, joylashuvi va ularni qoplash manbalarini ko‘rsatish, fermer (dehqon) xo‘jaligi umumiy iqtisodiy faoliyati natijalarini shakllantirish imkonini beradi.

Maqolada qishloq xo‘jalik korxonalarida mahsulot sotish va moliyaviy natijalarni hisobini yuritish amaliyoti chuqur tahlil etilib, uni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Fermer xo‘jaligi, ishlab chiqarish faoliyati, baholovchi ko‘rsatkichlar, xarajatlar, yalpi mahsulot, foyda, shaxsiy iste‘mol, mehnat haqi, boshqaruv hisobi, xo‘jalik sub‘ekti, narx belgilash, narx darajasi, iste‘mol bozori, nafaqalar, subsidiyalar, cheklovlar, ta‘qiqlar, hisob tizimi, tizim elementlari, buxgalteriya hisobi shakllari, hisob tamoyillari, xo‘jalik operatsiyalari, axborot foydalanuvchilari, investorlar, buxgalteriya hisobining schyotlari, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobini isloh qilish, soliq va soliqqa tortish, tadbirkorlik faoliyati.

Аннотация

В системе показателей, характеризующих хозяйственную деятельность, важное место занимают показатели, оценивающие производственную деятельность и её результаты. К таким

показателям относятся: затраты на сельскохозяйственное производство, валовая продукция, прибыль, расходы на личное потребление. Эти показатели формируются в системе бухгалтерского учёта. Для достоверного и правильного отражения результатов деятельности фермерского хозяйства необходимо разработать методологию формирования затрат, оценки результатов производства и их распределения. Разработка данной методологии позволяет определить структуру затрат, связанных с сельскохозяйственным производством, уточнить расходы на оплату труда, выявить роль, размещение и источники покрытия расходов на личное потребление, а также сформировать результаты общей экономической деятельности фермерского (деханского) хозяйства.

В статье освещаются вопросы учёта реализации продукции и финансовых результатов в сельскохозяйственных предприятиях.

Ключевые слова: фермерское хозяйство, производственная деятельность, оценочные показатели, затраты, валовая продукция, прибыль, личное потребление, заработная плата, управленческий учёт, хозяйствующий субъект, ценообразование, уровень цен, потребительский рынок, пособия, субсидии, ограничения, запреты, система учёта, элементы системы, формы бухгалтерского учёта, принципы учёта, хозяйственные операции, пользователи информации, инвесторы, бухгалтерские счета, финансовая отчётность, реформа бухгалтерского учёта, налоги и налогообложение, предпринимательская деятельность.

Abstract

In the system of indicators describing economic activity, the indicators that assess production activity and its results play a crucial role. These indicators include agricultural production costs, gross output, profit, and personal consumption expenditures. Such indicators are formed within the accounting system. To accurately and reliably reflect the results of a farm's activity, it is essential to develop a methodology for forming costs, assessing production outcomes, and distributing them. Developing this methodology enables the identification of the structure of costs related to agricultural production, specification of labor costs, analysis of the role, allocation, and funding sources of personal consumption expenses, and the formation of the overall economic results of a farming enterprise.

This article highlights the accounting of product sales and financial results in agricultural enterprises.

Keywords: farm enterprise, production activity, evaluation indicators, costs, gross output, profit, personal consumption, wages, management accounting, economic entity, pricing, price level, consumer market, benefits, subsidies, restrictions, prohibitions, accounting system, system elements, forms of accounting, accounting principles, business operations, information users, investors, accounting accounts, financial reporting, accounting reform, taxation, entrepreneurial activity.

Kirish. Oilaviy fermer (dehqon xo'jaligi) o'ziga xos korxona hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatining bu o'ziga xos xususiyati mablag'larining ularni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va iste'mol qilishdagi aylanish jarayonida namoyon bo'ladi. Aylanish maqsadi va tabiati xo'jalik turlarining farqiga qarab belgilanadi. Ba'zi fermer xo'jaliklari o'ziga kelgan barcha boyliklarni faqat shaxsiy iste'molini qondirish uchun ishlatasa, boshqa xo'jaliklar ularni nafaqat shaxsiy (oilaviy) ehtiyojlarini to'g'ridan-to'g'ri qondirish, balki sotish yoki ularni ayirboshlash uchun ham ishlab topadilar. Ammo bu faoliyatning mohiyatini va undagi mablag'lar aylanishining tabiatini o'zgartirmaydi. Bu yerda sotish yana iste'mol qilish maqsadida amalga oshiriladi va faqat ishlab chiqarilgan mahsulotning ortiqcha qismini xo'jalikning ma'lum bir ehtiyoji uchun zarur bo'lgan boshqa moddiy-qiyamatliklarga almashtirishdir.

Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, fermer (dehqon) xo'jaligi faoliyatining yakuniy

natijasi ularning daromadlari (D) va xarajatlari (X) o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof foyda (F) ko'rinishida bo'ladi.

$$F = D - X$$

Oxir oqibat, sof foyda mohiyatan xo'jalik faoliyati jarayonida olingan jamg'arma yoki kapitalni ifodalaydi. Mazkur jamg'arma mablag'lari fermerning turli sohalardagi faoliyatini moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Fermer xo'jaligi daromadlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushumlardan shakllanadi. Xarajatlar esa shaxsiy iste'mol uchun sarflangan xarajatlardan hamda qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir boshqa barcha xarajatlardan tashkil topadi.

Fermer (dehqon) va uning oilasining ehtiyojlarini qondirish pul daromadlari va fermer (dehqon) xo'jaligi zaxiralari ya'ni qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan daromadlar hisobidan amalga oshiriladi.

Demak, sof daromad va uning xo'jalik xarajatlari yig'indisi qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan foydani ifodalaydi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati natijasida fermer zarar ko'rishi ham mumkin. Shu bilan birga, butun fermer (dehqon) xo'jaligi uchun ko'rilgan zarar miqdori uning shaxsiy xo'jalik xarajatlari miqdoriga ham ko'payadi.

O'zining ishlab chiqarish faoliyatida fermer ko'p hollarda o'z ishining salbiy natijasi bilan qiziqmaydi. Oxir oqibat, bu holat tanazzulga (bankrotlikka) olib keladi. Shu sababli biz xo'jaliklarni zarar bilan ishlashini ham istisno qilmagan holda foyda ko'rsatkichini o'rganishga e'tibor qaratamiz. Aks holda, fermer (dehqon) xo'jaligining faoliyat yuritishdan ko'zlagan maqsadi sarflangan mablag'ni oqlamaydi.

Bizning fikrimizcha, fermer xo'jaligi faoliyati natijasini aniqlashda qo'llanilayotgan amaldagi yondashuvlar oilaviy fermer (dehqon) xo'jaligidagi mablag'lar aylanishini aks ettiradi. Uning asosiy tamoyili fermer (dehqon) xo'jaligi xarajatlarini fermer (dehqon) va uning oilasining iste'moli xarajatlaridan farqlash, qishloq xo'jaligi faoliyatining natijasi va uni taqsimlashni o'zida aks ettiradi. Fermer (dehqon) oilasining iste'mol xarajatlari esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarning rentabelligiga ta'sir qilmaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlari - bu tayyor mahsulot (o'simlikchilik, chorvachilik mahsulotlari) ishlab chiqarish xarajatlaridan iborat bo'lgan sarflarning murakkab yig'indisidir. U o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlarni: jonli mehnat, mehnat vositalari va mehnat buyumlar qiymatini o'z ichiga oladi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar miqdori uning haqiqiy tannarxini aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatidagi fermer (dehqon)ning ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlari bir necha turlarga bo'linadi. Bularga: moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qiymatini qoplash va saqlash xarajatlari, yerdan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar va boshqa xarajatlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi moddiy xarajatlar: urug'lik va ko'chat materiallari, ozuqa, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mineral o'g'itlar, neft mahsulotlari, yoqilg'i, tashqi xizmatlar, o'simliklar va hayvonlarni himoya qilish vositalari, dori-darmon, elektr energiyasi, suv ta'minoti, kichik jihozlar, ish kiyimlari uchun qilingan xarajatlardan tashkil topadi.

Xarajatlar sifat ko'rsatkichlari bo'yicha turli ko'rinishda bo'ladi. Ular qishloq xo'jaligida mablag'lar aylanishining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ishlab chiqarish sohasidagi moddiy

xarajatlar tarkibiga nafaqat tashqaridan sotib olingan moddiy boyliklar (mineral o'g'itlar, neft - mahsulotlari va boshqalar), balki fermer (dehqon) xo'jaligining o'zida ishlab chiqarilgan (urug'lik, ozuqa va boshqa mahsulotlar) mahsulotlar ham kiritilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishga qilingan sarflarning qiymat ko'rinishidagi ifodasidir.

Xarid qilingan materiallar va tashqaridan ko'rsatilgan turli xizmatlar haqiqiy sotib olish xarajatlari bahosi bo'yicha baholanadi. Fermer xo'jaligida foydalaniladigan o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga kelsak, ular tannarxga qo'shilish vaqtidagi joriy bozor narxlarida baholanadi.

Asosiy va nomoddiy aktivlarning qiymatini qoplash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlariga quyidagilar: ehtiyot qismlar, ta'mirlash uchun sarflangan materiallar qiymati; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar uchun amortizatsiya ajratmalari kiradi. Ularning qiymatini ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga o'tkazish ma'lum bir ob'ektga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Masalan, molxona amortizatsiya ajratmalari va uning joriy ta'mirlash xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri hayvonlarni saqlash xarajatlariga kiritiladi. Boshqa ob'ektlar uchun - ushbu ob'ektning mahsulotlarni ishlab chiqarish va saqlashdagi ishtiroki ulushiga mutanosib ravishda yoki bilvosita xarajatlar orqali amalga oshiriladi.

Fermer (dehqon) xo'jaligi uchun mehnat xarajatlari juda o'ziga xosdir.

Ularning ishlab chiqarish faoliyatida mehnat jamoasining o'z a'zolaridan tashqari shartnomalar bo'yicha jalb qilingan fuqarolar ham ishtirok etishlari mumkin.

Yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun fermerlar nafaqat material xarajatlarini, balki mehnat xarajatlarini ham kamaytirishdan manfaatdor. "Har qanday jamiyatdagi iqtisod jonli mehnat iqtisodidan boshlanadi" [10]. Shu sababli, fermer (dehqon) tadbirkor sifatida, mulkdor sifatida, agar iloji bo'lsa, yollanma ishchilarni jalb qilmasdan, butun ishni o'z kuchi bilan amalga oshirishdan manfaatdor. Bunga ishlab chiqarish jarayonini oqilona tashkil etish va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng joriy etish orqali erishiladi.

A'zolari soni bo'yicha nisbatan kichik bo'lgan va asosan yaqin qarindoshlar bilan xo'jalik yuritadigan fermer (dehqon) xo'jaliklari uchun mehnat xarajatlarini hisoblash juda qiyin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Iqtisodiy adabiyotlarda fermer (dehqon) xo'jaligi barcha a'zolarining ish haqi mehnatga layoqatli o'rtacha ishchiga to'g'ri keladigan har bir kun yoki yil uchun eng kam yashash darajasiga qarab belgilanishi, yollanma ishchilar uchun esa ish haqi stavkalari asosida belgilangan ish normalari va narxlari bo'yicha hisoblanishi kerak degan nuqtai nazarlar ham mavjud [10].

Bizning fikrimizcha, doimiy ishchilar ish haqini ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga, ularning yillik o'rtacha sonining eng kam yashash normativi darajasida kiritilishida mahsulot tannarxi va foyda ko'rsatkichlarining haqiqiyligi to'g'risida gapirish to'g'ri bo'lmaydi. Bu qiymat asosan shartli bo'lib, u mehnat xarajatlarining haqiqiy qiymatini aks ettirishi dargumon.

Xorijiy adabiyotlarda fermer (dehqon) oilasining mehnat xarajatlariga mablag'lardan samaraliroq foydalanish natijasida olinishi mumkin bo'lgan daromadga teng bo'lgan yo'qotilgan imkoniyatlar sifatida qaraladi. Shu bilan birga, fermer (dehqon)larning ish haqi yollanma ishchilarning ish haqiga tenglashtirilgan mehnat xarajatlari bilan belgilanishi mumkin [10]. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatining umumiy rentabelligiga baho beruvchi ko'rsatkich sifatida fermerning oilasi tomonidan fermer xo'jaligi a'zolarining mehnati uchun olgan mukofoti sifatida qaraladigan oilaviy mehnat daromadlari qo'llaniladi. Fermer xo'jaligi a'zolarining ishlab topgan daromadi olingan foyda va ular mehnati qiymatining yig'indisiga teng bo'ladi.

Bundan tashqari fermer xo'jaligiga kiritilgan mehnat hissalarini aniq bahosini aniqlash mumkin

emas. Bunday baholash ularning ishlab chiqarish jarayoniga qo'shgan mehnat hissasidan ko'proq yoki aksincha kamroq bo'lishi mumkin. Va u fermer xo'jaligining egasi sifatida olinishi mumkin bo'lgan foydaning eng yuqori darajasidan manfaatdor, chunki bu uning tadbirkorlik faoliyati natijasidir va shuning uchun u o'ziga olingan foyda miqdoridan ko'proq pul to'lay olmaydi. Aks holda, fermer (dehqon) ishlab chiqarishi samarasiz bo'ladi. Shu sababli, oilaviy fermer (dehqon) xo'jaliklari uchun "mehnatining avans qiymati" ni shaxsiy iste'mol xarajatlari sifatida ko'rib chiqish va ularni uy xo'jaligi xarajatlar tarkibiga kiritish mantiqiyroq bo'ladi. Fermer xo'jaligining doimiy a'zolari uchun ularning mehnat hissasi xo'jalik faoliyati natijasida olingan foydaga teng bo'ladi. Binobarin, bunday fermer xo'jaliklari uchun ish haqi masalasiga yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlarniki kabi yondashish kerak. Ya'ni, yalpi mahsulot va ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun amalga oshirilgan xarajatlar o'rtasidagi farq fermer (dehqon)ning ish haqini o'z ichiga olgan foyda bo'ladi. Shunday qilib, oilaviy fermer xo'jaliklari uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarida mehnat xarajatlarini hisobga olish faqat chetdan jalb qilingan ishchilar uchun kerak. Ularning ish haqi: ish turi, hajmi va qiymati ko'rsatib, tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida belgilanadi. U joriy xarajatlarga kiritiladi va ular birinchi darajali, eng muhim xarajat, deb qaraladi. O'z mehnatidan foydalanish to'g'risida shartnoma tuzgan fuqarolarning ish haqi, agar maxsus kelishuv bo'lmasa, fermer xo'jaligi ishining natijalariga bog'liq bo'lmasligi va davlat korxonasidagi xuddi shu toifadagi ishchilarnikidan kam bo'lmasligi kerak. Binobarin, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari elementiga faqat jalb qilingan ishchilarga haq to'lash xarajatlari kiradi. Bundan tashqari, bu xarajatlar nafaqat naqd pulda, balki natura shaklda ham hisoblanishi va to'lanishi mumkin. Bu holda mahsulotlar qiymati joriy bozor narxlarini oladi.

Fermer (dehqon)ga yer uchun to'lov iqtisodiy faoliyat natijalaridan qat'i nazar, uning ishlab chiqarish xarajatlarining ajralmas qismi sifatida qaralishi kerak. Bu holda yer uchun to'lov shakllari yer solig'i, agar yer uning mulki bo'lsa, va ijaraga olingan yer uchastkalari uchun esa ijara qiymati ko'rinishida bo'lishi kerak. Yer uchun to'lov fermer (dehqon) va davlat o'rtasidagi byudjetga soliq to'lash bo'yicha munosabatlarni tavsiflaydi. Soliq qishloq xo'jaligini yanada samarali tashkil etish, hayvonlarning mahsuldorligini va ekinlar hosildorligini oshirishni rag'batlantirishni, yerdan oqilona foydalanishni va yer resurslaridan noto'g'ri, noratsional foydalanish uchun javobgarlikni o'z ichiga olishi kerak. Yer solig'i miqdori real tarzda belgilanishi kerak. Fermer (dehqon) bu soliqning yillik miqdorini bilishi uchun u barqaror bo'lishi kerak [3].

Boshqa xarajatlar fermer (dehqon) xo'jaligining xo'jalik faoliyati jarayonida vujudga keladigan va mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlarini aks ettiradi. Bunga quyidagilar kiradi: bank kreditlari bo'yicha foizlarni to'lash, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar, ofis, matbaa, pochta va telegraf xarajatlari. Bundan tashqari, bu mulkni sug'urtalash, tibbiy sug'urta jamg'armasiga va pensiya jamg'armasiga ajratilgan badallarni ham o'z ichiga oladi.

Fermer (dehqon)ning shaxsiy iste'moli uchun xarajatlarni taqsimlash ob'ektiv zarurat bo'lib, fermer (dehqon) xo'jaligining umumiy xarajatlari va natijalarini hisobga olishning tarkibiy qismi - hisoblanadi. Bu xarajatlar qishloq hayotiga xos bo'lgan fermer (dehqon) va uning oilasining shaxsiy iste'moli uchun barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Oilaviy fermer (dehqon) xo'jaliklarining hususiyatli tomoni shundaki, ular tomonidan tovar sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismi oilaviy iste'mol uchun ishlatiladi.

Ishlab chiqarish faoliyati va shaxsiy iste'mol bilan bog'liq xarajatlarni har doim ham farqlash mumkin emas. Masalan, fermer (dehqon) kartoshka yetishtirayotganda uning qanchasi sotilishini, qanchasi urug'lik uchun qolishi, qanchasi chorva ozuqasi va shaxsiy iste'moli uchun ishlatilishini

aniqlay olmaydi. Bu boshqa turdagi ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarga ham tegishli. Ushbu muammoni amaldagi hisob tizimi orqali ham hal qilish mumkin. Buning uchun buxgalteriya hisobi schyotlarida ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol xarajatlarini hisobga olishni alohida ajratish kerak. Buning uchun shaxsiy iste'mol bilan bog'liq xarajatlar hisobga olinadigan maxsus schyot ajratilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaga oid muammolarni tadqiqot qilish davomida nazariy tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt va mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, ma'lumotlarni taqdimoti usullaridan, shuningdek analiz, sintez, guruhlash va taqqoslash usullaridan ham foydalanildi.

Natiya va muhokama. Fermer (dehqon) ishlab chiqarilgan mahsulotning egasi sifatida, foyda olish uchun tayyor mahsulotni minimal xarajatlarda ishlab chiqarishdan manfaatdor. Buning uchun u shunday hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishi kerak-ki, uning umumiy qiymati uni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar yig'indisidan sezilarli darajada yuqori bo'lsin.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar pirovardida tashkilotlar va jismoniy shaxslar bo'lgan iste'molchilarga va fermerning o'ziga sotish uchun mo'ljallangan. Fermer (dehqon) xo'jaligining o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'zining ishlab chiqarish va shaxsiy maqsadlari iste'moli uchun ham ishlatiladi.

Mahsulotni tashqariga fermer bozor bahosida sotadi va foyda oladi. Fermerning o'zi uchun ishlab chiqarayotgan mahsuloti, bizning nuqtai nazarimizdan, iste'mol qiymati va qiymatga ega. Agar fermer (dehqon) bu mahsulotlarni tashqaridan sotib olsa, uning narxini bozor bahosida to'lar edi. Binobarin, fermer zarur mahsulotlarni o'zi ishlab chiqarish orqali o'zi uchun daromad oladi. Bunday sharoitda sotilayotgan barcha mahsulotlarni iste'molchisidan qat'i nazar, bozor bahosida baholash maqsadga muvofiqdir. Foyda tashqariga sotiladigan mahsulotlar uchun ham, ichki iste'mol uchun ham aniqlanishi kerak. Faqat shu sharoitda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining haqiqiy rentabelligini aniqlash mumkin.

Fermer (dehqon) o'z xo'jaligining butun faoliyatidan foyda oladi va u uning iqtisodiy holatini manbai. Shunday qilib, uy xo'jaligining harajatlari qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan foyda hisobidan qoplanadi, bu uning mehnat xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Binobarin, uy xo'jaligi xarajatlari va fermer (dehqon) uchun foyda o'zaro bog'liq ko'rsatkichlardir. Ishlab chiqarish darajasi pasayib ketmasligi va erishilgan darajada qolishi uchun ishlab chiqarishga zarar yetkazmasdan, iqtisodiyotdan olingan foyda miqdoridan ko'proq mablag'ni ishlab chiqarish oborotidan chiqarib bo'lmaydi. Agar fermer (dehqon) yil davomida olgan foydasining kamroq qismini shaxsiy iste'molga sarflasa, uning qolgan qismi ishlab chiqarishni rivojlantirishga ketadi.

Umuman olganda, avval aytib o'tilganidek; foyda (zarar) - ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan tushgan tushum bilan uni ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Olingan daromad miqdori mahsulotning sotish shartlari, narxi, sifati va hajmiga bog'liq. Daromad ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va pul mablag'larini jamg'arilishini ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobida "Foyda va zararlar" scheti hisobot yilidagi faoliyatning yakuniy moliyaviy natijasini shakllantirish to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan. Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) va boshqa moddiy boyliklarni sotishdan olingan va sotuvdan tashqari operatsiyalardan olingan daromadlardan moliyaviy natijaning ushbu ishlarni bajarish uchun qilingan xarajatlar miqdoriga kamaytirilgan qismidan iborat.

Binobarin, fermer (dehqon) xo'jaligining moliyaviy holatiga sotilgan mahsulot ishlab

chiqarishning haqiqiy xarajatlari, ularning miqdori, sifati va narxi bevosita ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida mablag'lar aylanishining hisobga olishning amaldagi metodologiyasiga ko'ra xo'jalikda foyda faqat mahsulot pulga sotilgandagina paydo bo'ladigandek tuyuladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi tizimi texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish xususiyatlariga ham chambarchas bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat fermer (dehqon) xo'jaligidan tashqarida ma'lum bir haq evaziga sotiladi. Bundan tashqari, ulardan ishlab chiqarish xarajatlari (urug'lik, ozuqa) sifatida korxonaning o'zining ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ham foydalaniladi. Shuningdek, fermer (dehqon) xo'jaligi mahsulotlari fermer oilasining shaxsiy iste'moli uchun ham ishlatiladi va bu esa ularning daromadi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, mahsulot ishlab chiqarishni baholash haqida savol tug'iladi, bu bozorga chiqarilgan mahsulotlardan tashqari, ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatiladigan mahsulotlar va fermer (dehqon) oilasining shaxsiy iste'molini ham o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ichki iste'mol hisobidan foyda olish masalasi munozarali. Umuman olganda, bu muammo yangi emas. U iqtisodchilar tomonidan o'tmishda kolxoz va sovxozlarda iste'mol qilinadigan mahsulotlarni xo'jalik hisobi va ijara munosabatlari nuqtai nazaridan baholash bilan bog'liq holda o'rganilgan.

Shunday qilib, V.P.Petrovning so'zlariga ko'ra, amalda "moliyaviy natijalar mahsuloti tovar mahsuloti shaklida tashqarida sotiladigan korxonalaridagina emas balki qishloq xo'jaligi korxonalarining bo'linmalarida mablag'lar aylanishining barcha bosqichlarida ham shakllanadi" [8].

Bir qator iqtisodchilar fermer xo'jaliklarida "o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni tovar-moddiy zaxiralar va ichki iste'mol xarajatlari sifatida hisobga olishda har bir bo'linma bo'yicha sof daromadni aniqlab, sotiladigan mahsulotlar bo'yicha foydani aniqlashni taklif qiladilar. Jumladan, A.D.Larionovanning nuqtai nazaridan: "Ichki ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflangan o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini hisobga olish bahosi, ular haqiqatda yaratilgan tarmoqlardagi moliyaviy natijalar o'rtasidagi aniq farqni ta'minlashi kerak va tannarx ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lgan korxona barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Faqat shu bilangina ushbu mahsulotlarni ma'lum bir turini ishlab chiqaruvchi tarmoqni ham, uni iste'mol qiluvchi tarmoqning ham iqtisodiy samaradorligini to'g'ri yo'lga qo'yish mumkin [5].

Oddiy hisob tizimidan foydalanuvchi fermer xo'jaliklari uchun tavsiya etilgan buxgalteriya hisobi bo'yicha uslubiy tavsiyalarda bir qator mualliflar xo'jaliklarning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va materiallar (urug'lar, ozuqa, mahalliy o'g'it, chiqindi, inkubatsiya uchun tuxum) korxonaning o'zining ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatilganda xo'jalikning ichki aylanmasi hisoblanganligi sababli va ularni ikki marta hisobga olishni oldini olish uchun ichki ishlab chiqarish maqsadlarida iste'mol qilingan korxonaning o'z mahsulotlarini baholash haqiqiy tannarx bo'yicha amalga oshirilishini tavsiya etadilar. Bizning fikrimizcha, mualliflarning bu pozitsiyasini asosli deb bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, fermer (dehqon) o'z mahsulotining bir qismini boshqa mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatganda birinchi turdagi mahsulotni sotishdan olishi mumkin bo'lgan foydani unga o'tkazadi. Natijada, fermer xo'jaligida yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan birinchi turdagi mahsulotlardan yo'qotilgan foyda fermer (dehqon) xo'jaligining ishlab chiqarish xarajatlarga kiritilishi kerak.

Shuning uchun fermer (dehqon) xo'jaligining ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflangan, o'zida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar tovar sifatida, ya'ni bozor bahosida baholanishi kerak.

Xuddi shunday, fermer (dehqon) oilaning shaxsiy iste'moli uchun sarflangan mahsulotlarga ham, bozor bahosida baholagan holda, tovar deb qaralishi kerak. Shundagina fermer (dehqon)

xo'jaligida ishlab chiqarilgan har bir mahsulotning rentabelligini to'g'ri aniqlash mumkin bo'ladi. Foyda korxonaning iqtisodiy barqarorligini tavsiflaydi. Bu fermer (dehqon) va uning oilasining hayot kechirishi uchun zarurdir. Lekin shu bilan birga, "foyda - bu korxona farovonligiga putur yetkazmasdan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanish mumkin bo'lgan pul miqdori" ekanligini ham unutmaslik kerak [4]. Demak, fermer (dehqon) xo'jaligi iqtisodiyoti rivojlanishi uchun fermer xo'jaligida shaxsiy iste'mol uchun foydalaniladigan foyda miqdori fermerning umumiy daromadidan oshmasligi kerak.

Fermer (dehqon) tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning bir qismi uning kelgusi davrda foydalanadigan ishlab chiqarish zahiralarini ham tashkil qilishi mumkin. Ushbu mahsulotlar ham mablag'larning aylanishi tufayli, fermer (dehqon)lar tomonidan baholanishi kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda uni baholash bo'yicha ham bir qancha fikrlar mavjud. Ba'zi iqtisodchilarning fikricha, «ularning yaratilishidagi yillar o'rtasidagi aniq farq barcha moliyaviy natijalarda aks etishi kerak. Bunga ma'lum bir yilda fermer xo'jaligida yetishtirilgan, keyingi yilga o'tkaziladigan zahiralar, (urug'lik, ozuqa va boshqa mahsulotlarni)ni, shuningdek, yosh hayvonlarni barcha hollarda maqsadi va sifatini hisobga olgan holda bozor baholarida baholash orqaligina erishish mumkin [6, 7]. Bu esa, tovar-moddiy zahiralarini bozor bahosida baholashni anglatadi.

Fermer (dehqon) xo'jaligining potensial daromadi, foydasi va umuman ishlab chiqarish rentabelligini aniqlashdagi xo'jalik faoliyatini tahlili uchun ishlab chiqarish zahiralarini bozor narxlarida baholash borasidagi bu fikrga qo'shilamiz. Tovar-moddiy zaxiralarni bunday joriy baholash mahsulotning nafaqat tijorat qismini, balki butun ishlab chiqarish hajmini har bir turining rentabelligini hisoblashda zarurdir. Bu fermer xo'jaligining faoliyatini rejalashtirish uchun juda foydali bo'ladi.

Bozor munosabatlariga o'tish va mamlakatimiz iqtisodiyotidagi mavjud inflyatsiya jarayonini hisobga olgan holda, biz fermer (dehqon) xo'jaligining kelgusi yilga o'tadigan zaxiralarini bozor narxlarida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Hozirgi vaqtda oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning narxleri sezilarli darajada o'zgarib turadi. Bu olingan foydani mahsulotni olingan yillar bo'yicha ajratishga imkon bermaydi. Agar fermer (dehqon) xo'jaliklarining barcha kelgusi yilga o'tkazilgan zahiralarini saqlanib qolib, keyinchalik u o'z iste'molchilarini topsa ham, ularning sotish bahosi taxminiy bozor bahosiga to'g'ri kelmaydi. Binobarin, taxminiy bozor bahosi, ham xuddi haqiqiy xarajatlarga asoslangan dastlabki baho kabi shartli bo'ladi. Bu fermer (dehqon) uchun tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishni murakkablashtirishga olib keladi.

Mahsulot u iste'mol qilinmaguncha omborda saqlanayotgan paytda fermer (dehqon)ning tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasiga (tashqi yoki ichki sotish) ta'sir qilmaydi. Ushbu masala bo'yicha biz foyda ko'rsatkichini mahsulotni korxona omboridan chiqqandan keyin "sotish bahosi... va sotib olish narxi" o'rtasidagi farq sifatida qaraydigan iqtisodchilarning [6, 7] fikriga qo'shilamiz va ungacha ular "dastlabki baholarini" ya'ni haqiqiy tannarxini "saqlab turish" kerak.

Shuning uchun biz bir qator iqtisodchilarning sotib olingan tovar-moddiy boyliklarni baholash borasidagi "...bozor munosabatlariga o'tish davrida tovar-moddiy boyliklarni baholash metodikasi va mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisoblash metodologiyasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir" degan qarashlarini asossiz deb hisoblaymiz. Ishlab chiqarish zaxiralari, masalan, ozuqa, urug'lik, o'g'it va boshqa (sotib olish muddatidan qat'iy nazar) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlari hisobdan chiqarilganda... joriy o'rtacha bozor narxlarida baholanishi kerak. Bu buxgalteriya hisobiga ishlab chiqarish faoliyatini hisobga oluvchi schyotlaridagi tuzatish yozuvlari kiritishdan xalos bo'lish va har chorakda mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash imkonini beradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot tovar sifatida iste'molchilar talabini qondirgandagina moliyaviy natijalariga ta'sir qiladi. Ungacha ushbu mahsulot (zaxiralar, o'sish) aylanma mablag' hisoblanadi va uni ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatlarida buxgalteriya hisobida aks ettirilishi kerak.

Fermer (dehqon) xo'jaligi faoliyati natijalarini aniqlash va mahsulotni sotishdan olingan foydani tan olishning taklif etilayotgan metodologiyasidan kelib chiqib, har bir talabga ega bo'lgan mahsulot turi harakatining alohida hisobini yuritish zarur. Shu munosabat bilan, barcha sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari "Sotish" schyotida hisobga olinishi kerak. Bu schyotning xususiyati shundaki, unda bir xil miqdorda sotilgan mahsulotlar turli baholarda aks ettiradi.

Tashqariga sotiladigan mahsulotlar uchun buxgalteriya hisobi an'anaviy tarzda amalga oshiriladi. "Sotish" schyotining debetida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar summasi ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, mahsulotni tashqariga sotish o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini bevosita ishlab chiqarish joyidan yoki ishlab chiqarish zaxiralaridan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish mavsumiy harakterga ega bo'lib, u asosan, yiliga bir marta amalga oshiriladi, sut chorvachiligi bundan mustasno, shuning uchun ham ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyaga haqiqiy tannarxlarda chiqariladi.

Mahsulotlarni tashqariga sotishda ular uchun tushgan mablag' xo'jalikning bank hisob raqamiga yoki fermer xo'jaligining kassasiga tushadi. Mahsulotlar narxi xaridor bilan shartnoma asosida belgilanadi, unga amaldagi qonunchilikka muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i va maxsus soliq ham kiradi. Xuddi shu miqdordagi soliqlar "byudjet bilan hisob-kitoblar" schyoti orqali "Sotish" schyotining debetida aks ettiriladi. Qo'shilgan qiymat solig'i va maxsus soliqning qiymati fermer (dehqon) xo'jaligining mahsulotni tashqi bozorga sotishdan olingan moliyaviy natijasini hisoblashga ta'sir qilmaydi, chunki moliyaviy natija "Sotish" hisobvarag'ining debet va kredit aylanmalari o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Fermer (dehqon) xo'jaligida (korxona ichidagi va shaxsiy iste'mol) ishlatilgan mahsulotlar "Sotish" hisobvarag'ining debetida ishlab chiqarishning haqiqiy tannarxida va uning kreditida esa mahsulotlarning bozor narxlaridagi qiymati, ya'ni sotishdan kelgan tushum aks ettiriladi.

Fermer (dehqon) xo'jaligi mahsulotlarini moliyaviy natijasini shakllantirishning taklif etilayotgan metodologiyasidan kelib chiqqan holda ichki realizatsiyada daromad deganda, ushbu mahsulotlar haqiqiy tannarxini ya'ni ular uchun qilingan xarajatlarni tegishli buxgalteriya hisobi ob'ektlariga olib borilishi tushunilishi kerak.

Xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uning o'z ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanganda "Asosiy ishlab chiqarishlar" hamda "Materiallar" schyotlarining kreditidan "Sotish" schyotining debetida, olingan tushum esa "Sotish" schyotining kreditidan "Asosiy ishlab chiqarish"lar schyotining debetida aks ettirilishi kerak.

Xuddi shunday tartib xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar uning a'zolarining o'z shaxsiy iste'moli uchun ishlatilganda ham qo'llaniladi. Birgina hususiyat shundaki, shartli "daromad" summasi "Shaxsiy iste'mol" schyotining debetida va "Sotish" schyotining kreditida aks ettiriladi.

Shunday qilib, fermer (dehqon)ga sotilgan mahsulotlar to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun "Sotish" hisobvarag'ida daromad olish yo'nalishlari: (tashqi iste'molchilardan va xo'jalik ichidagi) bo'yicha alohida analitik schyot yuritilishi kerak.

Fermer (dehqon) xo'jaligi uchun qishloq xo'jaligi faoliyatining moliyaviy natijasiga uning tadbirkorlik faoliyatidan olingan (tashqi va ichki) mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tushgan foyda yoki zarar kiradi. Binobarin, fermer (dehqon)ning umumiy moliyaviy natijasi mahsulotni tashqarisiga sotishdan, ichki ishlab chiqarish va shaxsiy iste'moldan, hayvonlarni asosiy podaga

o'tkazishdan oladigan foyda va zarar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, moliyaviy natija miqdoriga fermer (dehqon)ning tadbirkorlik faoliyatida ko'rishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ham ta'sir qiladi, chunki ular ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilmaydi. Bular tarkibiga: ishlab chiqarish zahiralari saqlashdan ko'rilgan yo'qotishlar, mahsulot ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlar (ekinlar, hayvonlar, parrandalarni, nobud bo'lishidan yo'qotishlar) urug'lik va boshqa ishlab chiqarish zaxiralarining buzilishi), belgilangan stavkaning me'yoriy darajasidan ortiq muddatga o'tgan va kechiktirilgan kreditlar bo'yicha foizlar, muddati o'tgan va umidsiz qarzlilar bo'yicha zararlar, sud xarajatlari va yig'implari, shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun qo'llanilgan jarimalar, penyalari kiradi. Moliyaviy natijaga boshqa faoliyat turlari va boshqa operatsiyalardan olingan foyda va zararlar ham ta'sir qiladi.

Xulosa. Fermer (dehqon) xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishdan olingan umumiy foyda fermer (dehqon) va uning oilasining daromadidir. Bu ularning hisobot yilidagi tadbirkorlik faoliyati natijasi va farovonlik manbaidir.

Shunday qilib, fermer (dehqon) xo'jaligining yalpi mahsulotidan foydalanishning barcha yo'nalishlarini ko'rib chiqib, ba'zi xulosalar chiqarish mumkin: - Qishloq xo'jaligi faoliyatining moliyaviy natijasini shakllantirishda fermer (dehqon) o'z iste'molchilari ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (tashqariga sotilgan, ishlab chiqarish faoliyatidagi va shaxsiy iste'mol uchun foydalanilgan) hisobga olishi kerak. O'zida ishlab chiqargan mahsulotlar ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari va shaxsiy iste'mol uchun hisobdan chiqarilganda, joriy bozor narxlarida baholanishi zarur. Buning sababi shundaki, bozor munosabatlarida fermer (dehqon) xo'jaligida mahsulot va xizmatlar harakati sotib olish va sotish tamoyiliga asoslangan holda ko'rib chiqilishi kerak. Kelgusi yilga o'tkaziladigan xarajatlilar va yosh hayvonlarning o'stirish ishlab chiqarish xarajatlari haqiqiy xarajatlilariga qarab hisobga olinishi kerak. Binobarin, iste'mol sohasiga kirishdan oldin fermer (dehqon) tadbirkorlik faoliyatining real moliyaviy natijasini aks ettirishda hamma narsani ularni haqiqiy tannarxida, o'z mahsulotini iste'mol qilishda esa ushbu mahsulotlarni hisobdan chiqarish vaqtidagi bozor narxlarida baholashi kerak.

Olingan foyda fermerning xohishiga ko'ra shaxsiy iste'moli va ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish uchun ishlatiladi.

Moliyaviy natijani shakllantirishda nafaqat tashqarida sotilgan mahsulotlar (tashqi savdo), balki ichki ishlab chiqarish ehtiyojlari va shaxsiy iste'mol uchun ishlatilgan (ichki savdo) mahsulotlarini ham hisobga olishda "Sotish" schyotidan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Абдуллаев – Вопросы информационного обеспечения управления сельскохозяйственным производством в условиях рыночной экономики. – Т.; "Иктисодиёт дунёси". 2021 -374с
2. А.Абдуллаев – Управленческие аспекты учёта в сельскохозяйственном - Т.; "Иктисодиёт дунёси". 2024 - 136с
3. А.Абдуллаев – Қишлоқ хўжалигида бошқарув ҳисобининг услубий ва ташкилий жиҳатларини такомиллаштириш – Андижон.; "Омадбек print number one" МЧЖ. 2025 – 290 б.
4. Закон республики Узбекистан "О дехканском хозяйстве"/ Правда Востока, 15 августа, 1992г.
5. Ларионов А.Д. Проблемы распределения затрат в сельском хозяйстве.-

Л.: Изд-во ЛГУ, 1976.- 127.

6. Ларионов А.Д. Актуальные проблемы учета и калькулирования себестоимости сельскохозяйственной продукции.- Международный сельскохозяйственный журнал.-№4, 1981.- с.109-110.

7. Латинов А. Проблемы организации дехканских хозяйств и земельное налогообложение./ Журнал налогоплательщика.-№4; 1996.- с.28.

8. Петров В.П. Учет в крестьянских хозяйствах./ Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий.-№6, 1993- с.36-41.

9. Шакиров Ф.К. Фермерское хозяйств Дании. / Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий.-№2, 1992.- с.46.

10. Юшков И.В. Себестоимость и хозрасчет в сельском хозяйстве. Йошкар-Ола: Марийское книжное изд-во, 1992.-128с.

Abdurakhim Turaev
Professor of Finance, Banking and
Accounting Department
Tashkent International University
of Financial Management and Technology
a.torayev@tift.uz

**IMPROVING TRANSFORMATION PROCEDURES FROM NATIONAL
ACCOUNTING STANDARDS TO INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING
STANDARDS IN LEASE COMPANIES IN UZBEKISTAN**

Абдурахим Тураев
Профессор кафедры финансов,
банковского дела и учета
Ташкентский международный университет
финансового менеджмента и технологий
a.torayev@tift.uz

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕДУР ТРАНСФОРМАЦИИ С НАЦИОНАЛЬНЫХ
СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ
ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В ЛИЗИНГОВЫХ КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА**

Abdurahim To'raev
Moliya, bank va buxgalteriya hisobi
kafedrasi professori
Toshkent xalqaro moliyaviy
menejment va texnologiyalar
universiteti a.torayev@tift.uz

**O'ZBEKISTON LIZING KOMPANIYALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MILLIY
STANDARTLARIDAN XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA
TRANSFORMATSIYA TARTIBINI TAKMOQLASH.**

Annotation: Improving lease operations can lead to increased efficiency, reduced costs, and better tenant satisfaction. Improving the lease process can help streamline operations, reduce errors, and enhance the overall experience for both entities.

Keywords: Leasing companies, structures, development, leasing operations, leasing relations, activities.

Аннотация: Улучшение лизинговых операций может привести к повышению эффективности, снижению затрат и повышению удовлетворенности арендаторов. Совершенствование процесса лизинга может способствовать оптимизации операций, сокращению ошибок и улучшению общего опыта обеих сторон.

Ключевые слова: Лизинговые компании, структуры, развитие, лизинговые операции, лизинговые отношения, деятельность.

Annotatsiya: Ijara operatsiyalarini yaxshilash samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ijarachilarning qoniqishini oshirishga olib kelishi mumkin. Lizing jarayonini takomillashtirish operatsiyalarni soddalashtirishga, xatolarni kamaytirishga va ikkala tashkilot uchun umumiy tajribani yaxshilashga yordam beradi.

Tayanch soʻzlar: Lizing kompaniyalari, tuzilmalar, rivojlanish, lizing operatsiyalari, lizing munosabatlari, faoliyat.

Introduction. One of the key focus subjects in light for the internationalization for economic activity involves the improvement of the accounting and audit of leasing actions, particularly the company's system for the accounting of lease operations, the transformation of its regulatory framework in accordance with international standards, the theoretical and methodological basis of auditing and auditing of leasing companies. Particular attention is paid to the scientific improvement work. Therefore, international scientific projects and research to improve the accounting and audit of leasing transactions based on international standards are becoming one of the important areas.

Analysis of the literature. The research work was carried out by foreign scientists in international financial reporting standards and specialists in accounting of our country, dedicated to the theoretical and practical problems in big companies in Uzbekistan with transformation of lease accounting. However, the research works of scientists-economists are mainly devoted to the types of services in which the economy, when organizing transformation from national accounting standards to international financial reporting standards in entities, is aimed at eliminating existing problems.

S.N. Tashnazarov stated that "International standards of financial reporting are a separate branch of the science of financial accounting and reporting, and are part of the study of the conceptual foundations of financial reporting, the need for international standards of financial reporting, their development, their content, interpretation and application, and theoretical and methodological issues" (3).

According to O.M. Kuljanov, leasing means the purchase of property from the seller of the property specified by the lessor and it is transferred to individuals and legal entities on the basis of the lease agreement, i.e. to the is regarded as a form of investment when the tenant gets the authority to subsequently acquire the real estate over an established amount of time and with specific circumstances for issuing (4).

Based on the history of leasing, the Russian scientist V. E. Kerimov defined the meaning of leasing as follows: "Leasing is a financial activity for obtaining property under a contract between individuals or legal entities with a specific payment on specific terms"(5).

Sh.T. Ergashevani stated that international financial reporting standards are generally understood as "a set of generally recognized rules for sorting, recognizing, evaluating and disclosing economic transactions and financial indicators for the preparation of financial statements by economic entities in most countries of the world." (6).

To our view, the Republic of Uzbekistan ought to be responsible for leases along the basis of international standards will make it possible for lessors to attract preferential investments. Therefore, accounting for leasing transactions based on the transformation of international standards has advantages for any investor.

The methodology. In order to develop leasing relations in our country, in accordance with the order of the Ministry of Finance No. 74 of May 12, 2004, the Regulation "On accounting of leasing transactions" and the National Accounting Standard No. 6 on "Lease Accounting" were developed.

Leasing (financial lease) is a unique kind on leasing arrangement whereby the lessor, who is acting as the agent the lessee, purchases the asset (the subject of the lease), according to the terms of the contract of lease, for the vendor this agreement provides the lessee for more than twelve months to own and use the terms and conditions.

Sublease (sublease) Sublease of the leased property (object of leasing) to another person with the consent of the lessor (lessor), subject to liability to the lessor (lessor) under the lease (lease) agreement sublease).

Improving the lease process can help streamline operations, reduce errors, and enhance the overall experience for both landlords and tenants. Here are some key steps to consider:

1. Standardize and Simplify Lease Templates: Develop standardized lease templates that are clear, concise, and legally compliant. Use plain language to make them easily understood by all parties involved. Standard templates help reduce errors and ensure consistency in lease terms and conditions.

2. Digitize Lease Documents: Transition from paper-based leases to digital formats. Implement electronic signatures to streamline the leasing process and eliminate the need for physical paperwork. Digital documents are easier to manage, store, and retrieve, reducing administrative time and costs.

3. Enhance Application and Screening Processes: Streamline the tenant application and screening process to expedite approvals and minimize vacancies. Utilize online applications that capture necessary information efficiently. Conduct thorough background checks, credit checks, and reference verifications to ensure the suitability of potential tenants.

4. Provide Online Lease Applications: Offer online lease application options to prospective tenants. This allows applicants to conveniently submit their information and supporting documents electronically, reducing paperwork and administrative burden. Ensure the online application process is user-friendly and secure.

5. Implement Electronic Rent Payments: Encourage tenants to make rent payments electronically. Provide various payment options, such as online portals or mobile apps, to make it convenient for tenants to pay their rent. Automated rent collection reduces the chances of errors, late payments, and the need for manual tracking.

6. Utilize Lease Management Software: Invest in lease management software that centralizes and automates lease-related activities. These tools can help with lease tracking, payment reminders, rent escalations, and lease renewal notifications. They also provide a comprehensive overview of lease terms, expiration dates, and important milestones.

7. Enhance Communication Channels: Establish effective communication channels with tenants. Utilize email, text messaging, or dedicated tenant portals to send important updates, reminders, or policy changes. Promptly respond to tenant inquiries and maintain open lines of communication throughout the lease term.

8. Conduct Regular Lease Audits: Perform periodic audits of lease agreements to ensure compliance, accuracy, and consistency. Verify that all lease terms are being upheld, including rent amounts, lease start and end dates, and any additional clauses or provisions. Identify and rectify any discrepancies or anomalies.

9. Provide Clear and Transparent Information: Ensure that all lease-related information, including rent, fees, rules, and policies, is clearly communicated to tenants. Avoid ambiguity or confusion by providing written explanations and clarifications when necessary. Transparency helps build trust and reduces misunderstandings.

10. Seek Feedback and Continuous Improvement: Regularly seek feedback from tenants, landlords, and staff involved in the lease process. Listen to their suggestions, comments, and concerns to identify areas for improvement. Use this feedback to continuously refine and optimize the lease process.

By implementing these steps, you can streamline the lease process, reduce administrative burdens, and enhance the overall leasing experience for both entities. Leased (leased) items do not any non-consumable items (things), including enterprises, property complexes, separate buildings, structures, equipment, vehicles, as well as other movable and immovable property (limited or withheld distribution)).

Table 1.

Table 1. Lessor's financing schedule (top ten)

<i>Nº</i>	<i>Lessor</i>	<i>Mln. UZS</i>	<i>Percent</i>
1	Uzagromashlizing	47 189,4	22,0 %
2	Uzavtosanoatlizing	26105,2	12,2 %
3	Aloqa bank	22 249,6	10,4 %
4	Paxta bank	18 104,0	8,4 %
5	Uz PSB	16 374,4	7,6 %
6	Asaka bank	15 650,7	7,3 %
7	Uzbeklizing international	10 157,4	4,7 %
8	Mikrokredit bank	9 528,3	4,4 %
9	Qurilish lizing	7 210,5	3,4 %
10	Turon bank	6 046,0	2,8 %

The chart shows that the primary path for the development of the leasing sector is the agro-industrial direction. Because Uzagromashlizing was formed by the President of the Republic of Uzbekistan's Decree to coordinate lease operations in our Republic's agro-industrial industry. Noteworthy is the fact that in 2008 the leasing company "Uzagromashlizing" was launched to further strengthen agricultural activities.

These cases emphasize that in the Republic of Uzbekistan, leasing activities are greatly influenced, and this situation facilitates the activities of agro-industrial enterprises.


In general, on the basis of international experience, the process of development of leasing relations can be divided into five conditional stages, depending on the number of transactions, the nature and quality of leasing operations:

- ✚ the initial period of leasing development;
- ✚ the American period of leasing development;
- ✚ period of popularity of leasing;
- ✚ period of leasing noise;
- ✚ period of international integration of leasing.

Lease payments are the lessor's income and the lessor's income to cover any or the majority of a lessor's costs associated with purchasing the rented item, in addition to extra costs associated with shipping of the leased object and its use for its intended purpose.

Table 2.

Schedule of leasing financing in the Republic of Uzbekistan



■ Autoleasing
 ■ Property leasing
 ■ Agroleasing
 ■ Microleasing

These four global standards for financial reporting have an impact on leasing procedures abroad:

- 1 - "Submission of financial statements"
- 4 - "Depreciation calculation"
- 16 - "Fixed assets"
- 17 - "Leasing"

The system of national accounting standards of Uzbekistan is based on international accounting standards. At the same time, IFRS 1 "Conceptual Framework for the Preparation and Presentation of Financial Statements" and IFRS 1 "Accounting Policy and Financial Reporting" comply with International Financial Reporting Standards 1, the other three standards governing financial leasing are national in practice, IFRS 5 "Property, plant and equipment" and No. 6 "Lease accounting" comply with IFRS accounting standards.

It is advisable to use the following accounting transfers for economic entities to transform their financial statements from national standards to international standards:

- 1) Corrected for revaluation of fixed assets:
 Dt Revaluation of fixed assets
 Kt Adjustments for revaluation of non-current assets
- 2) Corrected for revaluation of depreciation of fixed assets:
 Dt Accounts for depreciation of fixed assets
 Kt Revaluation of fixed assets
- 3) Advance payments were corrected:
 Dt Retained earnings (unreimbursed losses)
 Kt Mol's credits to suppliers and contractors
- 4) The reserve for delayed receivables was calculated:
 Dt Retained earnings (unreimbursed losses)
 Kt Provision for doubtful debts
- 5) The reserve for employees' leave was calculated:
 Dt Retained earnings (unreimbursed losses)
 Kt Debt to Accountable Persons
- 6) The expenses of the next period were corrected:
 Dt Retained earnings (unreimbursed losses)
 Kt Future period costs
- 7) Raw materials and materials were corrected:

Dt Retained earnings (unreimbursed losses)

Kt Raw materials and materials

8) The amount of purchase of fixed assets was corrected:

Dt Purchase of fixed assets

Kt Adjustments for revaluation of non-current assets

After the process of transformation from national accounting standards to international standards of financial reporting, these accounts in the financial statements of the economic entity are amended. After these adjustments are taken into account, a series of transformational transfers is drawn up with the study of the main activity of each economic entity.

In most business entities, during the transformation process, fixed assets and their revaluation changes in the rate of deterioration are changed and the residual amount is shown truthfully. Also, in the process of transformation, the debtors of the economic entity, taking into account the delayed debts, are considered as a reserve for these receivables and are reflected in the financial statements prepared on the basis of international standards.

17 - Leasing In accordance with the International Financial Reporting Standard, leases are divided into financial and operating leases. In financial leasing, all Although the tenant receives rights and liabilities relating to their rented assets, the landlord may retain rights to ownership.

✚ According to this norm, this arrangement meets 4 requirements to be classified as an economic lease:

✚ when it expires of the lease, ownership of the property passes from the lessor to the lessee;

✚ under the terms of the contract, the lessee is given the right to purchase the purchase of an asset "at an amount under fair worth";

✚ The lease term is longer that fifty percent of the time that the asset may be utilized successfully within the conditions on the agreement;

✚ if the lease payments are equal to or higher than the market value of the leased property, all that do not meet these criteria apply to a quick lease.

The Ministry of Finance of Uzbekistan has recognized the concept of accounting for leasing processes based on legal ownership. The procedure for reflecting leasing operations in the accounting and reporting developed by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan was approved by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 6, 1998 No 194 "On approval of regulatory documents" the plan and the guidelines for its application were amended.

Today, leasing is a new financial instrument that is just finding its place in our nation's economic policies. The effective response to these problems is an important factor in the effective functioning and development of leasing relations in a number of economic areas.

It is important to keep in mind that when it comes to establishing commercial contacts in the Republic, it is very important and relevant to organize leasing operations and their accounting at the level of direct and international standards.

This is because All commercial organizations engaged in the transfer of significant amounts of goods must normally be transparent and easy to comprehend in order to maintain lease agreements. All these tasks should be organized and carried out in accounting.

In short, if the accounting of leasing transactions in the Republic of Uzbekistan is carried out using national standards and based on international standards, it will bring convenience and convenience for leasing companies.

The results. The organization based on worldwide financial reporting standards, of accountancy for lease enterprises is carried out by transforming annual financial statements based on national standards. However, parallel reporting based on international standards requires leasing companies to spend a lot of money and have qualified personnel. Therefore, the transformation of financial statements of leasing companies based on international standards is highly effective.

To transform the financial statements of leasing companies from national standards to international ones, it is advisable to provide the following accounting translations, drawn up on the basis of national standards, on the basis of international standards:

#	Contents of transaction	Linking accounts	
		Debit	Credit
1	An amendment has been made to the revaluation of fixed assets	Retained earnings (uncovered damages)	Adjustments for revaluation of long-term assets
2	Reserve accrued on advances	Retained earnings (uncovered damages)	Reserve for doubtful debts
3	The employee's vacation is accrued as a reserve	Retained earnings (uncovered damages)	Salary debt
4	Materials adjusted	Retained earnings (uncovered damages)	Materials
5	Long-term lease debt has been adjusted	Other receivables (current)	Long-term accounts receivable
6	Advances issued have been adjusted	Retained earnings (uncovered damages)	Advances transferred to suppliers and contractors

After this process, these accounts in the lessor's financial statements will be changed in accordance with national standards. When making such adjustments, the financial statements of the leasing company are prepared in accordance with international financial reporting standards.

The main activity of leasing companies is issuing leases and accounting for revenue from them. However, when considering the leasing portfolio in the process of transformation, it is considered as a reserve from the leasing portfolio, taking into account overdue debts and is reflected in financial statements prepared in accordance with international standards.

In most leasing companies, during the transformation process, fixed assets are revalued, the amount of their depreciation changes, and the residual value is shown fairly.

During analysis leasing companies in our republic, we three steps were taken in the lease procedure. the initial phase, after studying the content of each lease agreement and the corresponding directions for its implementation, preparatory work is carried out to conclude a legal agreement (leasing agreement).

At the second stage of the leasing process, in a bilateral or trilateral agreement, all controversial terms in the leasing agreement are legally justified.

The third stage of the leasing process is one of the main parts and covers the period of use of the leased property. It takes into account the accounting and reporting procedure for all leasing transactions, payment of leasing payments to the lessor, and subsequent use of the leased property after the expiration of the leasing period.

At such stages, leasing companies create a separate internal control department, and third-party analysis of each leasing transaction ensures a continuous payment process, risk reduction and further optimization of leasing transactions.

The internal control algorithm in leasing companies consists of:

1. Application submitted by the lessor.
2. Protocols of the leasing committee.
3. Leasing agreements.
4. Down payment and leasing costs.
5. Monitoring of payments until the termination of leasing agreements.

The main goal of developing the sequence of this internal control process is to further accelerate the leasing process in leasing companies and timely verification of leasing payments.

Conclusion. The stages, methods and transformation tables of transformation of the financial statements prepared by the lessors to reflect the leasing transactions in the accounts based on the national standards to the international standards are offered, which ensures the transparency of the financial statements and the accuracy of their indicators and makes it possible to attract long-term and low-cost funds.

In short, if the accounting of leasing transactions in the Republic of Uzbekistan is carried out using national standards based on international standards, it will bring convenience and ease for leasing companies.

References

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis // "People's speech" December 30, 2020.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5969 of March 20, 2020 "On priority measures to mitigate the negative impact of the coronavirus pandemic and the global crisis on sectors of the economy."
3. Tashnazarov S.N., Tashnazarova D.S. International standards of financial reporting. - Samarkand: SamISI, 2018. - 421 p.
4. Kuljonov O.M. Improving the accounting of leasing transactions in the conditions of economic liberalization//i.f.n. diss. written for degree. autoref. - T.: BMA, 2005 p. 22.
5. Керимов В.Э., Бухгалтерский финансовый учет: Учебник. –М.: Дашков и К. 2018. - 724 с.
6. Эргашева Ш.Т. «Международные стандарты финансовой отчетности». Учебник. – Т.: ТГЭУ, 2021 г. – 310 стр.
7. <https://review.uz/> - based on the site.
8. <https://mift.uz/uz> - Ministry of Investment and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan.
9. <https://ula.uz/> - based on the site.

Akramova Shoira Islom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
magistranti
shoiraakramova160@gmail.com

UNIVERSITETLARDA ONLAYN TA'LIM IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Акрамова Шоира Исламовна
Магистрант
Ташкентского государственного экономического университета
shoiraakramova160@gmail.com

ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАНИЯ В УНИВЕРСИТЕТАХ

Shoira Akramova Islom kizi
Master's student at Tashkent State University of Economics
shoiraakramova160@gmail.com

WAYS TO EXPAND ONLINE EDUCATION OPPORTUNITIES IN UNIVERSITIES

Annotatsiya: Mazkur maqolada universitetlarda onlayn ta'lim imkoniyatlarini samarali kengaytirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlariga asoslanib, oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Onlayn ta'limning afzalliklari, duch kelinayotgan muammolar va istiqboldagi yo'nalishlar ham muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: Onlayn ta'lim, raqamli texnologiyalar, universitetlar, masofaviy ta'lim, raqamli transformatsiya, ta'lim platformalari, innovatsion ta'lim, LMS tizimlari.

Аннотация: В данной статье освещаются пути эффективного расширения возможностей онлайн-образования в университетах. Также проводится анализ процессов цифровой трансформации в системе высшего образования на основе соответствующих указов и постановлений Президента Республики Узбекистан. Обсуждаются преимущества онлайн-обучения, существующие проблемы и перспективные направления развития.

Ключевые слова: онлайн-образование, цифровые технологии, университеты, дистанционное обучение, цифровая трансформация, образовательные платформы, инновационное обучение, системы LMS.

Abstract: This article discusses ways to effectively expand online education opportunities at universities. It also analyzes the processes of digital transformation in the higher education system, based on relevant decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan. The advantages of online education, the challenges it faces, and future directions are also discussed.

Keywords: Online education, universities, distance learning, digital transformation, educational platforms, innovative education, LMS systems.

Kirish

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida onlayn ta'lim dolzarb masalaga aylandi. Raqamli texnologiyalar oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi natijasida ta'lim sifati oshib, bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni va 2023-yil 8-martdagi "Oliy ta'lim tizimini isloh qilish va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga asosan, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda [2]. Bundan tashqari, xalqaro tajribalar asosida masofaviy ta'limning samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqilmoqda [3].

O'zbekistonda onlayn ta'limning rivojlanishi, ommalashishiga turtki bo'lgan palla pandemiya davri bo'ldi. Covid-19 paytiyoq ta'lim tizimida masofaviy usullardan foydalanish kerakligini ko'rsatib qo'ydi.

2022-yilning oktabrida hukumat qarori bilan OTMlarda masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, 2023/2024 o'quv yilidan davlat va xususiy oliygohlarga masofaviy ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlashga ruxsat berildi.

Mutaxassislar onlayn ta'limning samaradorligini bir nechta omillar bilan izohlagan Xususan, ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirishi, nogironligi bo'lganlarga oliy ta'lim imkoniyatlarni taqdim etishi hamda mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishi shular jumlasidan. [4].

Mavzuga adabiyotlar sharhi. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida onlayn ta'limni rivojlantirish bo'yicha quyidagi olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan:

Terry Anderson - The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press kitobida – Onlayn ta'lim pedagogikasi va interaktivlik muammolarini o'rgangan. Unga ko'ra, onlayn ta'limda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktivlik muhim hisoblanadi. [5]

John Seely Brown - Brown, J. S., & Duguid, P. (2000). The Social Life of Information. Harvard Business School Press kitobida – Universitetlarda raqamli transformatsiya va onlayn ta'limning innovatsion yondashuvlarini o'rgangan.[6]

Gilly Salmon – Salmon, G. (2000). E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online. Kogan Page. Onlayn ta'lim strategiyalarini o'rganib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqqan. [7]

O'zbekistonlik olimlardan : R.S. Yo'ldoshev va M.M. Jo'rayev (2020) o'z tadqiqotlarida onlayn ta'limning texnologik asoslarini chuqur tahlil qilib, ayniqsa oliy ta'limda masofaviy ta'limni samarali tashkil etish yo'llarini bayon qilgan. Ular Moodle, Google Classroom, Zoom platformalarining mahalliy sharoitga moslashuvchanligini ko'rsatib berganlar.[8]

Sh.S. Qodirov (2019) masofaviy ta'limni joriy etishda ta'lim sifati va pedagogik yondashuvlar muhimligini ta'kidlab, O'zbekiston universitetlarida zamonaviy raqamli ta'lim modellari bo'yicha tahliliy maqolalar yozgan.[9]


N.R. Mamatov va boshqalar (2021) onlayn ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchilarni baholash, test tizimlari va individual ta'lim yo'nalishlarini tahlil qilgan. Ular masofaviy ta'limning milliy o'quv tizimiga integratsiyalashuv muammolari va yechimlarini taklif qilgan.[10]

Z.B. Norqulova (2022) tomonidan olib borilgan izlanishlarda ta'limda raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlari, talabalar va o'qituvchilarning texnologik savodxonligi o'rganilgan.[11]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda analitik va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Onlayn ta'lim joriy etilgan universitetlar tajribasi o'rganildi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari tahlil qilindi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi, masofaviy ta'lim tizimining afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumotlar to'plandi [12].

Natija va muhokama.

O'zbekiston Respublikasida onlayn ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Xususan, 2021-yil 16-apreldagi "Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonlarini takomillashtirish" qarori doirasida universitetlarda masofaviy ta'lim tizimi rivojlantirilmoqda.




1-rasm. Masofaviy ta'limning yillar kesimida rivojlanishi

1-rasmda masofaviy ta'limning yillar davomida rivojlanganligi tasvirlangan.

Onlayn ta'limni tashkil etishda platformalarining ahamiyati katta. Xususan masofaviy ta'limda keng qo'llanadigan ta'lim platformalaridan bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz.

- Moodle, Google Classroom va boshqa LMS (Learning Management System) tizimlaridan foydalanish ortib bormoqda [13].

O'zbekiston universitetlarida onlayn ta'lim platformalarining ulushi



2-rasm. O'zbekiston universitetlarida onlayn ta'lim platformalari ulushi

1-rasmda ko'rinib turibdiki, O'zbekiston universitetlarida onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish ulushi bo'yicha Moodle tizimi katta qismni tashkil etadi.

Moodle platformasi o'quv materiallarini turli usullarda taqdim etish, bilimlarni tekshirish va o'zlashtirish monitoringini yuritish uchun mo'ljallangan. U 15 turdagi interfaol vositalarni qo'llab-quvvatlaydi va masofaviy ta'lim jarayonini to'liq qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Moodle platformasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Kurslarni boshqarish: O'qituvchilar kurslarni yaratish, tahrirlash va boshqarish imkoniyatiga ega.

- O'quv materiallarini taqdim etish: Turli formatdagi fayllarni (matn, audio, video) yuklash va talabalarga taqdim etish.

- Interfaol faoliyatlar: Forumlar, testlar, so'rovnomalar va boshqa interfaol elementlar orqali talabalar bilan muloqot qilish.

- Baholash va monitoring: Talabalar faoliyatini baholash, natijalarni kuzatish va hisobotlarni shakllantirish.

- Mobil ilova: Talabalar va o'qituvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida Moodle mobil ilovasi mavjud bo'lib, bu orqali kurslarga istalgan joydan kirish mumkin.

Moodle platformasi dunyo bo'ylab 100,000 dan ortiq saytlarda qo'llaniladi va 140 dan ortiq tillarda mavjud. Bu uning keng qo'llanilishi va turli ta'lim muassasalari tomonidan tan olinganligini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni

- Videodarslar va interaktiv materiallar orqali bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda [14].

- Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari talabalar progressini kuzatishga yordam bermoqda [15].

- Blended learning (gibrid ta'lim) modeli joriy etilib, an'anaviy va onlayn ta'lim uyg'unlashtirilmoqda [16].

- Onlayn ta'lim joriy etishda duch kelinayotgan muammolar

- Internet tarmog'ining chekka hududlarda yetarlicha rivojlanmaganligi [17].

- Pedagoglarning raqamli texnologiyalar bo'yicha yetarli ko'nikmalarga ega emasligi [18].

- Talabalar orasida o'ziga o'zi motivatsiya bo'lish muammosi [19].

- Onlayn ta'lim orqali yetarli darajada amaliy mashg'ulot o'tkaza olmaslik qiyinchiliklari [20].

Muhokama.

O'zbekiston Respublikasida onlayn ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Xususan, 2021-yil 16-apreldagi "Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonlarini takomillashtirish" qarori doirasida universitetlarda masofaviy ta'lim tizimi rivojlantirilmoqda.

Jumladan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) ham masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash maqsadida onlayn ta'lim tizimini joriy etgan. Ushbu tizim orqali talabalar turli kurslarga masofadan turib qatnashishlari mumkin. Masofaviy ta'lim tizimiga kirish uchun universitetning rasmiy veb-saytidagi "Masofaviy ta'lim tizimi" bo'limiga tashrif buyurish kerak.

Shuningdek, TDIUning turli filiallari, masalan, To'rko'l fakulteti va Samarqand filiali ham o'z masofaviy ta'lim tizimlariga ega bo'lib, ular orqali talabalar onlayn ta'lim olishlari mumkin.

Hozirgi kunda masofaviy ta'lim shaklida 585 nafar talaba tahsil olib, o'tgan davr mobaynida universitetda masofaviy ta'limni rivojlantirish borasida ham texnik jihatdan, ham dasturiy ta'minot va resurslarni shakllantirish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan:

- onlayn ta'lim platformalari tahlil qilinib, asinxron masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish talablariga muvofiq keladigan platforma joriy etildi hamda oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi(HEMIS)ga integratsiya qilindi;
- mashg'ulotlar va imtihon jarayonida talabalarning shaxsini avtomatik ravishda tanish (verifikatsiya qilish) tizimi yo'lga qo'yildi;
- universitetda sifatli o'quv videokontentlarini tayyorlashga mo'ljallangan "JALINGA" interaktiv videostudiyasi tashkil etildi. Interaktiv studiya real vaqt rejimida onlayn ma'ruzalar, mahorat darslari, treninglar va hatto laboratoriya ishlarini o'tkazish imkoniyatini beradi;
- onlayn ta'lim shakli bo'yicha o'quv kontentlar tayyorlash bilan bog'liq professor-o'qituvchilarning ish hajmi va ularning o'quv yuklamalari qayta ko'rib chiqildi;[21]

Xulosa.

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish onlayn ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, infratuzilmani yaxshilash, pedagog kadrlarni tayyorlash va talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar mazkur yo'nalishda muhim rol o'ynamoqda. Kelgusida sun'iy intellekt va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish onlayn ta'limni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. 2020-yil 6-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Oliy ta'lim tizimini isloh qilish va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. 2023-yil 8-mart.
3. UNESCO. The future of digital education. 2021.
4. <https://lex.uz/pdfs/6221502>
5. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
6. Brown, J. S., & Duguid, P. (2000). The Social Life of Information. Harvard Business School Press.
7. Salmon, G. (2000). E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online. Kogan Page.
8. Yo'ldoshev R.S., Jo'rayev M.M. "Masofaviy ta'limning texnologik asoslari", Oliy ta'limda axborot texnologiyalari, 2020.
9. Qodirov Sh.S. "Masofaviy ta'limda pedagogik yondashuvlar", Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2019.
10. Mamatov N.R. va boshqalar. "Onlayn ta'limda baholash tizimining takomillashtirilishi", Raqamli transformatsiya jurnal, 2021.
11. Norqulova Z.B. "Raqamli ta'limning psixologik jihatlari", Ta'lim va jamiyat, 2022.
12. World Economic Forum. The Role of Technology in Education. 2022.
13. Moodle. Official website. <https://moodle.org>
14. OECD. Digital Learning Trends. 2022.
15. Microsoft Education Report. AI in Higher Education. 2023

16. Harvard University. Blended Learning Models. 2021.
17. O'zbekiston Statistika qo'mitasi. Internetga kirish imkoniyati statistikasi. 2023.
18. World Bank. Teachers and Digital Literacy. 2022.
19. European Commission. Motivation in Online Learning. 2022.
20. MIT. The Challenges of Remote Learning. 2021.
21. <https://tsue.uz/oz/news/tdiuda-masofaviy-talimni-rivojlantirish-boyicha-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi>

Davlyatov Qahramon

-mustaqil izlanuvchi,

Markaziy bank Sirdaryo viloyat

Bosh boshqarmasi xodimi.

qahramon260277@gmail.com

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING
IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA ULARNI BANK KREDITLARI HISOBIGA
MOLIYALASHTIRISH AHAMIYATI**

Давлятов Кахрамон

– независимый исследователь,

сотрудник Главного управления

Сентралного банка по Сырдаринской области.

qahramon260277@gmail.com

**РОЛ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
ЭКОНОМИКЕ И ЗНАЧЕНИЕ ИХ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЗА СЧЁТ БАНКОВСКИХ
КРЕДИТОВ**

Kahramon Davlyatov

– Independent Researcher,

Emploeye of the Central Bank's

Sirdarya Regional Main Department.

qahramon260277@gmail.com

**THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP
ENTITIYES IN THE ECONOMY AND THE IMPORTANCE OF THEIR FINANCING
THROUGH BANK LOANS**

Anotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiyotdagi tutgan o'rnini tahlil qilindi. Ushbu sohani rivojlanishi uchun respublikamizda davlat tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rganildi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: kichik biznes, tijorat banki, kredit, garov, bonifikatsiya.

Аннотация: В статье проанализирована роль субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике. Изучены государственные меры, предпринимаемые в нашей республике для развития данной сферы. Также разработаны предложения по совершенствованию практики кредитования малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, коммерческий банк, кредит, залог, бонификация.

Abstract: The article analyzes the role of small business and private entrepreneurship entities in the economy. It examines the efforts undertaken by the state in our republic to develop this sector. In addition, proposals have been developed to improve the lending practices for small businesses and private entrepreneurs.

Keywords: small business, commercial bank, loan, collateral, bonification.

Kirish

Bugungi kunda jahonda globalizatsiya jarayonining tobora rivojlanishi va uning oqibatida yangi iqtisodiy markazlarning vujudga kelishi, har bir davlatda mahalliy tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli tajribasini doimiy ravishda takomillashtirib borish masalalarini tadqiq qilishga oid nazariy-fundamental, amaliy-metodologik asoslarini rivojlantirishni talab qiladi. Binobarin, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lib, kishilarni ish bilan band etish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sub'ektlariga aylantirish, aholini farovon yashashini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish borasida turli konsepsiyalar, g'oyalar ishlab chiqish, ilmiy sinovlar o'tkazish hamda tadbirkorlik faoliyatini real voqelikka aylantirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda hududlarning iqtisodiy salohiyatini keskin kuchaytirishga, ularning mutanosib iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Aytish lozimki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo'lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo'lsak, chala chulpa, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart va bu jarayonda tadbirkorlik faoliyati erkinligini, xususiy mulk daxlsizligini yanada kengroq ta'minlash – oldimizda turgan muhim vazifadir»¹. Bu vazifalarni amalga oshirishda eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ilmiy-nazariy jihatdan tizimli o'rganish, uni o'ziga xos xususiyatlarini, immanent belgilarini aniqlash hamda ushbu sohani rivojlantirish bilan bog'liq fundamental tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risidagi dastlabki tushunchalar uzoq yillar avval antik davrik olimlari tomonidan o'rganila boshlangan. Misol uchun, “Tadbirkorlik va ishbilarmonlik Aristotelning “Ekonomika” asarida eng avvalo, dehqonchilik, xunarmandchilik, mayda savdoda band bo'lganlarning asosiy va sharaflil faoliyati deb e'tirof etilgan. Asarda dehqon, xunarmand va savdogarlar tadbirkorlik bilan insonlarning eng muhim ehtiyojlarini qondirishga erish mumkinligi va ularga davlat g'amxo'rlik qilishi kerakligi ta'kidlangan”²

Iqtisodiyot nazariyasida biznes va tadbirkorlik tushunchalari 18-asrda paydo bo'ldi va shu paytdan boshlab R.Kontilon, A.Smit va boshqa ko'p olimlar tomonidan tadqiq qilina boshlandi.

Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini, umuman kichik biznesni kreditlash masalalari xorijlik iktisodchilar O.Lavrushin, V.Kolesnikov, G.Panova, V.Usoskin, Rouz P.S., E.Dolan, E.Rid, Dj. Sinkilar, J.Shanel-Reyno va E.Blualarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Mazkur masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Sh.Abdullayeva, O.Iminov, T.Malikov, S.Norqobilov, O.Olimjanov, Z.Xolmaxmadov, T.Tuxtaboyevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish ahamiyatini xorij va maxalliy olimlarning tajribalari hamda o'zining nazariy va amaliy tajribalarim asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada jadval ma'lumotlari, analitik qiyoslash, mantiqiy yondoshuv, guruxlash kabi metodlar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Natija va muhokama.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi.

– Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 71 b.

² H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov “O'zbekistonda kichik biznes sohasida kichik biznesning o'rni va uni rivojlantirish yo'llari” Toshkent, universitet, 2015 y. 7-bet.

XX asrning 80-yillaridan boshlab iqtisodiy jixatdan rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes iqtisodiy o'sishning muxim yo'nalishlarini belgilay boshladi. Chunki, iqtisodiyotdagi kichik biznes sektori iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini hamda investitsiyalarni jalb etishni ta'minlaydi, aholini doimiy ish bilan bandligini kafolatlaydi, bozor iqtisodiyotini o'ziga xos «injiqliklari»ga moslashuvini osonlashtiradi, mulk va boshqaruvni o'zaro uyg'unlashtirish orqali tadbirkorlik tashabbusiga keng yo'l ochadi. Natijada, kichik biznes iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning tarmoq tarkibi takomillashuviga, mahsulot hajmining ko'payishi va sifatining yaxshilanishiga olib kelmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan sektor hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobat keskinlashib borayotganligi hamma ayon. Aynan kichik biznes o'zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani va shu tarzda bozor konyukturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishi bilan e'tiborlidir.

Kichik biznesning rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish, ishsizlik, kambag'allik, tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini, turmush tarzi sifatini va darajasini tubdan yaxshilash kabi o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechimi ekanligi bugungi kunda o'z isbotini topmoqda.

Kichik biznesning asosiy ustunliklari va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) qulay va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati. Yirik korxonalar bilan qiyoslashtirilganda kichik biznesda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tuzilmalari soddalashtirilgan bo'lib, bu bozor kon'yunkturasiga xos o'zgarishlarga tezda moslashish imkonini beradi;

b) ishlab chiqaruvchilarning ko'proq shu hududdagi bozorga yo'naltirilganligi. Kichik biznes qoidalar, urf-odatlar va mahalliy bozorning boshqa xususiyatlarini o'rganish uchun g'oyat moslashuvchidir;

v) bandlikni saqlab turish va yangi ish o'rinlari barpo etish. Ushbu muammo O'zbekiston uchun ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Aholi sonining doimo oshib borishi ortiqcha ishchi kuchi ko'payishiga olib kelmoqda, kichik bisnes esa bo'sh ishchi kuchini o'ziga jalb qilib, amortizator rolini o'ynashi mumkin;

g) yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajarish. Yirik korxonalar negizida ishlab chiqarish jarayonining bosqichlarini kichik oilaviy korxonalarga topshirgan holda mazkur jarayonni markazlashtirilgan boshqaruv tizimidan chiqaradi;


d) dastlabki investitsiyalarning kichik hajmi. Kichik korxonalarni tuzish muddatlari qisqa; ular tez va arzon qayta jihozlanishi, yangi texnologiyalarni joriy etishi va ishlab chiqarishni avtomatlashtirishi, mashina va qo'l mehnatining optimal uyg'unligiga erishishi mumkin;

e) kichik korxonalarda, ayniqsa oilaviy korxonalarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'ladi;

j) kichik korxonalarning innovatsion xususiyati. Aksariyat iqtisodchilar kichik biznes fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Biz tadqiqot olib borayotgan kichik biznes sohasi AQSh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning barqarorligida muhim ahamiyat kasb etadi. «Xalqaro kichik biznes Kengashi (ICSB) ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari barcha korxonalarning 90% dan ortig'ini, ish bilan band bo'lganlarning 60-70% ni, yalpi ichki

mahsulotning 50% ni tashkil etadi»³. Ushbu korxonalar dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotining asosini tashkil etadi.




1-rasm. Ayrim mamlakatlar YaIMda kichik biznesning ulushi va kichik biznesda band bo'lganlarning ulushi jamiga nisbatan foizda⁴.

O'zbekistonda iqtisodiyotining muhim qismiga aylanib borayotgan kichik biznesning yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Misol uchun, respublikamiz hududida hunarmandchilik bir necha asrlar davomida taraqqiy etib kelgan. Buyuk ipak yo'li orqali savdo-sotiq rivojlangan davrlarda undan keyin ham Samarqand qog'ozi, Marg'ilon shohisi, Buxoro zarining dovrug'i butun dunyoga mashhur bo'lgan. Bunday mahsulot turlaridan bir qanchasini sanab o'tish mumkin. Ushbu mahsulotlar o'sha paytda hunarmand va kosiblar tomonidan ustaxonalarda yaratilgan.

Respublikamizda mustaqillik yillarda, ayniqsa so'ngi yillarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohasini rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, uni hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi hamda qator tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqsadli davlat dasturlarining samarasi bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 54,3 foizga yetganligida o'z aksini topadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)⁵.

³ Ergashev Ilhomjon Ikromovichning " Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri" avtoreferati 2021 y. (https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Ergashev.pdf)


⁴ Moskva viloyati tadbirkorlarini rivojlantirish markazi sayti, <https://mspmo.ru/vse-o-malom-biznese/znachenie-malogo-biznesa>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti va Ergashev Ilhomjon Ikromovichning " Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri" avtoreferati 2021 y.

«Yurtimizda kichik va oʻrta biznes ish oʻrni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qoʻshilgan qiymat va eksportni koʻpaytirishga eng katta turtki berayotgan yoʻnalishga aylandi. Soʻnggi besh yilda kichik va oʻrta tadbirkorlar soni 2 karra koʻpaydi. Ularda 10 million 500 ming odam – jami band aholining 74 foizi daromad topib, roʻzgʻor tebratayapti. Iqtisodiyot hajmining yarmidan koʻpi, sanoat va eksportning uchdan biri shu soha vakillari hissasiga toʻgʻri kelayapti»⁶.

Ushbu raqamlarning oʻziyoq mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun kichik va oʻrta biznes qanchalik muhimligini yaqqol koʻrsatib turibdi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, ushbu soha vakillarining mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatidagi tutgan roli ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, tashqi bozordan import qilinayotgan mahsulotlarning katta hajmdagi ulushi ushbu soha vakillari xissasiga amalga oshirilmoqda. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish yoʻliga oʻtkazish orqali uning mamlakat eksporti hajmidagi ulushini ham keskin darajada oshirish imkoniyati mavjud.



4-rasm. Oʻzbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ulushi, jamiga nisbatan foizda⁷.

4-rasm maʼlumotlaridan koʻrinadiki, respublikamizda, 2010-2024 yillarda kichik biznes subʼektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar eksporti hajmi ham, importi hajmi ham oʻsish tendensiyasiga ega boʻlgan.

2025 yil 19 mart kuni respublikamizda kichik va oʻrta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy oʻsishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga koʻmaklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qoʻllab-quvvatlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik va oʻrta biznesning iqtisodiyotdagi oʻrnini oshirish

(https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Ergashev.pdf)

⁶ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 19 mart kuni kichik va oʻrta biznes vakillari bilan uchrashuvdagi maʼruzası.

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi sayti

chora tadbirlari to'g'risda" PF-50-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini mamlakatimiz iqtisodiyotida, sanoatda, eksportda va aholini bandligini ta'minlashdagi ishtirokini yanada kengaytirish hamda ichimlik va oqova suv, yo'l qurilish, kommunal xo'jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlar kabi yuqori xarajatli iqtisodiyot tarmoqlariga ham ushbu soha vakillarini ko'proq jalb qilish uchun davlat tomonidan rag'batlantirish nazrda tutilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirishning eng zaruriy shartlaridan biri, muayyan miqdorda moliyaviy mablag'larga ega bo'lish talab etiladi. Binobarin, kichik biznes sub'ektlari faoliyatining mavjudligi va davomiyligining ta'minlanishi bevosita moliyalashtirish mexanizmiga bog'liq bo'ladi.


Tabiiyki, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tadbirkorlarni qamrab oluvchi kichik biznes sub'ektlarining samarali xo'jalik yuritish imkoniyatlari yirik korxonalarnikiga nisbatan cheklangan. Yirik korxona o'z iqtisodiy va moliyaviy quvvatidan kelib chiqib, xo'jalik yuritishida asqatadigan ko'plab shart-sharoitlarni mustaqil ravishda yaratish hamda bu boradagi muammolarni hal qila olish imkoniga ega.

Kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning ikkita asosiy, ya'ni, ichki va tashqi manbalari mavjud.

Kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatorida samarali va eng keng tarqalgani tijorat banklari kreditlari hisoblanadi.

Kichik biznes sub'ektlarini kreditlash respublikamiz tijorat banklarining kreditlash faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, kichik biznes sub'ektlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolining yuqori ekanligi va ularni kreditlash jarayonini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanayotganligi bilan izohlanadi.

Hozirgi davrda respublikamiz banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning resurs manbai bo'lib, banklarning jalb qilgan depozitlari, xorijiy kreditlar, davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari hisoblanadi.



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik biznes sub'ektlariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar, mlrd. so'm.⁸

⁸ muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda, 2021-2024 yillarda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning miqdori ham, yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlarning miqdori ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning ulushi, mlrd.so'm⁹

Ko'rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Jami ajratilgan kreditlar	166 241	203 127	251 402	287 182
Kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar	52 722	60 676	63 514	86 078
Kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar jamidagi ulushi (%)	31,7	29,9	25,3	30

1-jadvaldan tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan jami kreditlarda kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar salmog'ining yuqoriligini ko'rish mumkin.

Xulosa.

*Kichik biznesning rivojlanishi orqali rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish, ishsizlik, kambag'allik, tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini, turmush tarzi sifatini va darajasini tubdan yaxshilash kabi o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish mumkin;

*kichik biznes sub'ektlari doimo davlat qo'llab quvvatloviga muxtoj.

*kichik biznesning sub'ektlari uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar hajmining nisbatan cheklangan miqdorda bo'lishi;

*kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning tashqi manbalarining samarali va eng keng tarqalgani tijorat banklari kreditlari hisoblanishi;

*respublikamizda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarda kichik biznes sub'ektlarining salmog'ining yuqoriligi.

*2021-2024 yillarda tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning miqdori ham, yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlarning miqdori ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

Fikrimizcha, respublikamizda tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklarining kichik biznes sub'ektlarini kreditlash amaliyotining samaradorligini oshirish uchun, birinchidan innovatsion kreditlash shakllarini (overdraft, faktoring, forfeiting) kichik biznes sub'ektlarini kreditlash amaliyotiga keng joriy qilish kerak;

⁹ muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan

2. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda ilg'or xorijiy banklar tajribasini amaliyotga tadbqiq etish, banklarning transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy e'tiborni kreditlash jarayonida bevosita ishtirok etuvchi bank mutaxassislarini tayyorlash, ularning malakasini oshirib borishga, kredit xatarlarini boshqarish tizimini yo'lga qo'yishga qaratishni muhim deb hisoblaymiz.
3. Bugungi kunda kichik bizes sub'ektlarining bank kreditlaridan foydalanishdagi asosiy muammolaridan biri bu kredit foiz stavkalarining yuqoriligini bo'lib, buni tijorat banklari qayta ko'rib chiqishi zarur deb hisoblaymiz. Shuningdek davlat tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash jamg'armasi kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kredit foizlari bo'yicha taqdim etayotgan kompensatsiyalar ham 24,5 foizdan yuqori bo'lgan kreditlarga tadbqiq eilmayotganini ham qayta ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi PQ-306-sonli Qarori. Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.09.2023 y., 07/23/306/0706-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 noyabrdagi PQ-366-sonli Qarori. Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi «Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora tadbirlari to'g'risda» PF-50-sonli Farmoni.
5. Sinki Dj. Finansovyy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovyx uslug. Per. s angl. – M.: Alpina Pablisher, 2017. – S. 590-591.
6. Alimardonov I.M. Kichik biznes sub'ektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd.et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 28.
7. H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov "O'zbekistonda kichik biznes sohasida kichik biznesning o'rni va uni rivojlantirish yo'llari" Toshkent, universitet, 2015 y. 7-bet.
8. Jalilov Baxodir "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"jurnali 2/2024. «Kichik iznes sub'ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlari.
9. Ergashev Ilhomjon Ikromovichning " Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri" avtoreferati 2021 y. (https://iqtisodiyot.tsuye.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Ergashev.pdf).

Djo'rayev Kamoliddin Tashbaltayevich

M.Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti,

«Makroiqtisodiyot» kafedrası o'qituvchisi

E-mail: kamoljoraev@gmail.com

UY-JOY XO'JALIGI SOHASIDA IPOTEKA KREDITLASH TIZIMINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.

Джураев Камолиддин Ташбалтаевич

Національний университет

Ўзбекистана имени М.Улугбека

преподаватель кафедры “Макроэкономика”

E-mail: kamoljoraev@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ИПОТЕЧНОГО ЖИЛИЩНОГО КРЕДИТОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Juraev Kamoliddin Tashbaltaevich

National University of

Uzbekistan named M.Ulugbek

Djurayev Kamaliddin Tashbaltayevich

E-mail: kamoljoraev@gmail.com

IMPROVING THE HOUSING MORTGAGE SYSTEM BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES.

Аннотасија: Mazkur maqolada uy-joy xo'jaligi sohasida ipoteka kreditlash tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda ipoteka kreditlarining aholini uy-joy bilan ta'minlashdagi o'rni, mavjud tizimdagi muammolar, hamda ularni raqamlashtirish orqali bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, ipoteka jarayonlariga sun'iy intellekt, elektron platformalar, blokcheyn texnologiyasi, big data tahlili va boshqa raqamli vositalarni tatbiq etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Ipoteka kreditlash, uy-joy xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, bank tizimi, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt, big data (katta ma'lumotlar), elektron platformalar, kredit xavfliligini baholash, onlayn ipoteka tizimi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы ипотечного кредитования в жилищной сфере на основе современных цифровых технологий. Анализируется роль ипотечных кредитов в обеспечении населения жильём, существующие проблемы системы и пути их устранения посредством цифровизации. В частности, рассматриваются возможности повышения эффективности за счёт внедрения искусственного интеллекта, электронных платформ, технологии блокчейн, анализа больших данных и других цифровых инструментов в ипотечные процессы.

Ключевые слова: Ипотечное кредитование, жилье, цифровые технологии, банковская система, технология блокчейн, искусственный интеллект, большие данные, электронные платформы, оценка кредитного риска, система онлайн-ипотеки.

Abstract: The article examines issues of improving the mortgage lending system in the housing sector based on modern digital technologies. It analyzes the role of mortgage loans in providing the population with housing, existing problems of the system and ways to eliminate them through digitalization. In particular, it examines the possibilities of increasing efficiency through the introduction of artificial intelligence, electronic platforms, blockchain technology, big data analysis and other digital tools in mortgage processes.

Keywords: Mortgage lending, housing, digital technologies, banking system, blockchain technology, artificial intelligence, big data, electronic platforms, credit risk assessment, online mortgage system.

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini uy-joy bilan ta‘minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Xususan, ipoteka kreditlari orqali aholining keng qatlamlariga qulay shartlarda uy-joy sotib olish imkoniyatlari yaratilayotgani e‘tiborga loyiq. Shu bilan birga, ipoteka kreditlash tizimining samaradorligini oshirish, jarayonlarning shaffofligini ta‘minlash va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash borasida hali ko‘plab muammolar mavjud. Zamonaviy texnologik rivojlanish sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish ipoteka kreditlash tizimini yanada takomillashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli yechimlar, xususan, sun‘iy intellekt, blokcheyn, katta ma‘lumotlar (big data) tahlili va onlayn platformalar orqali kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish, tezlashtirish, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish va korrupsiya xavfini kamaytirish imkoniyati mavjud. Ushbu maqolada uy-joy xo‘jaligi sohasida ipoteka kreditlash tizimining hozirgi holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi hamda ushbu tizimni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Uy-joy xo‘jaligi va ipoteka kreditlash sohalari bo‘yicha xalqaro va mahalliy miqyosda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu adabiyotlarda ipoteka tizimining iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni, banklarning ipoteka kreditlaridagi faoliyati, raqamli texnologiyalarning moliyaviy xizmatlarga ta‘siri kabi masalalar chuqur o‘rganilgan.

Masalan, F.Mishkin va S.Cecchetti kabi iqtisodchilar o‘z tadqiqotlarida moliyaviy xizmatlarning raqamlashtirilishi orqali kredit ajratish jarayonining tezlashuvi, risklarni boshqarish imkoniyatlarining kengayishi va moliyaviy inklyuzivlikning oshishini alohida ta‘kidlaydilar.

P.Barrientos (2020) tomonidan olib borilgan izlanishlarda blokcheyn texnologiyalarining ipoteka jarayonlariga integratsiyasi kredit bitimlarining shaffofligini oshirib, firibgarlik holatlarini kamaytirishga xizmat qilishi ta‘kidlanadi.

Mahalliy olimlardan M.Usmonov, G.Karimova, Sh.Ergashevlarning asarlarida O‘zbekistonda ipoteka kreditlash tizimining rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar (ayniqsa, aholining kreditga erishish imkoniyatidagi tengsizlik) va ularni bartaraf etish choralari haqida fikr yuritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2023 yillardagi farmon va qarorlarida ham ipoteka tizimini isloh qilish, subsidiyalar ajratish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq strategiyalar belgilab berilgan. Jumladan, 2021-yil 11-martdagi “Ipoteka kreditlari bozorini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5006-sonli qaror asosida raqamli ariza topshirish, onlayn navbat, subsidiya olish kabi mexanizmlar joriy qilinmoqda.

Bundan tashqari, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Osiyo taraqqiyot bankining ipoteka kreditlash bo'yicha tajribalari ham O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan raqamli yechimlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada uy-joy xo'jaligi sohasida ipoteka kreditlash tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Ilmiy ishni olib borishda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo'llanildi:

1. Tahlil va sintez usuli. Ipoteka kreditlash tizimining mavjud holatini baholash, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasidagi o'zgarishlarni tahlil qilishda ushbu metod qo'llandi. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

2. Solishtirma (komparativ) tahlil. Xorijiy davlatlarning ipoteka kreditlashda raqamli texnologiyalarni qo'llash tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan taqqoslab o'rganildi. AQSH, Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi ilg'or davlatlar tajribasidan o'rinni misollar keltirildi.

3. Empirik tahlil (statistik ma'lumotlar asosida). Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Ipoteka-bank, Davlat statistika qo'mitasi, hamda ochiq manbalardan olingan ipoteka kreditlari hajmi, raqamlashtirilgan xizmatlar ulushi va foydalanuvchilar soni kabi statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

4. Ekspert baholash usuli. Soha mutaxassislarining fikr-mulohazalari o'rganilib, raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar va istiqbolli yechimlar yuzasidan ekspert tahlili olib borildi.

5. Grafik va jadval usuli. Tadqiqot natijalarini ko'rgazmali tarzda ifodalash uchun grafik va jadval shakllaridan foydalanildi, bu esa ipoteka tizimining raqamlashtirishdan oldingi va keyingi holatini solishtirishga imkon berdi.

Natija va muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi uy-joy xo'jaligi sohasida ipoteka kreditlash tizimini modernizatsiya qilish yo'lida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, kam ta'minlangan qatlamlarni ipoteka orqali uy-joy bilan ta'minlash uchun subsidiya va imtiyozlar ajratilmoqda. Ammo mavjud tizimda bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ipoteka arizalarini ko'rib chiqish jarayoni uzoq va byurokratik to'siqlarga boy;
- kredit olish uchun zarur hujjatlarni yig'ish jarayoni murakkab;
- qarz oluvchilarning moliyaviy ahvolini baholashda subyektivlik mavjud;
- tizimda shaffoflik yetarli darajada emas;
- kreditlashda "inson omili" ta'siri yuqori bo'lib, bu holat korrupsiya xavfini kuchaytiradi.

1-chizma.

Tahlil qilingan statistik va amaliy materiallar asosida quyidagi ijobiy o'zgarishlar qayd etildi:


1. Elektron ipoteka platformalari (masalan, my.gov.uz portali orqali ariza berish) joriy etilishi orqali kreditga murojaat qilish va natijalarni olish tezlashdi. Bu esa aholi uchun qulaylik va vaqt tejallishini ta'minladi.
2. Big data va sun'iy intellekt asosidagi qarz oluvchini baholash algoritmlari kredit risklarini aniqlashda yanada aniqroq va adolatli baho berish imkonini yaratdi.
3. Blokcheyn texnologiyasi asosida ipoteka hujjatlarini raqamli shaklda yuritish tajribalari hujjatlarni qalbakilashtirish, yo'qotish va o'zgartirish kabi xavflarni kamaytirish imkonini bermogda.
4. Mobil ilovalar orqali kredit holatini kuzatish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari foydalanuvchi tajribasini yaxshiladi hamda xizmatlar shaffofligini oshirdi.

* Muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot davomida AQSH, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasi o'rganildi. Ushbu davlatlar raqamli texnologiyalarni joriy etishda quyidagi mexanizmlarga urg'u bergan:

- AQSHda ipoteka kreditlashda avtomatlashtirilgan underwriting tizimlari keng qo'llaniladi;
- Estoniyada butun ipoteka jarayoni 100% onlayn bo'lib, blokcheyn texnologiyasi asosida yuritiladi;
- Janubiy Koreyada raqamli moliyaviy identifikatsiya orqali fuqarolar istalgan bank orqali ipoteka arizasini masofadan turib berishi mumkin.

2-chizma.



* Muallif tomonidan tuzilgan.

Raqamli texnologiyalarni ipoteka kreditlash tizimiga izchil joriy etish nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki tizimning shaffofligi, ishonchliligi va samaradorligini ham

kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar kreditga muhtoj bo'lgan aholining real ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun:

- huquqiy-me'yoriy baza yangilanishi;
- bank xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish;
- IT-infratuzilmaning mustahkamlanishi;
- fuqarolarning raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ipoteka kreditlash sohasida so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, davlat tomonidan arzon uy-joylar qurilishi va aholining kreditga kirish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Shu bilan birga, tizimda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ipoteka kreditlari hajmining yillik o'sish sur'ati (2020–2024)

1-Jadval

Yil	Ipoteka kreditlari hajmi (trln so'm)	O'sish (%)
2021	13,2	+25,7%
2022	16,8	+27,2%
2023	19,5	+16,1%
2024	21,9	+12,3%

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzildi.

2021-2024 yillar davomida ipoteka kreditlari hajmi deyarli 2 baravarga oshgan. Bunda aholining ipoteka kreditlariga qiziqishi ortgani, shuningdek, kredit ajratish jarayonlarining soddalashtirilgani muhim rol o'ynagan.

Raqamli ipoteka xizmatlarining joriy etilishi

2-Jadval

Ko'rsatkich	2020 yil	2024 yil (prognoz)
Onlayn ariza topshirish ulushi (%)	5%	65%
Elektron hujjatlashtirish (%)	8%	70%
Mobil ilova orqali xizmatlar (%)	3%	60%

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzildi.

So'nggi to'rt yil ichida ipoteka xizmatlarining raqamli shakllari jadal sur'atda kengaymoqda. Aholi orasida mobil ilovalar va portallar orqali kredit olishga qiziqish ortmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ipoteka kreditlash tizimini samarali, tezkor, shaffof va inson omilidan xoli tizimga aylantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar ipoteka kreditlarining sifatini, aholining qamrovini va iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqotda uy-joy xo'jaligi sohasida ipoteka kreditlash tizimining hozirgi holati tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar asosida uni takomillashtirish zarurati asoslab berildi. O'zbekiston sharoitida ipoteka tizimi aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini moliyaviy resurslar orqali qoplashda muhim iqtisodiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo mavjud kreditlash mexanizmlarida hali-hanuz inson omiliga haddan tashqari bog'liqlik, ma'lumotlar almashinuvida sustkashlik, hujjatlashtirishda byurokratik to'siqlar va xizmat ko'rsatishda shaffoflik yetishmasligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ipoteka kreditlash tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali quyidagi asosiy natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi:

- Onlayn xizmatlar joriy etilishi orqali aholi va bank o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqot, ortiqcha hujjat aylanishi va vaqt yo'qotishlar kamayadi;
- Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan algoritmlar yordamida qarz oluvchilarning moliyaviy ahvoli tez va aniqlik bilan baholanadi, bu esa kredit risklarini minimallashtirishga xizmat qiladi;
- Mobil ilovalar orqali xizmatlardan foydalanish imkoniyati mijozlar uchun qulaylik yaratadi va jarayonni shaffoflashtiradi;
- Elektron hujjatlashtirish va blokcheyn texnologiyalari ipoteka shartnomalari va mulk huquqlari bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, ilg'or davlatlar ipoteka tizimini raqamlashtirish orqali samaradorlikka erishgan. Ayniqsa Estoniya, AQSH va Janubiy Koreya tajribalari O'zbekiston uchun foydali model sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq har bir davlatning institutsional va iqtisodiy sharoiti turlicha bo'lganligi bois, bu tajribalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki moslashtirib joriy etish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Ipoteka kreditlashning yagona raqamli platformasini yaratish, bu orqali banklar, davlat organlari va mijozlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;
- Moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish orqali aholining raqamli xizmatlardan foydalanish salohiyatini oshirish;
- Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, xususan, raqamli hujjat aylanishi, elektron imzo, shaxsni identifikatsiyalash mexanizmlarini kuchaytirish;
- Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- Raqamli transformatsiyaga bosqichma-bosqich o'tish strategiyasini ishlab chiqish, bunda texnik, huquqiy va inson resurslari salohiyati hisobga olinishi lozim.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni ipoteka kreditlash tizimiga izchil tatbiq etish O'zbekistonda uy-joy muammosini samarali hal qilishga, iqtisodiyotning moliyaviy sektorida innovatsion rivojlanishga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 yanvardagi PQ-4954-son "Ipoteka bozorini yanada rivojlantirish va aholini uy-joy bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-92-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Markaziy bank rasmiy sayti: www.cbu.uz – Ipoteka kreditlari bo'yicha statistik axborotlar (2020–2024 yillar).
4. "Ipoteka-bank" ATIB rasmiy hisobotlari (2021–2023 yillar) – www.ipotekabank.uz
5. M.Usmonov, G.Karimova (2022). "Raqamli moliya xizmatlari va ularning ipoteka kreditlashda tutgan o'rni". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №3, 45–51-bet.
6. Yusupova D.A. (2023). "O'zbekiston bank sektorining raqamlashtirilishi: muammolar va yechimlar". // Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, №2, 32–38-bet.
7. World Bank (2021). "Digital Financial Services: Challenges and Opportunities in Mortgage Lending". Washington, D.C.: World Bank Group.

8. IMF (2022). "Fintech and Housing Finance: Global Trends and Policy Options". – International Monetary Fund Report, No. WP/22/105.
9. Estonian E-Government Case Study. (2021). "Blockchain-Based Property Register: Transforming Mortgage Services in Estonia". – www.e-estonia.com
10. OECD (2020). "Digital Transformation in Financial Markets: Role of Smart Contracts and AI in Credit Risk Assessment". – OECD Publishing, Paris.
11. I.Lee, & Y. J.Shin (2021). "Fintech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges". Business Horizons, 64(1), 35–46.
12. Karimov B. (2020). "Ipoteka tizimida raqamli texnologiyalarning roli". // Toshkent moliya instituti ilmiy axboroti, №4, 67–72-bet.
13. www.my.gov.uz – O'zbekistonning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (2020–2024 yillar).

*Jo'rayev Jasur Ikromovich**O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya**akademiyasi mustaqil izlanuvchisi**E-mail: jjorayev548@gmail.com*

CHAKANA BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

*Жураев Жасур Икромович**Исследователь Банковско-финансовой**академии Республики Узбекистан**E-mail: jjorayev548@gmail.com*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РОЗНИЧНЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

*Juraev Jasur Ikromovich**Researcher at the Banking and Finance**Academy of the Republic of Uzbekistan**jjorayev548@gmail.com*

THEORETICAL ASPECTS OF IMPROVING RETAIL BANKING SERVICES

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi chakana bank xizmatlarining nazariy masalalari tadqiq etilgan. Chakana bank xizmatlarining mazmun-mohiyati, ularni tasniflash asoslari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Chakana bank xizmatlarini takomillashtirish yuzasidan mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimlar ilgari surilgan. Chakana bank xizmatlari turlarini optimallashtirishga qaratilgan muallif yondashuvlari bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: tijorat banki, chakana bank xizmatlari, bank mahsuloti, onlayn bank xizmatlari, bank operatsiyalari, texnologik usul, kredit, jismoniy shaxslar.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические аспекты розничных банковских услуг, играющих важную роль в деятельности коммерческих банков. Разработаны предложения по содержанию и сущности розничных банковских услуг, а также основам их классификации. Выявлены существующие проблемы в сфере совершенствования розничных банковских услуг и предложены пути их решения. Изложены авторские подходы, направленные на оптимизацию видов розничных банковских услуг.

Ключевые слова: коммерческий банк, розничные банковские услуги, банковский продукт, онлайн банковские услуги, банковские операции, технологический метод, кредит, физические лица.

Abstract. This article examines the theoretical aspects of retail banking services, which play a crucial role in the operations of commercial banks. The study develops proposals regarding the

content and essence of retail banking services, as well as the foundations for their classification. It identifies existing problems in the field of improving retail banking services and suggests ways to address them. The article also presents the author's approaches aimed at optimizing the types of retail banking services offered.

Keywords: commercial bank, retail banking services, banking product, online banking services, banking operations, technological method, credit, individual customers.

KIRISH

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiy munosabatlarda har qanday tijorat tashkiloti singari bank ham o'z xizmatlarini sotish va bozorda raqobatbardosh bo'lishga harakat qiladi. Sir emaski kredit tashkilotlari aholiga o'zining yangidan-yangi xizmatlari va mahsulotlarni chiqib, ularni bozorda taklif etishmoqda. Aholiga chakana bank xizmatlarini taklif etish va ularni amalga oshirish banklarning bugungi kundagi faoliyatida istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa bu, aholining to'lovga layoqatliligi oshib borayotgan va bozor esa sust o'zlashtirilgan mintaqalarda juda qulaydir.

Rivojlanishning yangi bosqichini boshdan kechirib, transformatsiya jarayonlariga jadal qadam tashlayotgan mamlakatimizda moliya muassasalari tizimida xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilib, ularning turlari kengaymoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib boryapti. Bu ayniqsa, banklar tarmog'ida jadal rivojlanayotgan segment, ya'ni chakana xizmatlar yo'nalishida yanada sezilarli ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Xususan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishdagi to'siqlarning olib tashlanishi, mikroqarzlar ajratilishining soddalashtirilishi, bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi qulayliklar kabi jihatlari shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, 2019-yil 5-noyabrda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning yangi tahririni tasdiqlanishi tijorat banklari chakana xizmatlarini tashkil etishdagi huquqiy asosda katta qadamlardan biri bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda qabul qilingan PF-5992 sonli «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmonidagi vazifalarni amaliyotga joriy etilishi chakana bank xizmatlarini jahon standartlari darajasida rivojlantirishga ko'maklashadi.

Chakana bank xizmatlari bozorini rivojlantirish bank faoliyatining boshqa segmentlariga qaraganda geografik, etnik, iqtisodiy va siyosiy omillarga bog'liq bo'lib, ushbu bank xizmatlari bozorining holati turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, ushbu bozorni shakllantirishda, boshqarishda va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ushbu omillarni chuqur o'rganish va bozorning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilishni talab etishi ushbu mavzu doirasida ilmiy izlanishlarni o'tkazishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

So'nggi yillarda chakana kreditlar bozorida sezilarli faollik kuzatilayotganligi hamda banklar kredit portfelida aktivlar, shu jumladan, mikroqarzlar va avtokreditlarning banklar barqarorligiga ta'siri hamda ushbu sohadagi tartibga soluvchi o'zgartirishlar to'g'risida tahlillar amalga oshirilmoqda.

Chakana bank xizmatlari – bugungi banklar uchun foydali biznes turlaridan biri hisoblanadi. Chakana bank xizmatlarining jozibadorligi korporativ mijozlarning deyarli barchasi bank xizmatlari bilan qamrab olinganligi va ushbu bozor segmentida raqobatning ancha shiddatli va qattiqligi bilan

asoslanadi. Aholi bilan depozit operatsiyalari bankka doimiy resurslar jalb etilishini, kreditlash esa doimiy daromadni ta'minlaydi. Ajratiladigan kreditlarning muddat va mijozlar bo'yicha tabaqalashuvi esa kredit riskini diversifikatsiyalaydi.

Bugungi kunda chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chakana bank xizmatlarining tasnifi, tavsifi va bank daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida ma'lum darajada o'rganilgan. Iqtisodchi olimlar Yu.A. Korchagin, I.O. Lavrushin, G.N. Beloglazova, A.M. Tavasiyeva, S.V. Galitskaya, A.N. Ivanov, P.Rouz, Dj Sinki, N.X.Jumayev, A.Sh.Abdullayeva, A.A.Omonov, I.Ya.Kuliyev, M.S.Rustamov, S.A.Asqarov va boshqa olimlar bank xizmatlari, mahsulotlari hamda operatsiyalar bo'yicha o'zlarining qarashlari va yondashuvlarini keltirib o'tishgan.

Taniqli olim O.I.Lavrushin "to'lov vositalari, jumladan, sertifikatlar bilan bir qatorda tijorat banklari tomonidan muomalaga kiritilgan, joylashtirilgan pul mablag'larini va bank faoliyati natijasini bank mahsulotlari sirasiga kiritadi"[1].

A.M.Tavasiyeva esa bank mahsulotiga mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish yo'llarini ham kiritadi [2].

Yuqoridagi iqtisodchilardan farqli o'laroq A.N.Ivanov "bank mahsulotiga, alohida bank faoliyati bo'yicha mijoz talabini qondirish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari to'plami va operatsiyalarini amalga oshirilishini kiritgan"[3].

Sh.Z. Zokirov o'zining dissertatsion tadqiqotida «Chakana bank xizmatlari kelishilgan harakatlar majmui bo'lib, uning natijasida mijozning shaxsiy ehtiyojlari uchun pul mablag'laridan foydalaniladi»[4] deydi. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, bu ta'rifga to'laonli qo'shilmaymiz, chunki ayrim bank xizmatlarida pul mablag'lari harakati kuzatilmaydi.

Chakana bank xizmatlariga berilgan yana bir ta'rifda ularni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bank filiallari tarmog'i orqali jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining umumlashgan majmui sifatida talqin qilingan[5]. Mazkur fikrga ma'lum darajada qo'shilish mumkin, biroq mamlakatimizdagi tijorat banklari faoliyatida chakana bank xizmatlari turi kengayib borayotganligini inobatga olsak, ularning mazmunini yanada kengroq bayon etish zarurati tug'iladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada chakana bank xizmatlarining nazariy masalalari yoritilgan bo'lib, unda asosan ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, monografik kuzatuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, ilgari surilgan fikr va mulohazalarni asoslashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularda keltirilgan ustuvor yo'nalishlarga murojaat qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMA


Tijorat banklari xizmatlari tarkibida chakana bank xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida «chakana bank biznesi» endi rivojlanib kelayotgan istiqbolli sohalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan mazkur bank xizmatlarni turli mezonlar bo'yicha tasniflash ularni boshqarish va samaradorligini baholash uchun muhim masalalardan hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tijorat banklari chakana bank xizmatlarini quyidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq deb topildi (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklari chakana xizmatlari turlari¹

№	Tasniflash mezonlari	Taqdim etiladigan xizmat turi
1.	Marketing nuqtai nazaridan	Bank xizmat ko'rsatadigan, u yoki bu tashkilot bilan bog'liq bo'lmagan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar.
		Korporativ – chakana xizmatlar.
		Shartli chakana xizmatlar.
		VIP mijozlar bilan chakana xizmatlar (Private banking).
2.	Texnologik nuqtai nazaridan	Hisobraqam ochib
		Hisobraqam ochmasdan turib
3.	Tashkiliy nuqtai nazaridan	Bankning u yoki bu bo'limida tashkil etilishiga qarab
4.	Bank operatsiyalariga ko'ra	Aktiv, passiv, joriy, qo'shimcha ishonch
5.	Moliyaviy va iqtisodiy jihatiga ko'ra	Jamg'arma, kredit, hisob kassa, valyuta, investitsion va boshqalar
6.	Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra	An'anaviy yoki noan'anaviy
7.	Vazifasiga ko'ra	Strategik, joriy, operativ va maxsus
8.	Ehtiyojni qondirish yo'nalishiga qarab	Daromad keltiradigan yoki xarajatlarni kamaytiradigan, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki bog'dil xizmatlar
9.	Murakkabligiga qarab	Oddiy, alohida bilim va tajriba talab qiluvchi
10.	Ko'rsatilgan xizmatning to'loviga qarab	To'lovli, bepul xizmatlar

Ushbu tasnifda amaliyotda keng tarqalgan usullardan biri bo'lgan texnologik usul asosida tasniflashga to'xtaladigan bo'lsak, bankning chakana xizmatlarini hisobraqamli va hisobraqamsiz xizmatlarga ajratish mumkin (1-rasm).

1-rasm. Bank chakana xizmatlarining texnologik nuqtayi nazardan tasnifi²

Bank xizmatlarini ushbu tamoyilga asoslangan holda ajratish, ularni boshqarish va riskliligining oldini olishga imkon beradi.

Hisobraqamsiz bank xizmatlariga mijoz bilan bank o'rtasida bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni kiritish mumkin. Boshqacha aytganda, «kelishuv»ga o'xshash

¹ Muallif tomonidan tuzildi.

² Muallif tomonidan tuzildi.

xizmatlar kiradi.

Bunday xizmatlarga misol qilib:

- naqd valyutalarni almashtirish;
- pul o'tkazmalari;
- bankomatdan naqd pul olish va shu kabi boshqa xizmatlarni kiritishimiz mumkin.


Ushbu turdagi xizmatlarni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, hisobsiz chakana bank xizmatlari vaqt bilan chegaralangan bo'lib, bunday xizmatlar bir bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Hisobraqamli xizmatlar, mijoz va bank o'rtasidagi aloqaning uzoq muddatliligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, gap uzoq muddatda bitta xizmatni amalga oshirishda yoki bir necha xizmatlarni amalga oshirishda bo'lishi mumkin. Bunday xizmatlarga:

- jamg'armalarga jalb qilish;
- kredit operatsiyalari (iste'mol, ipoteka, lombard);
- plastik kartochkalar va boshqa shu kabi uzoq muddatli xizmatlarni kiritish mumkin.

Aksariyat adabiyotlarda bank operatsiyalarini aktiv, passiv, vositachilik va boshqa qo'shimcha operatsiyalarga ajratishadi. Shundan kelib chiqib, bankning chakana xizmatlarini quyida rasmda keltirilgan turlarga ajratish mumkin (2-rasm):

Faqatgina bankning chakana mahsulotlari tarkibiga kiruvchi plastik kartochkalar bilan bog'lik xizmatlar, yuqorida sanab o'tilgan tasniflarning deyarli hamma tarkibiga kirib ketadi. Debyet plastik kartochkalar passiv operatsiyalarga kirsa, kredit plastik kartochkalar aktiv operatsiyalar tarkibiga va ular bilan bog'liq hisob-kitob operatsiyalari esa joriy operatsiyalarga kiradi.



2-rasm Bank bajaradigan operatsiyalarga qarab chakana bank xizmatlari turlari³

Tijorat banklari xizmatlar bozorining rivoji nafaqat mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga kapitalni taqsimlashga, balki aholiga axborot berish, to'lovlarni tezlashtirish va boshqa bir qancha qulaylik va imkoniyatlarni yaratib beradi.


Bu sharoitlarda bank chakana xizmatlarining moliyaviy jihatlari bank uchun keltiradigan daromad, bank mijozlarining ehtiyojini qondira olishiga e'tibor qaratish lozim. Shu jihatdan biz tadqiqot ishimizda tijorat banklari chakana xizmatlarini bank nuqtai nazaridan moliyaviy va mijoz ehtiyojlarini qondirish yuzasidan chuqurroq ko'rib chiqishni maqsad qilib oldik. Moliyaviy nuqtai nazardan chakana bank xizmatlarini:

- jamg'arma xizmatlari;
- kreditlash xizmatlari;
- hisob va kassa xizmatlari;
- valyuta ayriboshlash xizmatlari;
- jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq xizmatlari;
- qimmatli buyumlarni saqlash va boshqa qo'shimcha xizmatlarga bo'lish mumkin.

³ Muallif tomonidan tuzildi.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Iste'mol krediti aholini tovar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish bilan bir qatorda bozorda tovarlar realizatsiyasini tezlashtirish orqali ishlab chiqarish hajmi oshishiga ko'maklashadi.

Chakana xizmatlarning ushbu turini maqsadliligi bo'yicha ma'lum bo'limlarga bo'lib o'rganish mumkin. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlar doirasida amaldagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirib borildi.



3-rasm. Tijorat banklarida chakana mijozlar uchun kredit xizmatlari⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi «Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2751 sonli qarori shular jumlasidandir.



4 – rasm. Jismoniy shaxslar uchun kredit turlari⁵

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, iste'mol kreditining ko'payishi muomalada naqd pul mablag'lari aylanmasini kamaytiradi va shu orqali ma'lum darajada inflyatsiyaning oldini oladi. Rivojlangan mamlakatlarda tovarlar aylanmasining aksariyat qismini ushbu kredit vositasi ta'minlaydi.

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Buni biz so‘nggi yillarda bank chakana xizmatlari tarkibida onlayn bank xizmatlari kirib kelishi bilan asoslashimiz mumkin. Tijorat banklarining mobil ilovalari, click, rayme xizmatlari aholida plastik kartalarga bo‘lgan talabning biroz kamayishiga olib kelgan.

Bank xizmatlari chakana bozori shakllanib, unda mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bank mahsulotlarini yaratish, sotish va xarid qilish amalga oshiriladi. Bularning barchasini inobatga olgan holda chakana bank xizmatlari bozori mamlakatimizda keyingi yillarda jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda banklar tomonidan ham bugungi kun talablariga to‘liq javob bera oladigan zamonaviy chakana xizmatlar bozorini shakllantirish, ularni turli risklardan himoyalash hamda mijozlar tomonidan berilgan mablag‘lardan samarali foydalanishdagi muammolar bank tizimi oldiga ko‘plab vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Bularning barchasi albatta bank xodimlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirib borishni, zamonaviy axborot texnologiyalarni bank tizimida qo‘llashni, mavjud bank xizmatlarini takomillashtirishni va ularni davlat tajribasi asosida tashkil etishni talab etadi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Tijorat banklarining chakana xizmatlari alohida turlari bo‘yicha yetarlicha huquqiy asos yaratilgan. Bu huquqiy asos ushbu sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi;

Bank chakana xizmatlarining oshib ketishi natijasida vujudga keladigan bozordagi “qizib ketish” holatlarining oldini olish maqsadida makroprudensial choralarni Markaziy bank tomonidan o‘z vaqtida ko‘rilishi ijobiy holatlarga olib keladi;

Qarz oluvchilarning daromad va majburiyatlarini aniqroq baholash uchun xalqaro tajriba asosida qarz yuki ko‘rsatkichini hisob-kitob qilish tartibi takomillashtirish lozim;

Banklarning likvidlilik va kapital yetariligi ko‘rsatkichlarini hisob-kitob qilish tartibiga xalqaro tavsiyalar asosida o‘zgartirishlar kiritish zarur;

Tijorat banklari jismoniy shaxslar bilan ishlashdan unchalik manfaatdor emasligi. Tijorat banklarining chakana xizmatlari ko‘proq huquqiy me‘yorlar asosda tadbiq etishga harakat qilinganligi bilan izohlash mumkin;

Ba’zi tijorat banklari chakana xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-me‘yoriy asoslar boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy asoslarni inkor qilishini, shuning uchun me‘riy asoslar qabul qilinayotganda yuqorida keltirilgan kamchilikka yo‘l qo‘ymaslikka e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

.О.Лаврушин «Банковское дело:розничнқй бизнес» М:«Кнорус» 2010 г. 762 стр.

.М. Тавасиева «Дополнительные операции для клиентов» Москва «Ф и С» 2015 г. 13 стр.

.Н.Иванов «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт» Москва «Ф и С»2022 г. 176 стр.

акиров III.3. Развитие рынка банковских розничных услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сам. гос. эконом, ун-т - Самара, 2022. - 185 с.

жозеф Синки «Финансовый менежмент в каммерческом банке и в индустрии финансовых услуг» М: Альпина Пабlishер 2019 г. 1018 стр.

.А. Корчагин «Деньги, кредит, банки»М: «Феникс» 2016 г. 312 стр.

Jo'raev Dilmurod Xolmo'minovich
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti
"Moliya, Bank ishi va buxgalteriya hisobi"
kafedrasida katta o'qituvchisi,
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi
dilmurod8403@mail.ru

**AKSIYADORLIK JAMIYATI MENEJER XODIMLARINI RAG'BATLANTIRISH
JARAYONINI HISOBGA OLISH TIZIMI.**

Djurayev Dilmurod Kholmuminovich,
Senior Lecturer, Department of Finance,
Banking, and Accounting,
Tashkent International University
of Financial Management and Technologies,
PhD Candidate at Tashkent International
University of Chemistry.
dilmurod8403@mail.ru

**SYSTEM FOR ACCOUNTING THE PROCESS OF INCENTIVIZING
MANAGERIAL EMPLOYEES OF A JOINT-STOCK COMPANY.**

Джуряев Дилмурод Холмуминович,
Старший преподаватель кафедры «Финансы,
банковский счет и бухгалтерский счет»
Ташкентский международный университет
финансовый менеджмент и технологии,
Соискатель Ташкентского международного
химического университета. dilmurod8403@mail.ru

**СИСТЕМА УЧЕТА ПРОЦЕССА СТИМУЛИРОВАНИЯ РУКОВОДЯЩИХ
РАБОТНИКОВ АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА**

Annotatsiya. Maqolada aksiyadorlik jamiyati rahbar va menejer xodimlarini rag'batlantirish maqsadida 2-sonli MHXS "Aksiyaga asoslangan to'lov" nomli standartga asosan "Pul mablag'lari", "Ulushli instrument" hamda "Gibrid (aralash)" usullari orqali amalga oshirish mexanizmlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, rahbar va menejer xodimlar, MHXS, aksiyaga asoslangan to'lov, pul mablag'lari, ulushli instrument, gibrid, "Xalqchil IPO" dastur.

Аннотация. В статье рассмотрены механизмы мотивации руководителей и менеджеров акционерного общества с использованием методов «Денежные средства», «Долевые инструменты» и «Гибрид» на основе стандарта МСФО № 2 «Выплаты на основе акций».

Ключевые слова: акционерные общества, руководители и менеджеры, МСФО, выплаты на основе акций, денежные средства, долевой инструмент, гибрид, программа «Xalqchil IPO».

Annotation. The article outlines the implementation mechanisms for incentivizing executives and managerial staff of joint-stock companies based on IFRS 2 “Share-Based Payment” through the methods of “Cash Settlement,” “Equity Instruments,” and “Hybrid (Mixed)” approaches.

Keywords. Joint-stock companies, executive and managerial staff, IFRS, share-based payment, cash settlement, equity instruments, hybrid, “People’s IPO” program.

Kirish. Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro standartlarni joriy etish hamda xorijiy investorlar ko‘lamini oshirish uchun jamiyatning foydalilik darajasini oshirish mo‘him.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari mustaqillik yillaridan boshlab milliy standartlar asosida buxgalteriya hisobini yuritib kelmoqda. Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida»^[1]gi qaroriga asosan, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, aksiyadorlik jamiyatlari hamda yirik soliq to‘lovchi toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishi va taqdim etishi tartibi joriy etilgan. Bu esa, xorijiy va potensial investorlar, kreditorlar va qarz beruvchilarning ishonchini oqlashga hamda ularning ushbu jamiyat to‘g‘risida tegishli qarorlar qabul qilish uchun imkon beradi. Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida zamon talabiga muvofiq takomillashtirish zarurati mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirishning dolzarbligini belgilaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki xorijiy investorlarning o‘z ulushlari bo‘yicha aksiyaga to‘g‘ri keladigan daromadini oshirish va dividendni to‘lashi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlari menejer xodimlari aksiyador bo‘lib faoliyat yuritishi natijasida sof foydaning yildan-yilga oshishi hamda ularga to‘lanadigan dividendlarning oshishini ta‘minlashga e‘tibor qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. «Aksiyadorlik jamiyati» ta‘rifi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning quyidagi fikrlari keltirib o‘tilgan:

Adrian Micaller Aksiyadorlik jamiyati - bu aksiyadorlik kapitali aksiyalarga bo‘lingan va bu aksiyalar bilan bog‘liq huquqlar egalari tomonidan boshqariladigan sub‘ektdir, Richard Brealey & Stewart Myers Aksiyadorlik jamiyati - bu kompaniya bo‘lib, uning aksiyadorlari kapitalni ta‘minlashadi va kompaniyaning foydasi bo‘yicha haqqa ega bo‘ladilar, I.A.Blank Aksiyadorlik jamiyati - bu tashkilot-huquqiy shakl bo‘lib, uning kapitali aksiyalarga bo‘lingan va aksiyadorlar tomonidan jamiyatning faoliyati boshqariladi. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari uchun javobgar emaslar va ularning javobgarligi kiritgan hissalar miqdori bilan cheklanadi, L.I.Abalkin Aksiyadorlik jamiyati - bu moliyaviy tashkilot bo‘lib, uning kapitali aksiyalarga bo‘lingan va aksiyadorlar tomonidan investitsiya qilingan. Jamiyatning boshqaruvi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan amalga oshiriladi, B.I.Isroilov Aksiyadorlik jamiyati – ma‘lum manfaatlar asosida mulkdorlarni, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni, ularning uyushmalarini tashkil qiluvchi kapital konsentratsiyasi shaklidagi jamiyatdir, Yu.I. Abdullaev Aksiyadorlik jamiyati - bu yuridik shaxs

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611-son Qarori

bo'lib, uning kapitali aksiyalarga bo'lingan va aksiyadorlar tomonidan boshqariladigan hamda moliyaviy majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydigan hamda, ularning javobgarligi kiritgan ulushlari miqdori bilan cheklangan jamiyatdir, B.I.Xayitov Aksiyadorlik jamiyati - bu korxona turi bo'lib, uning kapitali aksiyalar ko'rinishida bo'lib, aksiyadorlar tomonidan boshqariladigan va ularning kiritgan hissalar miqdorida javobgarligi cheklangan sub'ekt, A.S.Inoyatov Aksiyadorlik jamiyati - bu huquqiy shaklda tashkil qilingan korxona bo'lib, unda kapital aksiyalar shaklida bo'ladi va aksiyadorlar uning faoliyatini boshqarishda ishtirok etadigan sub'ektdir, Sh.K.Karimov Aksiyadorlik jamiyati - bu yuridik shaxs bo'lib, uning kapitali aksiyalar ko'rinishida bo'lib, aksiyadorlar tomonidan tashkil qilingan va boshqariladigan hamda moliyaviy majburiyatlari uchun shaxsiy javobgarlikka egaligi bo'lmagan kiritilgan ulushi bilan tashkil qilingan sub'ektdir.

Muallifning fikricha «Aksiyadorlik jamiyati - bu o'z aksiyadorlariga nazorat qilish huquqini beradigan va qo'shgan ulushlari bo'yicha foyda keltirish maqsadida tashkil etilgan tijorat tashkilotidir».

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada taqqoslash, guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy matematik, diskontlash va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Natija va muhokama.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va sof foydasini oshirish uchun menejer xodimlarning boshqaruvchanlik darajasini oshirishga to'g'ri keladi. Bu borada muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari ijroiya rahbarlari va menejer xodimlarini ish faoliyatini samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari orqali baholash uchun ularni ushbu jamiyatga aksiyadorlar sifatida jalb qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

2-sonli «Aksiyaga asoslangan to'lov»² nomli MHXS asosida menejer va rahbar xodimlar pul mablag'lari, ulushli instrumentlar va aralash usullar orqali rag'batlantirilishi aksiyadorlik jamiyatining samaradorligining oshishi ta'minlanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi asosida qabul qilingan yoki xarid qilingan jamiyat aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi asosida qabul qilingan yoki xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlarni, tovarlarga ega bo'lganda yoki xizmatlar qabul qilinganda tan olishi lozim. Agar tovarlar yoki xizmatlar ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasida qabul qilingan bo'lsa, jamiyat xususiy kapitaldagi tegishli o'sishni yoki agar tovarlar yoki xizmatlar pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasida xarid qilingan bo'lsa, majburiyatdagi tegishli o'sishni tan olishi lozim.

Aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasida qabul qilingan yoki xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlar aktiv sifatida tan olish mezonlariga javob bermagan holatda, ular xarajatlar sifatida tan olinishi lozim.

2-sonli «Aksiyaga asoslangan to'lov»³ nomli MHXSga asosan rag'batlantirish va dividendlar to'lashning maqsadga muvofiq mexanizmlarini belgilaydi, shuningdek, to'lovlarning o'lchamlari va ularni jamiyatning moliyaviy holatidan kelib chiqib amalga oshirish tartibi belgilanadi.

Buning afzalligi shundaki, jamiyatning rahbari va menejer hodimlari o'zlarining ish samaradorligi va moliyaviy natijalarini yaxshilashga intiladi, chunki ularning qo'lga kiritadigan rag'batlantirish to'lovlari jamiyatning moliyaviy natijalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

² 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to'lov»

³ 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to'lov»

Aksiyadorlik jamiyatining rahbari va menejer xodimlari ushbu jamiyatning aksiyadori bo'lsa, aksiyadorlar 2-sonli «Aksiyaga asoslangan to'lov»⁴ nomli MHXSga asosan, ularga mehnat haqi bilan birga rag'batlantirish sifatida dividend olish uchun rezerv yaratilib, uni to'lash tartibi pul mablag'lari, ulushli instrumentlar va aralash shaklda amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlari menejer xodimlarini rag'batlantirish uchun rezerv hisoblash usullari

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari	Ulushli instrumentlar	Aralash usul
Hisobga olinishi	Pul mablag'lari bilan to'lash	Ulushli instrumentlar bilan to'langan	Pul mablag'lari muqobili bilan amalga oshirish
Buxgalteriya o'tkazmasi	Debet Xodimlarni rag'batlantirish uchun xarajat Kredit Aksiyalarga asoslangan to'lovlar bo'yicha zaxira	Debet Xodimlarni rag'batlantirish uchun xarajat Kredit «Kapitalning boshqa elementlari»	Debet Xodimlarni rag'batlantirish uchun xarajat kredit aksiyalarga asoslangan to'lovlar bo'yicha zaxira Kredit «Kapitalning boshqa elementlari»
Moliyaviy hisobotda	«Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot»ning uzoq muddatli majburiyat qismida «Uzoq muddatli baholangan majburiyatlar»	«Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot»ning kapital bo'limida «Kapitalning boshqa elementlari»	«Moliyaviy holat to'g'risida» gi hisobotning uzoq muddatli majburiyat qismi va kapital bo'limida

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalarida jamiyat qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarni va xususiy kapitaldagi tegishli o'sishni bevosita qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarning haqqoniy qiymatida baholashi lozim, bundan haqqoniy qiymatni ishonchli baholash mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno. Agar jamiyat qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarning haqqoniy qiymatini ishonchli baholay olmasa, jamiyat ularning qiymatini va xususiy kapitaldagi tegishli o'sishni, bilvosita, taqdim etilgan ulushli instrumentlarning haqqoniy qiymati asosida baholashi lozim.

Agar taqdim etilgan ulushli instrumentlar bo'yicha huquq kontragent muayyan xizmat muddatini yakunlashiga qadar o'tkazilmasa, jamiyat mazkur ulushli instrumentlar uchun tovon sifatida kontragent tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kelgusida, huquq o'tish davri mobaynida qabul qilinadi, deb faraz qilishi lozim. Jamiyat mazkur xizmatlarni ular kontragent tomonidan huquq o'tish davri mobaynida ko'rsatilishi bilan, xususiy kapitaldagi tegishli o'sish bilan birga hisobga olishi lozim.

⁴ 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to'lov»

Agar xodimga uch yillik xizmatni yakunlash sharti bilan aksiya opsiolari taqdim etilsa, jamiyat, aksiya opsiolari uchun tovon sifatida xodim tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kelgusi uch yillik huquq o'tish davri mobaynida qabul qilinadi deb faraz qilishi lozim.

Agar xodimga aksiya opsiolari ma'lum faoliyat natijasiga erishish va jamiyatda ushbu faoliyat natijasiga erishilgunga qadar o'z ish faoliyatini davom ettirish sharti bilan taqdim etilsa va huquq o'tish davrining muddati ushbu faoliyat natijasiga erishish paytiga bog'liq ravishda o'zgarsa, jamiyat aksiya opsiolari uchun tovon sifatida xodim tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kelgusida, kutilayotgan huquq o'tish davri mobaynida qabul qilinadi deb faraz qilishi lozim. Jamiyat kutilayotgan huquq o'tish davrining davomiyligini faoliyat natijasining eng katta ehtimolli natijasiga asoslangan holda, opsiolarni taqdim etish sanasida baholashi lozim. Agar faoliyat natijasiga erishish sharti bozor sharti bo'lsa, kutilayotgan huquq o'tish davrining baholangan davomiyligi taqdim etilgan opsiolarning haqqoniy qiymatini baholashda foydalaniladigan farazlarga mos bo'lishi va keyingi davrlarda o'zgartirilmasligi lozim. Agar faoliyat natijasi sharti bozor sharti bo'lmasa, jamiyat lozim bo'lganda, agar keyingi ma'lumotlar huquq o'tish davri davomiyligining oldingi baholanishlaridan farq qilishini ko'rsatsa, huquq o'tish davri davomiyligining baholanishini qayta ko'rib chiqishi lozim.

Ulushli instrumentlarning taqdim etilishi huquq o'tishining muayyan shartlarini bajarish shartiga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, xodimga aksiyalarni yoki aksiya opsiolarini taqdim etish, odatda, xodimning jamiyatda o'z ish faoliyatini belgilangan davr mobaynida davom ettirish shartiga bog'liq bo'ladi. Jamiyat foydasining ma'lum bir o'sishiga yoki jamiyat aksiyasi narxining ma'lum darajada oshishiga erishish kabi faoliyat natijasiga erishish shartlari bo'lishi mumkin. Baholash sanasida aksiyalar va aksiya opsiolarining haqqoniy qiymatini baholashda bozor shartlaridan farq qiladigan huquq o'tish shartlari hisobga olinmasligi lozim. Buning o'rniga, bozor shartlari hisoblanmaydigan huquq o'tish shartlari operatsiya summasini baholashda hisobga olingan ulushli instrumentlarning miqdorini tuzatish orqali inobatga olinishi lozim, buning natijasida, yakuniy bosqichda, taqdim etilgan ulushli instrumentlar uchun tovon sifatida qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlar bo'yicha tan olingan summa haqiqatda o'tadigan ulushli instrumentlarning miqdoriga asoslangan bo'lishi lozim. Shunday qilib, ulushli instrumentlar, bozor shartlari hisoblanmaydigan huquq o'tish sharti bajarilmasligi sababli o'tkazilmasa, agar kontragent belgilangan xizmat davrini yakunlamasa yoki ma'lum faoliyat natijasiga erishilmasa, kumulyativ asosda qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlar uchun hech qanday summa tan olinmaydi.

Huquq o'tishida (yoki amalga oshirilishida) shart qilib belgilangan aksiya narxi kabi bozor shartlari taqdim etilgan ulushli instrumentlarning haqqoniy qiymatini baholashda inobatga olinishi lozim. Shuning uchun, ulushli instrumentlarni bozor shartlari bilan birga taqdim etishda, jamiyat boshqa barcha huquq o'tish shartlarini qanoatlantiradigan kontragentdan qabul qilinadigan tovarlar yoki xizmatlarni (masalan belgilangan xizmat davrida ish faoliyatini davom ettiradigan xodimdan qabul qilinadigan xizmatlarni) ushbu bozor sharti bajarilishidan qat'iy nazar tan olishi lozim.

Pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalari bo'yicha jamiyat xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlarni va yuzaga kelgan majburiyatning haqqoniy qiymatida baholashi lozim. Majburiyat so'ndirilgunga qadar, har bir hisobot davri oxirida va so'ndirish sanasida jamiyat majburiyatning haqqoniy qiymatini qayta baholashi lozim va haqqoniy qiymatdagi har qanday o'zgarishlar davr uchun foyda yoki zararda tan olinishi lozim.

Kelishuv shartlari jamiyatga yoki kontragentga jamiyat operatsiyani pul mablag'lari (yoki boshqa aktivlar) bilan yoki ulushli instrumentlarni chiqarish orqali so'ndirish imkoniyatini ta'minlaydigan, aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalari, jamiyat ushbu operatsiyani yoki ushbu operatsiyaning komponentlarini, agar jamiyatda pul mablag'lari bilan yoki boshqa aktivlar bilan

so'ndirish bo'yicha majburiyat yuzaga kelsa va o'sha darajada pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi sifatida hisobga olishi lozim yoki, agar bunday majburiyat yuzaga kelmasa va o'sha darajada ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi sifatida hisobga olishi lozim.

Tovarlar yoki xizmatlarni qabul qiluvchi jamiyat qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarni quyidagi hollarda ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi sifatida baholashi lozim:

- taqdim etilgan mukofotlar o'zining ulushli instrumentlari bo'lsa, yoki
- jamiyat aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasini so'ndirish bo'yicha javobgarlikka ega bo'lmasa.

Aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasini guruhdagi boshqa jamiyat tovarlar yoki xizmatlarni qabul qilganda hisob-kitob qiladigan jamiyat bunday operatsiyani, agar u jamiyatning o'z ulushli instrumentlari bilan so'ndirilsa, ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi sifatida tan olishi lozim. Aks holda, operatsiya pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi sifatida tan olinishi lozim.

Jamiyat moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarning yoki taqdim etilgan ulushli instrumentlarning haqqoniy qiymatini davr mobaynida qanday aniqlanganligini tushunish imkonini beradigan ma'lumotlarni yoritib berishi lozim.

Jamiyat aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalarining jamiyatning davr uchun foyda yoki zarariga va uning moliyaviy holatiga nisbatan ta'sirini moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tushunishi imkonini beradigan ma'lumotlarni yoritib berishi lozim.

Aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalaridan yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha davr oxiriga jami balans qiymati va davr oxiriga kontragentning pul mablag'lariga yoki boshqa aktivlariga nisbatan huquqi o'tishi uchun majburiyatlarning (masalan, aksiya qiymati o'sishidan foyda olish huquqlari o'tgan) davr oxiridagi jami ichki qiymati.

Aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi bu jamiyat tovarlar yoki xizmatlar yetkazib beruvchisidan tovarlar yoki xizmatlarni aksiyaga asoslangan to'lov kelishuvida qabul qiladigan yoki guruhdagi boshqa jamiyat tovarlar yoki xizmatlarni qabul qilganda aksiyaga asoslangan to'lov kelishuviga asosan yetkazib beruvchi bilan operatsiyani so'ndirish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladigan operatsiya hisoblanadi.

Aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasining asosiy xususiyati aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasining quyidagi 2 ta asosiy o'ziga xos xususiyati mavjud:

- hisobot beruvchi jamiyat tovarlar yoki xizmatlarni qabul qiladi;
- hisobot beruvchi jamiyat kelishuv bo'yicha hisob-kitobni o'zining ulushli instrumentlariga bog'langan o'z ulushli instrumentlari yoki pul mablag'lari bilan amalga oshiradi, tovon summasi aksiya asosida aniqlanadi.

Aksiyaga asoslangan to'lov operatsiyasi ulushli instrumentlar bilan jamiyat tovarlar yoki xizmatlarni o'zining ulushli instrumentlari uchun tovon sifatida qabul qiladi (jumladan aksiyalar yoki aksiya opsionlari), tovarlar yoki xizmatlarni qabul qiladi, lekin yetkazib beruvchilar bilan operatsiyani so'ndirish bo'yicha hech qanday javobgarlikka ega bo'lmaydi.

Pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalari esa jamiyatning yoki guruhdagi boshqa jamiyatning ulushli instrumentlarining narxiga asoslangan summalarda pul mablag'lari yoki boshqa aktivlarni tovarlar yoki xizmatlarning yetkazib beruvchisiga o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Aksiyaga asoslangan to'lovni tan olish va baholash uchun jamiyat aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasi asosida qabul qilingan yoki xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlarni, tovarlarga ega bo'lganda yoki xizmatlar qabul qilinganda tan olishi lozim. Jamiyat tovarlar yoki xizmatlar ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasida qabul qilingan bo'lsa, xususiy kapitaldagi tegishli o'sishni tan olishi lozim, tovarlar yoki xizmatlar pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasida xarid qilingan bo'lsa, majburiyatdagi tegishli o'sishni tan olishi lozim. Aksiyaga asoslangan to'lovni tan olish va baholash aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyasida qabul qilingan yoki xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlar aktiv sifatida tan olish mezonlariga javob bermaca, xarajatlar sifatida tan olinadi.

Ulushli instrumentlar bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalarida jamiyat qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarni va xususiy kapitaldagi tegishli o'sishni bevosita qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarning haqqoniy qiymatida baholashi lozim, bundan haqqoniy qiymatni ishonchli baholash mumkin bo'lmagan hollar mustasno. Agar jamiyat qabul qilingan tovarlar yoki xizmatlarning haqqoniy qiymatini ishonchli baholay olmasa, jamiyat ularning qiymatini va xususiy kapitaldagi tegishli o'sishni, bilvosita, taqdim etilgan ulushli instrumentlarning haqqoniy qiymati asosida baholashi lozim.

Xizmatlar qabul qilinadigan operatsiyalar taqdim etilgan ulushli instrumentlar bo'yicha huquqlar darhol o'tkazilsa kontragentdan mazkur ulushli instrumentlar bo'yicha shartsiz egalik huquqiga ega bo'lishidan oldin muayyan xizmat muddatini yakunlashi talab etilmaydi:

- Taqdim etish sanasida qabul qilingan xizmatlarni to'liq hajmda, xususiy kapitaldagi tegishli o'sish bilan birga tan olinadi;

- taqdim etilgan ulushli instrumentlar bo'yicha huquq muayyan xizmat muddati yakunlangunga qadar o'tkazilmasa ulushli instrumentlar uchun tovon sifatida kontragent tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kelgusida, huquq o'tish davri mobaynida qabul qilinadi, huquq o'tish davri mobaynida kontragent tomonidan xizmatlar ko'rsatilishi bilan, mazkur xizmatlar xususiy kapitaldagi tegishli o'sish bilan birga hisobga olinadi.

Pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalari:

- Pul mablag'lari bilan so'ndiriladigan aksiyalarga asoslangan to'lov operatsiyalari bo'yicha jamiyat xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlarni va yuzaga kelgan majburiyatni majburiyatning haqqoniy qiymatida baholashi lozim.

- Majburiyat so'ndirilgunga qadar, har bir hisobot davri oxirida va so'ndirish sanasida jamiyat majburiyatning haqqoniy qiymatini qayta baholashi lozim va haqqoniy qiymatdagi har qanday o'zgarishlar davr uchun foyda yoki zararda tan olinishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlarida menejer xodimlarni rag'batlantirish maqsadida rezerv tashkil etiladi. Ushbu rezerv bo'yicha ma'lum davr belgilanadi. Ushbu davrda menejer xodimlarni ish faoliyati natijalariga qarab baholanadi. Menejer xodimlar «Aksiyaga asoslangan to'lov» nomli standartga asosan pul mablag'lari, moliviy instrument va aralash shaklda mukofot olish ta'minlanadi.

Agar menejer xodimlari belgilangan muddatda ishni bajara olmay bo'shab ketsa, ushbu bo'shagan xodimlar ulush mukofot to'lab berilmaydi.

Pul mablag'lari bilan rag'batlantirish menejer xodimlar uchun jamiyat tomonidan xarajatlar va majburiyatlar sifatida hisobga olinadi, bu esa jamiyatga har yillik sof foydasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, menejer xodimlar yilma – yil soniga qarab mukofotlash orqali ish samaradorligi oshib, aksiyaning daromadlilik yanada oshishiga xizmat qiladi. Shundan ko'rishimiz mumkinki, biz tanlab olgan tadqiqot ob'ektlarimizda menejer xodimlari va rahbarlari aksiyador emas. Buning natijasida jamiyat ish faoliyati yilma – yil MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarda foydaning

kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Muallif tomonidan 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to‘lov» nomli standartga asosan, menejer xodimlarni pul mablag‘lari ulushli instrument va gibrid ya‘ni aralash shaklda rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni bir xilligini ta‘minlash maqsadida MHXS bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2024 yil 8-oktyabrdagi 181-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga asosan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida”⁵gi nizomni talablarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2. Aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug‘i “aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini joriy etish tartibi to‘g‘risida”⁶gi nizomga asosan, aksiyadorlarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

3. 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to‘lov»⁷ga asosan, aksiyadorlik jamiyati menejer xodimlarini “Pul mablag‘lari”, “Ulushli instrumentlar” va “Gibrid (aralash)” usulidan foydalanish lozim.

4. Aksiyadorlik jamiyatining rahbari va menejer xodimlari jamiyatning aksiyadori bo‘lsa, aksiyadorlar xalqaro 2-son MHXS “Aksiyaga asoslangan to‘lov”⁸ nomli standartga asosan, ularga mehnat haqi bilan birga rag‘batlantirish sifatida dividend olish uchun rezerv yaratilib, uni to‘lash tartibi pul mablag‘lari, ulushli instrumentlar va aralash shaklda amalga oshiriladi hamda pul mablag‘lari bo‘yicha debet xodimlarni rag‘batlantirish uchun xarajat kredit aksiyalarga asoslangan to‘lovlar bo‘yicha zaxira, usuli instrumentlar bo‘yicha debet xodimlarni rag‘batlantirish uchun xarajat kredit kapitalning boshqa elementlari, gibrid ya‘ni aralash usulda debet xodimlarni rag‘batlantirish uchun xarajat kredit aksiyalarga asoslangan to‘lovlar bo‘yicha zaxira kredit kapitalning boshqa elementlari bo‘yicha jurnal o‘tkazmalari amalga oshirish maqsadga muvofiq.

5. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181 – son buyrug‘iga 1-ilova asosan «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida»⁹gi, nizomi bo‘yicha moliyaviy hisobotning “Moliyaviy holat to‘g‘risida”gi hisobotining majburiyatlar kapital bo‘limida “Menejer va rahbar hodimlarni rag‘batlantirish uchun ajratilgan aksiyalar” nomli tegishli satr orqali hisobga olish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi xulosalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida menejer va rahbar xodimlarni ish faoliyatini yanada oshirish hamda jamiyat sof foydasini oshirish orqali ularni rag‘batlantirish jarayonini amalga oshirilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2024 yil 8-oktyabrdagi 181-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga asosan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida”gi nizom

⁶ Aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug‘i “aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom

⁷ 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to‘lov»

⁸ 2-sonli MHXS «Aksiyaga asoslangan to‘lov»

⁹ O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181 – son buyrug‘iga 1-ilova asosan «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida»gi, nizomi

xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining 06.05.2014 yildagi O‘RQ-370-son «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. [https:// www.lex.uz](https://www.lex.uz)

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2024 yil 8-oktyabrdagi 181-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga asosan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida” gi Nizom

4. O‘zbekiston respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024 yil 4 sentyabrdagi 8-son buyrug‘i, aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

5. Abalkin L. I. Ekonomicheskaya ensiklopediya Rossii. Moskva: «INFRA-M», s.240. 2005 y.

6. Abdullaev Yu. I. Buxgalteriya hisobii asoslari. Toshkent: Universitet nashri, B.45. 2015

7. Blank I. A. Upravlenie finansami kompanii. Moskva: «KnoRus», s.325. 2009.

8. Isroilov B.I. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish (Savdo aksiyadorlik jamiyatlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 1999. 24 b.

9. Inoyatov A. S. O‘zbekistonda korporativ boshqaruv. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2014 y. B.88.

10. Karimov Sh. K. Korporativ moliya va boshqaruv. Toshkent: Umid nashriyoti, 2017 y. B. 65.

11. Xayitov B. I. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot-moliya, 2018 y. B.88.

12. MHXS (IAS) 1 "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

13. Brealey R. & Myers S. Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill, p.220. 2008.

14. <http://www.imf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti).

15. <https://lex.uz/docs/6312360>.

*Jurayeva Sevara Zakirovna, (PhD., dots.v.b),
“Trustbank” XAB Kreditlash departamenti Korporativ
kreditlar anderraytingi bo’limi boshlig’i,
e-mail: s.jurayeva@trustbank.uz*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMIDA KREDITLAR AJRATISH
JARAYONLARINI JADALLASHTIRISH VA KREDIT PORTFELINI SIFATLI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

*Жураева Севара Закировна (PhD, доц.и.о),
Начальника отдела андеррайтинга корпоративных
кредитов Департамента кредитования ЧАБ «Трастбанк»
s.jurayeva@trustbank.uz*

**ПЕРСПЕКТИВЫ УСКОРЕНИЯ ПРОЦЕССОВ КРЕДИТОВАНИЯ И
КАЧЕСТВЕННОГО УЛУЧШЕНИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В БАНКОВСКОЙ
СИСТЕМЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

*Jurayeva Sevara Zakirovna, (PhD)
Head of Corporate Loan Underwriting division of Lending
Department of “Trustbank” PJSB s.jurayeva@trustbank.uz*

**PROSPECTS FOR ACCELERATING THE PROCESSES OF LOAN ALLOCATION AND
QUALITATIVELY IMPROVING THE LOAN PORTFOLIO IN THE BANKING SYSTEM
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Annotatsiya: Har bir davlatning kreditlash tizimi bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu faoliyat natijasi nafaqat banklar samaradorligiga erishish, shu bilan birga iqtisodiy o‘shish va moliyaviy tizim barqarorligini ta‘minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Kreditlar banklar vujudga kelgan davrlardan beri an‘anaviy bank tizimining asosiy faoliyat turi bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar, banklar va turli to‘lov tizimlari orasida raqobatning kuchayishi, raqamli va moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va mijozlar ehtiyojlarining o‘zgarishi kredit operatsiyalarining sifat jihatidan yangilanishini talab qilmoqda. Ushbu maqolada, kreditning iqtisodiy mohiyati, kreditlash faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, mijozlarga qarz mablag‘lari ajratish jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari, kredit portfeli sifatli o‘shishini ta‘minlash hamda kreditlar ajratilishida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha xorij tajribasi yozilgan. Shuningdek, O‘zbekiston tijorat banklari misolida kreditlash jarayonidagi muammolar, kredit portfeli sifati va holati tahlili, ularni takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar : kreditlash, kredit, kredit portfeli, risk, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, kredit riskini boshqarish, kredit scoring, to‘lovga layoqatlilik tahlili

Аннотация

Система кредитования каждой страны является одним из основных направлений банковской деятельности, и результаты этой деятельности играют важную роль не только в достижении эффективности работы банков, но и в обеспечении экономического роста и стабильности

финансовой системы. Кредитование является основным видом деятельности традиционной банковской системы с момента появления банков. Сегодня возросшая конкуренция между компаниями, осуществляющими финансовую деятельность, банками и различными платежными системами, стремительное развитие цифровых и финансовых технологий, а также меняющиеся потребности клиентов требуют качественного обновления кредитных операций. В данной статье рассматриваются экономическая сущность кредита, особенности кредитной деятельности, направления совершенствования процессов предоставления кредитов клиентам, обеспечения качественного роста кредитного портфеля, зарубежный опыт использования современных технологий при предоставлении кредитов. Также рассматриваются проблемы в процессе кредитования, анализ качества и состояния кредитного портфеля, пути совершенствования и повышения их эффективности на примере коммерческих банков Узбекистана.

Ключевые слова: кредитование, кредит, кредитный портфель, риск, кредитная политика, финансовая устойчивость, управление кредитным риском, кредитный скоринг, анализ платежеспособности

Abstract

The lending system of each country is one of the main areas of banking activity, and the results of this activity play an important role not only in achieving the efficiency of banks, but also in ensuring economic growth and the stability of the financial system. Loans have been the main type of activity of the traditional banking system since the emergence of banks. Today, increased competition among companies engaged in financial activities, banks and various payment systems, the rapid development of digital and financial technologies, and changes in customer needs require a qualitative renewal of credit operations. This article describes the economic essence of credit, the specific aspects of lending activities, areas for improving the processes of allocating loans to customers, ensuring the qualitative growth of the credit portfolio, and foreign experience in using modern technologies in the allocation of loans. Also, the problems in the lending process, analysis of the quality and condition of the credit portfolio, ways to improve them and increase their efficiency are highlighted using the example of commercial banks of Uzbekistan.

Keywords : lending, credit, credit portfolio, risk, credit policy, financial stability, credit risk management, credit scoring, solvency analysis

Kirish

Ma'lumki, kreditlash faoliyatiga vaqtincha o'z egalari qo'lida turgan bo'sh pul mablag'larini boshqa shaxslar tomonidan ma'lum muddatga foiz to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlar sifatida qaraladi. Kredit munosabatlari bo'sh turgan mablag'ning egasi, ya'ni qarz beruvchi va pulga talabgor subyekt, ya'ni qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi. Kredit beruvchi shaxs bir vaqtning o'zida ham qarz beruvchi, ham boshqalardan qarz oluvchi bo'lishi mumkin. Misol tariqasida, banklar pul egasi va qarz oluvchi o'rtasida vositachi roliga bo'ladi, chunki pulni faqat o'zining resursidan emas, balki boshqa shaxslardan qarzga olishi mumkin. Kredit subyektlariga davlat, bank, xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik maqomga ega bo'lmagan xususiy tadbirkorlar va barcha jismoniy shaxslar kirishi mumkin.

Kreditlash jarayoni muddatlilik, qaytarishlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik va maqsadlilik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Kredit munosabatlarining subyekt sifatida jismoniy shaxslar, davlat va boshqa hukumat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va chet el tashkilotlari bo'lishi mumkin. Kreditlash obyektlari qarzga olingan mablag'lar va kredit olish

maqsadlari ya'ni ko'chmas mulk, tovar-moddiy boyliklar, asbob uskunalar, avtotransport vositalari va boshqa tovarlar bo'lishi mumkin.

Turli xil kredit shakllaridan eng ko'p foydalaniladigan turi bu bank kreditlaridir. Kreditlar milliy va xorijiy valyutada berilishi mumkin. Shuningdek foiz stavkalari bo'yicha qat'iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavkalardagi kreditlarga bo'linadi. Qat'iy foiz stavkalari kreditning butun davri mobaynida o'zgarmasligi bilan ham kreditorga ham qarz oluvchiga qulay. Soni bo'yicha kreditlarni yagona bank tomonidan beriladigan kreditlar, sindikatlashgan kreditlar va parallel kreditlar kabi turlarga bo'lamiz. Respublikamizda yagona bank tomonidan beriladigan kreditlar turi keng qo'llanilayotgan bo'lsada jahon amaliyotida banklar yoki moliyaviy institutlar birgalikda sindikatlashgan kreditlar beryotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Kreditlar ajratishda har bir bank mijoz bilan alohida kelishadi va hujjatlar shakllantiradi hamda oxirida umumiy kredit shartnomasini imzolaydi. Bundan tashqari, kreditlar sifatiga ko'ra standart, substandard, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kabi toifalarga bo'linadi va har bir toifa bo'yicha Markaziy bank talablariga binoan har oyda majburiy zahira shakllantiriladi.

Bugungi kunda respublikamizda kreditlash faoliyatini amalga oshirilishida bir qator huquqiy normativ qonun hujjatlariga asosanib ish olib boriladi, ular jumlasiga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Kredit byurolari, kredit axborotidan foydalanuvchilar va kredit axborotini yetkazib beruvchilar o'rtasida kredit axboroti almashinuvi hamda kredit hisobotlarini taqdim etish tartibi to'g'risida nizom (Adliya vazirligida 2012 yil 2 martda 2331-son bilan ro'yxatga olingan), Kredit tashkilotlari tomonidan kredit axborotining davlat reestriga va kredit byurolariga kredit axborotini taqdim etish tartibi to'g'risida nizom (Adliya vazirligida 2012 yil 2 martda 2332-son bilan ro'yxatga olingan), Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom (Adliya vazirligida 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Banklar tomonidan kichik biznes subyektlariga kreditlar ajratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 7 sentabrdagi PQ-312-son "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda elektron faktoring platformalari orqali faktoring xizmatlari ko'rsatishda respublikamiz Prezidentining 2024 yil 12 avgustdagi PF-109-son "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoniga asosan ish olib boriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 fevraldagi PF-26-son "Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [1] farmoniga muvofiq ipoteka krediti ajratish bo'yicha normativ huquqiy asoslar belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Respublikamizdagi mahalliy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan kreditlash jarayonlarini takomillashtirish va kredit portfelini sifatli shakllantirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular tomonidan kreditlash faoliyatini xorijiy tajribalar asosida modernizatsiya qilish va optimallashtirish, sog'lom kredit portfelini shakllantirish va diversifikatsiya qilish, turli xil kredit turlarini takomillashtirish hamda risklarni oldini olish bo'yicha tegishli izlanishlar olib borilgan. Jumladan, B.Karimovning O'zbekistondagi bank tizimida kreditlash faoliyatini tashkil qilinishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarida kreditlash jarayonlarida shaffoflik va risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatib o'tgan. [2]

I.Tursunov o'zining "Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili" asarida kredit portfellarining tuzilmasi, bank hisobidagi kredit operatsiyalarini aks ettirilishi va tahlil

uslublarini yoritgan.[3] M. Ergashev tomonidan esa O'zbekistondagi bir nechta tijorat banklarida o'tkazilgan kredit portfeli tahlili bo'yicha empirik tadqiqoti o'tkazilgan bo'lib, bunda kredit portfeli sifatining bank rentabelligiga ijobiy ta'siri aniqlagan.[4] Muallif kredit portfelining diversifikatsiyasi va monitoringi jarayonining bank samaradorligi bilan bog'liqligini statistik ko'rsatkichlar bilan isbotlagan.

Azizov U.O', Qoraliev T.M. va boshqalar tomonidan yozilgan "Bank ishi" darsligida kreditga layoqatlilik tushunchasi, mohiyati, uning kreditlash jarayonidagi ahamiyati, jismoniy va yuridik shaxslarning kreditga layoqatliligini baholash usullari va tartiblari bir guruh olimlar tomonidan keltirib o'tilgan.[5]

D. Mirzaev va N. Sobirovlar tomonidan "Ipak Yo'li" AITBda kredit portfeli va kredit operatsiyalarini raqamli transformatsiyasi hamda hisoblash usullari bo'yicha yozilgan empirik maqolada kredit ajratish jarayonlarini avtomatlashtirish ta'kidlangan. Tadqiqotda real amaliyot natijasini tahlil asosida ko'rsatib o'tilgan.[6]

Kreditlash bo'yicha xorijiy olimlarning izlanishlari va boshqa davlatlardagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali kredit siyosati banklarning moliyaviy barqarorligi va mijozlar ehtiyojlarini qondirishda muhim ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Smith va Jones o'z tadqiqotlarida kredit portfelini diversifikatsiya qilish tavakkalchiliklarni kamaytirishini ta'kidlagan.[7] Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni kredit operatsiyalarida joriy etish, masalan, sun'iy intellekt va "big data" tahlili, kreditlash jarayonining aniqligini oshiradi deb ta'kidlangan.[8]

Kamara.J tomonidan Sierra Leone tijorat banklarida kredit risklari va bank samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan bo'lib, muallif kredit risklarini kamaytirishda qarzdor mijozning yoki uning korxonasining buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil qilinishi va muntazam audit olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi.[9]

Nguyen.H o'z tadqiqotida Vetnam tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kredit risklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni statistik modellar yordamida tahlil qilgan. Uning fikricha, buxgalteriya hisobi va audit orqali kredit xavflarini erta aniqlash mumkin.[10]

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda zamonaviy bank tizimida kreditlash jarayonlarini jadallashtirish va samarali kreditlash tizimini joriy etish bo'yicha hamda sifatli kredit portfelini o'sishini ta'minlashga doir mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.

Natija va muhokama.

Respublikamizning ko'pgina tijorat banklari tomonidan kredit jarayonlarini rivojlantirishda samarali kredit siyosati ishlab chiqilishiga katta e'tibor qaratilib bunda asosiy maqsadlar sifatida kredit faoliyatini yanada rivojlantirish va kredit portfeli daromadlilikini oshirish, kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash, bank aktivlari strukturasida kredit va jalb qilingan mablag' o'rtasidagi oqilona mutanosiblikni saqlash, kredit bo'yicha tavakkalchilikni diversifikatsiyalash, zarur bo'lgan likvidlilik darajasini saqlash va mamlakat hududlarining kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bir qator maqsadlar uchun kreditlar ajratib kelinmoqda, jumladan quyidagilar uchun:

-iqtisodiyotning real sektori korxonalari barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish maqsadida, ularga xom-ashyo va materiallar sotib olish, qayta ishlash, ishlab chiqarish, mahsulotni (ishni, xizmatni) eksport qilishga zarur bo'ladigan aylanma mablag'ni to'ldirish uchun;

-tadbirkorlik subyektlariga import kontraktlarini moliyalashtirish uchun chet el valyutasida kreditlar, ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, qishloq joylarda yuqori unumli texnika va texnologiyalar negizida ixcham qayta ishlash korxonalarini yaratish va aholini ish bilan ta'minlash maqsadida quyidagilar uchun kredit;

- ishlab chiqarish korxonalariga – oziq-ovqat mahsulotlari (un, sariyog', o'simlik yog'i, margarin, shakar, meva-sabzavot va go'shtli konserva) ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan xom-ashyo va materiallar hamda texnologik dastgohlar sotib olish uchun;

- fermer xo'jaliklari, agrofimlar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga – issiqxonalar qurish, tomchilab sug'orish tizimlarini sotib olish va o'rnatish uchun.


- ulgurji savdo korxonalariga – mahalliy ishlab chiqaruvchilardan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari sotib olish uchun.;

- ishlab chiqarish korxonalariga – nooziq-ovqat iste'mol tovarlari (gazmol, tayyor tikuvchilik mahsulotlari, paypoq va trikotaj buyumlar, bosh kiyim, poyabzal, attorlik buyumlari, uy-ro'zg'or buyumlari, madaniy-maishiy va uzoq muddat ishlatiladigan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari) ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan texnologik jihozlar, xom-ashyo va materiallar sotib olish uchun;

Bundan tashqari, amaliyotda respublikamiz tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash asosan iste'mol, ipoteka, mikroqarz, avtokredit va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar kabi usullarda olib borilmoqda. Bundan tashqari, so'ngi yillarda mijozlar tomonidan ipoteka kreditlariga bo'lgan talab keskin oshib bormoqda.

Bozor munosabatlari yangi segmentlarini o'zlashtirish jarayonida iqtisodiyotning turli tarmog'idagi yuqori investitsiya salohiyatiga ega bo'lgan korporativ mijozlarga bank tomonidan kompleks xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan yangi kredit mahsulotlari ishlab chiqilmoqda. Bozorning ushbu segmentida Bankdagi hisobvaraqlarida barqaror pul aylanmasiga ega bo'lgan, iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan va investitsiya jihatidan jozibador sanoat, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish, eksport va import qiluvchi korxonalar, savdo va savdo-vositachilik tashkilotlari, samarali faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirish muhimdir.

Respublikamiz tijorat banklari faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, misol tariqasida yetakchi bankardan bir Ipak Yo'li AITB faoliyatida 2020–2024 yillar orasida kreditlar hajmi va ularning o'sish sur'atida sezilarli o'sish kuzatilgan. Masalan, 2020-yilda 800 mlrd. so'm bo'lgan umumiy kredit portfeli 2024-yil yakunida 1 200 mlrd. so'mga yetib, 50% o'sishga erishilgan. Shu davrda yillik o'sish sur'ati o'rtacha 12–15% atrofida bo'lib, 2023-yilda 7.3% dan 2024-yilda 9.1% ga ko'tarilgan. Muammoli kreditlar ulushi esa 2020-yildagi 6,5% dan 2024-yilda 4,9% ga pasaygan, bu bankning kredit sifatini yaxshilash strategiyasining natijasidir. Ipoteka va iste'mol kreditlari bo'yicha statistikaga nazar tashlasak, umumiy kredit portfelining 20% miqdori ipoteka kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan, 35% esa iste'mol kreditlarini tashkil etgan. Markaziy bank va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan, mamlakat bo'ylab muammoli kreditlar ulushi 5,3% ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu bankda bu ko'rsatkich bir oz pastroq ya'ni, 4,9% bo'lgan, bu esa bankning kredit siyosati samaradorligini ko'rsatadi.



1-rasm. Umumiy kredit portfeli (mlrd so'm) (Manba: www.ipakyulibank.uz, 2024)

Ushbu rasmdan ko'rinadiki, 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda "Ipak Yo'li" AITB misolida umumiy kredit portfeli hajmining yillik o'sishi kuzatilgan. Grafikdagi ustunlar har bir yildagi umumiy kredit hajmini milliard so'mda ifodalaydi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-yildan 2024-yilgacha kredit portfeli hajmi 800 mlrd so'mdan 1 200 mlrd so'mga oshgan. Yillik o'sish sur'ati ijobiy bo'lib, bankning kreditlash siyosati kengayganini va mijozlarga moliyaviy xizmatlar hajmi ortganini bildiradi.

"Ipak Yo'li" AITB 2020–2024 yillar oralig'ida kredit operatsiyalarinni takomillashtirish uchun raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Kredit modullarining elektron integratsiyasi orqali 2022-yildan boshlab barcha yangi kreditlar BankIS platformasida ma'lumotlar bazasiga real vaqtda kiritilishi yo'lga qo'yildi. Bu orqali har bir mijoz bo'yicha kredit scoring va DSCR parametrlarini avtomatlashtirilgan tarzda hisoblash imkoniyati paydo bo'ldi va bu jarayon 92% aniqlikka ega deb baholangan. Elektron shartnoma platformasi joriy etilishi orqali kredit shartnomalarini raqamli tarzda rasmiylashtirish va imzolash jarayonini 2023-yildan 100% onlayn rejimga o'tkazishga erishildi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kredit operatsiyalarini takomillashtirish banklar moliyaviy salohiyatini oshirish, iqtisodiyotga investitsiya jalb qilish va mijozlar ehtiyojini to'liq qondirish imkonini beradi. Kreditlash faoliyati banklarning asosiy daromad manbai bo'lishi bilan bir qatorda bankning likvidlik, samaradorlik va to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlariga asosiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Qolaversa bankda mijozlar oqimi ko'payishi va bank obro'si ham samarali tashkil etilgan kreditlash faoliyati orqali ijobiy o'zgarishga olib keladi. O'zbekistonda kredit jarayonlarini jadallashtirishda sezilarli ijobiy siljishlar bo'lsada, tizimli yondashuv, texnologik yangiliklar va sifatli boshqaruv orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt dasturlaridan foydalangan holda kredit scoring tizimini takomillashtirish, kredit hujjatlarini elektron tahlil qilinishini tezlashtirish hamda xalqaro banklar tajribasidan kreditlash faoliyatiga doir oxirgi innovatsion jarayonlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Kreditlashdagi hozirda mavjud bo'lgan kafolatlar tizimining zaifligi, mijozlarning kreditga layoqatini baholashdagi noaniqliklar, faol risk-menejment tizimining yetishmasligi, kadrlar salohiyatining pastligi kabi muommolarga qaramasdan kredit operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

• **Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Bunda mijozlarni to'lovga layoqatliligini aniqlash va ishonchli tahlil qilish maqsadida** Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida baholaydigan kredit skoring tizimini rivojlantirishni yoki onlayn tarzda bank xizmatlari uchun ariza topshirish va uni tezkor ko'rib chiqish mexanizmlarini rivojlantirishni misol qilishimiz mumkin.

• **Risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish.** Buning uchun kredit oluvchilarning moliyaviy ahvolini chuqur tahlil qilish va turli sohalarga kredit ajratish bo'yicha diversifikatsiyalashgan kredit portfeli shakllantirishni ko'zda tutish mumkin.

• **Kadrlar salohiyatini oshirish.** Ushbu taklif bo'yicha kredit menejerlari va kreditlashda xizmat ko'rsatuvchi ma'sul mutaxassislar uchun o'quv kurslari va treninglarni yetarlicha tashkillashtirish hamda ichki audit va nazorat tizimini kuchaytirishni keltirishimiz mumkin.

• **Innovatsion mahsulotlar yaratish.** Zamonaviy oxirgi texnologiyalardan foydalangan holda mijozlar ehtiyojlariga mos individual kredit liniyalarini ochish hamda yashil moliyalashtirish, iste'mol kreditlari va mikrokreditlarning turlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. <https://lex.uz/docs> (Qonun, Farmon va qarorlar)
2. Karimov, B. (2022). O'zbekistonda tijorat banklarining kreditlash faoliyati. Iqtisodiyot va moliya jurnali, 3(2), 45-58.
3. Tursunov, I. (2020). Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Ergashev, M. (2021). O'zbekistonda tijorat banklarining kredit portfeli tahlili. Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, 3(1), pp.50–59.
5. Azizov U.O', Qoraliev T.M. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2016
6. Mirzaev, D. & Sobirov, N. (2022). Kredit operatsiyalarining raqamli transformatsiyasi. Ipak Yo'li AITB tahlillari, 4(2), pp.90–101.
7. Smith, J., & Brown, R. (2020). Digital Transformation in Banking. London: Financial Times Press.
8. Brown, A., & Green, P. (2021). "The Role of Artificial Intelligence in Modern Banking." International Journal of Banking Technology, 12(1), 45-67.
9. Kamara, J. (2024). Credit risks and efficiency in Sierra Leone banks. African Journal of Finance, 6(4), pp.80–91
10. Nguyen, H. (2023). Financial stability and credit risks in Vietnam. Vietnam Economic Review, 14(1), pp.30–44.

Kasimova Gulyar Axmatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Budget hisobi va g‘aznachilik”

kafedrası professori, i. f. d.

kasimovagulyora1960@gmail.ru

Abdushukurov Zafar Ismatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining

mustaqil izlanuvchisi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT XARIDLARINI SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINING TAHLILI.

Касимова Гуляра Ахматовна

и. ф. д., профессор кафедры

«Бюджетный учет и казначейство»

Ташкентского государственного

экономического университета

kasimovagulyora1960@gmail.ru

Абдушукуров Зафар Исматович

самостоятельный соискатель Ташкентского

государственного экономического университета

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Gulyar Axmatovna Kasimova

professor of the department

"Budget accounting and treasur work" at

Tashkent State University of Economics.

Abdushukurov Zafar Ismatovich

Independent researcher at Tashkent

State University of Economics

ANALYSIS OF PERFORMANCE INDICATORS OF PUBLIC PROCUREMENT IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha SWOT tahlilini qo‘llash natijalari va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlangan. Jizzax viloyatida 2022-2024 yillarda davlat xaridlarini amalga oshirishdagi SWOT tahlili berilgan. Maqolada raqamli iqtisodiyotda davlat xaridi jarayonlaridagi byudjet mablag‘laridan foydalanishning maqsadliligi va samaradorligini oshirish yo‘llari aniqlangan.

Tayanch so‘zlar. Davlat byudjeti, davlat xaridlari, shartnoma, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, elektron hujjat, elektron platformalar, korrupsiya.

Аннотация. В данной статье определены результаты и показатели эффективности применения SWOT анализа при осуществлении госзакупок. Приведен SWOT анализ осуществления госзакупок в Джизакской области за 2022-2024 годы. В статье определены пути повышения целенаправленности и эффективности использования бюджетных средств при осуществлении госзакупок в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова. Государственный бюджет, госзакупка, договор, цифровая экономика, информационные технологии, электронный документ, электронные платформы, коррупция.

Annotation. This article defines the results and performance indicators of SWOT analysis in public procurement. A SWOT analysis of public procurement in the Gizzakh region for 2022-2024 is provided. The article identifies ways to improve the focus and efficiency of using budget funds in public procurement in the context of the digital economy.

Keywords. State budget, government procurement, contract, digital economy, information technology, electronic document, electronic platforms, corruption.

Kirish

Davlat va hukumatimizning asosiy maqsadi – mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar samaradorligini oshirish, jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun davlat xaridlari tizimini rivojlanishiga e'tibor qaratishdan iborat. «O'zbekiston - 2030» strategiyasi maqsadlariga erishishda Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash uchun davlat xaridi jarayonlarida moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirish, byudjet mablag'larini taqsimlovchi vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, shuningdek, jamoatchilik ishtiroki va nazoratini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 noyabrda qabul qilingan «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida»gi 1005-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 128-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyuldagi «Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 100-son Farmoni davlat moliyasini samarali boshqarish, davlat budjeti xarajatlarini to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish, budjet mablag'laridan foydalanishni maqsadliligi va samaradorligini oshirish bilan bir katorda davlat xaridi tartib-tamoyillarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Davlat budjeti g'azna ijrosi sharoitida davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirish, budjet tashkilotlarining tovar, ish, xizmatlar uchun davlat xaridi narxlarini samarali shakllantirish tartibini tubdan o'zgartirish, g'aznachilikda byudjet tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini boshqarish ishlarini rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratildi. «Chunki soliq-budjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi» [5].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

«Davlat xaridlarini amalga oshirish zaruriyati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. Har bir mamlakat iqtisodiyotida davlat xaridlari sohasi muhim o'rin tutadi. Davlat xaridlari bozori quyidagi funksiyalarga ega: tartibga solish, nazorat qilish, ijtimoiy himoya qilish, axborot berish va narxlarni belgilash» [7].

S.G. Bogaskaya “davlat va munitsipal xaridlar samaradorligi juda murakkab masala, deb ta’kidlaydi, chunki xaridning ta’sirini faqat hisob-kitob yo’li bilan aniqlash mumkin emas, davlat xaridlarida nafaqat iqtisodiy, balki, ijtimoiy samaradorlikni ham hisobga olish kerak. Davlat va mahalliy budget xaridlari byudjet buyurtmachining to’g’ridan-to’g’ri xarajatlari bilan cheklanmaydi, balki davlat budjeti xarajatlarning katta qismini o’z ichiga oladi” [6].

Yevropa mamlakatlaridagi xaridning muhim jihati – bu milliy ishlab chiqaruvchi (etkazib beruvchilar)ga beriladigan ustunlik bilan ifodalanadi. G. Uolker, S. Brammer tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra, “mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berilsa, ta’lim va sog’liqni saqlash tashkilotlari tomonidan tovarlarni ekologik masalalar bilan bog’liq tarzda “yashil xaridlar” amalga oshiriladi” [8].

“Davlat buyurtmachilari byudjet mablag’larini samarali sarflash uchun xarid qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun o’rnatilgan talablarni, shuningdek budget tashkilotining funksiyalarini ta’minlash uchun me’yoriy tartibga solinadigan xarajatlarni hisobga olgan holda, ortiqcha is’temol xususiyatiga ega tovar, ish, xizmatlarni sotib olishga xalakit beradigan xarid jadvalini veb-saytda joylashtiradilar. Davlat buyurtmachilari barcha holatlarda sotib olish to’g’risidagi xabarnomani Yagona axborot tizimi (YaAT)da joylashtirishlari shart. Chunki, xaridlar to’g’risida bildirishnoma - yetkazib beruvchilarni ham rejalashtirilgan davlat xaridlari to’g’risida xabardor qilishdir”[10]. “Xaridlarning shaffofligini ta’minlash uchun yagona milliy axborot tizimi yaratildi. Bunda xarid rejalari, ularni amalga oshirish to’g’risidagi ma’lumotlar, shartnomalar va insofsiz yetkazib beruvchilar reestri, xaridlar monitoringi va dastlabki nazorat natijalari mavjud” [9].

Davlat xaridlari sohasiga oid tadqiqotning dolzarbligi, ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonining davlat xaridlarida qanday natijalar berayotganini baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini taklif qilish orqali namoyon bo’ladi. Bu yo’nalishda xalqaro tajribalar, masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya, Singapur, Estoniya kabi xorijiy davlatlarning elektron xarid tizimlari, indikatorlar asosida monitoring qilish usullari o’rganilishi va ularning mahalliy sharoitda tadbiq etish imkoniyatlari tahlil etilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini samaradorligini oshirishda SWOT tahlilining o’rni juda katta, Mazkur metod yordamida tizimning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanadi. SWOT tahlili – quvvatlar (Strengths), zaif tomonlar (Weaknesses), imkoniyatlar (Opportunities), tahdidlar (Threats) kabi to’rt asosiy komponentga asoslangan tizimli yondoshuv hisoblanadi.

Natija va muhokama

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarining samaradorligini tahlil qilish uchun bir qator miqdoriy va sifat ko’rsatkichlari qo’llaniladi. Bu ko’rsatkichlar xarid jarayonining ochiqqligi, raqobatlilik, iqtisodiy foydaliligi va natijadorligini baholashga xizmat qiladi.

1. Xarajatlarni tejash ko’rsatkichi (Saving Ratio). Rejalashtirilgan boshlang’ich qiymat bilan yakuniy xarid narxi o’rtasidagi farqni ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Tejash\ ko'rsatkichi = \left(\frac{Boshlang'ich\ narx - Yakuniy\ narx}{Boshlang'ich\ narx} \right) \times 100\%$$

Ushbu ko’rsatkich davlat budjetidan sarflanayotgan mablag’ning iqtisodiy jihatdan samarali ishlatilganini ko’rsatadi.

2. Tender ishtirokchilari soni (Competition Indicator). Har bir tenderda ishtirok etgan subektlar soni. Raqobat qanchalik yuqori bo'lsa, narx shunchalik bozor tamoyillari asosida shakllanadi va korrupsion xavf kamayadi.

3. Elektron xaridlar ulushi (e-Procurement Share). Barcha xaridlar orasida elektron platforma orqali o'tkazilgan xaridlar ulushini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\frac{\text{Elektron xaridlar soni yoki hajmi}}{\text{Umumiy xaridlar sini yoki hajmi}} \times 100\%$$

Bu raqamli transformatsiyaning qay darajada amalga oshirilganini ko'rsatadi.

4. Shartnomalar bajarilish samaradorligi. Xarid asosida tuzilgan shartnomalarning vaqtida, sifatli va to'liq bajarilishi holatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich natijaviylikni, ya'ni xarid orqali belgilangan maqsadga erishilganini baholaydi.

5. Shikoyatlar soni va ko'rib chiqilish muddati. Tender jarayonida tushgan shikoyatlar soni va ularning ko'rib chiqilish tezligini ifodalaydi. Tizimning shaffofligi va ishtirokchilarga nisbatan adolatli munosabat darajasini aks ettiradi.

6. Xarid jarayoni davomiyligi. Xarid boshlangan paytdan shartnoma tuzilguncha o'tgan kunlar sonini ifodalaydi. Raqamli vositalar yordamida byurokratik kechikishlarning oldi olinayotganini ko'rsatadi.

7. Korrupsion xavf indikatorlari. Qayta-qayta bir kompaniyaga xaridlar berilishi, ishtirokchilarning takroriylik va narxlar tafovuti asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich davlat xaridlaridagi potensial korrupsiya holatlarini aniqlash imkonini beradi.

8. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishtiroki. Davlat xaridlarida mahalliy kompaniyalarning ulushini ifodalaydi. Milliy iqtisodiyotning qo'llab-quvvatlanish darajasini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3 dekabrda "Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 417-son Qaroriga asosan, davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar samaradorligini o'rganish va sohada mavjud qo'shimcha imkoniyatlarni amaliyotga joriy qilish hamda bu borada tegishli takliflarni tayyorlash, davlat xaridlari sohasidagi amaliy ishlar samaradorligini hamda mavjud imkoniyatlarni doimiy oshirib borish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining huzurida tegishli tarmoq uyushmalaridagi faol ishlab chiqaruvchilardan iborat jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi «Xarid islohotchilari guruhi»ning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Xarid qilish tartib-taomillarida davlat xaridlarini amalga oshirish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining davlat xaridlari jarayonidagi faoliyatini elektron axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar asosida maxsus axborot portalida inson omilisiz baholab boruvchi skoring tizimi joriy etildi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini tahlil qilishda samaradorlik ko'rsatkichlari orqali xaridlarning shaffofligi, iqtisodiy foydasi va natijadorligi chuqur baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida raqamli platformalarning samaradorligi, korrupsiyaviy risklar va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash darajasi aniqlanadi. Shu tariqa, davlat xaridlari faqat xarajat emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik manbai sifatida qaraladi.

Xalqaro va milliy tajribalarga tayangan holda aytish mumkinki, zamonaviy raqamli vositalarning joriy etilishi orqali xarid jarayonining ishonchiligi, tezligi va aniqligi keskin oshgan. Shu bilan birga, har bir texnologiya qanday imkoniyat yaratishi va ular natijasida qay darajada samaradorlikka erishilayotgani tahlil etilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi, xususan Jizzax viloyatida davlat xaridlarining raqamlashtirilishi orqali xarid jarayonlarining ochiqqligi, shaffofligi va samaradorligi oshmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilayotgan xaridlarning ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa davlat xaridlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda Jizzax viloyatida 2022–2024 yillarda amalga oshirilgan davlat xaridlari berilgan.

Jizzax viloyatida 2022 yilda jami 54749 ta shartnoma asosida 2566671809,0 so'm miqdorida davlat xaridlari amalga oshirildi. 2022 yil davlat xaridlari jarayonining boshlanishi va elektron tizimga o'tish bosqichi sifatida e'tiborga olinadi. 2022 yilni bazaviy yil sifatida qabul qilganimizda, uning o'sish darajasi 0 foiz deb belgilanishi tabiiy.

2023 yilda davlat xaridlarida shartnomalar soni 59512 taga yetdi va umumiy xaridlar summasi 3113888826,0 so'mni tashkil etdi. Bu o'sish 8,6 foizni tashkil qiladi, ya'ni 2023 yilda davlat xaridlari jarayoni sezilarli darajada kengaydi. Bunda raqamli texnologiyalar, xususan, elektron tender platformalari va raqamli imzo tizimlarining keng joriy tilishi asosiy rol o'ynadi. Xaridlar summasining oshishi ham davlat xaridlari tizimining samaradorligi va faolligini ko'rsatdi.

1-jadval

Jizzax viloyatida 2022–2024 yillarda amalga oshirilgan davlat xaridlari [12]

Yillar	Shartnomalar soni	Xaridlar summasi (so'mda)	O'sish darajasi (foizda)	Izoh
2022	54749	2566671809,0	0	Davlat xaridlari jarayonida elektron tizimga o'tish bosqichining boshlanishi.
2023	59512	3113888826,0	8,6	Xaridlar soni va shartnomalar miqdorini oshirilishi, raqamli texnologiyalarni joriy etilishi.
2024	69797	3022626187,0	17,7	Xalqaro tajribalar asosida tizimni yanada takomillashtirilishi, yangi axborot texnologiyalarini qo'llanilinishi.

2024 yilda davlat xaridlari yanada o'sdi, shartnomalar soni 69797 taga va xaridlar summasi 3022626187,0 so'mni tashkil etdi. 2024 yilda o'sish darajasi 17,7 foizni tashkil etdi, 2024 yilning o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishini anglatadi. Xalqaro tajribalar asosida yangi texnologiyalar, jumladan, blokcheyn va sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilgan xaridlar tizimi samaradorligini yanada oshirdi. 2024 yilda xaridlar summasi biroz pasaygan bo'lsa-da, bu iqtisodiy omillar, mahsulotlar bo'yicha talabning o'zgarishi va xaridlarning raqamli platformalar orqali amalga oshirilishi bilan izohlanishi mumkin.

Jizzax viloyatida 2022 yildan 2024 yilgacha davlat xaridlari soni 27,5 foizga, xaridlar summasi 17,7 foizga oshgan. Bu esa, davlat xaridlari tizimining nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham yaxshilanishini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, tender jarayonlarining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlab, xaridlar samaradorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, 2022–2024 yillarda Jizzax viloyatidagi davlat xaridlari tizimi samaradorligi ortdi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan xaridlar jarayoni yanada shaffof va tezkor bo'ldi. Bu esa viloyatdagi iqtisodiy faollikni oshirish, soliq tushumlarini ko'paytirish va mahalliy byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Jizzax viloyatida ham davlat xaridlarining raqamlashtirilishi bo'yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Viloyatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan, 2023 yilda Yalpi hududiy mahsulot hajmi 5 foizga o'sib, 33,3 trln. so'mni tashkil etdi. Sanoat 7,4 foizga (19 trln. so'm), qishloq xo'jaligi 4,1 foizga (27,6 trln. so'm), xizmatlar 12,8 foizga (10,4 trln. so'm) va qurilish ishlari 7,2 foizga (3,9 trln. so'm)ga o'sgan. Bu o'sishlar davlat xaridlari hajmining ortishiga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilayotgan xaridlarning ulushi ham yildan-yilga o'sib bormoqda. 2022 yilda bu ko'rsatkich 65 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 85 foizgacha ko'tarilgan, bu holat davlat xaridlarining shaffofligi, tezligi va iqtisodiy samaradorligining ortganligini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalarni davlat xaridlarida qo'llashda eng muhim jihatlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- kuchli tomonlarni aniqlash orqali davlat xaridlarining mavjud tizimini takomillashtirish va kuchaytirish yo'llari ko'rsatiladi;
- zaif tomonlarni bilish raqamli platformalarda yuzaga keladigan kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rishga yordam beradi;
- imkoniyatlarni aniqlash orqali yangi texnologiyalarni va raqamli innovatsiyalarni joriy etish, xarid jarayonlarining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqiladi;
- tahdidlar esa mumkin bo'lgan xavf-xatarlar, xususan texnologiyalarni joriy qilishdagi xavf va tizimdagi zaifliklar haqida ogohlantiradi, bu esa zarur choralarni oldindan ko'rishga imkon beradi. Shu sababli, SWOT tahlili raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarining samaradorligini oshirishda zarur vosita bo'lib, barcha kuchli tomonlarni maksimal darajada ishlatish, zaif tomonlarni bartaraf etish, yangi imkoniyatlardan foydalanish va tahdidlarni oldini olish imkonini beradi.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida Jizzax viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha SWOT tahlili [12].

Zaif tomonlari (Weaknesses)	Kuchli tomonlari (Strengths)
1. Raqamli tizimlarning texnik infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Ba'zi hududlarda texnologik vositalarning cheklangan.	1. Raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali davlat xaridlari jarayonining shaffofligi oshirilgan.
2. Yangi texnologiyalarni joriy qilishda kechikishlar mavjud. Ba'zi sohalarida raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni sekinlashgan.	2. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning bozor iqtisodiyoti imkoniyatlarini kengaytirish.
3. Korrupsiyaviy xavf. Ba'zi davlat xaridlarini nazorat qilishda kutilgan darajada samarali ishlamasligi mumkin.	3. Innovatsion texnologiyalar (sun'iy intellekt, blokcheyn) joriy etish orqali xaridlar tizimining samaradorligini oshirish.
Tahdidlar (Threats)	Imkoniyatlar (Opportunities)
1. Texnik muammolar. Yangi texnologiyalarni to'liq joriy etishdagi texnik qiyinchiliklar.	1. Fuqarolik jamiyati ishtirokining oshishi va ommaviy nazoratni kuchaytirish orqali davlat xaridlarining ochiqqligini oshirish.
2. Korrupsiyaning yangi shakllari. Yangi texnologiyalarni joriy etish bilan birga, eski muammolarni to'liq bartaraf yetmaslik.	2. Yangi iqtisodiy loyihalar va infratuzilma qurilishi orqali viloyatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish.
3. Raqamli transformatsiya jarayonining sekinlashishi. Texnologik yangiliklarning sekin joriy etilishi va resurslar yetishmasligi.	3. Samarali davlat xaridlar tizimi orqali raqamli yechimlar yordamida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.

Jizzax viloyati O'zbekistonda strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat xaridlari tizimining samaradorligi uning kelajakdagi iqtisodiy o'sishini va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida Jizzax viloyati uchun davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha SWOT tahlilini qo'llash quyidagi natijalarga ko'ra muhimdir:

1. Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik. Jizzax viloyatida iqtisodiy faollikning oshishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat xaridlari tizimining samarali ishlashi muhimdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarining samaradorligini oshirish, yuqori sifatli tovar, ish va xizmatlarni sotib olish imkoniyatini yaratadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash. Jizzax viloyatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki sanoatning rivojlanishiga ham yordam beriladi. Raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilgan davlat xaridlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardosh bozor yaratadi va ularning mahsulotlariga talabni oshiradi.

3. Infrastruktura va sanoat rivojlanishi. Jizzax viloyatida sanoat va infratuzilma rivojlanayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Davlat xaridlari orqali amalga oshirilgan loyihalar, jumladan, yo'llar qurilishi, sanoat zonalarining tashkil etilishi va boshqa loyihalar, viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayonlar tez va samarali amalga oshiriladi.

4. Korrupsiyaning oldini olish va shaffoflikni ta'minlash. Jizzax viloyatida davlat xaridlari tizimining samarali ishlashi va shaffofligini ta'minlash uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu orqali korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va barcha xaridlar jarayonini jamoatchilik uchun ochiq qilish mumkin.

5. Jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyatining ishtiroki. Jizzax viloyatida fuqarolik jamiyati va jamoatchilikning davlat xaridlari jarayoniga ishtiroki ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida fuqarolar va jamoat tashkilotlari xaridlar jarayonini onlayn kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va davlatning hisobdorligini ta'minlaydi.

Jizzax viloyatida davlat xaridlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida amalga oshirish bo'yicha SWOT tahlili, viloyatning iqtisodiy rivojlanishini yanada kuchaytirish uchun zarur strategiyalarni aniqlashda muhim vosita bo'ladi. Bu tahlil yordamida viloyatdagi mavjud kuchli tomonlar samarali foydalaniladi, zaif tomonlar bartaraf etiladi, yangi imkoniyatlar yo'lga qo'yiladi va tahdidlar oldini olish bo'yicha aniq choralar ko'riladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyatida raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini amalga oshirish tizimi samaradorligini oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bu jarayonning davom ettirilishi viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Jizzax viloyatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy faollik oshdi. Yangi infratuzilma loyihalari va sanoat rivojlanishi uchun davlat xaridlari tizimi muhim vosita bo'lib, viloyatdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning ijobiy o'sishiga yordam berdi. Shu bilan birga, davlat xaridlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining ishtiroki va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish tizimning yanada shaffofligini ta'minladi. Imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rish viloyatning iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga yordam beradi. SWOT tahlili Jizzax viloyatidagi davlat xaridlari tizimining kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlarini va tahdidlarini aniqlashda

muhim vosita bo'ldi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mavjud kuchli tomonlar yanada kuchaytiriladi, zaif tomonlar esa bartaraf etilishi mumkin. Yangi texnologiyalar va samarali tizimlar yordamida iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim yutuqlarga erishish mumkin.

Bizning fikrimizcha, G'aznachilik xizmati qo'mitasi va uning boshqarmalari tomonidan davlat xaridlari sohasida qonunbuzilish holatlari aniqlangan taqdirda to'lovlarni vaqtincha to'xtatish (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan tashqari), shartnomani ro'yxatdan o'tkazmasdan qaytarish, uni bekor qilish va qonunbuzilish holatlari mavjudligi to'g'risida davlat buyurtmachisiga hamda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga xabarnoma yuborish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlat xaridlari jarayonida resurslardan foydalanish samaradorligi, vaqt va mablag' tejalishi, ishtirokchilarning faolligi va narx shakllanishi kabi mezonlar asosida baholash indikatorlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini tizimli ravishda tahlil qilish, davlat xaridini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 1005-son Qonuni. 2024 yil. 27 noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 128-son Qarori. 2022 yil. 14 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son Farmoni. 2024 yil. 10 iyul.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 417-son Qarori. 2024 yil. 3 dekabr.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –B.29.
6. Богацкая С.Г. Критерии и причины неэффективных закупок. URL: <http://www.fcaudit.ru/blog/kriterii-i-prichiny-neeftivnykh-zakupok/>
7. Гущин А.Ю. Определение эффективности и способы ее оценки в системе государственного заказа. // Фундаментальные исследования. 2012. № 9-1. -С. 204-208. URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=30204>
8. Edler J., Georgiou L. Public procurement and innovation Resurrecting the demand side. Research Policy. 2007. Volume 36. Issue 7. P. 949-963.
9. Крюкова Ю. С. Система государственных закупок товаров (работ, услуг) как элемент управления экономической региона. // Региональная экономика. Теория и практика. – Москва. 2010. № 3. –С.36-40.
10. Саунин А.Н. О содержании аудита эффективности использования государственных средств как нового типа государственного финансового контроля // Наука. Инновации. Образование. 2008. № 4. -С. 350-358.
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari.
12. G'aznachilik xizmati qo'mitasining Jizzax viloyati boshqarmasi ma'lumotlari.

Kurbanbaev Jurabek Eruvbaevich

*Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti "Bank ishi va
buxgalteriya hisobi" kafedrasi dosenti, i.f.n.*

jurabektfi@mail.ru

HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERNING PROFESSIONALLIGINI OSHIRISH

Kurbanbaev Jurabek Eruvbaevich

*associate professor of the department of
"Banking and accounting" of Kimyo
International University in Tashkent.*

jurabektfi@mail.ru

INCREASING THE PROFESSIONALISM OF THE ACCOUNTANT IN FORMING THE ACCOUNTING POLICY

Курбанбаев Журабек Ерувбаевич - доцент

кафедры «Банковское дело и учет»,

Ташкентский международный

университет, специальность «Химия».

jurabektfi@mail.ru

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА БУХГАЛТЕРА В ФОРМИРОВАНИИ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ

Annotasiya: Maqolada korxonalarda hisob siyosatini shakllantirishda, buxgalterning vazifalari va majburiyatlari, korxona uchun hisob siyosatining zaruriyati va ahamiyati, uni shakllantirishga qo'yilgan talablar va unga ta'sir etuvchi omillar, MHXS S1 – "Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotni yoritish bo'yicha umumiy talablar" (IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information) va MHXS S2 – "Iqlim bilan bog'liq axborotlarni yoritib berish" (IFRS S2 Climate-related Disclosures) hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob siyosatini shakllantirishning metodologik asoslari keng yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada hisob siyosati bo'yicha iqtisodchi olimlarning qarashlari va fikr-mulohazalari, hisob siyosatiga oid me'yoriy xujjatlarni takomillashtirish masalalari ifodalangan.

Tayanch so'zlar: hisob siyosati, hisob siyosatini tanlash, hisob bahosidagi o'zgarishlar, hisob siyosatini qo'llash.

Abstract: The article provides a comprehensive overview of the tasks and responsibilities of an accountant in the formation of accounting policies at enterprises, the necessity and importance of accounting policies for an enterprise, the requirements for their formation and the factors affecting them, the methodological foundations of the formation of accounting policies based on IFRS S1 - "General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information" and IFRS S2 - "Climate-related Disclosures" and international financial reporting standards. The article also

reflects the views and opinions of economists on accounting policies, issues of improving regulatory documents on accounting policies.

Keywords: accounting policy, choice of accounting policy, changes in accounting values, application of accounting policies.

Аннотация: В статье представлен комплексный обзор задач и обязанностей бухгалтеров при формировании учетной политики предприятий, необходимости и значения учетной политики для предприятия, факторов, необходимых для формирования учетной политики, а также основных принципов формирования учетной политики и основ МСФО С1 «Общие требования к раскрытию финансовой информации». с устойчивым развитием» и МСФО С2 «Раскрытие информации, связанной с изменением климата», а также международных стандартов финансовой отчетности. В государстве также отражены взгляды и мнения экономистов на учетную политику, вопросы нормативности документ по учетной политике.

Ключевые слова: учетная политика, выбор учетной политики, изменение учетных показателей, применение учетной политики.

Kirish.

Bugungi zamonaviy buxgalter MHXS bo'yicha hisob siyosatida qanday asosiy jihatlarni aks ettirilishi lozim degan savol ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Biznes olamida hisob siyosati korxonalarni moliyaviy boshqarishning asosiy vositalaridan biridir. Bu moliyaviy hisobotni shakllantirish tamoyillari va tartibini, shuningdek, qo'llaniladigan hisob usullarini belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, hisob siyosati moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) mos kelishi kerak.

Fikrimizcha, MHXSning asosiy qoidalari moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini belgilovchi qoidalar va tamoyillar majmuidir. MHXSdan foydalanish ko'pgina korxonalar, ayniqsa xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan yoki xalqaro bozorlarga chiqishni rejalashtirayotgan korxonalar uchun juda muhimdir. Shuning uchun hisob siyosati MHXSning asosiy qoidalarini va ularning buxgalteriya hisobida qo'llanilishini to'g'ri aks ettirishi kerak bo'ladi.

MHXS bo'yicha hisob siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri aks ettirish uchun korxonaning moliyaviy hisobotiga ta'sirini hisobga olgan holda MHXSdagi elementlarini diqqat bilan o'rganish talab etiladi. Bunda korxona aktivlari qiymatini aniqlash, pul mablag'larini baholash, o'zaro aloqador tomonlar bilan operatsiyalarni hisobga olish va boshqa asosiy buxgalteriya qoidalari kabi xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Natijada buxgalterdan milliy standartlar bilan xalqaro standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash lozim. MHXS formatidagi buxgalteriya siyosati korxonaning moliyaviy boshqaruvining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning barcha xususiyatlarini puxta ishlab chiqilishi va MHXSning asosiy qoidalarini hisobga olgan holda hisob siyosatida aks ettirilishi kerak. Faqat shu tarzda har qanday korxona o'z moliyaviy hisobotining ishonchliligi va to'g'riligini ta'minlay oladi, bu esa pirovardida uning obro'siga va investisiya jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Hisob siyosati tushunchasiga xalqaro va milliy darajadagi iqtisodchi olimlar va soxaning amaliyotchi mutaxassislari (auditorlar, buxgalterlar, tahlilchilar) tomonidan ko'plab ta'riflar hamda turli yondoshuvlar berilgan. Ushbu ta'riflarning barchasida yagona bir maqsad mujassamlashganini ko'rish mumkin, ya'ni hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan qoidalar majmuidan iborat.

“Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar” nomli 8-son BHXSda quyidagi ta'rif shakllantirilgan: *Hisob siyosati* – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni

tayyorlashda va taqdim etishda qo'llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir.

Bizning amaliyotimizda esa bunga biroz boshqacharoq yondoshilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, milliy standartda: "...Hisob siyosati tashkilot moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus prinsiplarni, konvensiyalarni, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi" deb ta'rifi berilgan. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobini yuritilishi hamda hisob siyosatini shakllashtirilishiga xo'jalik sub'ekti rahbari mas'ul shaxs sifatida yondoshilgan. Hisob siyosatiga berilgan ta'riflar va uning mazmunini ifodalab beruvchi fikrlar masalasida xorijiy tajribaga murojaat etiladigan bo'lsa, hisob siyosati umumiy bir maqsadda hizmat qilishini ko'rish mumkin.

A.Karimovning fikriga ko'ra: "Hisob siyosati korxona tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir"

A.Ibragimov tomonidan quyidagi fikrlar bildirib o'tilgan: "Hisob siyosati – bu bank tomonidan operatsiyalarni aks ettirish, nazoratni ta'minlash hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun qabul qilingan aniq bir tamoyillar, asoslar, shartlar, qoidalar va amaliyotlardir".

A.Pardaev tomonidan berilgan izohda esa: "Korxona hisob siyosati - bu korxonaning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan va e'lon qiladigan buxgalteriya hisobining shakl va uslublari to'plamidir".

K.Urazov tomonidan qo'yidagicha ta'rif berilgan va 1-son Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga kiritishni maqsadga muvofiq deb bilgan holda "Hisob siyosati deganda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning tanlangan aniq qonuniy usullarini o'zida mujassamlashtiruvchi va foydalanuvchilarning axborot olish talablarini to'liq qoniqtirishga xizmat qiluvchi ichki me'yoriy hujjat tushuniladi".

N.Kondrakovning fikriga ko'ra: "Hisob siyosati- bu tashkilot tomonidan hisob hisob ob'ektlarini baholashning ruxsat etilgan variantlardan ma'qbulini, hamda o'rnatilgan ruxsatlar, talablar va o'z faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish shakllari va texnikasini tanlash" deb ta'riflaydi.

Hisob siyosatiga berilgan umumiy xulosalarga kelish mumkinki, hisob siyosati - bu korxonalarning moliyaviy hisobotlarini tuzish, tayyorlash va taqdim etish bo'yicha ko'rsatmalari va tartiblarini o'zida ifodalab, korxonaning moliyaviy holatining aniq tasvirini beradi. Biroq bizning fikrimizcha, ushbu olimlarning ishlarida hisob siyosatiga berilgan yondashuvlar, hisob siyosatini shakllantirish masalalari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tadqiq etilmagan. Demak, bugungi kun talabi hisob siyosatni xalqaro standartlar qoidalarini bo'yicha shakllantirishga katta e'tiborni qaratishni talab etmoqda, yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ishlari ushbu ishga nazariy tomonlarini shakllantirishda katta xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani yozish davomida mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik tahlil hamda hisob siyosatini shakllantirishdagi buxgalteriya hisobining usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokama.

So'nggi yillarda moliyaviy hisobot foydalanuvchilar va manfaatdorlarni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashda, korxonalarda izchil hisob siyosatini shakllantirish zaruriy shartga aylanib bormoqda. Bunda buxgalterning professional, ya'ni o'z kasbiga sodiqlik yuzasidan fikri muhim

ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa, bugungi kunda jahon buxgalteriya hisobi etalonniga aylangan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablaridan biridir.

To'g'ri, bugun qaysi soha bo'lmasin, unda hisob siyosatini shakllantirishda xalqaro standartlar asosida professional darajada yondoshilmasa, ishonchli bo'lgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirishdagi har qanday qilingan mehnat o'z samarasini bermaydi. Shu nuqtai nazardan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) korxona yoki tashkilotning buxgalteriya siyosatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida baholash mumkin. Demak, MHXSga muvofiq ishlaydigan buxgalter oldiga moliyaviy hisobotlarni tartibga soluvchi asosiy qoidalar va tamoyillarni mukammal bilishi talab etiladi.

Amaliyotda auditorlik etikasi yoki auditorning fikri degan tushunchalar uchrasada, bugungi kunda xalqaro standartlarga o'tish munosabati bilan buxgalterlarning professional fikri tushunchasi tobora ommallashib bormoqda.

Bu ayniqsa integrasiyalashgan hisobotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, buxgalterning professional fikri MHXSga muvofiq tashkilotning hisob siyosatini qanday shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilishda katta rol o'ynaydi. Buxgalter o'zining professional fikri asosida korxonaning manfaatlariga javob beradigan izchil bo'lgan hisob siyosatini tanlash va qo'llash (buxgalteriya hisobining qator usullarini tanlash) imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korxonalar hisob siyosatini shakllantirishda MHXSning asosiy tamoyillaridan biri xolislik tamoyili asosida ma'lumotlar moliyaviy hisobotlarda ishonchli va buzilmagan tarzda aks ettirilishini nazarda tutadi. Hisob siyosatini shakllantirishda MHXSdan foydalanish global darajada korxonalar moliyaviy hisobotlarining shaffofligi va taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, bugun MHXS formatida shakllantirilgan hisob siyosati nafaqat xalqaro standartlarga, balki korxona ro'yxatdan o'tgan mamlakatning amaldagi buxgalteriya hisobi va hisobotiga oid qonunchilik bazasiga hamda hisob qoidalariga ham mos kelishi kerak.

Bu borada respublikamizda hisob siyosatini shakllantirishdagi me'yoriy hujjatlar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib borilmoqda. Masalan, 2024 yilda amalga oshirilgan muhim ishlardan biri hisob siyosatiga tegishli bo'lgan 1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomi bilan qayta uslubiy jihatdan 8-son BHHS "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" nomli standart qoidalariga muvofiqlashtirishga xarakat qilindi.

Tan olish lozim, biz amaldagi 1-son BHMSni xalqaroga to'liq javob bera oladi deya olmaymiz. Agar standartni tarkibiy tuzilish nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, hisob siyosatiga oid masalalar standartni 30-35 foizini qamrab oladi. Yoki masalani boshqa tomoni, hisob siyosatiga oid uslubiy jihatdan yaxlit va yagona bo'lgan standart mavjud emas. Avvalgi milliy standart negizida yaratildi va alohida standart sifatida e'tibor qaratilmadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, buxgalter MHXSdagi o'zgarishlarni doimiy ravishda buxgalteriya hisobi amaliyotiga o'z vaqtida kiritib borish uchun, metodologik jihatdan o'zgarish va qo'shimchalarni kuzatib borishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 20 martdagi 23-57-sonli buyrug'ining 1-ilovasi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hujjatlarini va ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni davlat tiliga tarjima qilish tartibi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq MXHS Fondi tomonidan MHXS hujjatlariga har yillik kiritiladigan yangi o'zgarishlar yoki tuzatishlarni davlat tiliga tarjima qilish belgilab qo'yilgan. Shu munosabat bilan MXHS Fondi tomonidan tasdiqlangan MHXS hujjatlarining 2022 yil tahririga asosan amaldagi tahririga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritililadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, quyida MHXS Fondi tomonidan qabul qilingan “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnining 2023 yil tahririga asosan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3400) buyrug‘iga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha hisob siyosati bilan bog‘liq xalqaro standartlarga quyidagi o‘zgartirishlar keltirib o‘tiladi:

1-Jadval

Xalqaro standartlarda hisob siyosatiga oid kiritilayotgan o‘zgarishlar

T/r	Amaldagi tahrir	Yangi tahrir
1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” bo‘yicha:		
1.	7-band. Mazkur standartda quyidagi belgilangan ma‘nodagi atamalardan foydalaniladi: <i>Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobot</i> (“moliyaviy hisobot” deb ataladi) – bu tashkilotdan o‘zlarining muayyan axborot ehtiyojlariga javob beradigan hisobot tayyorlashini talab etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan moliyaviy hisobotdir.	7-band. Mazkur standartda quyidagi belgilangan ma‘nodagi atamalardan foydalaniladi: <i>Hisob siyosati</i> 8-son BHXS “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”ning 5-bandida ta’riflangan va bu atama ushbu standartda xuddi shu ma’noda qo‘llaniladi. Tashkilot muhim hisob siyosati ma’lumotlarni yoritib berishii lozim (7-bandga qarang). Hisob siyosati ma’lumotlari muhim hisoblanadi, agar tashkilotning moliyaviy hisobotiga kiritilgan boshqa ma’lumotlar bilan birgalikda ko‘rib chiqilsa, umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarning asosiy foydalanuvchilari ushbu moliyaviy hisobotlar asosida qabul qiladigan qarorlarga ta’sir qilishi mumkin.
8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” bo‘yicha:		
2.	5-band. Hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir.	5-band. Hisob siyosati – bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llanadigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir. Hisob baholari - bu baholash noaniqligiga bog‘liq bo‘lgan moliyaviy hisobotlardagi pul summolari.
3.	31-band. Hisob baholaridagi o‘zgarishlar	31-band. Hisob baholari ...

4.	Xo'jalik faoliyatiga xos bo'lgan noaniqliklar natijasida, moliyaviy hisobotdagi ko'p moddalar aniq baholana olmaydi, balki faqat hisob bahosi orqali baholanishi mumkin. Hisob baholari eng so'nggi va ishonchli ma'lumotga asoslangan mulohazalarni o'z ichiga oladi. Masalan, quyidagilarga nisbatan hisob baholari talab etilishi mumkin: (a) umidsiz qarzarlar; (b) zaxiralarning jismoniy eskirishi; (v) moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarning haqqoniy qiymati; (g) eskirish hisoblanadigan aktivlarning foydali xizmat muddati yoki ularda mujassamlashgan kelgusi iqtisodiy naflarning kutilayotgan iste'moli xarakteri; (d) kafolat majburiyati.	32-band. Hisob siyosati moliyaviy hisobotdagi moddalar baholash noaniqligini o'z ichiga olgan tarzda baholashni talab qilishi mumkin, ya'ni hisob siyosati bunday moddalarni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish mumkin bo'lmagan lekin hisoblanishi kerak bo'lgan pul qiymatida baholashni talab qilishi mumkin. Hisob baholari eng so'nggi, ishonchli ma'lumotlarga asoslangan mulohazalar yoki taxminlardan foydalanish orqali ishlab chiqiladi: (a) 9-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar" standartini qo'llagan holda, kutilayotgan kredit zararlar uchun zaxira; (b) 2-son BHXS "Zaxiralalar"ni qo'llagan holda, tovar-moddiy zaxiralarning sof sotish qiymati; (v) 13-son MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash" standartini qo'llagan holda, aktiv yoki majburiyatning haqqoniy qiymati; (g) 16-son BHXSni qo'llagan holda, asosiy instrumentlarning eskirish xarajatlari; (d) 37-son BHXS "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar"ni qo'llagan holda kafolat majburiyatlari uchun ta'minot.
5.	48-band. <i>Xatolarni tuzatish</i> hisob baholaridagi o'zgarishlardan farqlanadi. Hisob baholari, o'z mohiyatiga ko'ra, qo'shimcha ma'lumot ma'lum bo'lishi bilan <i>qayta ko'rib chiqilishi</i> talab etilishi mumkin bo'lgan taxminiy qiymatlardir.	48-band. <i>Xatolarni tuzatish</i> hisob baholaridagi o'zgarishlardan farqlanadi. Hisob baholari, o'z mohiyatiga ko'ra, qo'shimcha ma'lumot ma'lum bo'lishi bilan <i>o'zgartirilishi</i> talab etilishi mumkin bo'lgan taxminiy qiymatlardir. Masalan, shartli hodisa natijasida tan olingan foyda yoki zarar xatoni tuzatish bo'lib hisoblanmaydi.
26-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Pensiya dasturlari bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti" bo'yicha:		
6.	34-band. (b) <i>ahamiyatli</i> hisob siyosatining qisqa bayoni;	34-band. (b) muhim hisob siyosati ma'lumotlar;
	38-band. <i>[Ushbu band kuchga kirmagan o'zgartirishlarni nazarda tutadi va shuning uchun ushbu tahrirda keltirilmagan.]</i>	38-band. 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" va 2-son MHXS amaliyoti "Muhimlik xulosalarini chiqarish"ga o'zgartirishlar kiritgan, 2021 yil fevral oyida chiqarilgan "Hisob siyosatini oshkor qilish" tufayli 34-bandga tuzatish kiritildi. Tashkilot mazkur o'zgartirishlarni 2023 yil 1 yanvardan yoki undan keyingi davrlarga nisbatan qo'llashi lozim. Bundan oldinroq sanadan boshlab qo'llashga ruxsat etiladi. Agar tashkilot oldingi davr uchun qo'llasa, u ushbu fakti yoritib berishi lozim.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, MHXS Fondi tomonidan har yili xalqaro standartlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib boriladi, bu o'rtacha 15-20 foizga to'g'ri keladi. Demak, buxgalter tomonidan hisob siyosatini tanlash, uni shakllantirish va qo'llashni amalga oshirishdan avval ushbu o'zgartirishlarni inobatga olinishi talab etiladi. Bu esa:

birinchidan, hisob siyosatiga oid xalqaro standartlardagi o'zgarishlar va qo'shimchalarni kuzatib borish, respublikamizdagi me'yoriy hujjatlar va huquqiy asoslarini uslubiy jihatdan xalqaro talablarga doimiy ravishda muvofiqlashtirib borish imkonini beradi;

ikkinchidan, hisob siyosatidagi har yilgi o'zgarishlarni inobatga olinishi natijasida ma'lum bir muddatlar o'tgandan keyin, milliy standartni qaytadan yangilash yoki undan voz kechishni oldini oladi, sababi, u doimiy ravishda takomillashib boradi;

uchinchidan, hisob siyosatidagi o'zgarishlar korxona yoki tashkilotda samarali bo'lgan izchil hisob siyosatini tanlash va uni qo'llash imkoniyatini beradi, bu esa o'z navbatida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishda uning usullari keng qo'llanillanishiga olib keladi;

to'rtinchidan, hisob siyosatidagi va hisob baholaridagi o'zgartirishlar hamda muhim (jiddiy) xatolarni moliyaviy hisobotda aks ettirib borish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asosi va buxgalteriya hisobidagi hisob siyosati haqidagi axborotlarni moliyaviy hisobotga izohlar oldidan alohida hisobot ko'rinishida taqdim etilishini ta'minlaydi;

beshinchidan, xalqaro standartlardagi o'zgarishlar asosida shakllantirilayotgan hisob siyosati asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobotlar foydalanuvchiga moliyaviy hisobotlarni yaxshiroq tushunishga va ularni boshqa tashkilotlar moliyaviy hisobotlari bilan qiyoslashga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida buxgalterlarning professional fikri asosida, MHXSga muvofiq hisob siyosatini shakllantirishning asosiy bosqichlari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan:

2-jadval

Tashkilot buxgalterining professional fikri asosida hisob siyosatini shakllantirish bosqichlari

Bosqichlar	Amallar
Tahlil	MHXSning asosiy qoidalari va buxgalteriya hisobi tamoyillarini o'rganish
Baholash	Joriy hisob siyosatining MHXS standartlariga muvofiqligini aniqlash
Qaror qabul qilish	MHXSni hisobga olgan holda yangi hisob siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash

Ushbu bosqichlardan ko'rinib turibdiki, buxgalter tomonidan tahlil qilish asosida MHXSning asosiy qoidalari va buxgalteriya hisobi tamoyillarini o'rganiladi. Masalan, 8-son BHXS maqsadi va uni qo'llash doirasi, undagi ta'riflarni chuqur tadqiq etadi. Shuningdek, joriy hisob siyosatining MHXS standartlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida xalqaro va milliy standartni taqqoslagan holda baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, yuqoridagi ikki bosqichdan so'ng, MHXSni hisobga olgan holda korxona uchun yangi hisob siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Demak, tashkilot yoki korxonaning hisob siyosatiga MHXSni joriy etish jarayoni nafaqat professional bilimlarni, balki buxgalterdan moslashuvchanlik va analitik fikrlashni ham talab qiladi. Buxgalter xalqaro moliyaviy hisobotdagi doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishi va yangi sharoitlarga moslasha olishi kerak. Bugungi kunda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari doimo rivojlanib, uslubiy jihatdan takomillashib bormoqda, professional tajribaga ega bo'lgan buxgalterlardan ularni mohirona qo'llash natijasida korxonaga bozorda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga muvofiq tuzish uchun asos bo'lgan hisob siyosatiga e'tibor kuchaymoqda. Bunda MHXS tamoyillari moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda rioya qilinishi kerak bo'lgan qat'iy qoidalar va standartlarni

nazarda tutadi. Demak, korxona hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishdagi yana bir muhim masala bu, buxgalterlarning professional fikri nuqtai nazardan qaralganda, hisob siyosatida ko'rsatilishi kerak bo'lgan qiymat turlaridir. Korxonalarning hisob siyosati asosan, moliyaviy hisobotlarni tuzishda foydalaniladigan buxgalteriya hisobining usullari va tamoyillarini belgilaydi. Bunda hisobga olinadigan qiymat va narxlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishga turlicha yondashuvlarni talab qilishini tushunish muhimdir.

3-Jadval

Tashkilot hisob siyosatidagi qiymat turlari

Qiymat turlari	Mazmuni
Tarixiy qiymat	Aktiv sotib olingan narx. U asosan binolar yoki jihozlar kabi nomoddiy aktivlar uchun foydalaniladi.
Bozor bahosi	Aktivni hozir bozorda sotish mumkin bo'lgan narx. Ko'pincha pul vositalari va qimmatli qog'ozlar uchun foydalaniladi.
Amortizasiya qiymati	Hisoblangan amortizasiya chegirib tashlanganidan keyin aktivning qoldiq qiymati. Agar aktiv uzoq muddatli bo'lsa va amortizasiya qilinadigan bo'lsa, bu holda hisobga olinadi.
Haqqoniy qiymat	Joriy bozor shartlari asosida baholash sanasida asosiy (yoki eng manfaatli) bozordagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o'tkazish uchun to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir, bunda ushbu narx bevosita kuzatiladigan bo'lishi yoki boshqa baholash usuli orqali baholanishi inobatga olinmaydi.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ta'kidlash mumkinki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari korxonalardan ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchliligini talab qiladi, bu esa hisob siyosatini to'g'ri qaror qabul qilishning asosiy hujjatga aylantiradi. Hisob siyosatida narx turlarini hisobga olgan holda, korxonalar moliyaviy hisobotlarni aniq aks ettirilishini ta'minlashi va ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish xavfini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korxonada hisob siyosatini shakllantirishda buxgalterlarning professional fikri nuqtai nazardan quyidagi xulosalarni berish mumkin:

birinchi, MHXS formatidagi hisob siyosati har qanday korxonaning moliyaviy boshqaruvining muhim vositalaridan biridir. Uning to'g'ri qo'llanilishi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, moliyaviy hisobotning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Biroq, MHXSni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ushbu standartning asosiy qoidalari va tamoyillarini mukammal bilish talab etiladi;

ikkinchi, MHXS bo'yicha ekspertning ta'kidlashicha, MHXS formatidagi hisob siyosatining asosiy nuqtasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan tamoyillar va standartlarga muvofiqlikdir. Bunga buxgalteriya hisobi qoidalari, MHXS konfiguratsiyasi va moliyaviy hisobot talablari;

uchinchi, shuni esda tutish kerakki, MHXSdan foydalanish nafaqat yirik korxonalar uchun majburiydir, balki potensial investorlar, manfaatdorlar va hamkorlar nazarida biznesning jozibadorligini oshirishning asosiy elementi hisoblanadi. Shu sababli, MHXSning asosiy qoidalarini

sinchkovlik bilan o'rganish va tushunish har qanday korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi;

to'rtinchi, shuni alohida e'tirof etish lozimki, MHXS formatidagi hisob siyosati rasmiy talab sifatida emas, balki korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash va ishonchli hisobotni ta'minlash vositasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. MHXSdan foydalanish biznesni rivojlantirish va uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

oltinchi, MHXS formatidagi hisob siyosati zamonaviy biznesning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu korxonalarga nafaqat xalqaro standartlarga javob berish, balki o'z mablag'larini to'g'ri boshqarish, asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. MHXSni joriy etish shaffoflik, barqarorlik va muvaffaqiyat sari qadam sifatida baholanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hisob siyosatini shakllantirish va uning uslubiyotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda barqarorlik standartlarini ham hisobga olishni talab etmoqda. Ma'lumki, xalqaro barqarorlik standartlari Kengashi (ISSB) tomonidan 2023 yil iyun oyida o'zining ilk MHXS Barqarorlikka oid axborotni yoritish bo'yicha quyidagi ikki muhim standartlarni e'lon qildi:

MHXS S1 – “Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotni yoritish bo'yicha umumiy talablar” (IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information);

MHXS S2 – “Iqlim bilan bog'liq axborotlarni yoritib berish” (IFRS S2 Climate-related Disclosures).

Ushbu standartlar investorlar uchun ishonchli va yuqori sifatli global barqarorlik hisobotining asosini yaratadi. Ushbu standartlar atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv (ESG) mezonlariga alohida e'tibor qaratib, korxonalarga o'z barqarorlik harakatlarini tizimli ravishda baholash va takomillashtirish imkonini beradi.

Xalqaro barqarorlik standartlari Kengashi (ISSB) 2021 yilda tashkil etilgan bo'lib, barqarorlikka oid moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) ishlab chiqish va tasdiqlash uchun mas'uldir. Xalqaro Barqarorlik Standartlari Kengashi Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari Jamg'armasi (IFRS Foundation) tomonidan boshqariladi. Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari Jamg'armasi ushbu kengashni barqarorlikka yo'naltirilgan va javobgarlikka tortish uchun yuqori sifatli va izchil standartlarni ishlab chiqish uchun mas'ul tashkilotga bo'lgan kuchli talabni qondirish maqsadida tashkil etilgan. Demak, bundan buyon professional buxgalter fikri bo'yicha yuqoridagi har ikkala barqarorlik standartlarida belgilangan qoidalar va tamoyillar korxonalarining hisob siyosatida o'z aksini topishi zarur hisoblanadi.

MHXS S1- “Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotni yoritish bo'yicha umumiy talablar” nomli standartning umumiy maqsadi, korxonalarga qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrda duch keladigan barqarorlik bilan bog'liq risklar va imkoniyatlar haqida investorlarga axborotlarni yoritib berish talablarini belgilaydi. O'z navbatida, MHXS S2 - “Iqlim bilan bog'liq axborotlarni yoritib berish” standarti esa, korxonalardan o'zining iqlim bilan bog'liq risklari va imkoniyatlari haqida axborotlarni yoritib berishni talab qilidai.

Natijada, ushbu axborotlar moliyaviy hisobotlarning asosiy foydalanuvchilari uchun foydali bo'lib, ular korxonaga iqtisodiy resurslar taqdim etish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ushbu axborotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Demak, korxonaning hisob siyosatini, bundan keyingi davrlar uchun yuqoridagi barqarorlik va iqlim bilan bog'liq ikkita muhim standartlardagi qoidalar asosida shakllantirishi zaruriy shartdir. Sababi, korxonalar S1 va S2 barqarorlik bo'yicha ma'lumotlar yoritish standartlarini ularning yillik moliyaviy hisobotlarini MHXS tamoyillari va amaliyotlariga muvofiq tayyorlanganligidan qat'iy nazar qo'llashi mumkin.

Fikrimizcha, hisob siyosatida barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotlar foydali bo'lishi uchun ular o'rinli va haqqoniy tarzda aks ettirilishi talab etiladi. O'z navbatida barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotlarning o'rinli va haqqoniy bo'lishi asosiy sifat xususiyatlar hisoblanadi.

Hisob siyosatida belgilanadigan barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotlarning foydaliligi: ularning qiyoslanishi;

tekshirilishi;

o'z vaqtida taqdim etilishi;

tushunarli bo'lishi bilan yanada oshadi. Natijada, ushbu sifatlar barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy axborotlarning qo'shimcha sifat xususiyatlari sifatida hisob siyosatida ko'rsatib beriladi.

Hisob siyosatida qo'llash natijasida, axborotlarning muhimlik darajasi shundaki, korxonalar o'zining istiqboliga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barqarorlik bilan bog'liq risklar va imkoniyatlar haqida muhim axborotlarni yoritib berishi kerak bo'ladi. Shuningdek, barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy hisobotlardagi axborotlarni tushirib qoldirish, noto'g'ri bayon etish yoki noaniq ifodalash moliyaviy hisobotlarning foydalanuvchilarining qarorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday axborotlar muhim hisoblanadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalar hisob siyosatida yoritib beilishi lozim bo'lgan barqarorlik bilan bog'liq risklar va imkoniyatlar sifatida quyidagi xulosalarga to'xtalib o'tildi:

birinchidan, korxonaning biznes modeli yoki faoliyati ko'proq suv va shu kabi boshqa tabiiy resurslarga ko'proq bog'liq bo'ladi;

ikkinchidan, korxona ushbu tabiiy resurslarning sifati, mavjudligi va narxiga ta'sir ko'rsatadi;

uchinchidan, ushbu tabiiy resurslarning o'zgarishi ham korxonaga ta'sir etishi mumkin. Ushbu tabiiy resurslarning kamayishi yoki yomonlashishi korxona faoliyatining uzilishiga, uning ishlab chiqarish jarayoniga, ya'ni biznes modeliga va strategiyasining o'zgarishiga olib keladi;

to'rtinchidan, bu kabi uzilishlar oxir-oqibat korxonalarning moliyaviy natijalariga (daromad va xarajatlari) va moliyaviy holati (aktivlar, kapital va majburiyatlari)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020 yil 24 fevral. (3-bandi) <https://lex.uz/docs/4746047>

2. 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. *Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar*. Rasmiy tarjima. 2022 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati»ni tasdiqlash haqida [O'zRes AV 2024 yil 6 avgust, ro'yxat raqami 3544].

4. Положеніе по бухгалтерскому учету "Учетная политика организации" (ПБУ 1/2008). Приложеніе N1 к Приказу Мин фин Россиyskoy Federasii ot 06.10.2008 N 106n.

5. Indian Accounting Standard (Ind AS) 8 Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors#.

6. Accounting Standards Board of Japan (ASBJ). Japanese generally accepted accounting principles (JGAAP) Accounting Standard for Accounting Policy Disclosures, Accounting Changes and Error Corrections.

7. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: "Iqtisod-

moliya”, 2019-y. 624 b.

8. Ibragimov A.K. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019.

9. Smirnova, T. V. Osnovi teorii buxgalterskogo ucheta: uchebnoe posobie / T. V. Smirnova ; Minobrnauki Rossii, GOU. 2011. - 155 s.

10. Astaxov (2018), Buxgalterskiy (finansoviy) uchets v 2 ch. Ch. 1 : uchebnik dlya akademicheskogo bakalavriata. 12-e izd., pererab. i dop. - Moskva: Yurayt, 2018. - 536 s.

11. Qurbonboev J.E. Korxonalarda hisob siyosatini shakillantirish, yuritish va rivojlantirish istiqbollari. i.f.n.. avt. - T., 2005. 18 b.

12. Kozlova E.P. Buxgalterskiy uchets v organizatsiyax.-M.: FiS, 1999.

13. Pardaev A.X. Boshqaruv hisobi. Darslik. T.: 2002 yil.

14. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlantirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari”. Monografiya. -T.: 2005. 151- 152 bet.

15. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy uchets. -M.: Infra-M. 1997.

Mannapova Ra'no Abrorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Budget hisobi va g‘aznachilik”
kafedrasi dotsenti, PhD.
r.mannapova@tsue.uz

BUXGALTERIYA HISOBIDA YANGI MOLİYAVIY TEXNOLOGIYALAR.

Маннапова Раъно Абборовна
Ташкентский государственный экономический
университет PhD., доцент кафедры
“Бюджетный учет и казначейство”
r.mannapova@tsue.uz

НОВЫЕ ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ

Mannapova Rano Abrorovna
Tashkent State University of Economics
Associate Professor of the
Department of “Budget Accounting and Treasury”
r.mannapova@tsue.uz

NEW FINANCIAL TECHNOLOGIES IN ACCOUNTING

Annotatsiya: Mazkur maqolada buxgalteriya hisobida yangi moliyaviy texnologiyalarning roli, ahamiyati va ularni joriy etishning samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalar - xususan, blokcheyn, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash tizimlari va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari - an'anaviy buxgalteriya jarayonlarini soddalashtirish, oshkoralikni ta'minlash hamda inson omilini kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Ishda yangi texnologiyalarning buxgalteriya hisobidagi qo'llanilishi, ularning afzallik va xavf-xatar tomonlari, shuningdek, joriy etishdagi dolzarb muammolar yoritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston misolida bu texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq qilish holati va istiqbollari ham ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: Buxgalteriya hisobi, moliyaviy texnologiyalar, raqamli buxgalteriya, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, bulutli hisoblash, Fintex (FinTech), innovatsion texnologiyalar, moliyaviy boshqaruv.

Аннотация: В данной статье анализируются роль, значение и эффективность новых финансовых технологий в бухгалтерском учете. В условиях современной цифровой экономики финансовые технологии, в частности, блокчейн, искусственный интеллект, системы облачных вычислений и автоматизированные программы бухгалтерского учета, позволяют упростить традиционные бухгалтерские процессы, обеспечить прозрачность и повысить эффективность за счет снижения человеческого фактора. В статье рассматриваются применение новых технологий в бухгалтерском учете, их преимущества и риски, а также актуальные проблемы при внедрении. Кроме того, на примере Узбекистана рассматриваются состояние и перспективы внедрения этих технологий на практике.

Ключевые слова: Бухгалтерский учет, финансовые технологии, цифровой учет, блокчейн-технологии, искусственный интеллект, автоматизация, облачные вычисления, Fintex (FinTech), инновационные технологии, финансовый менеджмент.

Abstract: This article analyzes the role, importance and effectiveness of new financial technologies in accounting. In the context of the modern digital economy, financial technologies, in particular blockchain, artificial intelligence, cloud computing systems and automated accounting programs, allow to simplify traditional accounting processes, ensure transparency and increase efficiency by reducing the human factor. The article discusses the application of new technologies in accounting, their advantages and risks, as well as current problems during implementation. In addition, the state and prospects for the implementation of these technologies in practice are considered using the example of Uzbekistan.

Keywords: Accounting, financial technologies, digital accounting, blockchain technology, artificial intelligence, automation, cloud computing, Fintex (FinTech), innovative technologies, financial management.

Kirish.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar barcha sohalarda, xususan, buxgalteriya hisobida ham zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi moliyaviy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar (FinTech) buxgalteriya tizimiga kirib kelib, uni yanada avtomatlashtirilgan, shaffof va samarali tizimga aylantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi moliyaviy texnologiyalar - blokcheyn, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) tahlili, avtomatlashtirilgan hisob-kitob dasturlari - buxgalteriya hisobining shakli va mazmunini o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar inson omilini kamaytirish, xatoliklarni minimallashtirish, real vaqt rejimida ma'lumotlarni olish va tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, moliyaviy boshqaruv tizimi yanada puxta va ishonchli axborotga tayangan holda qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Xususan, blokcheyn texnologiyasi buxgalteriya yozuvlarining o'zgartirib bo'lmashligini ta'minlasa, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar esa buxgalteriya jarayonlarining avtomatlashtirilgan va prognozga asoslangan bo'lishini ta'minlaydi. Bulutli texnologiyalar esa foydalanuvchilarga istalgan joydan va istalgan vaqtda moliyaviy hisobotlarga kirish imkonini yaratadi. Bu esa kompaniyalar, auditorlik tashkilotlari va nazorat organlari uchun katta qulaylik yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari faol davom etmoqda. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida moliyaviy sohalarda, shu jumladan, buxgalteriya hisobida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa zamonaviy buxgalteriya tizimining shakllanishi va xalqaro standartlarga moslashish jarayonini tezlashtirmoqda.

Mazkur ishda buxgalteriya hisobida yangi moliyaviy texnologiyalarning tutgan o'rni, ularni joriy etishning afzallik va kamchiliklari, amaliy misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, bu texnologiyalarning milliy buxgalteriya amaliyotiga moslashuvi va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlariga ham e'tibor qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy texnologiyalarning integratsiyasi so'nggi yillarda ilmiy va amaliy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur yo'nalishda chop etilgan

adabiyotlar, asosan, yangi texnologiyalarning buxgalteriya amaliyotiga ta'siri, ularning samaradorligi, xavfsizlik masalalari va xalqaro tajribani o'rganishga qaratilgan.

Xalqaro miqyosda R. Brynolfsson, A. McAfee, M. Porter va boshqa olimlar tomonidan raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilining buxgalteriya tizimiga integratsiyasi borasida muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ishlari texnologik transformatsiya natijasida buxgalterlar roli qanday o'zgarayotganini va bu jarayonni qanday boshqarish kerakligini yoritib beradi.

Journal of Accounting and Information Technology, Accounting Horizons, va International Journal of Accounting Information Systems kabi nufuzli ilmiy jurnallarda buxgalteriya hisobida FinTech texnologiyalarining joriy etilishi, blokcheyn asosidagi hisob yuritish, sun'iy intellekt yordamida auditchilik va prognozlash masalalari bo'yicha keng qamrovli maqolalar e'lon qilinmoqda. Xususan, Kokina & Davenport (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarining buxgalteriya jarayonlariga ta'siri chuqur tahlil qilingan.

O'zbekiston olimlari ham ushbu yo'nalishda faol tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, Sh. Abduvaxidov, A. Abdullayeva, M. Egamberdiyev kabi iqtisodchi va buxgalter olimlar tomonidan yozilgan maqolalarda buxgalteriya hisobining raqamlashtirilishi, ERP tizimlari va "1C: Buxgalteriya" kabi avtomatlashtirilgan dasturlar amaliyotda qanday natijalar berayotgani tahlil etilgan. Ularning tadqiqotlarida O'zbekiston korxonalarida axborot tizimlari asosidagi buxgalteriya yuritishning holati, imkoniyatlari va muammolari ochib berilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Hisob palatasi va boshqa davlat idoralari tomonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlar, hisobotlar va yo'riqnomalar ham mazkur sohadagi islohotlarning huquqiy va amaliy asoslarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi buxgalteriya va moliya sohasida raqamlashtirish jarayonining asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar buxgalteriya hisobida yangi texnologiyalarni qo'llashning nazariy va amaliy asoslarini yaratadi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro tadqiqotlarni o'zaro solishtirish orqali ushbu sohadagi tajribalarni umumlashtirish va takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - buxgalteriya hisobida yangi moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi, ularning samaradorlikka ta'siri, afzalliklari va mavjud muammolarini aniqlashdan iboratdir. Shu asosda tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

1. Tahliliy-uslubiy yondashuv. Moliyaviy texnologiyalar va ularning buxgalteriya hisobidagi roli yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, normativ hujjatlar va xalqaro tajribalar o'rganildi va tahlil qilindi. Xususan, raqamli buxgalteriya, FinTech, blokcheyn, sun'iy intellekt va bulutli texnologiyalar bilan bog'liq konseptual yondashuvlar tahlil qilindi.

2. Taqqoslash usuli. Milliy va xorijiy tajribalar o'rtasida taqqoslashlar olib borildi. Xalqaro amaliyotda joriy etilgan moliyaviy texnologiyalar va ularning buxgalteriya hisobiga ta'siri O'zbekiston sharoitidagi amaliyot bilan solishtirildi.

3. Empirik tadqiqot usullari. Amaliy tadqiqotlar doirasida ba'zi mahalliy tashkilotlar misolida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish holati o'rganildi. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar tahlili orqali avtomatlashtirish darajasi, texnologiyalarning samaradorligi va hisobot sifati o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashga urinish qilindi.

4. Induktiv va deduktiv tahlil. Amaliy holatlar asosida umumiy xulosalar chiqarish (induktiv yondashuv) hamda mavjud nazariy konsepsiyalar asosida o'zgarishlar prognozini berish (deduktiv tahlil) usullaridan foydalanildi.

5. Grafik va jadval shaklidagi tasvirlash. Tadqiqot natijalarini vizual ko'rinishda taqdim etish maqsadida grafik va diagrammalar, jadvallar tuzildi. Bu usul o'zgarishlarni aniq ko'rsatish, solishtirish va tahlil qilishda samarali bo'ldi.

Natija va muhokama.

Tadqiqot davomida buxgalteriya hisobida yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi, samaradorligi hamda ularni qo'llashdagi mavjud muammolar chuqur o'rganildi. Quyida asosiy natijalar va ularning muhokamasi keltiriladi:

1. Yangi moliyaviy texnologiyalar buxgalteriya hisobining sifat ko'rsatkichlarini oshirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy moliyaviy texnologiyalar - xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari - buxgalteriya hisobotlarining aniqligi, tezligi va shaffofligini sezilarli darajada oshiradi. Bu texnologiyalar inson xatolarini kamaytiradi, real vaqt rejimida monitoring va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, blokcheyn asosidagi tizimlar har bir tranzaksiyani izchil tarzda qayd etadi va uni o'zgartirib bo'lmazligini ta'minlaydi. Bu esa moliyaviy axborotlarning ishonchliligini kafolatlaydi.


2. Texnologiyalarni joriy etish samarasini tashkilotning texnologik tayyorgarligi belgilaydi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, korxona va tashkilotlar tomonidan texnologik infratuzilmaning mavjudligi, malakali IT mutaxassislar va buxgalterlarning raqamli savodxonligi darajasi - moliyaviy texnologiyalarning muvaffaqiyatli joriy etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aksariyat kichik va o'rta korxonalar ilg'or texnologiyalarni joriy etishga qiziqish bildirgan bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etishda infrastrukturaviy va moliyaviy cheklovlarga duch kelmoqda.

3. Raqamli transformatsiya - buxgalteriya kasbining roli va funksiyasini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lmoqda. Yangi texnologiyalarning kirib kelishi natijasida buxgalterlar an'anaviy hisob yurituvchidan ko'ra, raqamli axborotlar bilan ishlovchi tahlilchi, maslahatchi va strategik qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi mutaxassisga aylanmoqda. Bu esa buxgalter kadrlarni tayyorlashda yangi yondashuvlarni qo'llash, raqamli ko'nikmalarni oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

4. Milliy buxgalteriya amaliyotida texnologiyalarning joriy etilish darajasi cheklangan, biroq ijobiy siljishlar mavjud. O'zbekistonda buxgalteriya tizimining raqamlashtirilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "1C: Buxgalteriya", "SAP", "ERP" tizimlari va boshqa dasturlar yirik korxonalarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Biroq, kichik biznes subyektlarida bu jarayon sekin kechmoqda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari (subsidiya, soliq imtiyozlari, raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar) bu jarayonni jadallashtirishga yordam berishi mumkin.

5. Moliyaviy texnologiyalar bilan bog'liq xavf-xatarlar ham mavjud. Tadqiqot davomida shuni ham aniqladikki, yangi texnologiyalar bilan bir qatorda axborot xavfsizligi, maxfiylik va huquqiy tartibga solish masalalari ham dolzarb bo'lib bormoqda. Raqamli tizimlardagi xatoliklar yoki kiberhujumlar korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, texnologiyani joriy etish bilan birga, ishonchli axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish ham zarur.

Korxonalar darajasida bosqichma-bosqich raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish lozim, bunda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun oddiy, arzon va foydalanuvchiga qulay bo'lgan buxgalteriya avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish bo'yicha yo'l xaritalari tuzilishi zarur. Bu borada davlat tomonidan metodik yordam, subsidiya yoki imtiyozli dasturiy ta'minot taklif etilishi foydali bo'ladi.




* Muallif tomonidan tuzilgan.

Axborot xavfsizligi va shaffoflikni ta'minlovchi normativ-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish kerak. Blokcheyn texnologiyalari, masofaviy hisob yuritish va moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashish imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatda, ma'lumotlar himoyasi va huquqiy kafolatlar yanada mustahkamlanishi lozim hamda raqamli buxgalteriya sohasida kibernetika xavfsizlik me'yorlari bo'yicha milliy standartlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishda FinTech sohasida yaratilgan yangi texnologiyalarni buxgalteriya tizimida sinovdan o'tkazish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimi yo'lga qo'yilishi lozim. O'zbekiston ilmiy-tadqiqot institutlari va IT-kompaniyalari hamkorligida "raqamli buxgalteriya laboratoriyalari" tashkil etilishi foydali bo'ladi.

2-chizma.



* Muallif tomonidan tuzilgan.

Davlat tomonidan rag'batlantirish choralarini kengaytirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, yengilliklar va kreditlar berish orqali bu jarayonni tezlashtirish mumkin. Yangi texnologiyalar asosida hisob yuritish amaliyotini joriy etayotgan buxgalterlar va korxona rahbarlari alohida e'tirof etilishi va rag'batlantirilishi kerak.

Yangi moliyaviy texnologiyalar buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va raqamli iqtisodiyotga moslashishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq bu texnologiyalarni joriy etishda infratuzilma, kadrlar tayyorlash, huquqiy asoslar va xavfsizlik masalalarini ham birgalikda hal qilish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli

buxgalteriya - bu nafaqat texnik yangilik, balki butun moliyaviy boshqaruv tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishidir.

Xulosa.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisob tizimi ham jadal sur'atlarda modernizatsiyalanmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangi moliyaviy texnologiyalar - xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari - nafaqat hisob-kitoblarning aniqligi va tezligini ta'minlaydi, balki moliyaviy axborotlarning shaffofligi va ishonchliligini ham oshiradi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi shartlar zarur: texnologik infratuzilmaning mavjudligi, malakali kadrlar, zamonaviy dasturiy ta'minot va axborot xavfsizligi choralarining kuchaytirilishi. Shu bilan birga, bu jarayonlarda davlat tomonidan ko'maklashish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish ham muhim omillardandir.

Shuningdek, yangi texnologiyalar buxgalter kasbining mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirib, uni an'anaviy hisob yurituvchidan strategik maslahatchi darajasiga olib chiqmoqda. Bu esa ta'lim tizimidan tortib, amaliy faoliyatgacha bo'lgan barcha bo'g'inlarda yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobini zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish - bu nafaqat zamon talabi, balki har bir korxona va mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q.X.Abdurahmonov (2022). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
2. A.A.Abdullayev, S.M.Jo'rayev (2023). Raqamli texnologiyalar sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish. Iqtisodiyot va moliya, 3(41), 67-74.
3. Z.R.Murodova (2021). Yangi moliyaviy texnologiyalar va ularning buxgalteriya hisobiga ta'siri. Ilmiy-texnik axborotlar jurnali, 5(11), 54-59.
4. International Federation of Accountants (IFAC). (2021). The Impact of Technology on the Accounting Profession. Retrieved from <https://www.ifac.org>
5. World Bank. (2022). Digital Transformation of Financial Systems: Challenges and Policy Options. Washington, D.C.: World Bank Publications.
6. A.R.Yuldashev, (2020). Blokcheyn texnologiyasi asosida moliyaviy hisob yuritish imkoniyatlari. Innovatsion iqtisodiyot, 2(9), 43-47.
7. B.B.Kadirov (2021). Buxgalteriya hisobida axborot tizimlari va texnologiyalarining o'rni. Buxgalteriya va audit, 1(25), 33-39.
8. OECD. (2022). Accounting and Finance in the Digital Age. Paris: OECD Publishing.
9. Tashkent Institute of Finance. (2023). Moliyaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot (o'quv qo'llanma). Toshkent: TIF nashriyoti.
10. Deloitte. (2021). Tech Trends in Accounting 2021-2025. London: Deloitte Insights.
11. D.T.Karimov (2023). Raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining transformatsiyasi. Iqtisodiy tadqiqotlar, 4(17), 21-28.
12. PwC (PricewaterhouseCoopers). (2022). Digital Finance and the Future of Accounting. Retrieved from <https://www.pwc.com>
13. M.S.Xolmatova (2024). Sun'iy intellekt yordamida moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish: amaliy tajribalar va yondashuvlar. Raqamli rivojlanish jurnali, 2(6), 14-20.

Axmedov Akbarali Sultonmurodovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy statistika” kafedrasi dosenti. a.s.axmedov0505@gmail.com

Xujakulov Xaitmurat Djavlievich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy statistika” kafedrasi professori.
khaitmurat_kh@mail.ru

Ro‘ziev Alisher Ibroimovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy statistika” kafedrasi dosenti.
alisherruziev1986@mail.ru

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR TARMOG‘INING TUTGAN O‘RNINI STATISTIK BAHOLASH.

Ахмедов Акбарали Султонмуродович,
Доцент кафедры “Экономическая
статистики” Ташкентского
государственного экономического
университета a.s.axmedov0505@gmail.com

Хужакулов Хаитмурат Джавлиевич,
Профессор кафедры “Экономическая
статистика” Ташкентского государственного
экономического университета.
khaitmurat_kh@mail.ru

Рузиев Алишер Иброимович,
Доцент кафедры “Экономическая статистики” Ташкентского
государственного экономического университета
alisherruziev1986@mail.ru

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПОЛОЖЕНИЯ ОТРАСЛИ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Akhmedov Akbarali Sultanmurodovich,
Tashkent state university of economics, professor,
department of "Economic statistics" a.s.axmedov0505@gmail.com

Xujakulov Xaitmurat Djavliyeovich,
Tashkent state university of economics, nonorary professor
of the "Economic Statistics" department. khaitmurat_kh@mail.ru

Ruziyev Alisher Ibroimovich,
Tashkent state university of economics, professor,
department of "Economic statistics" alisherruziev1986@mail.ru

STATISTICAL ASSESSMENT OF THE POSITION OF THE SERVICE SECTOR IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Annotatsiya.

Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish tarmog'ining tutgan o'rni, uning holati va rivojlanishi statistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida xizmatlar sohasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bayon qilingan. Xizmat sohasini rivojlantirish borasida takliflar bildirilgan va xulosalar qilingan.

Tayanch so'zlar: xizmatlar sohasi, xizmat turlari, o'sish sur'ati, YaIM, YaHM, hududlar, kichik tadbirkorlik, qo'shilgan qiymat, innovatsiya, tarkibiy siljishlar.

Аннотация.

В статье анализируется роль отрасли услуг в экономике Узбекистана, ее состояние и развитие со статистической точки зрения. Также описаны структурные изменения, происходящие в сфере услуг в условиях модернизации и диверсификации экономики. Сделаны предложения и выводы по развитию сферы услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, виды услуг, темпы роста, ВВП, ВРП, регионы, малый бизнес, добавленная стоимость, инновации, структурные сдвиги.

Annotatsion.

The article analyzes the role of the service sector in the economy of Uzbekistan, its status and development from a statistical point of view. Also, the structural changes taking place in the service sector in the context of modernization and diversification of the economy are described. Proposals and conclusions were made regarding the development of the service sector.

Keywords: service sector, types of services, growth rate, GDP, GRP, regions, small business, added value, innovation, structural shifts.

Kirish

Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan boshlab, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirishga mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish sharoitida eng asosiy masalalardan biri xizmatlar sohasini rivojlantirish, shuningdek, bu borada aholining ish bilan bandlik darajasining kengayib borishi hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida mintaqalarni kompleks rivojlantirish va bunda asosan xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish, mazkur soha sub'ektlari uchun qulay imkoniyatlar yaratish bugungi kunda hukumatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, aholi bandligi va turmush farovonligi o'sishining muhim sifat omillaridan biri sanaladi. Servis va xizmatlar sohasini isloh qilish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida sohada iqtisodiy o'sish sifatini oshirishga, unda sezilarli darajadagi tarkibiy sifat o'zgarishlariga erishilganligi va tarmoqni taraqqiy ettirish tendensiyalari o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi.

Xizmatlar bozorining farqlanadigan asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Xizmatlarni joylashtirishning mavjudligi va osonligi;
2. Rivojlangan bozor talablariga javob berishi va alohida xizmatlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha prognoz qilishning murakkabligi;
3. Zamonaviylashishi va xizmatlarga bo'lgan e'tiborning kengayishi;
4. Aholi guruhlarining faoliyatga tez moslashuvchanligi;
5. Yuqori foyda olish imkoniyati.

Ma'lumki, xizmatlar sohasi rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omillardan biriga aylandi. Bu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kreditlash va imtiyozli soliqqa tortish biznesni rivojlantirish va xizmatlarni kengaytirish uchun rag'bat bo'ldi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlikning ijobiy va yuqori bo'lishi avvalo, tadbirkorlik faoliyati orqali tovar va xizmatlar bozori yanada faollashayotganligi, uning talab va taklif asosida tartibga solinishi hamda bozor mexanizmi yaxshi tuzilganligidadir.

Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlik sohasi yetakchi o'rinni egallashining asosiy sababi kasanachilik aloqalari yaxshi rivojlanib borayotganligi, fermer va dehqon xo'jaliklari barqaror rivojlanayotganligi kabilardir. Yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlikning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, tovar va xizmatlar bozori faoliyatining rivojlanishiga shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda tadbirkorlik shakllari bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovar va xizmatlar bozorida o'ziga xos o'rinni egallab, chakana savdo aylanish hajmidagi hissasi yuqori salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida aholining ish bilan bandligini ta'minlash, bu borada ayniqsa kasanachilikni rivojlantirish mehnatga layoqatlilar uchun samarali bandlikni ta'minlaydi.

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiyot tarmoqlarini yuksaltiruvchi, harakatga boshlovchi kuchga aylangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi barcha sohalarning iqtisodiy jarayonlarini sezirlari darajada o'zgartirib, yangi bosqichga ko'tarmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalarining rivoji — insonning aqliy mehnati, ilm va tafakkurining mevasi bo'lgan axborot hamda mahsulotlarga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotning tashkil topishi uchun ham zamin yaratmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida eng yuqori va eng past ko'rsatkichni mos ravishda Toshkent shahri va Surxondaryo viloyatlari egallab, respublika darajasiga nisbatan 4,4 martaga va 44,5 foizga teng bo'lgan (1-jadval)

Respublikamizda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2024 yilda 2019 yilga nisbatan qariyb 1,7 karraga oshib, 2020-2024 yillar mobaynida yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 10,7 foizni tashkil etgan.

Rivojlangan davlatlarda sohaning Yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi 60-70 foizni, iqtisodiyotda band bo'lganlardagi hissasi esa 75-80 foizni tashkil qilmoqda¹. Respublikamizda bu ko'rsatkichlar tegishli holda 2024 yilda 52,5 va 38,3 foizga teng bo'lganligi hali bu sohada foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi².

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Bu borada, mamlakatimizda xizmatlar sohasining tezkor o'sish sur'atlarini ta'minlash, mazkur yo'nalishda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvatlash va aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[1]da va 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni[3]da xizmatlar sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish, sifatli xizmatlar turlarini kengaytirish va hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 2030 yilgacha 3 baravarga oshirish, o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300

¹ Manba: <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS>, <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

² Manba: www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlarini rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilish alohida ta'kidlangan.

1-jadval

Respublikamizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari ulushi³

Xizmatlar	2024 yil		
	Xizmatlar hajmi mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi %	2023 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	818428,3	100,0	112,9
shu jumladan:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	56174,2	6,9	125,8
moliyaviy xizmatlar	135509,5	16,5	120,6
transport xizmatlari	145124,4	17,7	108,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	72604,7	8,9	112,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	183314,5	22,4	110,6
savdo xizmatlari	149599,8	18,3	111,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	20633,1	2,5	113,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	30036,5	3,7	113,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	15778,7	1,9	109,4
ijara xizmatlari	9707,6	1,2	105,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	11848,2	1,4	112,3
shaxsiy xizmatlar		1,9	109,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	11200,6	1,4	103,9
boshqa xizmatlar	34039,2	4,2	107,9

Mamlakatimizda AKT xizmatlari sektorida 2023 yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 30563,5 mlrd. so'mni, shundan 1248,5 mlrd. so'mlik xizmatlar dasturiy ta'minot mahsulotlariga doir xizmatlar ulushiga to'g'ri kelgan. Hozirda (2023y) AKT sohasining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 3,0 foizni tashkil qilmoqda.

³ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

2-jadval

**Mintaqaning alohida hududlari uchun xizmatlar sohasining rivojlanishidagi
nomutanosibliklarni hisob-kitob qilish algoritmi**

Bosqich-lar	Ishning mazmuni	Hisob-kitob ko'rsatkichlari
	Hududlarning xizmatlar sohasi rivojlanishi qiymat va o'sish ko'rsatkichlarini tanlash	Ma'lumotlar to'plami (SER_{it} – i -hududiy birlikning xizmatlari, xizmatlar sohasining 14 turi bo'yicha ko'rsatkichlar, EDU_{it} – bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida qamrab olish va ta'lim bo'yicha boshqa ko'rsatkichlar, MED_{it} – kasalxona o'rinlari soni, Ror_{it} – i -hududning aholi soni ko'rsatkichi)
II	Tanlab olingan ko'rsatkichlar asosida kishi boshiga o'rtacha indikatorlarni hisoblab chiqish	$ser_{it} = SER_{it} / Ror_{it}$ $ed_{it} = EDU_{it} / Ror_{it}$ $med_{it} = MED_{it} / Ror_{it}$
III	Hududlarning kishi boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari mintaqa-ning kishi boshiga o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbati asosida koeffitsientlarni hisoblab chiqish	$K_{ser} = ser_{it} / sert$ $K_{edu} = ed_{it} / edut$ $K_{med} = med_{it} / medt$
IV	Alohida hududlarning xizmatlar sohasi ko'rsatkichlari standart og'ishlarini hisoblab chiqish	$SD_{y_n}^{\frac{1}{i}} \left\{ \sum_{i=1}^n \left[(y_i - y_n)^2 \left(\frac{p_i}{p} \right) \right] \right\}^{\frac{1}{2}}$

Umuman, mintaqaviy tafovutlarni baholashda quyidagi mintaqalararo taqqoslash usullaridan foydalaniladi:

- *mintaqalararo taqqoslash usuli* – ushbu usul yordamida avvalgi tahlil natijalaridan foydalangan holda mintaqalar va bu mintaqalardagi jarayonlarning umumiy jihatlari tahlil qilinadi;

- *geografik axborot tizimlari usullari* – ularda kompyuter tizimlari geografik ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'naltiriladi, so'ngra mintaqaviy nomutanosibliklarni baholash uchun kartalar ko'rinishida taqdim etiladi;

- *variatsiya darajasi* – ushbu usul variatsiya koeffitsienti va standart og'ishni hisoblab chiqish yo'li bilan mintaqaviy nomutanosiblikni baholaydi;

- *ko'p o'lchamli statistik usullar* – ushbu usullar guruhiga asosiy tarkibiy qism va omillar uslubiyati, klasterli yoki diskriminatsion tahlil kiradi;

- *klasterli tahlil* – bir turdagi bir nechta ob'ektlarni klasterlar nomi ostida guruhlovchi keng usullar guruhi;

- *omillar tahlili* – mintaqaviy tengsizlikning turli indikatorlari bilvosita sabablari o'zgaruvchanligini aniqlash imkoniyatini taqdim etuvchi statistik usul;

- *oddiy model*, undan mintaqadagi statistik vaziyatni tahlil qilishda foydalaniladi;

- *real konvergensiya usuli* – ikki bosqichda bajariluvchi usul: dastlabki bosqichda hududiy tafovutlarni tavsiflovchi turli indikatorlar baholanadi; ikkinchi bosqichda bu tafovutlar xarakteri, ya'ni tengsizliklarning ortishi (divergensiya) yoki qisqarishi (konvergensiya) tahlil qilinadi;

- *Gini (Djini) modifitsiyalangan hududiy koeffitsienti* – ushbu koeffitsient klassik Djini indeksidan farq qiladi hamda aholi jon boshiga lokal YaMD bilan hisoblab chiqiladi va mamlakat YaIMdan farqlanishni tavsiflaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalar bo'yicha iqtisodiyot sohasidagi xorijlik, Rossiyalik va respublikamiz olimlaridan L.S. Kazines[4], V.V. Leontev, K.Gatev, A.Salai, T.V. Ryabushkin, O.Yu. Krasilnikov[5], O.S. Suxarov, A.Rasulov, X.D. Xujakulov[6,8,9], M.M. Muxammadiev[7], A.I. Ro'ziev[8,9] va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar.

Qayd qilingan olimlarning ilmiy ishlarida xizmatlar sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va nazariy jihatdan o'rganilgan, ammo xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning statistik tahlilining yetarlicha amalga oshirilmaganligi maqolaning maqsadi qilib belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez hamda mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlardan foydalanilib, statistik ko'rsatkichlar aniqlangan. Maqolada xizmatlar sohasining tutgan o'rnini statistik baholashda dinamika qatorlarining statistik tahlili amalga oshirilgan.

Natija va muhokama. Xizmatlar insonning qimmatli vaqtini va ortiqcha sarflaydigan xarajatlarini tejab, mehnatning ijodiy mazmunini boyitish asnosida aholining hayotiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida sifat ko'rsatkichlari qat'iy ravishda oshib, unga bo'lgan talabning o'sib borishi sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish xizmatlari yanada rivojlanishiga, shuningdek, ilgari mavjud bo'lmagan yuqori texnologiyali xizmatlar shakllanishiga va yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. Yuqori sifatli turli-tuman xizmatlar mavjudligi aholining sog'ligiga va insonlar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning ish unumini, iste'mol xarajatlarini oshiradi, bo'sh vaqt ko'payishiga va aholining dam olishiga imkoniyat beradi. Inson faoliyatida juda qulay, xo'jalik ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan yangi xizmat ko'rsatish tarmog'i, ya'ni bugungi kunda zudlikda ma'lumotlar bilan ta'min etuvchi Internet, mobil (uyali) telefonlar va boshqa fan-texnika yutuqlarini qo'llaydigan xizmat turlari rivojlanib bormoqda. Mazkur xizmat turlarining rivojlanishi mamlakatimizning nafaqat iqtisodiy qudrati yuksalishiga, uning intellektual salohiyati oshishiga ham xizmat qiladi.

Keyingi yillarda yirik koxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining o'sishi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushining pasayishi tufayli yuz bergan bo'lsada, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning eng katta ulushi Toshkent shahrida 26,8 foizni eng kichik ulushi esa Sirdaryo viloyatida 1,7 foizni tashkil qilgan.

Postindustrial transformasiya xizmatlar sohasini dunyoning barcha rivojlangan va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIM hajmi bo'yicha yetakchiga aylantirdi. Masalan, Rossiya va Qozog'istonda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi 53 % dan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2024 yilning dastlabki yakuniga ko'ra 45,2 % ni tashkil etgan.

XXI asrda xizmatlar diversifikasiyasi dunyo bo'ylab keng tus olmoqda. Korxonalar talay xizmatlar to'plamini taklif etish orqali o'zlarining raqobatbardoshligini oshirishga yoki xizmatlarni diversifikasiyalash yo'li bilan ehtimoli bor xatarlarni susaytirishga erishmoqdalar.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan sub'ektlar soni 2025 yil 1 yanvar holatiga 73,2 foizni, ya'ni 310834 birlikni tashkil etgani holda, shundan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 246122 tani tashkil etgan.

2024 yilda yaratilgan xizmatlar hajmi joriy baholarda 818428,3 mlrd. soʻmni, aholi jon boshiga esa 97122,3 ming soʻmni, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi 57,0 foizga teng boʻlgan.

3-jadval

Oʻzbekistonda xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari dinamikasi⁴

Yillar	Koʻrsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd. soʻm		oʻsish surʼati, %	Kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmi, mlrd.soʻm		oʻsish surʼati, %	Jami xizmatlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi, %
	joriy bahoda	2024 yil bahosida		joriy bahoda	2024 yil bahosida		
2020	219978,5	457144,4	103,0	114052,7	279834,4	100,3	61,2
2021	284388,1	546287,6	119,5	147061,6	333842,4	119,3	61,1
2022	366891,0	635332,5	116,3	181245,0	370898,9	111,1	58,4
2023	649806,4	724914,3	114,1	369378,4	412068,7	111,1	56,8
2024	818428,3	818428,3	112,9	466461,8	466461,8	113,2	57,0

Respublikamizda 2024 yilda 2020 yilga nisbatan koʻrsatilgan xizmatlar hajmining oʻsish surʼati 179,0 foizni, kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmi esa 166,7 foizni tashkil etib, yillik oʻrtacha qoʻshimcha oʻsish surʼatlari tegishli ravishda 15,7 va 13,6 foizga teng boʻlgan. Kichik tadbirkorlik faoliyatida xizmatlar hajmining oʻsish surʼati biroz pasligicha qolmoqda.

4-jadval

Hududlar boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlarnin asosiy koʻrsatkichlari⁵

Hududlar	2023 yil		2024 yil		oʻsish surʼti, %	2024 yilda jon boshiga koʻrsatilgan bozor xizmatlari	
	Xizmatlar hajmi, trln.soʻm	ulushi, %	Xizmatlar hajmi, trln.soʻm	ulushi, %		hajmi, ming soʻm	2023 yilga nisbatan oʻsish suraʼti,%
Oʻzbekiston Respublikasi	649,8	100,0	818,4	100,0	112,9	22017,6	110,6
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	23,0	3,5	28,8	3,5	110,6	14294,6	123,4
Andijon	33,6	5,2	41,8	5,1	113,1	12197,0	121,8
Buxoro	28,2	4,3	34,5	4,2	111,2	16741,1	120,5
Jizzax	16,0	2,5	20,1	2,5	113,8	13181,9	123,1
Qashqadaryo	34,9	5,4	43,3	5,3	110,9	12015,7	121,0
Navoiy	16,2	2,5	20,1	2,4	112,1	18484,4	121,2
Namangan	34,5	5,3	43,1	5,3	112,3	13905,1	122,3
Samarqand	46,6	7,2	58,9	7,2	114,1	13843,3	123,7
Surxondaryo	23,2	3,6	28,5	3,5	110,9	9791,5	120,1
Sirdaryo	9,2	1,4	11,6	1,4	112,2	12585,8	121,6

⁴ www.stat.uz – Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida hisoblangan.

⁵ www.stat.uz – Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida hisoblangan.

Toshkent	45,2	7	156,3	6,9	112,8	18284,1	122,3
Farg'ona	44,1	6,8	55,2	6,7	112,3	13453,4	122,5
Xorazm	22,6	3,5	28,3	3,5	112,0	14032,8	122,7
Toshkent sh.	230,8	36,5	298,2	36,5	116,8	97122,2	113,8

Bu sohaning rivojlanishi O'zbekiston Respublikasiga ham xos bo'lib. 2024 yilda mazkur tarmoqning o'sish sur'ati 112,9 foizni tashkil qilgani istiqbolda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishidan dalolat beradi. Hududlar orasida eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahri (116,8%), Samarqand (114,1%), Andijon (113,1%), Jizzax (113,8%) va Namangan (105,0%) viloyatlariga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmida eng katta ulushni Toshkent shahri (35,5%) hamda Toshkent (6,9%), Samarqand (7,2%), Farg'ona (6,7 %) viloyatlari egallagan bo'lsa, eng kichik ulush Sirdaryo (1,4%), Jizzax (2,5%), Navoiy (2,4%), Xorazm (3,5%), Surxondaryo (3,5%) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,5%)ga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkichlarga hududlarda aholi sonining miqdori ham o'z ta'siri ko'rsatganligini e'tiborga olish joizdir.

Respublikamizda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2024 yilda 2019 yilga nisbatan qariyb 1,7 karaga oshib, 2020-2024 yillar mobaynida yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 10,7 foizni tashkil etgan.

5-jadval.

O'zbekistonda xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari⁶

T/R	Ko'rsatkichlar	yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	YaIM hajmi joriy narxlarda, mlrd. So'm	668038,0	820536,6	995573,1	1204485,4	1454573,9
2	YaIM o'sish sur'ati, %	101,6	108,0	106,0	106,3	106,5
3	YaIMda YaQQning ulushi, %	93,4	93,7	94,0	95,1	95,3
4	Xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning hissasi, %					
	a) YaIMda	38,8	39,2	41,5	43,9	45,2
	b) YaQQda	41,6	41,8	44,2	46,2	47,4
5	Xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning o'sish sur'ati, %	99,2	110,0	109,1	107,1	107,7
6	Xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymati tarkibi, %:					
	a) savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari	24,7	25,9	26,2	26,7	26,4
	b) tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlar	15,9	16,2	15,7	16,1	17,1
	v) boshqa xizmat turlari	59,4	57,9	58,1	57,2	56,5


⁶ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Respublikamizda 2024 yil yakunlariga ko'ra xizmatlar sohasida barpo etilgan qo'shilgan qiymat hajmi 657348,5 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2023 yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati 7,7 foizga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 10,7 foizga, tashish va saqlash xizmatlari 8,5 foizga, axborot va aloqa xizmatlari 24,7 foizga, boshqa xizmatlar 4,5 foizga teng bo'lgan.

Xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning o'sish sur'ati 2024 yilda 2019 yilga nisbatan 137,3 foizni, 2020-2024 yillar mobaynida yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 8,2 foizni tashkil qilgan. Natijada xizmatlar qo'shilgan qiymati hissasi YaIMda 6,4 foiz bandga, YaQQda esa 5,8 foiz bandga oshgan. (5-jadval). Tahlil qilinayotgan yillar mobaynida xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning hajmi YaIM hajmiga qaraganda 1,043 martaga (137,3:131,7) jadallashgan.

YaIMning qo'shimcha o'sish sur'ati 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 6,5 foizga teng bo'lib, bunga xizmatlar sohasining qo'shgan hissasi 3,3 foizni tashkil etgan. Shunday qilib bu sohaning YaIMga ta'siri yuqori bo'lganligini ta'kidlash joiz.


Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integrasiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalar bilan o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining qo'shimcha o'sish sur'ati 2024 yilda 12,9 foizga teng bo'lib, unga moliyaviy xizmatlar 3,4 foiz bandni, transport xizmatlariniki 1,5 foiz bandni, savdo xizmatlariniki 2,3 foiz bandni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariniki 1,5 foiz bandni, ta'lim xizmatlariniki 0,5 foiz bandni, boshqa xizmatlarniki 1,4 foiz bandni, shuningdek yashash va ovqatlanish xizmatlariniki 2,3 foiz bandni tashkil etgan.



1-rasm. 2024 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida turlari bo'yicha xizmatlarning hissasi, % da⁷

Xizmatlar hajmning oshishi bir qator omillar ta'siri bilan, jumladan, bozorda yangi turdagi xizmatlar, kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet-savdo, yangi savdo-sotiq markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalar ochish, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sanoati xizmatlari paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

⁷ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



2-rasm. Xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi⁸, % da

Mamlakatimizda xizmatlar sohasining rivojlanish holatini ifodalovchi eng muhim agregat ko‘rsatkich, sohada yaratilgan qo‘shilgan qiymat hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, 2024 yilda YaIMning qo‘shimcha o‘sish sur’ati 6,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, xizmatlar sohasining ta’sir darajasi boshqa tarmoqlarga qaraganda eng yuqori bo‘lib, 45,2 foizi tashkil etgan.

6-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibidagi siljishlar⁹

Xizmat turlari	2010	2012	2014	2018	2020	2021	2022	2023	2024
Xizmatlar – jami, trln.so‘m	27, 1	44,4	68,0	150,9	220,0	284,2	357,5	470,3	818,4
shu jumladan, foizda									
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	7,7	7,3	6,7	6,8	6,3	6,2	6,4	6,9	6,9
moliya xizmatlari	9,7	9,5	9,9	14,1	20,8	21,0	22,5	22,6	16,6
transport xizmatlari	38,8	37,2	35	29,3	24,4	23,7	22,7	23,1	17,7
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1,1	1,0	1,1	3,1	2,5	2,9	3,2	3,9	22,4
savdo xizmatlari	24,4	26,0	27,9	26,3	26,2	25,5	24,8	23,5	18,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3,0	3,2	3,3	3,3	2,7	2,8	2,7	2,6	2,5
ta’lim sohasidagi xizmatlar	2,8	3,1	3,2	3,6	3,9	4,2	4,3	4,3	3,7
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,0	1,1	1,3	1,5	1,5	1,8	1,8	1,8	1,9
ijara va lizing bo‘yicha xizmatlar	2,0	2,0	2,2	2,2	1,9	1,9	1,8	1,6	1,2
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va	2,3	2,1	2,0	1,7	1,5	1,6	1,6	1,5	1,4

⁸ www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

⁹ www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar									
shaxsiy xizmatlar	2,8	2,8	3,0	2,5	2,3	2,4	2,4	2,3	1,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,1	1,2	1,1	2,0	2,2	2,2	2,1	1,7	1,4
boshqa xizmatlar	3,3	3,5	3,4	3,7	3,8	3,6	3,7	4,2	4,2

Keyingi yillarda aloqa va axborotlashtirish kabi yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmat turlarining rivojlanayotganligi inson faoliyatida juda qulay bo'lib, ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa nafaqat mamlakatning iqtisodiy qudrati yuksalishiga, balki uning intellektual salohiyati oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikasiya xizmatlari (kabel va mobil aloqa xizmatlari, Internet, sun'iy yo'ldosh aloqasi xizmatlari hamda boshqalar) eng katta ulushga ega. Transport xizmatlarining asosiy qismi yuk va yo'lovchilar tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Bu transportning tezkorligi va havo hamda temir yo'llar bilan solishtirganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- xizmatlarning yangi zamonaviy turlarini rivojlantirishga keng e'tibor qaratish, xizmatlar turlarini yanada kengaytirish;
- ba'zi xizmat turlarining hisobga olinishini takomillashtirish, bu yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sohasining ulushi oshishiga olib keladi;
- xizmatlar sohasi bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish;
- xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlarni yaratishni jadallashtirish;
- xizmatlar sohasiga yangi innovasion texnologiyalarni keng jalb etish;
- hozirgi kundagi zamonaviy xizmat turlari hisoblanadigan aloqa va axborotlashtirish, kompyuterda dasturlash xizmatlarining jami xizmatlar tarkibidagi ulushini oshirishga e'tibor qaratish va boshqalar.

Umuman olganda, xizmatlar xilma-xildir: aholiga chakana savdo xizmati ko'rsatish, avtomobillarni, maishiy texnikalarni ta'mirlash, yo'lovchilarni va yuklarni tashish, ta'lim va maslahat berish, maishiy xizmatlar, tibbiyot xizmatlari, pullarni saqlash, qimmatli kog'ozlar va ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, sug'urta va boshqa faoliyat turlari.

Bozor munosabatlari jadallashishi tufayli jamiyatda yangi xizmatlar turlari paydo bo'lib, rivojlanmoqda. Ularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- yangi turdagi ishbilarmonlik (kasbiy) xizmatlari – ko'chmas mulk bilan savdo qilish, vaqtinchalik erkin pullarni joylashtirish, axborot, marketing va reklama xizmatlari, buxgalteriya balansi va hisobotlarni tuzish, elektron kotiba;
- bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha xizmatlar – tarbiyachilar, xususiy bog'chalar va maktablar;
- hayvonlarni parvarishlash bo'yicha xizmatlar – ularni davolash, boqish, sayr qildirish va vaqtincha qarab turish;
- jamiyatda ehtiyoj mavjud bo'lgan boshqa turdagi xizmatlar.

Ayni paytda xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'atlari, yangi paydo bo'lgan xizmatlar turlari soni, bozor hamda iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishi, avvalo, aholi turmush farovonligini har qachongidan yaxshilashda qo'l kelayapti. Ikkinchidan, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa jabhalari qatori xizmatlar ko'rsatish sohasini ham davr talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois yurtimizda bu masalaga ustuvor vazifalardan biri sifatida jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2010-2024 yillarda bozor xizmatlari hajmi taqqoslama baholarda 5,8 marta oshdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi mazkur davrda 4,4 martaga o'sdi va joriy baholarda 22,0 mln.so'mni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish tasnifi xususida fikr yuritilganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasiga ko'ra turli mamlakat va mintaqalarda xizmatlar va tasniflagichlar son hamda tarkib jihatidan farq qiladi. Agar ushbu nazariy xulosadan kelib chiqadigan bo'lsak, xizmat sifatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: xizmat sifati deganda jamiyatning (odamlar, korxonalar va davlatning) xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'laigicha yuqori saviyada qondirishga qaratilgan va ularga kam xarajatlar bilan tegishli darajada moddiy va ma'naviy jihatdan naf keltiradigan nuqsonsiz xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasi rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omillardan biriga aylandi. Bu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kreditlash va imtiyozli soliqqa tortish biznesni rivojlantirish va xizmatlarni kengaytirish uchun rag'bat bo'ldi.

Respublikamiz hududlarini rivojlantirish maqsadida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada kengaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- jahon tajribasiga asosan tadbirkorlarga ko'char mulk garovi asosida kreditlashni yo'lga qo'yish kerak. Bu hududlarda kreditlash hajmini oshiradi, aktivlarni xarakatga keldiradi. Chunki respublikamizda mavjud ko'char mulklarning asosiy qismi garovga qo'yilgan;

- hududlarda ularning xususiyatini hisobga olgan holda yangi moliya institutlarini, xususan, mikrokredit tashkilotlari, qishloq kredit kooperativlari, jamg'arma qurilish kassalarini ochishni yo'lga qo'yish lozim;

- respublikamiz hududlarida, ayniqsa, mehnat resurslari ortiqcha va aholi daromadlari darajasi past bo'lgan qishloq hududlarida mikromoliyalashtirish tashkilotlarini ochishni rag'batlantirish, xususan, soliq imtiyozlari berish, binolar ajratish, kredit liniyalari ochish zarur. Ular esa, o'z navbatida, garovsiz kreditlash mexanizmini keng qo'llashi maqsadga muvofiqdir, chunki aholi tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun kredit olishiga ta'minot mavjud emasligi to'sqinlik qilmoqda;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan aholi bank va boshqa moliya institutlarining mikrokreditlaridan foydalanishda jamg'arilib boriladigan pensiya tizimidagi mablag'laridan kafolat sifatida foydalanishga ruxsat berish lozim. Bu ko'pchilik aholiga tadbirkorlikni boshlashlari uchun kredit, ayniqsa, mikrokredit olishda ta'minot masalasini ijobiy hal qilish imkonini beradi.

"Xizmatlar" tushunchasi keng qamrovli tushunchalarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, xizmat deganda, yaqqol moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan turlicha faoliyat turlari tushuniladi.

Xizmatlar va servis sohasini rivojlantirishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- insonning kamol topishi, rivojlanishi va barkamolligini ta'minlashni rag'batlantiruvchi soha;
- iste'mol bozorini zamonaviy xizmat turlari bilan to'ldiradi va hajmini oshiradi;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

- katta mablagʻ talab etilmaydi, tashkil etish uchun mahalliy moddiy resurslardan keng foydalanish imkoniyatlari bor;
- iqtisodiyotda aholining bandligini taʼminlaydi;
- aholi daromadlarini oshiradi;
- isteʼmol bozorini zamonaviy, sifatli xizmatlar turlari bilan toʻldiradi;
- ayniqsa, qishloq joylaridagi aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar va servis soha tarmoqlari koʻpayib, xizmat koʻrsatish darajasini oʻstiradi;
- iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi.

Xulosa. Fikrimizcha, xizmatlar koʻrsatish sohasini rivojlantirish ayniqsa, qishloq joylarida koʻrsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qishloq aholi punktlarida xizmat koʻrsatish korxonalarini rivojlantirish, birinchi navbatda kommunal-maishiy, uy-joylarni taʼmirlash va qurish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tayyorlash;
 - xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaviy tadbirkorlik subʼektlariga kasb-hunar bilim yurtlari va oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni jalb etish;
 - aholi oʻrtasida xizmatlarning talab yuqori boʻlgan yangi, istiqbolli konsalting, bank, moliya, sugʻurta, lizing va baholash kabi turlarini jadal rivojlantirish;
 - har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat koʻrsatish sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasining ulushi oshib borishiga erishish maqsadida shart-sharoitlar yaratish;
 - xizmat koʻrsatish sohasini keng rivojlantirish maqsadida mazkur sohada ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga alohida eʼtibor qaratish;
 - ayollarning ish bilan bandligi xizmat koʻrsatish sohalarida oʻsib borayotganligini hisobga olib, ularning kasbiy faoliyatlarini oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi bilan birga uygʻun tarzda yoʻnaltirishlari uchun bandlikning nostandart turlaridan foydalanish.
 - muhandislik-kommunikasiya, yoʻl-transport infratuzilmasini rivojlantirish, tarmoqlarda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga xizmatlar sohasini, tarkibiy oʻzgartirishlarni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
 - raqobat muhitini shakllantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik subʼektlarini rivojlantirishga koʻmaklashish;
 - turli innovasiya xizmatlarini, yangi aloqa vositalarini kengaytirish;
 - eng yangi elektron, toʻlov texnologiyalarini joriy etgan holda moliya xizmatlarini rivojlantirish;
 - sogʻliqni saqlash sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish;
 - xizmat koʻrsatish jarayonida yangi bilimlarga (ilm-fanga) doimo talab yuqori boʻlgan, shu sababli sohani rivojlantirish uchun inson kapitalini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash maqsadida soʻnggi texnologiyalardan foydalanish;
 - xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va bu sohada davlat siyosatini olib borish imkonini beruvchi ishonchli statistik maʼlumotlarga ehtiyoj boʻlgani tufayli xizmatlar sohasini ifodalovchi koʻrsatkichlar tizimini yaratish;
- Yuqorida taklif etilgan fikr va mulohazalarni amaliyotga tatbiq etilishi xizmatlar sohasini takomillashtirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.// "Xalq so'zi", 2021 yil 12 may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. www.lex.uz.
4. Казинец Л.С. Измерение структурных сдвигов в экономике.-М.: Экономика.1969. С.3
5. Красильников О.Ю. Структурные сдвиги в экономике. Саратов: Изд-во СГУ, 2001. 164 с.
6. Xujakulov X.D. O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va tarkibiy o'zgarishlarini statistik o'rganish // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali, 2017-yil dekabr, 6-son.
7. Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish va turizmning nazariy asoslari. Monografiya.- Samarqand, SamISI, 2016.
8. Xujaqulov X.D, Ro'ziev A. I. «O'zbekistonda xizmatlar sohasi rivojlanishi tendensiyalarining statistik tahlili»// "Moliya" ilmiy jurnal, 2022-yil, 6-son.
9. Xujakulov X.D, Ro'ziev A. I. «Iqtisodiyotni rivojlanishida xizmatlar sohasining ta'sirini statistik baholash (Toshkent viloyati misolida)»// Monografiya.- Toshkent, TDIU, 2024.

Rozmatova Umida Yuldashevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston.

Email: umidayuldashevnatmi@gmail.com

NOMODDIY AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Розматова Умида Юлдашевна
Независимый исследователь Ташкентского
государственного университета экономики
Ташкент, Узбекистан.

Email: umidayuldashevnatmi@gmail.com

УЧЕТ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Rozmatova Umida Yuldashevna
Independent researcher at
Tashkent State University of Economics
Tashkent, Uzbekistan.
Email: umidayuldashevnatmi@gmail.com

IMPROVEMENT OF INTANGIBLE ASSETS ACCOUNTING ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

Annotatsiya: Nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan. Unda nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarni xalqaroga muvofiqlashtirish maqsadida boshqa nomoddiy aktivlar, foydalanish huquqidagi nomoddiy aktivlar va gudvill kabi schyotlarni qo'llash tavsiya etilgan. Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarni (21-son BHM Sni) xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi hamda schyotlarni bevosita xalqaro bo'yicha talablarni tushunish imkoniyatini beradi.

Tayanch so'zlar: nomoddiy aktivlar, gudvill, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, schyotlar rejasi.

Аннотация:

В работе сформированы предложения и рекомендации по организации и совершенствованию учёта нематериальных активов на основе международных стандартов. В ней рекомендуется применять счета, учитывающие нематериальные активы, с согласованием с международными требованиями, включая счета для прочих нематериальных активов, нематериальных активов по праву пользования и гудвилл. Учётные счета для нематериальных активов (стандарт бухгалтерского учёта №21) обеспечивают соответствие требованиям международных стандартов и позволяют непосредственно понимать требования на международном уровне.

Ключевые слова: нематериальные активы, гудвилл, национальные стандарты бухгалтерского учёта, международные стандарты финансовой отчётности, план счетов.

Annotation:

The article presents proposals and recommendations for organizing and improving the accounting of intangible assets based on international standards. Specifically, it is recommended to use accounts for other intangible assets, rights to use intangible assets, and goodwill to align the accounting of intangible assets with international standards. The article discusses the need for integrating international standards into the accounting of intangible assets, which will ensure compliance with international requirements and provide a better understanding of the accounting practices related to intangible assets in international frameworks.

Keywords: intangible assets, goodwill, national accounting standards, international financial reporting standards, chart of accounts.

KIRISH.

Nomoddiy aktivlar global bilim iqtisodiyotini boshqaradigan ko‘rinmas, ammo qudratli kuchdir. Ushbu aktivlarga intellektual mulk huquqlari, shuningdek, brendlar va dasturiy ta‘minot kabi tegishli aktivlar kiradi. Ko‘pincha moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmaydigan nomoddiy aktivlar innovatsiyalar, samaradorlik va iqtisodiy o‘rinda asosiy rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda nomoddiy aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Nomoddiy aktivlar korxonaning eng daromad keltiruvchi aktivlari sifatida, ularni hisobga olish masalasi muhim hisoblanadi. Korxonalarda nomoddiy aktivlarni kiringa olishda alohida yondoshuvni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash belgilandi. O‘z navbatida nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, shuningdek, nomoddiy aktivlar bo‘yicha milliy standart qoidalarini xalqaro standartlarga uyq‘unlashtirish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

“Nomoddiy aktivlar” nomli 38-son buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) da aktiv sifatida tan olinishi quyidagicha ifodalangan: «Aktiv – bu shunday resurski:

- a) u oldingi hodisalar natijasida korxona tomonidan nazorat qilinadi;
- b) korxona undan kelgusi iqtisodiy naf olishni kutadi» [1].

38-son BHXSda nomoddiy aktivlarga quyidagicha ta‘rif berilgan: «Nomoddiy aktiv - moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan identifikatsiyalanadigan nomonetar aktiv. Bu yerda nomonetar aktivlar deyilganda mavjud pul mablag‘lari va qat‘iy yoki aniqlanadigan pul mablag‘lari miqdorida olinadigan aktivlar tushuniladi»[1].

Nomoddiy aktivlar ta‘rifiga nafaqat xorijiy olimlar, balki respublikamizdagi qator iqtisodchi olimlar ham o‘z yondashuvlari va fikrlarini berib o‘tganlar, jumladan iqtisodchi olim R.Dusmuratov tomonidan “nomoddiy aktivlar sifatida ularni hisobga olish va audit o‘tkazish uslubiyoti shakllantirilgan” [2]. I.Ochilovning fikriga ko‘ra, “Intellektual mulklar nomoddiy aktivlarning tarkibi bo‘lib, xo‘jalik faoliyatida uzoq vaqt mobaynida foydalanish uchun mo‘ljallangan moddiy xususiyatga ega bo‘lmagan mol-mulk ob‘ektlaridir”[3]. A.Sotivoldiev esa, “nomoddiy aktivlarni ushlab bo‘lmaydigan va sezib bo‘lmaydigan korxonaning aktivlari sifatida ta‘riflaydi”[4]. R.Raximbekovanning fikriga ko‘ra, “nomoddiy aktivlar jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lmagan va kelgusida daromad keltiruvchi aktivlardir”[5]. Iqtisodchi olim B.Isroilov nomoddiy aktivlar mol-

mulk solig'i ob'ektlarini turkumlashda ko'char mulk tarkibiga kiritadi. Uning fikriga ko'ra, "bozor munosabatlari sharoitida insonning intellektual mehnati natijasi, ya'ni nomoddiy ne'matlar ham mulk sifatida tan olinadi"[6]. Sh.Ilxamov esa, «nomoddiy aktivlar qiymatini eng kam ish haqining ellik barobaridan va xizmat davri bir yildan ko'p bo'lgan patent, lisenziya, nou-xau, savdo markalari, tovar belgilari, sanoat namunalari, dasturiy ta'minot, yerdan va tabiiy resurslardan foydalanish xuquqi, tashkiliy xarajatlar, franchayz, mualliflik xuquqlari va boshqa aktivlar kiritilishi lozimligini ko'rsatib beradi»[7]. F.G'ulomova quyidagi tushunchani ta'kidlab o'tadi: "Nomoddiy aktivlar tabiiy-moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan va qo'shimcha daromad keltirish imkoniyatini yaratuvchi ob'ektlar kiradi"[8]. Iqtisodchi olim I.Ismanov tomonidan olib borilgan tadqiqotda nomoddiy aktivlar ob'ektlarini tan olish va buxgalteriya hisobida aks ettirishning ayrim xususiyatlari va xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalalari ko'rib chiqilgan[9].

M.Po'latov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aynan nomoddiy aktiv emas, balki, ularni intellektual kapital tarkibi sifatida o'rganadi[10]. I.Davletov agrar sohada nomoddiy aktivlarni intellektual mulk ob'ektlari sifatida tadqiq etgan va ularni hisobga olish hamda auditi masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borgan[11]. N.K.Rizayev esa, avtomobilsozlik sohasidagi nomoddiy aktivlar hisobi va tahlilini o'rgangan, shuningdek, doktorlik dissertatsiyasida esa nomoddiy aktivlarning tarkibiga kiruvchi intellektual mulk obyektlar hisobi va tahlili metodologiyasini tadqiq etgan. N.Rizayev: "Nomoddiy aktiv (intellektual mulk) - bu insonning aqliy qobiliyati tufayli paydo bo'lgan bilimlar bo'lib, bilimlar ob'ekt yoki aktivlar (mablag'lar) sifatida huquqiy jihatdan himoyalaniishi talab etadi"[12]. A.Xudoykulov esa, nomoddiy aktivlar hisobini MHXS asosida transformatsiyalash jarayonini tashkil etish hamda MHXSga o'tishning moliyaviy samaradorlik masalasini o'rgangan. Uning fikricha: nomoddiy aktivlar deb, "ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki sotish jarayonida uzoq muddat foydalanilib o'z qiymatini asta-sekinlik bilan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi yoki davr xarajatlariga o'tkazib boradigan, moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlariga aytiladi"[13]. Demak, nomoddiy aktivlar jismoniy xususiyatga ega bo'lmaga, lekin korxona uchun yuqori daromad keltiruvchi buxgalteriya hisobining noaniq moddalaridir.

TADQIQOT METODOLOGIYA.

Maqolani yozishda nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, omilli tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Respublikamizda nomoddiy aktivlarni kiringa olish tartibi bo'yicha me'yoriy asosga e'tibor qiladigan bo'linsa, amaldagi 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" standarti qoidalariga asosan, kelib tushadigan nomoddiy aktivlar korxonaning balansiga olinadi. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqish tugaganidan so'ng yaratilgan obyektни qabul qilish;
- oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha obyektни xarid qilish;
- ustav kapitaliga ta'sischilarning (ishtirokchilarning) ulushi ko'rinishida kelib tushish;
- tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);
- davlat subsidiyalari hisobiga kelib tushish;
- ayirboshlash;

ortiqcha (hisobga olinmagan) nomoddiy aktivlar obyektlarini aniqlash va boshqa asoslarga ko'ra¹.

Nomoddiy aktivlarni kirmga olish masalasida xalqaro standartlarda alohida band sifatida keltirib o'tilmagan, ya'ni BHMS kabi kirmga olish tartibi mavjud emas. Lekin, nomoddiy aktivlarni kirmga olish tartiblari deyarli 41 ta banda kengroq uslubiyati tushuntirib berilgan). Ya'ni alohida bandlar sifatida keltirib o'tiladi. Masalan, "Alohida xarid qilish" (25-32 bandlarda), yoki "Biznes birlashuvi doirasida harid qilish" (33-41-bandlar).

1-jadval

Xalqaro (MHXS) va milliy (BHMS) standartlarda nomoddiy aktivlarni kirmga olish tartibi (qoidalar)²

7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" (12-band)	38-son BHXS "Nomoddiy aktivlar" (25-67 bandlar)	Farqli jihatlari
ishlab chiqish tugaganidan so'ng yaratilgan obyektни qabul qilish; oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha obyektни xarid qilish; ustav kapitaliga ta'sischilarning (ishtirokchilarning) ulushi ko'rinishida kelib tushish; tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha); davlat subsidiyalari hisobiga kelib tushish; ayirboshlash; ortiqcha (hisobga olinmagan) nomoddiy aktivlar obyektlarini aniqlash va boshqa asoslarga ko'ra	alohida xarid qilish; biznes birlashuv doirasida xarid qilish; xarid qilingan tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarining tugallanmagan loyihasi bo'yicha kelgusi sarflar; aktivlarni davlat granti yordamida olish; aktivlarni ayirboshlash; tashkilotni o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlar; tashkilotni o'zida yaratilgan gudvill	MHXSda BHMSdan farqli ravishda ustav kapitaliga ulush sifatida olish, ortiqcha aniqlangan va tekinga kelib tushgan NMA ni kirmga olish tartibi bo'yicha alohida bandlar mavjud emas.

Fikrimizda, BHMS qoidalarida nomoddiy aktivlarni kirmga olish tartibini alohida bandlar sifatida kengroq yoritib berish maqsadga muvofiq. Kirmga olingan nomoddiy aktivlar bo'yicha xalqaro standartlarda inventar obyekt sifatida hisoblanishi ko'zda tutilmagan. Albatta bu jarayon har bir mamlakat korxonalarining ichki qarorlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, bizning amaliyotimizda esa, bu tartib BHMSda o'z ifodasini topgan, masalan, nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi birligi bo'lib inventar obyektни hisoblanadi. Mazkur BHMSGa ko'ra, nomoddiy aktivlarning inventar obyektни bo'lib patent, guvohnoma va shu kabilardan kelib chiqadigan jami huquqlar hisoblanadi. Bir inventar obyektни boshqasidan ajratilishining (identifikatsiya qilinishining) asosiy belgisi bo'lib, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda mustaqil vazifalarning bajarilishi yoki korxonaning ma'muriy va boshqa funksiyalari uchun ishlatiladi. Shuningdek, ikkita yoki bir nechta korxona mulkida bo'lgan nomoddiy aktivlar obyektни har bir korxona tomonidan umumiy mulkdagi uning ulushiga teng miqdorda nomoddiy aktivlar tarkibida aks ettirilishi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda amaldagi schyotlar rejasiga (21-son BHMS) ko'ra, nomoddiy aktivlarni hisobga olishda quyidagi schyotlardan foydalanish nazarda tutilgan.

¹ "Nomoddiy aktivlar" 7-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS-7). O'z.Res AV 2024-yil 9-avgust 3547-son. 13-band.

² 38-son BHHS "Nomoddiy aktivlar". Rasmiy tarjima-2022-y.

Jumladan:

0410 "Patentlar, litsenziyalar va nou-xau", 0420 "Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari", 0430 "Dasturiy ta'minot", 0440 "Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari", 0460 "Franchayz", 0470 "Mualliflik huquqlari", 0480 "Gudvill" va 0490 "Boshqa nomoddiy aktivlar"ni hisobga oluvchi schyotlar.

O'z navbatida ularning amortizatsiyasi bo'yicha: 0510 "Patentlar, litsenziyalar va nou-xauning amortizatsiyasi", 0520 "Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari amortizatsiyasi", 0530 "Dasturiy ta'minotning amortizatsiyasi", 0540 "Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi", 0550 "Tashkiliy xarajatlarning amortizatsiyasi", 0560 "Franchayzning amortizatsiyasi", 0570 "Mualliflik huquqlarining amortizatsiyasi", 0590 "Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi" hisobga oluvchi kontr-aktiv schyotlar. Mazkur schyotlar bo'yicha BHMS bo'yicha moliyaviy hisobotlarni shakllantirayotgan korxonalar uchun foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Lekin, shunday bo'lsada, o'z faoliyatini kengaytirib, asta-sekinlik bilan halqaro bozorga chiqayotgan korxonalar uchun birdaniga xalqaro standartlarni qo'llash va ular talablari asosida schyotlarni yuritish murakkabliklar va qiyinchiliklarga olib keladi. Bu holatlarni bartaraf etish uchun MHXS bo'yicha hisobotlarni tayyorlaydigan korxonalar uchun yangi namunaviy schyotlar rejasi loyixasi ishlab chiqildi. Bu namunaviy schyotlar rejasi loyihasini tushunib olishni o'zi bir mahoratni talab etadi. Negaki, masalan nomoddiy aktivlar bo'yicha 0400 schyot amalda qo'llayotgan buxgalter uchun, 1100 raqamdan foydalanish va unda belgilangan schyotga o'tishi hamda uning tartibini (uslubiyoti) tushinib olishi bir muncha qiyinchiliklarga olib keladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori hamda boshqa me'yoriy hujjatlar asosida "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tashkilotlar uchun buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi" ning loyixasi ishlab chiqildi.

Mazkur Namunaviy schyotlar rejasi loyixasiga ko'ra, nomoddiy aktivlar uchun 1100- "Nomoddiy aktivlar" nomi bilan yangi tartibli schyotlar taklif etildi:

2-jadval

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan korxonalar uchun buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi³da nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar³.

1100	Nomoddiy aktivlar	
1110	Gudvil	A
1120	Boshqa nomoddiy aktivlar	A
1130	Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	KA
1140	Gudvil va boshqa nomoddiy aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv	KA
1150	Foydalanish xuquqidagi aktivlar	A
1160	Foydalanish xuquqidagi aktivlarning eskirishi	KA
1170	Foydalanish xuquqidagi aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv	KA
1180	Nomoddiy aktivlarga kapital qo'yilmalar	A
1190	Nomoddiy aktivlarga kapital qo'yilmalarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv	KA

³ "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tashkilotlar uchun buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi" loyixasi. 2022-y. O'RI va MV.

Ushbu Namunaviy schyotlar rejasida ham nomoddiy aktivlar bo'yicha buxgalteriya hisobi schyotlarining raqami to'rtta sonni o'z ichiga oladi, jumladan:

raqamning birinchi soni bo'limlarga tegishli raqam - 1;

ikkinchi soni – kichik bo'limlarga tegishli -1;

uchinchi soni – sintetik schyotlar guruhiga tegishli- 2;

to'rtinchi soni – korxona tomonidan mustaqil belgilanadi - 0.

Bu yerda 1120-schyot ya'ni "Boshqa nomoddiy aktivlar" schyotining raqamlari izohlandi.

Shuningdek, korxonalar amaliy ehtiyojdan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi moddalarining tasnifini qo'shimcha raqamlar bilan kengaytirishi mumkinligi belgilangan.

3-jadval

BHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan korxonalar uchun buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi"ga (21-son BHMS) nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar taklif etilmoqda⁴.

0400	Nomoddiy aktivlar	
0410	Boshqa nomoddiy aktivlar	A
0420	Foydalanish huquqidagi nomoddiy aktivlar	A
0430	Gudvill	A
0500	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va qadrsizlanishi	
0510	Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	KA
0520	Foydalanish huquqidagi nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	KA
0530	Gudvillning qadrsizlanishi	KA

Ushbu taklif etilyotgan schyotlarning tarkibi va ularning qo'llanilishini quyidagicha keltirib o'tiladi:

1. 0400- "Nomoddiy aktivlar" schyoti bo'yicha.

0410 – "Boshqa nomoddiy aktivlar" schyotida:

savdo markalari va tovar belgilari, tovar chiqarilgan joy nomlari;

litsenziya, franchayzing;

mualliflik huquqlari, patent, sanoat mulkiga boshqa huquqlar, hizmat ko'rsatish va foydalanish huquqlari;

kompyuter dasturiy ta'minoti;

retseptlar, formulalar, modellar, chizmalar va tajriba namunalari hisobi uchun foydalaniladi va aks ettiriladi;

0420 – "Foydalanish huquqidagi aktivlar" schyotida:

nomoddiy aktivni tan olish me'zonlarini qanoatlantiradigan va ijaraga olingan aktivlardan foydalanish huquqining qiymatini hisobga olish uchun foydalaniladi aks ettiriladi;

0430 – "Gudvill" schyotida:

korxonada gudvilning mavjudligi va harakati bilan bog'liq operatsiyalar hisobi uchun foydalaniladi va aks ettiriladi.

Shuningdek, amaldagi 0800- "Kapital qo'yilmalar" schyoti tarkibidagi 0830 "Nomoddiy aktivlarni xarid qilish" schyot nomini 0830 – "Boshqa nomoddiy aktivlar, foydalanish huquqidagi aktivlarni sotib olinishi" schyoti bilan nomlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Natijada, bu schyot yuqorida taklif etilayotgan schyotlarni o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

⁴ "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tashkilotlar uchun buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi" loyixasi. 2022-y. O'R I va MV.

Ushbu schyotlarga yozuvlarni tadqiqot obyekti “O‘zavtosanoat” AJ ning misolida ko‘rib chiqiladi. Korxona 2025-yil mart oyida avtomobil detalini ishlab chiqish bo‘yicha patentga ega bo‘ldi (Intellectual mulk agentligidan). Patentni olish va uni rasmiylashtirish bo‘yicha jami 20 mln. so‘m xarajatlarni amalga oshiradi.

1. Patent balansga olindi (patentni dastlabki tan olinib, kiringa olinishi)

Debet 0410 – “Boshqa nomoddiy aktivlar” (patent) schyoti - 20,0 mln.so‘m.

Kredit 0830 – “Boshqa nomoddiy aktivlar, foydalanish huquqidagi aktivlarni sotib olinishi” (patent) schyoti - 20,0 mln.so‘m.

“O‘zavtosanoat” AJ ning misolida ko‘rib chiqiladi. Korxona 2025-yil fevral oyida yerdan foydalanish huquqiga ega bo‘ldi va u bilan bog‘liq xarajatlar 300 mln.so‘mni tashkil etdi.

2. Patent balansga olindi (patentni dastlabki tan olinib, kiringa olinishi)

Debet 0420 – “Foydalanish huquqidagi aktivlar” (yer maydoni) schyoti - 300,0 mln.so‘m.

Kredit 0830 – “Boshqa nomoddiy aktivlar va foydalanish huquqidagi aktivlarni sotib olinishi” (yer maydoni) schyoti - 300,0 mln.so‘m.

“O‘zavtosanoat” AJ avtoshina ishlab chiqaruvchi korxonaning 2,0 mlrd.so‘mga sotib oldi. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan sanada sotib olinayotgan avtoshina korxonasining buxgalteriya balansi ma‘lumotlariga ko‘ra, aktivlar qiymati 2,5 mlrd.so‘m (uning bozor qiymati esa 3,0 mlrd.so‘m bo‘lgan). Tegishli litsenziyaga ega baholash kompaniyasi o‘tkazgan baxolash ma‘lumotlariga ko‘ra avtoshina korxonasi aktivlari qiymatini 3,0 mlr.so‘mga baholagan. Shuningdek korxonaning 1,3 mlrd.so‘m miqdoridagi majburiyatlari ham mavjud.

Natijada, “O‘zavtosanoat” AJ uchun gudvill qiymati - 0,3 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan:

3,0 aktivlarning bozor qiymati - 1,3 mlrd.so‘m majburiyat = 1,7 mlrd.so‘m sof aktivlar summasi);

2,0 sotib olish narxi - 1.7 sof aktivlar summasi = 0,3 mlrd.so‘m).

3. Gudvillni aks ettirilishiga:

Debet 0430 – “Gudvill” schyoti - 0,3 mlrd.so‘m.

Kredit 0890 – “Boshqa kapital qo‘yilmalar” (Gudvill-musbat) schyoti - 0,3 mlrd.so‘m.

2. 0500-”Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va qadrsizlanishi” schyoti bo‘yicha.

0510 – “Boshqa nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi (eskirishi)” schyotida:

savdo markalari va tovar belgilari, tovar chiqarilgan joy nomlarining amortizatsiyasi;

litsenziya, franchayzining amortizatsiyasi;

mualliflik huquqlari, patent, sanoat mulkiga boshqa huquqlar, hizmat ko‘rsatish va foydalanish huquqlari amortizatsiyasi;

kompyuter dasturiy ta‘minoti amortizatsiyasi;

retseptlar, formulalar, modellar, chizmalar va tajriba namunalari amortizatsiyasi hisobi uchun foydalaniladi va aks ettiriladi;

0520 – “Foydalanish huquqidagi aktivlar” amortizatsiyasi schyotida:

nomoddiy aktivni tan olish me‘zonlarini qanoatlantiradigan va ijaraga olingan aktivlardan foydalanish huquqining amortizatsiyasini hisobga olish uchun foydalaniladi aks ettiriladi;

0530 – “Gudvillning qadrsizlanishi” schyotida:

korxonada gudvilning qadrsizlanishi hisobi uchun foydalaniladi va aks ettiriladi.

Ushbu schyotlarga yozuvlarni tadqiqot obyekti “O‘zavtosanoat” AJ ning misolida ko‘rib chiqiladi. Korxona 2025-yil mart oyida avtomobil detalini ishlab chiqish bo‘yicha egalik qilish huquqini qo‘lga kiritgan patent bo‘yicha aprel oyida 334 ming.so‘m amortizatsiyani hisoblaydi (patentni foydali muddati 5 yilga teng, har oyga to‘g‘ri keladigan amortizatsiya summasi).

Balansga olingan patent bo‘yicha har oydagi hisoblangan amortizatsiya summasiga:

Debet - Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2010, 2310, 2510) - 334,0 ming.so'm.

Kredit 0510 – "Boshqa nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi" (patent) schyoti - 334.0 ming.so'm.

Taklif etilayotgan schyotlar tartibi bir muncha qo'shni Qozog'istonda qo'llanilayotgan nomoddiy aktivlar (2700 schyot) bo'yicha schyotlar rejasiga o'xshashlik tomonlariga ega. Qozog'iston tajribasi bevosita xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan. Bu esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan bizdagi MHXS asosda hisobotlarni tuzuvchi korxonalar uchun ishlab chiqilgan Namunaviy schyotlar rejasiga yaqin. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko'ra, ya'ni ularda qo'llanilayotgan schyotlar rejasida nomoddiy aktivlar (04 schyot) bo'yicha ularning tarkibi ochib berilmagan. Ya'ni nomoddiy aktivlar schyotini aktivlar turi va ilmiy tadqiqot xarajatlari bo'yicha izoh berilgan, bu esa korxona tomonidan qaysi nomoddiy aktivlardan foydalanishiga qarab hisob siyosatida belgilanishini bildiradi. Qirg'iziston Respublikasi amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu yerda korxonalar uchun schyotlar rejasi bizni amaldagi 21-son BHMSda belgilangan tartibga o'xshash tomonlarga ega. Ya'ni nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar alohida schyotlar tartibi bilan ifodalangan. Faqatgina amortizatsiyasida esa qoplangan amortizatsiya nomi bilan ketma ketlikda ifodalangan (Nomoddiy aktivlar uchun alohida amortizatsiya schyoti mavjud emas). Belarussiyada esa, nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarda xuddi bizni amaliyotimiz kabi 04-Nomoddiy aktivlar va 05-Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi schyotlari qo'llaniladi. Bu yerda xalqaro standartlarga modifikatsiyalashtirish bo'yicha alohida standartlar yoki ko'rsatmalar ishlab chiqilmagan.

XULOSA.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida korxona uchun kelgusida daromadlilik nuqtayi nazardan eng katta daromad keltiruvchi aktivlar, ya'ni nomoddiy aktivlar schyotlarini taklif etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarni (21-son BHMSni) xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan Namunaviy schyotlar rejasi loyihasiga muvofiqligini ta'minlaydi, ya'ni BHMS bo'yicha qo'llanilayotgan schyotlarni to'g'ridan-to'g'ri xalqaro bo'yicha talablarni tushunish imkoniyatini beradi;

ikkinchidan, nomoddiy aktivlarni hisobga olishda taklif qilinayotgan schyotlar sodda va oddiyligi bilan, xalqaroga o'tishda modifikatsiya vazifasini o'tishi va amaliyotda nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini yaratadi;

uchinchidan, ma'lumki, xalqaro standartlar talablarida schyotlar rejasi emas, asosan e'tiborni moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratganligi tufayli, kelgusida korxonada shakllantirilayotgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot uchun nomoddiy aktivlar to'g'risidagi muhim axborot bilan ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020-yil 24-fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. "Nomoddiy aktivlar" 7-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS-7). O'zRes AV 2024-yil 9-avgust 3547-son. 13-band.
3. 38-son BHXS "Nomoddiy aktivlar". Rasmiy tarjima-2022-y.
4. "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tashkilotlar uchun buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi" loyixasi. 2022-y.

5. Об утверждении Типового плана счетов бухгалтерского учета. Приказ Министра финансов Республики Казахстан от 23-мая 2007 года №185. Зарегистрирован в Мин юстиции Республики Казахстан 29 июня 2007 года № 4771.
<https://adilet.zan.kz/rus/docs/V070004771>
6. План счетов бухгалтерского учёта в России — официальный документ, утверждённый Минфином РФ приказом от 31.10.2000 №94н.
<https://glavkniga.ru/situations/s509676>
7. Утверждена постановлением Правительства Кыргызской Республики от 7 октября 2010 года №231. ИНСТРУКЦИЯ по применению плана счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности субъектов предпринимательства, некоммерческих организаций.
8. Постановление Министерства финансов Республики Беларусь 29 июня 2011 г. № 50 О типовом плане счетов бухгалтерского учета. Изменения и дополнения: Пост Мин фин РБ от 28 декабря 2022 г. № 64. https://minfin.gov.by/upload/accounting/acts/postmf_290611_50.pdf
9. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019-y. 624 b.
10. Tashnazarov S. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1 [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “ STEP- SEL” MCHJ nashriyoti, 2023 - 580 bet.
11. Ochilov I.K., Rizayev N.K, Kalonov M. Buxgalteriya hisobi. Darslik. (nomutaxassisliklar uchun) Toshkent. “IQTISOD-MOLIYA”. 2022-yil 272 b.
12. Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. -T.: O‘ME, 2003. -612 b.
13. Sotivoldiyev A.S. “Zamonaviy buxgalteriya hisobi”. /O‘quv qo‘llanma. -T.: BAMA-2007. 2-tom.
14. Рахимбекова Р.М. “Финансовый учет на предприятии”. Алматы. «Экономика». 2003. -94 с.
15. Isroilov B.I. “Soliqlar hisobi va tahlili: muammo va ularning yechimlari”. -T.: “O‘zbekiston”, 2006. -92 b.
16. Ilxamov Sh.I. “Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit”, iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati, 2005-y. 24 b.
17. G‘ulomova F.G‘. “Buxgalteriya hisobi bo‘yicha mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma”. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2000. 229 b.
18. Ismanov I.I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2009. 37 b.
19. Po‘latov M.E. “Intellectual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish” , 08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” , i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun diss. 2017-y.
20. Davletov I.R. Agrar sohada intellektual mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss avt, 2018 – 48 b.
21. Rizayev N.K. Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. T-2004-yil. Rizayev N.K. Intellectual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) darajasini olish uchun yozilgan diss. T-2019-y.

22. Xudoykulov A. Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish, iqt. fan bo'yicha falsafa doktor (PhD) diss. avto. 2023. 35 b.

23. Qodirov S. Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss avt, 2024-y.

Sagdillayeva Zulfiya Asanaliyevna*Iqtisod fanlari nomzodi, TDIU**“Moliyaviy tahlil” kafedrası professori**Email: akbarislom@mail.ru*

QISHLOQ XO‘JALIGIDA MOLİYAVIY ZAXIRALAR TAXLILI.

Сагдиллаева Зульфия Асаналиевна*к.э.н., профессор кафедры**"Финансовый анализ" ТГЭУ**Email: akbarislom@mail.ru*

АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ РЕЗЕРВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Zulfiya Asanaliyevna Sagdillayeva,

professor of the “Financial Analysis” Department, TSEU

Email: akbarislom@mail.ru

ANALYSIS OF FINANCIAL RESERVES IN AGRICULTURE

Annotatsiya. Mamlakatimizda moliyaviy rezervlardan foydalanish samaradorligini taxlilini va ichki xo‘jalik nazoratini amaliyotda xarakat qilayotgan turli usullari bugungi kunda barcha tarmoqlarda iqtisodiy ustuvorlikni ta‘minlab iqtisodiyotimizni jahon xo‘jaligiga integratsiyasini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda qishloq xo‘jaligida avvalo moliyaviy rezervlardan foydalanishni ichki taxlilini tan etish lozim, uning bosh maqsadi moliyaviy – xo‘jalik faoliyatining bosh maqsadi bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Xo‘jalik yurituvchik sub’ekt faoliyatining nazariy jixatlarini rivojlanib borishi, iqtisodchilarni uning bosh maqsadiga bo‘lgan tubdan o‘zgartirmoqda.

Tayanch so‘zlari: qishloq ho‘jaligi, moliyaviy resurslar, moliyaviy rezervlar, moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar.

Аннотация. Различные методы анализа эффективности использования финансовых резервов и внутреннего контроля в нашей стране служат ускорению интеграции отечественной экономики в мировое хозяйство путём обеспечения экономического приоритета во всех отраслях. В этой связи необходимо признать внутренний анализ использования финансовых резервов в сельском хозяйстве, основное назначение которого – финансовое, и неразрывно связано с экономической деятельностью. Развитие теоретических кономистоаспектов деятельности хозяйствующего субъекта кардинально меняет подход к его основной цели.

Ключевые слова: сельское хозяйство, финансовые ресурсы, финансовые резервы, финансовые и нефинансовые показатели.

Abstract. Various methods of analyzing the efficiency of using financial reserves and internal control in our country serve to accelerate the integration of the domestic economy into the world economy by ensuring economic priority in all sectors. In this regard, it is necessary to recognize the internal analysis of the use of financial reserves in agriculture, the main purpose of which is financial,

and is inextricably linked with economic activity. The development of theoretical economic aspects of the activity of an economic entity radically changes the approach of the EE to its main goal.

Key words: agriculture, financial resources, financial reserves, financial and non-financial indicators.

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, biznes shartlarini o'zgarib borayotganligi xususan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini samaradorligiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar tahlili muammolariga doimiy etibor qaratishni talab etmoqda. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan g'arb mamlakatlarida asosiye'tibor risklarni tadqiq qilishga va ularni bartaraf etishga qaratiladi. Iqtisodiyotni o'tish davrida joriy xolatni barqaror bo'lmazligi risklar ta'sirini nisbiy bo'lishiga, kurilishi mumkin bo'lgan zarar chegarasi ahamiyatini ko'payishi, risk omillarini o'ta murakkab va qiyinlashishiga olib keladi. Bunday xolatda ko'riladigan umumiy zarar moddiy yo'qotish bilan chegaralanishi, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini to'xtatib qolishi natijasida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yuqoridagilar bilan birlikda ko'plab tashqi omillarni paydo bo'lishi ham xo'jalik faoliyatini samaradorligiga nisbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Risklarni kompleks taxlil natijalarini ko'p jihatdan iqtisodiy xolatiga va korxonaning yashash muxitiga bog'liq bo'ladi.

Xozirgi sharoitda barcha iqtisodiyot sub'ektlar singari qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ham ko'plab risk muammolariga duch kelmoqda. Shu nuqtai – nazardan olib qaralganda hozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiyotida amalda bo'lgan ko'plab risklarni baxolashda qo'yadigilarga e'tibor berish kerak, birinchidan mamlakatimizda izchil bozor iqtisodiyotiga hos jarayonlar davom etmoqda, bu ko'pgina davlatlar uchun oddiy jarayon hisoblanadi. Boshqa tomondan olib qaraganda esa eski tuzumdan "meros" bo'lib qolgan xo'jalik yuritish usullari faqatgina bizni mamlakatimiz uchun mos bo'lgan turli xildagi risklarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda iqtisodiyotimizdagi uchrayotgan ko'pgina risklar noiqtisodiy omillar bilan shartlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Rezervlarni alohida xisob ob'ekti sifatida tushuncha ekanligini qo'llab, uning turli muammolariga ko'plab iqtisodchi buxgalterlar o'zlarining tavsiflarini berganlar. Jumladan, professor Ya. V. Sokolov rezervlarni "xo'jalikning kutilishi mumkin bo'lgan va qat'iy aniqlangan xarajatlari jamg'armasi" – deb baholaydi, professor Yu. A. Babaev esa "rezervlar buxgalteriya hisobining alohida moddalarini baholash va kelgusi davr xarajatlari hamda tulovlarini qoplash uchun tashkil etiladi" – deb ataladi. I. Betge esa "rezervlar – bu xisobot kuniga mazmuni va miqdori jihatidan aniq o'rnatilmagan, xarajat sifatida ushbu majburiyatlar vujudga kelgan vaqtga olib borilishi mumkin bo'lgan, aniq majburiyatlarini yoritish uchun passiv moddalardir" – deb tasdiqlaydi. Shunday qilib rezerv o'zida yashirin, noaniq xarajatni nazarda tutadi deb xisoblash mumkin. Shubxasiz xarajat, sababi rezerv mablag'larini boshqa maqsadlarga foydalanish mumkin emas, yashirin – sababi, bu xolatda pul mablag'larini birdaniga xarajat qilib bo'lmaydi va vaqtincha xo'jalik.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy tadqiqot jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy rezervlardan tadbirkorlik va moliyaviy risklar borasidagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini o'rganish, jarayonni kuzatish asosida ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni tahlil qilish, muallif tadqiqotlari bilan qiyosiy tahlil olib borish orqali tadqiqot natijalariga asoslanib, xulosa va takliflar berilgan.

Natija va muhokama. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hozirgi sharoitdagi asosiy muhim maqsadi bo'lib, amalga oshirilishi chegaralangan ichki va tashqi, kutilayotgan va kutilmagan omillarni yengib o'tib katta foyda olish hisoblanadi. Risklarni taxlilini bosh vazifasi

bo‘lib esa korxona uchun risk darajasi va xarajatlar nisbati optimal bo‘lgan xolda hozirgi sharoitda uning barqarorligini ta‘minlash va kelgusi uni yuqori potensialga esa bo‘lishini maqbul yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Jahon amaliyoti natijalari ko‘rsatishiga qaraganda risklardan ximoyani eng maqbul usuli – bu rezervlarni samarali tizimini tashkil etish hisoblanadi. Xo‘jalikda rezervlarni tashkil qilishining asosiy maqsadi tashqi omillarga qarama-qarshiliklarni ta‘minlash orqali xo‘jalikni barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash, shuningdek kutilishi mumkin bulgan èmon oqibatlar natijasida ko‘riladigan zararlarni neytrallashtirish va to‘lanishi lozim bo‘lgan kompensatsiyalarni oldini olishdan iborat. Qonunchilik asosida ta‘sis xujjatlari bo‘yicha shakllantiriladigan va ishlatiladigan rezervlar eng avvalo ko‘zda tutilmagan ya‘ni kelgusi davr xarajatlarin qoplashga qaratiladi. “Rezervlar” tushunchasini shakllanishining maxsus maqsadlaridan kelib chiqib turlicha iqtisodiy fikrlashlarga borish mumkin. Lekin har qanday xolatda ham rezervlarning asosiy maqsadi bo‘lib – sug‘urta va boshqa risklarni minimallashtirish orqali xo‘jalikni moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga qaratiladi.

Hozirgi sharoitda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tijorat faoliyatida, hamkorlar, investorlar va boshqalar bilan aloqalar jarayonida noaniqliklar va risklarni kamaytirish borasida o‘ta kuchli zaruriyat paydo bo‘lmoqda. Debitorlarni to‘lovga qobiliyatsizligi, ishlab chiqarish va moliyaviy risklar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar oldiga ko‘zda tutilmagan xolatlar uchun ximoya tizimini tashkil etishni kup tartibidagi dolzarbligini oshirmoqda.

Amaliyotda xarakat qilayotgan tizimda sug‘urtalash ishlab chiqarishi va moliyaviy resurslarni rezervlash bilan chambarchas bog‘langan, bu esa umuiqtisodiy qonuniyat bo‘yicha raqobat muhiti sharoitida resurslarni zaxirada ushlab turish (resurslarni vaqt oralig‘i bo‘yicha taqsimlash) ya‘ni risklardan sug‘urtalash xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni tijorat faoliyatini moliyaviy barqarorligini maqbul darajada ushlab turish vositasi hisoblanadi.

Xo‘jalikda moliyaviy rezervlardan tadbirkorlik va moliyaviy risklarni kamaytirish quroli sifatida foydalanish, umumiyqtisodiy hamda ishlab chiqarish–moliyaviy muammolar nuqtai nazaridan qaralganda, “rezervlar” evolyutsion tushunchasi tahlili orqali ochib beriladi. Rezervlashning maqsadi va xo‘jalikni barqaror rivojlantirishda rezervlarning funksiyalarini aniqlash hamda ularni ilmiy asoslangan klassifikatsiyasini belgilash muhimdir.

Rezervlarni shakllantirishning amaliy ahamiyati ularning asosiy funksiyalari orqali namoyon bo‘ladi:

- mulkdorlar va kreditorlar risklarini sug‘urtalash orqali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy barqarorlik holatini ta‘minlash;
- rezervga ajratilgan mablag‘larni ishlab chiqarish va sotishda teng hajmlarda sarflash, ya‘ni hisobotlardan tashqi foydalanuvchilarda korxona faoliyati natijalari to‘g‘risida yanada mukammalroq fikrlash imkonini yaratish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning aktivlarini real baholash.

Rezerv – ushbu tushuncha ilmiy – iqtisodiy nashrlarning va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar amaliyotining bugungi kunda eng ko‘p va dolzarb mavzusiga aylanib borayotgan atamasidir. Ushbu atama iqtisodchilardan va tadbirkorlardan juda ham muhim ahamiyatga esa bo‘lgan fikrlashni talab etadigan “yuklama” xisoblanmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda har bir muallif “rezervlar” atamasini o‘z bilim darajasi va taxlil qilinayotgan tarmoqning maxsuslashuviga mos ravishda buxgalteriya hisobi, nazorat, taxlil, moliyaviy menejment va sug‘urta jarayonlarni vazifalardan kelib chiqib ochib berishga xarakat qiladi. Birinchi navbatda rezerv tushunchasi turlicha tavsiflanmoqda. Rezervni davlat, xudud, alohida tarmoq va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tamonidan turlicha nuqtai – nazarda

qaralayotgani ko‘plab xolatlarida unga mohiyat jixatdan turlicha yondashishlar uni iqtisodiy jixatini baxolashda tushunmovchiliklarda olib kelmoqda. “Rezerv” atamasi fransuzcha “reserve” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “zaxira”, yoki lotinchada “reserve” – “asrayman, saqlayman” tushunchani aks ettiradi. Shunday qilib, rezervlar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning to‘xtovsiz ishlashini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan resurslar zaxirasi xisoblanadi deb xulosa qilish mumkin. Ular qo‘shimcha ehtiyotlar zarurriyati paydo bo‘lganida foydalanish uchun maqsadli yo‘nalish asosida tashkil etiladi. Rezervlar ishlab chiqarishning moddiy – buyumlashgan usullari sifatida aks etib, xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, yarimfabrikatlar, rezerv qurilmalari, vaqtinchalik bo‘sh ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari zaxiralari rezerv (sug‘urta) shaklini oladi. Ushbu rezervlar mablag‘lar va mexnat vositalarini yetkazib berish grafiki buzilganida, chiqarilayotgan mahsulotni assortimenti o‘zgarganda, hom ashyo, material va yoqilg‘ini me‘yordan ortiq sarflanganida ishlab chiqarishga jalb etiladi.

Yagona iqtisodiyot kompleksi doirasida har bir davlatda ishlab chiqarish vositalari va mehnat rezervlarini tayyorlash bo‘yicha umumdavlat rezervlari tashkil etiladi. Bunday rezervlar jumlasiga strategik material va tovarlar zaxiralari hamda favqulodda xolatlar oqibatlarini tugatish jarayonlarida ishlarni davomiyligini ta‘minlaydigan moddiy qiymatliklar zaxiralari kiritiladi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatini taxlil qilishda bunday zaxiralar ularni miqdorini real ehtiyojiga mos qilishi nuqta – nazardan kelib chiqib o‘rganiladi. Bunda ishlab chiqarishni to‘xtovsizligini ta‘minlash uchun haqiqatda zarur bo‘lgan rezerv zaxiralari asoslangan me‘yorini, ularni chegaralangan miqdorlarini hisob – kitobi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Rezerv so‘zini kengroq ma‘nodagi mazmuni bo‘lib ishlab chiqarish samaradorligini ko‘paytirish imkoniyatini foydalanilmagan imkoniyati deb baholash mumkin. Bunday tushuncha asosida aniqlangan rezervlar va ularni real yo‘nalishlari va muddatlari bo‘yicha ishlab chiqarishga jalb qilish barcha xo‘jalik faoliyati bug‘inlari iqtisodiy taxlilining bosh vazifasi. “Rezervlar”ni bunday tushunchasi ko‘plab mualliflar tamonidan ma‘qullanib kelmoqda. Bundan rezervlar zaxiralar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati degan turlicha tushunchalar kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1998 yil 14 – avgustda 475 – son bilan ro‘yxatga olingan “Moliyaviy xisobotni tayyorlash va taqdim etishning Konseptual asoslarida”. “Xarajatlarni belgilash mumkin, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda, mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va zararlar bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ular odatda, pul mablag‘lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanishi shaklida bo‘ladi” va “Aktivlarni kamayishi va majburiyatlarning ko‘payishi aniqlanganda, kelgusi iqtisodiy nafning ma‘lum darajada akmayishi – xarajatlar sifatida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotga aks ettiriladi. Bu esa, xarajatlarning, majburiyatlarning ko‘payishi va aktivlarning kamayishi bilan bir vaqtda aks ettirishini bildiriladi” deb ko‘rsatilgan.

Bizning fikrimizga xarajatlarga berilgan yuqoridagi tavsifi: “Korxona xarajatlari deb, aktivlarni chiqib ketishi natijasida xo‘jalikda iqtisodiy nafning kamayishi (pul mablag‘lari va boshqa mulkni) va majburiyatlarni paydo bo‘lishi (kelgusida aktivlarni chiqib ketish extimoli va xo‘jalikni moliyaviy hamda tadbirkorlik faoliyatida riskni mavjudligi aniqlanishi) natijasida uning kapitalini kamayishi tushuniladi” deb kengaytirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi deb xisoblaymiz.

Shunday qilib, bizning fikrimizga moliyaviy zaxiralar o‘zida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning moliyaviy xolati va faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ishonchli axborotlari, buxgalteriya xisobi va xisobotini shakllanish mexanizmini bir vaqtning o‘zida ko‘rsatadi hamda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning moliyaviy – xo‘jalik faoliyatini barqarorligini ta‘minlash maqsadida risklarni (to‘xtovsiz faoliyat sharoitida) zararli oqibatlarini qoplash uchun (tan olish va amalga oshirilish vaqtlari mos

kelmaydigan) xarajatlarni shakllantirishga ajratilmalarni nazarda tutadi. Ushbu moliyaviy zaxiralar foydani va boshqani taqsimlashlarni kapitallashtirishning iqtisodiy asoslangan usuli xisoblanib, uni kamayishi xo‘jalikni moliyaviy faoliyatidan va ishlab chiqarish faoliyati doirasini qisqarishidan ko‘riladigan zararni xafga soluvchi chegara hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib o‘tilganlarga asoslanib moliyaviy rezervlar yig‘indisini: baxolanadigan rezervlarga, kelgusi davr xarajatlari rezervlariga, hamda xo‘jalik faoliyatida shartli faktlarni mavjudligi mos xolda tan olingan rezervlarga ajratish mumkin.

Buxgaltariya xisobi dinamikasida moliyaviy natija (omilli foyda va omilli zarar) faoliyat natijasi bo‘yicha daromadlarni, ushbu daromadlarni xosil qilish uchun amalga oshirilgan xarajatlarni (mos kelish tamoyili) moliyaviy natijalari omillariga taqqoslash orqali aniqlanadi. Bundan tashqari bir–biriga qarshi turmaydigan va faqatgina bir xo‘jalik omiliga aloqador bo‘lmagan (bir xo‘jalik omilini ikki tamonini yoki yagona bir butun tarkibini tashkil etuvchi operatsion daromad va xarajatlardan farqli ravishda) boshqa realizatsiyadan tashqari yutuqlar va yuqotishlar ham aks ettirilishi zarur hisoblanadi.

Iqtisodiyot tilida buxgalteriya foydasi deb, daromadlarni xarajatlardan ortishi natijasiga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasida daromadlar va xarajatlarni xisobotlarda aks ettirish – BHMS-03 ga asosan aks ettiriladi va unga quyidagicha tavsif berilgan. Daromad – aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning kamayishi tufayli kelgusi iqtisodiy nafning ma‘lum darajada o‘sganligi natijasida ko‘rinishida, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi xisobotda aks ettiriladi. Bu esa daromadni aks ettirish, aktivlarni ko‘payishi va majburiyatlarning kamayishi aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelinishi anglatadi. Aktivlarni ko‘payishi va majburiyatlarning kamayishi aniqlanganida, kelgusi davr iqtisodiy nafning ma‘lum darajada kamayishi – xarajatlar sifatida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi xisobotda aks ettiriladi. Bu esa, xarajatlarning, majburiyatlarning ko‘payishi bilan bir vaqtda aks ettirishini bildiradi.

Moliyaviy va biznes risklar asosida xo‘jalik faoliyatini taxlil qilishda risk zichligini baxolash aniqlanadi, bu esa hisobot davri moliyaviy natijalari miqdorini rezervga ajratmalar miqdoriga qanchalar to‘g‘ri kelishini baholashga imkoniyat yaratadi.

Moliyaviy rezervlarni bunday tavsiflash natijasida baholanadigan rezervlar, kelgusi davr xarajatlari rezervlari, xo‘jalik faoliyati shartlari omillaridan kelib chiqib tan olinadigan rezervlar va rezerv kapitali iqtisodiy tabiati jihatdan bir xil degan xulosaga kelish mumkin. Ular o‘rtasidagi farqlanishlar faqat risklarni boshqarish turlarida va riskni realizatsiya qilish vaqtiga aloqadorligida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida namoyon qilingan rezervlarni mazmuni va mohiyati to‘g‘risidagi tushunchalar ularni tizimlashtirish, guruhlashtirish va klassifikatsiyalashni talab etadi. Klassifikatsiyalash deyilganda inson faoliyatini yoki qandaydir bilish doirasini bo‘yinsundirilgan tushunchalarni tizimlashtirish va ushbu tushunchalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish vositasidan foydalanish tushuniladi. Rezervlarni klassifikatsiyalash, ko‘plab rezervlarni qandaydir belgilari va tavsiflari bo‘yicha to‘laroq umumiy tushuncha asosida birlashtirishni ta‘minlovchi tizimni anglatadi. Amaliyotda rezervlarni aniq guruhlariga birlashtirishga xizmat qiladigan bir qator belgilar mavjud.

Asosiy belgilar sifatida qo‘ydagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: faoliyat samaradorligini oshirish manbalari (mehnat, mehnat predmeti va vositalari, kapital – iqtisodiy va moliyaviy zaxiralar, moddiy – texnik, ilmiy - texnikaviy); tadqiq qilinayotgan ob‘ektini darajasi (boshqarish darajasi, belgilar miqyosi – umumdavlat, xududiy, tarmoqlararo, ichki xo‘jalik, ichki ishlab chiqarish).

Klassifikatsiyaning ushbu belgilari xo'jalik birligidagi mos ichki rezervlarni izlab topishni aniqlaydi va qo'yidagi tartibda xarakat qilish mumkin:

- yagona iqtisodiy kompleks bo'yicha;
- xududlar (iqtisodiy rayonlar, vodiylar, viloyatlar) bo'yicha;
- iqtisodiyot tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, savdo, umumovqatlanish, bank tizimi, sug'urta va hokazo) bo'yicha;
- sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va hokazo;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (tijorat va notijorat tashkilotlar) bo'yicha.

Xar bir xo'jalik birligi bo'yicha rezervlarni izlab topish va ulardan foydalanish borasida o'zining rezerv guruxi amal qiladi.

Umumdavlat rezervlariga milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimini, mulk shaklini o'zgartirish, turli sanoat tarmoqlarini rivojlanishi borasida tenglikni xosil qilish borasidagi rezervlarni kiritish mumkin. Ushbu turdagi rezervlardan foydalanish umumdavlat miqyosidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali bajariladi. Xududiy rezervlar geografik risklar doirasida aniqlanadi va foydalaniladi (mahalliy xom ashyo, yoqilg'i, energiya resurslaridan foydalanish, bo'yinsunadigan yuqori tashkilotidan qat'iy nazar yordamchi ishlab chiqarishni markazlashtirish va xokazo).

Tarmoqlararo rezervlarga faqat tarmoq darajasida izlab topiladigan, yangi tizimdagi mashinalar tizimni (ishlab chiqish, modernizatsiyalash, yangi texnologiyani joriy etish, mahsulotlar dizaynini yaxshilash va xokazo). Ushbu rezervlarni izlab topish tarmoq birlashmalari, vazirliklar va konsernlar vakolatiga beriladi. Masalan, sanoatda quyidagi rezervlar mavjud: ichki xo'jalik; vaqtdan foydalanish; ishonchsiz qarzlarni qoplash; kelgusi davr to'lovlari va xarajatlari; ishlab chiqarish; yashirin; ustav; moliyaviy va boshqalar. Bank sohasida: minimal; operativ; majburiy; operatsion va xokazo. Sug'urta asosida: hayot sug'urtasi; vaqti o'tgan lekin ariza berilmagan zararlar va xokazo.

Ichki xo'jalik rezervlariga bevosita korxonada aniqlangan va ishlatilishi mumkin bo'lgan rezervlar kiritiladi. Ular jumlasiga eng avvalo noishlab chiqarish sarflari va yo'qotishlarni kamaytirish kiritiladi. Masalan, stanok va ish vaqtini yo'qotish, brak mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt sarfi, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish darajasini past darajada tashkil qilinishi natijasida moddiy resurslarni yo'qotishi va xokazo. Xo'jalikda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlar paydo bo'lishi mumkin, ularni kelgusi davr to'lovlari va xarajatlari deb yuritiladi. Xo'jalik tomonidan kelgusida kutiladigan xarajatlar va ishlab chiqarish sarflariga qo'shish maqsadida tashkil qilinadigan rezervlar ro'yxati qonunchilik asosida aniqlanadi. Xozirgi bankrotlik extimoli yuqori bo'lgan xo'jalik faoliyati sharoitida deyarli har bir xo'jalik sub'ekti o'zining alohida aktivlarini baxolarini korrektyrovka qilib borish muammosiga duch keladi. Ushbu xo'jalik xolatini dastlabki qadami sifatida baxolash rezervlari tashkil etiladi.

Iqtisodchilar V. F. Paliy va V. V. Paliylar rezervlarni ushbu guruhiga: dargumon qarzlarni qoplash rezervlari; kelgusi davr to'lovlari va xarajatlari; aktivlarni qadrsizlanish rezervlari (qimmatli qog'ozlarni qadrsizlanishi va xokazo), shuningdek, rezerv kapitali va maqsadli rezerv fondlarini kiritadi. Jumladan, rezerv kapitali – sof foydadan balans zararlar va boshqa mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratilgan o'z kapitalini bir qismi bo'lsa, maqsadli rezervlar fondi – xo'jalik faoliyati jarayonida va foydani taqsimlash vaqtida vujudga keladigan ko'zda tutilgan yo'qotishlarni qoplash uchun mavjud maqsadli belgilangan sof foydadan ajratmalar, riskni kompensatsiyasi va boshqa xarajatlar xisoblanadi.

V. I. Tkach, S. V. Romanova, S. A. Cheshevlar baxolanadigan va aktivlarni qadrsizlanishini tartibga soladigan rezervlarni to'rtta guruhga birlashtirishni taklif qiladilar:

- baholash va barcha turdagi aktivlarni qadrsizlanishini soladigan rezervlar;

- baholash va tarkib turidagi tartibga soladigan rezervlar;
- amortizatsiya;
- xedjirlash.

Moliyaviy xisobotlarni tuzishni xalqaro amaliyotida ko'plab mamlakatlar rezervlarni beshta asosiy tavsif bo'yicha klassifikatsiya qiladilar:

- kelgusida tushadigan daromadlar rezervi va qiymatni qayta baxolash fondini qo'shgan xolda rezerv kapitali;

- turli xil dotatsiyalar va qaytarib bermaslik sharti bilan kelib tushgan aktivlar;

- me'yoshtirilgan (qonunchilik asosida o'rnatilgan) va me'yorlashtirilmagan (tashkil qilinishi to'g'risidagi qarorni bevosita korxona o'zi qabul qiladi) rezervlar;

- taqsimlanadigan va taqsimlamaydigan rezervlar, taqsimlanadigan rezervlar aksionerlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin, ko'p xollarda ushbu rezervlar faqat shu maqsadda tashkil etiladi, taqsimlanmaydigan rezervlar korxona tugatilmaguncha taqsimlanmaydi;

- maqsadli va umumiy rezervlar, maqsadli rezervlar faqat qat'iy o'rnatilgan maqsadga ishlatiladi, umumiy rezervlar maqsadli ko'rinishga ega emas.

I. Betge Germaniyaning "Savdo Kodeksi"da rezervlarni to'rtta turga ajratadi:

- aniqlanmagan majburiyatlar rezervi;
- amalga oshmagan shartnomalardan kutilishi mumkin bo'lgan zararlar rezervi;
- kafolatlangan rezervlar;
- kelgusi davr to'lovlari va xarajatlari rezervi.

D. Middilton aksionerlik kapitalini o'zida aks ettiradigan uchta turdagi rezerv mavjud deb hisoblaydi:

- aksiyani nominal baxosiga ko'shimcha rezerv;
- qayta baqolash rezervi;
- taqsimlanmagan foyda rezervi.

Jadval-1

Xo'jalik sub'ektning rezervlari klassifikatsiyasi

Klassifikatsiya belgisi	Rezervlar (turlari) guruxlari
A	1
Rezervlar turlari bo'yicha	Mehnat vositasi rezervlari (asosiy ishlab chiqarish vositalari); mehnat predmetlari rezervlari (moddiy resurslar); mehnat rezervlari (mehnat resurslari); moliyaviy resurslar rezervlari.
Xo'jalik sub'ektiga aloqadorligi bo'yicha	Tashqi resurslar (davlat, xududlar, tarmoqlar); va ichki ishlab chiqarish rezervlari.
Paydo bo'lish joyi bo'yicha	Xo'jaliklararo (xududiy) aloqalar rezervi, iqtisodiy aloqalarni tashqi muhiti rezervlari; ichki xo'jalik rezervlari.
Ta'sir qilish soxasi bo'yicha	Ishlab chiqarish va noishlabchiqarish rezervlari
Ta'sir qilish yunalishi bo'yicha	Resurslardan ekstensifikatsiya asosida foydalanish rezervlari va resurslardan intensifikatsiya asosida foydalanish rezervlari.

Sug'urtalash ob'ekti bo'yicha	Daromadlar va xarajatlar rezervlari.
Moliyaviy rezervlar xisobiga shakllantirilgan aktivlar likvidlik darajasi bo'yicha	Absolyut nolikvid (qoidaga ko'ra baholanadigan rezervlar); absolyut likvid; normal likvidli rezervlari.
Risk realizatsiya vaqtiga aloqadorligi bo'yicha	Realizatsiya qilingan; tasdiqlangan; potensial.
Rezerv orqali qoplashni nisbiy qiymati bo'yicha	Ekvivalentli; samarali; samarasiz.
Risk turi bo'yicha	Texnologik risklar rezervi; yuridik risklar rezervi; boshqaruv risklari rezervi; kredit risklari rezervi va xokazo.
Paydo bo'lish vaqti bo'yicha	Biznes rejani ishlab chiqarishda hisobga olinmagan rezervlar; Biznes reja tasdiqlangandan keyin vujudga kelgan rezervlar.
Izlanish imkoniyati bo'yicha	Aniq rezervlar va yashirin rezervlar.
Mahsulotni xayotiy bosqichi bo'yicha	Ishlab chiqarishdan oldingi zaxiralar; ishlab chiqarish rezervlari; ekspluatatsiya rezervlari.
Mablag'larni doiraviy aylanishi bosqichlari bo'yicha	Ta'minot jarayoni bosqichi rezervlari; maxsulotni ishlab chiqarish bosqichi rezervi; maxsulotni realizatsiyasi bosqichi.
Ishlab chiqarish va boshqarish jarayoni darajasi bo'yicha	Ishlab chiqarishni tashkil qilish rezervlari; ishlab chiqarish texnologiyasi rezervi; mexnatni tashkil qilish rezervi; boshqarishni tashkil qilish rezervi.
Faoliyat turi bo'yicha	Ta'minot – saqlash; marketing; investitsiya; innovatsiya; moliyaviy; ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy faoliyat rezervlari.
Faoliyatni oxirgi natijalarini ko'paytirish maqsadida izlanishga yunaltilgan rezervlar	Maxsulotni ishlab chiqarish va uni realizatsiya rezervlari; moliyaviy natijalar; materiallar qaytimi; fond qaytimi va mexnat unumdorligi; aylanma mablag'lar aylanishi; sotish; o'z va qarz kapitali; sof aktivlar; maxsulot ishlab chiqarishga sarflarni kamaytirish rezervlari.
Etarlilik darajasi bo'yicha	Yashirin; adektiv; yetishmaydigan rezervlar.

Yuqoridagi keltirilgan klassifikatsiya xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy – xo'jalik faoliyatidagi rezervlar jamlamasi ichida moliyaviy rezervlarni o'rnini aniqlash imkoniyatini beradi. 1. jadvalda iqtisodiy adabiyotlarda uchraydigan rezervlarni klassifikatsiya belgilari bo'yicha mazmunan guruhlashtirilmagan. Shu bilan birgalikda biz tomonimizdan qo'shimcha klassifikatsiya belgilari ishlab chiqildi va mazmuni bo'yicha guruhlashtirildi (sug'urta ob'ekti bo'yicha; aktivlarning likvidlik darajasi bo'yicha; moliyaviy rezervlar xisobiga shakllantirilgan; riskni realizatsiyasi vaqtida aloqadorligi bo'yicha; risk turlari bo'yicha). Rezervlar klassifikatsiyasi bo'yicha izlanishlarni

chuqurlashtirish o'z navbatida xo'jalik faoliyati risklarni tartibga solish quroli sifatida xizmat qiladigan moliyaviy rezervlarni yanada samarali hamda ilmiy asoslangan shakllanish va foydalanish usullarini ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Rezervlashtirish tizimini ishlab chiqishdan oldin, "risk" atamasini o'zini aniqlashtirish maqsadga muvofiq xisoblanadi. "Risk" tushunchasining o'zi yetarli darajada uzoq tarixga ega bo'lib, riskni turli jihatlarini o'rganish XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida boshlangan.

Xozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida risk tushunchasi xavf – xatar, zarar yoki yo'qotish imkoniyati (extimoli) deb talqin etilmoqda. Shuningdek, amaldagi iqtisodiy adabiyotlarda riskni ehtimollik va noaniqlik bilan uzviy bog'likligi aniq aks ettirilgan. O'z navbatida "risk" toifasini yanada aniqroq ochib berish uchun risk asosida tarkib topgan "ehtimollik" va "noaniqlik" kabi ikki omilni aniqlash zarur hisoblanadi.

Xo'jalik sub'ektlari o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Xo'jalik faoliyatida noaniqlik quyidagi omillar bilan shartlanadi:

- ob'ektlarni iqtisodiy parametrlari, ahamiyati, mohiyatli ta'sir kuchiga ega bo'lgan texnik – texnologik jihatlar to'g'risidagi axborotlar tarkibini to'liq yoki noto'g'ri bo'lishi;
- xo'jalik faoliyatini parametrlari hisob-kitob qilishdagi xatoliklar;
- xo'jalik faoliyatini murakkab texnik va iqtisodiy – tashkiliy tizimini modernizatsiyalash bilan bog'liq moliyaviy – iqtisodiy parametrlari hisob-kitob qilishdagi xatoliklar;
- bozor kon'yukturasidagi baho va valyuta kurslarini tebranishi;
- raqobatchilarning ishchanlik darajasi va moliyaviy xolati to'g'risidagi axborotlarni to'la va aniq bo'lmasligi;
- qatnashchilarning xulqi, qiziqishlari va maqsadlarini noaniq bo'lishi;
- tabiiy – klimatik sharoitni noaniq bo'lishi va tabiiy ofat extimoli;
- mamlakatda yoki xududda ijtimoiy – siyosiy muhitni nosog'lom riski, siyosiy xolatni noaniqligi;
- iqtisodiy qonunchilikni va joriy iqtisodiy xolatni nobarqarorligi, investitsiyalash va foydadan ishlatishdagi risk va xokazo.

Riskka yondashish usullariga mavjud yondashishlaridan kelib chiqib, ularni "risk sub'ekti" va "risk ob'ekti" degan tushunchalarga ajratish mumkin. Sub'ekt sifatida u yoki bu xo'jalik operatsiyasini amalga oshirish to'g'risida qarorlar qabul qiluvchi analitik – xisob yurituvchi xodimlarni tushunish mumkin. Mos ravishda, risk ob'ekti sifatida risk xolati vujudga kelganda o'zgaruvchan resurs tushuniladi. Biz foydani maksimallashtirishga intilayotgan xo'jalik sub'ektini qaratganimizni hisobga olgan holda, bunday resurs sifatida xo'jalikning moliyaviy natijasi maydonga chiqadi.

Riskni aktiv yoki passiv bo'lishidan qat'iy nazar, u xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati bilan uzviy bog'liq xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, bu yerda riskni qandaydir faoliyatga tegishli bo'lgan uchinchi qirrasini ochilmoqda.

Shunday qilib, xo'jalik faoliyati riskiga xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy – xo'jalik faoliyati natijalarini rejalashtirilgan ahamiyatidan mohiyatli farqlanish ehtimolini sanoqli o'lchovi deb tarif berish mumkin deb hisoblaymiz.

Amaldagi riskga qarshi barcha mavjud reaksiyalarni quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin:

- riskni chetlab o'tish;
- riskni o'ziga qabul qilish;

- riskni minimallashtirish.

Birinchi xolatda, riskni bog'lanishi mumkin bo'lgan mulkdan, faoliyat turidan va shaxslar bilan bo'ladigan aloqalarni chetlab o'tish to'g'risida so'z bormoqda. Xo'jalik riskiga reaksiyani ushbu usuli juda ham ishonchli xisoblanadi; u katta yo'qotishlarda to'la chetlab o'tishni ta'minlaydi, lekin boshqa tomondan olib qaralganda esa riskli faoliyatdan umuman foyda olishdan mahrum qiladi. Shunga qaramasdan, bir riskni chetlab o'tish ikkinchisiga duch kelishni paydo qilishi mumkin. Shu sababli ham ushbu usulni juda katta miqdordagi yo'qotishlar ehtimoli mavjud bo'lganida qo'llash maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Riskka qarshi reaksiyani navbatdagi mumkin bo'lgan usuli – bu “riskni o'ziga qabul qilish” hisoblanadi. Albatta, barcha tadbirkorlik ham chetlab o'tish mumkin emas, shu sababli tijorat faoliyatida ko'pgina risklarni o'ziga olishga to'g'ri keladi. Ba'zi tadbirkorlik risklarini foyda olish mumkinligi ehtimoli borligi sababli o'ziga olsa, boshqalarini esa o'zini chetlab o'tish imkoniyatiga qarab o'ziga oladi.

Xulosa. Tijorat faoliyatida riskka qarshi reaksiyani qo'llash mumkin bo'lgan usuli – riskni minimallashtirish hisoblanadi. Riskni kamaytirishni asosiy usullari bo'lib, sug'urtalash, moliyaviy zaxiralarni shakllantirish, riskni konsentratsiyalashni limitlashtirish, xedjirlash, faoliyatni va moliyaviy qo'yimlarni diversifikatsiyalash, risklarni birlashtirish yoki alohidalash orqali yo'qotishlarni qisqartirish kabilar hisoblanadi. Yuqoridagilar riskka qarshi reaksiyani iqtisodiy usullari hisoblanadi. Noiqtisodiy usullarga esa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatini nazorat qilish, xo'jalik personalini tanlashda qat'iy tanlov usulini joriy qilish, raqobatchilarni doimiy kuzatib borish, tuzilayotgan xo'jalik shartnomalarini qonunchilik asosida rasmiylashtirish va riskdan ximoyani boshqa ustuvor usullaridan foydalanish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori.
2. ACCA Applied Knowledge ACCA Diploma in Business and Technology F1. Kaplan Publishing UK. ISBN 978-1-78740-585-1 © Kaplan Financial Limited, 2020
3. Sagdillaeva Z.A., Choriev I.X., Maxmudov A., Yuldasheva U.A. Iqtisodiy tahlil. Uchebnik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. - 404 b.
Shoalimov A.X., Ilxomov Sh.I., Xodjaeva M.X. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy taxlil va audit /O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2012. - 286 b

Shakirov O'tkirkbek Taxirovich

"Kafil-sug'urta" AJ

departament direktori

e-mail: u.shakirov@kafil.uz

SUG'URTA FAOLIYATIDA AXBOROT JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Шакиров Откирбек Тахирович

АО "Кафил-сугурта"

директор департамента

u.shakirov@kafil.uz

ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В СТРАХОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Shakirov O'tkirkbek Takhirovich

"Kafil-sugurta" JSC

director of the department

u.shakirov@kafil.uz

PROBLEMS OF DIGITALIZATION OF INFORMATION PROCESSES IN INSURANCE ACTIVITIES

Annotatsiya.

Maqolada sug'urta kompaniyalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar o'rganilib, soha olimlarining nazariy fikrlari muhokama qilingan. Sug'urta kompaniyalarida axborot jarayonlarini avtomatlashtirish bir qancha asosiy vazifalar va raqamli texnologiyalarning asosiy komponentlari ko'rib o'tilgan. Sug'urta faoliyatini raqamlashtirish zamonaviy IT-yechimlarni joriy etish, hujjat aylanishini avtomatlashtirish, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt va blokcheyndan foydalanish asosida sug'urta faoliyatida axborot tizimining yanada rivojlangan modeli taklif etilgan.

Tayanch so'zlar.

Sug'urta, raqamli texnologiyalar, hujjat aylanishini avtomatlashtirish, zamonaviy IT-yechimlarni joriy etish, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt va blokcheyn.

Аннотация.

В статье исследуются проблемы применения цифровых технологий в страховых компаниях и рассматриваются теоретические взгляды учёных в этой области. Рассматриваются ключевые задачи автоматизации информационных процессов в страховых компаниях и основные составляющие цифровых технологий. Цифровизация страховой деятельности базируется на внедрении современных ИТ-решений, автоматизации документооборота, больших данных, искусственного интеллекта и использовании блокчейна, а также предлагается более совершенная модель информационной системы в страховой деятельности.

Ключевые слова:

Страхование, цифровые технологии, автоматизация документооборота, внедрение современных ИТ-решений, больших данных, искусственного интеллекта и блокчейна.

Abstract.

The article studies the problems of using digital technologies in insurance companies and discusses the theoretical views of scientists in the field. Several key tasks of automating information processes in insurance companies and the main components of digital technologies are considered. The digitalization of insurance activities is based on the introduction of modern IT solutions, automation of document flow, big data, artificial intelligence and the use of blockchain, and a more advanced model of the information system in insurance activities is proposed.

Keywords.

Insurance, digital technologies, automation of document flow, introduction of modern IT solutions, big data, artificial intelligence and blockchain.

KIRISH

Sug'urta tashkilotlarida axborot jarayonlarini raqamlashtirish tashkilot faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim jihatdir. Axborot texnologiyalari va tizimlari biznes jarayonlarida markaziy o'rin tutadigan zamonaviy axborot jamiyati sharoitida sug'urta kompaniyalarida ularning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun avtomatlashtirishni joriy etish zarurati tug'iladi.

Zamonaviy sug'urta kompaniyalari yuqori hajmdagi ma'lumotlar, ariza va so'rovlarni tezkor qayta ishlash zarurati, shuningdek, mijoz bilan o'zaro munosabatlarning har bir bosqichida sifatli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ko'p yillar davomida sug'urtachilar ko'p vaqt talab qiladigan va xatolarga moyil bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlashning an'anaviy usullaridan foydalanganlar. Avtomatlashtirishning joriy etilishi ma'lumotlarni qayta ishlash vaqtini sezilarli darajada qisqartirish va ishlarning aniqligini oshirish imkonini beradi. Masalan, sug'urta kompaniyalari sug'urta arizalarini ko'rib chiqish, mukofotlarni hisoblash, da'volarni hisobga olish va to'lovlarni amalga oshirish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishi mumkin.

Raqobat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun sug'urta kompaniyalari mijozlarni jalb qilish, xarajatlarni kamaytirish va buxgalteriya hisobini yaxshilash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) faol foydalanishlari kerak. Shuni ham ta'kidlash joizki, mijozlar sug'urtalovchini tanlashda chegirmalar, xizmat ko'rsatish sifati yoki da'volarni to'lash tezligiga e'tiborni tobora kamaytirmoqda. Bir sug'urtalovchidan boshqasiga o'tish ko'pincha sug'urta mahsulotining narxiga bog'liq. AKTdan foydalanish kompaniya maqsadlariga erishishning kalitidir.

Sug'urta faoliyatida raqamlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish rahbar va mutaxassislarni zarur hajm va sifatda zarur axborot bilan ta'minlash orqali sug'urta kompaniyasini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar va axborot-texnologiyalari mutaxassislari sug'urta tashkilotlarida axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga turli yondashuvlarni taklif qilishadi.

Maykl Naylorning ta'kidlashicha sug'urta bozori hozirda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu o'zgarishlar yangi texnologiyalar, iqlim o'zgarishi va investitsiya oqimlarining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq¹.

Sabine L. B. VanderLinden va Nicole Andersonlarning ilmiy ishlarida sug'urta kompaniyalarining faoliyatining barcha jabhalariga zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, Sun'iy Intellekt, Mashinaviy O'rganish, Katta Ma'lumotlar, Narsalar Interneti, Blokcheyn kabi texnologiyalarni joriy etish jarayonlari o'rganilgan².

Anthony A. Tarr, Maurice Thompsonlarning fikricha, sug'urtada raqamlashtirish ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligiga yangicha yondashuvni talab etadi. Bu jarayon uzluksiz bo'lib, doimiy investitsiyalar, texnologiyalarni yangilash va xodimlarning xabardorligini oshirishni talab qiladi³.

Steysi Makmorou, Mark V. Pauli, Xovard Kunroyterlar ta'kidlashicha raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishning sug'urta firmalaridagi ishlash tizimlarini, tarif hisoblash, xavf tahlilini va da'vosizlarni boshqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirish qobiliyati mavjud⁴.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish va sug'urtaga yangi texnologiyalarni joriy etish kompaniyalardan moslashuvchanlikni, doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishni va modernizatsiyaga sarmoya kiritishni talab qiladi. Muvaffaqiyatli moslashish nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki biznes modellarini qayta ko'rib chiqish, ma'lumotlar xavfsizligini oshirish va xodimlarni o'qitishni ham talab qiladi. Shundagina sug'urta kompaniyalari tez o'zgaruvchan bozorda samarali raqobatlasha oladi va mijozlar ehtiyojlarini qondira oladi.

A. M. Blyuminaning ta'kidlashicha sun'iy intellektdan foydalanish katta ma'lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi⁵. Ushbu olimning fikriga muvofiq aytishimiz mumkinki, sun'iy intellektdan foydalanish xavflarni bashorat qilish va sug'urta mahsulotlarini optimallashtirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha mijozlarning so'rovlarini ko'rib chiqish, ma'lumot berish va oddiy muammolarni hal qilish uchun chatbotlardan foydalanish, mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish va xodimlarni odatiy vazifalardan ozod qilish imkonini beradi.

Mamlakatimiz olimlaridan akademik S.S. Gulomov o'zining ilmiy ishlarida axborot oqimlarini optimal tashkil etish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlari haqida fikr yuritganlar⁶.

Professor R.H. Alimov o'z ilmiy izlanishlarida xalq xo'jaligining turli soha va tarmoqlarida axborot tizimlarini joriy etish, ularning infratuzilmalarini optimal loyihalash, texnik va dasturiy-texnologik vositalardan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modellarini taklif qilgan⁷.

Professor B.A. Begalovning ilmiy izlanishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sirining uslubiy asoslari AKTning iqtisodiyotdagi o'sish,

¹ Michael Naylor. Insurance Transformed: Technological Disruption Paperback. ISBN-13: 978-3319638362. Palgrave Studies in Financial Services Technology. 348 pages. October 19, 2017.

² **Sabine L. B. VanderLinden**, Nicole Anderson. The Insurtech Book. **Nashriyot:** John Wiley & Sons. 2018-y. ISBN: 978-1-119-36221-0. 328-p.

³ Anthony A. Tarr, Maurice Thompson. The Global Insurance Market and Change: Emerging Technologies, Risks and Legal Challenges. Informa Law from Routledge. ISBN: 978-1032298139. 520-p.

⁴ [Стейси Макморюу](#), [Марк В. Паули](#), [Ховард Кунройтер](#). Insurance and Behavioral Economics: Improving Decisions in the Most Misunderstood Industry 0th Edition. ISBN-13 978-0521608268. Cambridge University Press. 338-p.

⁵ Блюмина А. М. «Информационный менеджмент: автоматизация информационных технологий и систем управления». Учебник. ISBN 978-5-394-05487-7. 379 стр. 2024 г.

⁶ Gulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari Darslik, "Fan" nashriyoti, 2010 y., 685 b.

⁷ Alimov R.X., Xodiev B.Yu. Axborot-kommunikatsiyalar bozori: shakllanish, tenden-siyalar, ekonometrik modellashtirish va rivojlanish. Monografiya. Toshkent. FAN. 2001

raqobatbardoshlik va tarkibiy o'zgarishlarga qanday ta'sir qilishini tahlil qiluvchi keng ko'lamli nazariy va amaliy yondashuvlar bilan bog'liqligi o'rganilgan. AKT ning iqtisodiyotga ta'sirini texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan turli nuqtai nazardan ko'rish mumkin⁸ deb ta'kidlaydilar.

Iqtisodchi olim M.K.Abdullaev axborot tizimlari qarorlar qabul qilish uchun aniq ma'lumotlarni taqdim etish, muntazam jarayonlarni avtomatlashtirish va korxonaning turli bo'limlari o'rtasida yanada samarali hamkorlikni ta'minlash orqali boshqaruvda asosiy rol o'ynaydi degan fikrni ilgari suradi⁹.

Bizning fikrimizcha, korxonani boshqarishda axborot tizimlaridan samarali foydalanish texnologiyalar qanchalik to'g'ri tanlanganligi va joriy qilinganligiga bog'liq. AT dan foydalanish bilan bog'liq jarayonlarni batafsil o'rganish ularning unumdorligi, xarajatlari va biznesning raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash imkonini beradi. Bu nafaqat tizimni joriy etish, balki xodimlarni to'g'ri o'qitish, boshqa jarayonlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash va butun faoliyati davomida tizimni saqlab turishda muhim ahamiyatga ega.

Bevosita sug'urta sohasida axborot texnologiyalari bo'yicha ilmiy ish olib borgan olimlardan Sh.O'. Djanadilov va A.B. Abdusalomov axborot texnologiyalarini sug'urta sohasidagi tutgan o'rni haqida fikr bildirishgan.

Sh.O'. Djanadilovning fikricha sug'urta faoliyatiga AKTni joriy etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish strategik rejalashtirish, texnologiyalarni tanlash, ularni biznes jarayonlariga integratsiyalash, shuningdek, kompaniyaning barcha darajalarida doimiy yangilash va takomillashtirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi¹⁰.

Bizning fikrimizcha, AKT sug'urta kompaniyasi faoliyatining barcha jihatlarini o'zgartirishda yuqori darajadagi avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Sug'urta polislarini boshqarishda ularni ro'yxatdan o'tkazish, xarajatlarni hisoblash va yangilash jarayonlarini avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mijozlarga xizmat ko'rsatishda mobil ilovalar, onlayn maslahatchilar, chatbotlar va boshqa moslashtirilgan xizmatlar orqali mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilashga imkon beradi. Shuningdek, AKTdan xavflarni tahlil qilish, mijozlar ehtiyojlarini bashorat qilish va sug'urta da'volari ehtimolini baholash uchun Big Data va mashinani o'rganishdan foydalanishimz mumkin.

A.B. Abdusalomov sug'urta kompaniyalari kontekstida axborot-texnologiyalaridan foydalanish mijozlarning ma'lumotlar bazalarini, tahliliy vositalarni, CRM tizimlarini, katta ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish vositalarini, shuningdek marketing jarayonlarini avtomatlashtirish vositalarini o'z ichiga olishi mumkinligi haqida so'z yuritiladi.¹¹

Bizningcha, zamonaviy tizimlar mijozlarning xatti-harakatlarini kuzatish imkonini beradi (masalan, ularni qanday sug'urta mahsulotlari qiziqtiradi, ular saytda qancha vaqt o'tkazadilar, qanday harakatlarni bajaradilar). Bu ularning ehtiyojlarini oldindan bilish va moslashtirilgan xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi.

⁸ Begalov B.A., Jukovskaya I.E. Metodologicheskie osnovy vliyaniya informatsionno-kommunikatsionnykh texnologiy na razvitiye natsional-noy ekonomiki. Monografiya. Tashkent, "Iqtisodiyot". 2018. – 178 s.

⁹ Abdullaev M.K. Korxona boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi. 08.00.14 – "Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. T.: - 2019, 184b.

¹⁰ Djanadilov Sh.O'. Sug'urta faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi - Toshkent.: TDIU, 2018, - 149 bet.

¹¹ Abdusalomov A.B. Sug'urta kompaniyalari faoliyatida marketing axborot tizimlaridan samarali foydalanishning uslubiy jihatlar. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi - Toshkent.: TDIU, 2021, - 175 bet.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq jarayonlarni batafsil o'rganish ularning unumdorligi, xarajatlari va biznesning raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash imkonini beradi.¹²

Umuman olganda, olimlar va axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassisleri sug'urta kompaniyalariga axborotni samarali boshqarish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash imkonini beruvchi intellektual va moslashuvchan tizimlarni yaratishga intilmoqda.

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlarimizga ko'ra, sug'urta kompaniyalarida axborot jarayonlarini avtomatlashtirish bir qancha asosiy vazifalarni hal qilishga imkon beradi:

- dasturiy tizimlar inson xatosini bartaraf etishi, ma'lumotlarni kiritish, hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalar bilan bog'liq xatolar yehtimolini kamaytirishi mumkin.

- jarayonlarni avtomatlashtirish sug'urta va da'vo jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirishi, qaror qabul qilish va xizmatlarni taqdim etish vaqtini qisqartirishi mumkin;

- zamonaviy tahlil platformalari va mashinani o'rganish algoritmlari prognozlash va qaror qabul qilishning aniqligini oshirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni (masalan, mijozlar tarixi, da'volar ma'lumotlari va boshqa parametrlar) tahlil qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqolada qiyosiy taqqoslash, tizimli, iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil, ko'pomilli tadqiqotlar usullari, anketa so'rovlari, statistik tanlovlar, guruhlash, solishtirish, induksiya, deduksiya, optimallashtirish usullari hamda axborot tizimlarini ishlab chiqish usullari, texnologiyalari va maxsus dasturlaridan keng foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sug'urta sohasida raqamli transformatsiya nafaqat innovatsion xizmatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, balki xavfsizlikni ta'minlash va risklarni samarali boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab qiluvchi yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Sug'urtada raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi 1-rasm:

¹² Ro'ziev A.O. Sug'urta faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent: TMI, 2012, 157 bet.



1-rasm. Sug'urtada raqamli texnologiyalarning asosiy komponentlari¹³

¹³ Muallif ishlanmasi

Ushbu komponentlar raqamlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va operatsion jarayonlarni optimallashtirish sharoitida sug'urta sektorining samarali faoliyat yuritishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillarimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli axborot tizimlarni joriy etishda yuzaga keladigan ayrim muammolar yaxshi o'rganilgan, hujjatlashtirilgan va ularning samarali yechimlari mavjud. Bu muammolarni oldindan o'rganish va ularga tayyorgarlik ko'rish joriy etish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi hamda tizimdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shunga qaramasdan sug'urta kompaniyalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator muammolar bor:

1. Sug'urta kompaniyasida boshqaruv muammolarining aniq tavsifining yo'qligi, shunchaki tuzilmani qayta tashkil etish masalasi emas, balki boshqaruv usullarini, falsafiy va psixologik jihatlarni o'z ichiga olgan chuqurroq muammodir. Ko'pgina menejerlar sezgi va cheklangan ma'lumotlarga tayanadilar, bu esa samarali boshqarish va oqilona qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi.

2. Sug'urta kompaniyasida axborotni boshqarish tizimini joriy etish nafaqat texnik jihatdan, balki mavjud biznes jarayonlarni chuqur tahlil qilish va optimallashtirish zarurati. Sababi, jarayonni oldindan qayta tashkil etmasdan avtomatlashtirish mavjud muammolar va samarasizliklarning saqlanib qolishiga yoki hatto kuchayishiga olib kelishi mumkin. Tizimni joriy etishdan oldin kompaniya faoliyatining barcha jabhalari bo'yicha keng qamrovli so'rov o'tkazish kerak. Bu tashkiliy tuzilmani, biznes - jarayonlarini, axborot oqimlarini va bo'limlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bunday tahlil qiyinchiliklarni, ortiqcha yoki samarasiz jarayonlarni va optimallashtirishni talab qiladigan sohalarni aniqlashga yordam beradi.


3. Axborot bilan ishlash texnologiyalari va biznes yuritish tamoyillarini o'zgartirish zarurligi. Hatto yaxshi yaratilgan axborot tizimi ham byudjetni rejalashtirish, boshqarish va biznes jarayonlarining mavjud texnologiyasini mustaqil ravishda o'zgartirishga qodir emas.

4. Reja va byudjet ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish. Sug'urta kompaniyasida raqamli texnologiyalarini joriy etish boshqaruvni faoliyatning barcha sohalari bo'yicha tegishli va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bunday tizimda ham qaror qabul qilish menejerlarning shaxsiy manfaatlariga emas, balki ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Shaxsiy fikrlarga zid bo'lgan ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldirish boshqaruvning ob'ektivligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni joriy etish biznes jarayonlarini boshqarishda ham jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mas'ul xodimlar tizim tomonidan yaratilgan hujjatlarning pozitsiyalarini kuzatib borishlari va kerakli tuzatishlar kiritishlari kerak. Bu xodimlardan mas'uliyat va e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Qog'oz hujjat aylanishini qisqartirish jarayonlarni tezlashtiradi, buyurtmalarni bajarish sifatini, kompaniyaning raqobatbardoshligini va rentabelligini oshiradi. Biroq, bunday o'zgarishlar xodimlardan ehtiyotkorlik, talabchanlik va mas'uliyatni talab qiladi.

5. Xodimlarning qarshiligi. Sug'urta kompaniyalarida axborot tizimlarini joriy etish ko'pincha tajribali xodimlarning faol qarshiligiga duch keladi. Ushbu qarshilik loyihani sezilarli darajada sekinlashtirishi yoki hatto buzishi mumkin. Asosiy sabablarga yangi texnologiyalardan qo'rqish, ishni yo'qotish qo'rquvi yoki mas'uliyatni oshirish kiradi. Kompaniya rahbariyati amalga oshirish jarayonini faol qo'llab-quvvatlashi, xodimlarga o'zgarishlarning muqarrarligini va ularning afzalliklarini tushuntirishi kerak. Shuningdek, kadrlar malakasini oshirish, yangi tizimlarga muammosiz o'tish uchun shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Har bir kompaniya o'ziga xosdir va amalga oshirishga yondashuv uning xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishi kerak.

Shunga muvofiq sug'urta biznesini boshqarishni avtomatlashtirish nafaqat zarurat, balki strategik afzallikdir. Bu sug'urta kompaniyalariga o'z faoliyatini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Axborot tizimlari barcha asosiy biznes - jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash, ichki operatsiyalarni yaxshilash va tezroq qaror qabul qilishni osonlashtiradigan tarzda tashkil etilishi kerak.

Sug'urta kompaniyasida raqamli texnologiyalarining tashkiliy tuzilmasi bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiluvchi ma'lumotlar, jarayonlar va odamlarni samarali boshqarishni ta'minlaydigan bir nechta asosiy komponentlar va darajalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlari axborot tizimlarini turli xillari farqlanadi. Quyidagi 2-rasmda avtomatlashtirilgan ish joylari bo'yicha ma'lumot keltirilgan.



2-rasm. Avtomatlashtirilgan ish joylari¹⁴

Sug'urta kompaniyasidagi har bir avtomatlashtirilgan ish joyi sug'urta faoliyatining turli jihatlarini boshqarishga qaratilgan muayyan funksiyalar to'plamini bajaradi va kompaniyaning turli sohalarida ishlaydigan mutaxassislar tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.


¹⁴ Muallif ishlanmasi

Yangi mijozlarni jalb qilish va sug'urta shartnomalarini tuzish bilan shug'ullanuvchi ekvayzitorlar mijozlarni jalb qilishning butun jarayonini tashkil etish va nazorat qilish uchun maxsus avtomatlashtirilgan ish stansiyalaridan foydalanadilar.

Aktuariylar o'z ishlaridan hayotni sug'urtalash risklari va mukofotlari bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek, moliyaviy risklarni baholash va sug'urta mahsuloti tannarxini prognoz qilish uchun foydalanadilar.

Alohida bo'limlar yoki xizmatlarni mahalliy avtomatlashtirish muayyan operatsiyalarni soddalashtirishga yordam berishi mumkin bo'lsa-da, kompaniya boshqaruvi darajasidagi muammolarni samarali hal qilishga yordam bermaydi. Bu tahliliy hisobotlarni tayyorlash, shuningdek, boshqaruv qarorlarini modellashtirish uchun zarur bo'lgan yagona axborot maydonining yo'qligiga olib keladi. Ushbu integratsiyalashgan axborot oqimisiz boshqaruv asosli qarorlar qabul qila olmaydi, bu esa optimallashtirish va strategik rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Umumiy ma'lumotlar bazasida ishlaydigan o'zaro bog'langan avtomatlashtirilgan ish stansiyalari majmuasi sug'urta faoliyatida axborot tizimining yanada rivojlangan modelini ifodalaydi (3-rasm). Bunday tizim nafaqat sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq asosiy funksiyalarni, balki buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, xodimlarni boshqarish va boshqalar kabi yordamchi boshqaruv funksiyalarini ham qo'llab-quvvatlaydi.




3-rasm. Sug'urta faoliyatida axborot tizimining yanada rivojlangan modeli¹⁵

Sug'urta kompaniyalari faoliyati ko'lami kengaygani sari bajariladigan boshqaruv funksiyalari va xodimlar soni ortib bormoqda. Bu, o'z navbatida, funksiyalarni yanada ixtisoslashtirishga va turli xil avtomatlashtirilgan ish joylari o'rtasida axborot integratsiyasini yaratishga yordam beradi. Funksiyalar va jarayonlarning bunday kengayib borayotgan sonini samarali boshqarish uchun yagona axborot texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, axborotni qayta ishlash uchun foydalaniladigan

¹⁵ Муаллиф ишланмаси

dasturiy va texnik vositalarni standartlashtirish zarur bo'ladi. Ushbu yondashuv ma'lumotlar hajmining oshishi va bajarilgan operatsiyalarning murakkabligi bilan ham butun tizimning yagona va samarali ishlashiga imkon beradi.

Quyidagi 4-rasmda alohida tarkibiy bo'linma sug'urta kompaniyasining fialali uchun korporativ axborot tizimining bir qismi ko'rsatilgan.



4-rasm. Sug'urta kompaniyasi fialali uchun korporativ axborot tizimi¹⁶

Sug'urta kompaniyasi uchun integratsiyalashgan axborot tizimini joriy etish natijasida yuqori unumdor printerlar, bosma serverlar, faks-modemlar, markazlashtirilgan ma'lumotlar bazalari va hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ilovalar kabi turli resurslarni birlashtirgan kuchli tarmoq infratuzilmasi yaratiladi. Bu avtomatlashtirilgan ish stansiyalarida ishlaydigan xodimlarga keng ko'lamli vositalar va ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi, bu esa ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Integratsiyalashgan yondashuv sug'urta kompaniyalariga tashqi muhitdagi o'zgarishlar va mijozlar ehtiyojlariga tezroq moslashish imkonini beradi. Moslashuvchan raqamli yechimlarni joriy etish bozor imkoniyatlarini kengaytirish va mijozlar bilan onlayn kanallar va mobil ilovalar orqali muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Ushbu kompleks yondashuvning asosi sug'urta kompaniyalarining biznes jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiyalashuvdan iborat bo'lib, u operatsiyalarni optimallashtirish, ma'lumotlar xavfsizligini oshirish, mijozlar tajribasini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish, o'zgaruvchan bozor sharoitida yuqori moslashuvchanlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur yondashuvni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad jarayonlarning joriy holatini tahlil qilish orqali mavjud axborot tizimlari va biznes jarayonlarini baholash, joriy faoliyatdagi zaif tomonlar va to'siqlarni aniqlab, tizimlar bilan o'zaro aloqani yaxshilash uchun mijoz va xodimlarning ehtiyojlarini aniqlash kabi masalalar ko'zlangan.

¹⁶ Muallif ishlanmasi

Texnik tizimlar narxining kamayishi hamda WiFi, WAP i GPRS kabi yangi simsiz texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflangan ma'lumotlarni qayta ishlash va aloqa sohasidagi texnologik yutuqlar sug'urta kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Bu noutbuklarning korporativ tarmoqlar va Internetga mobil ulanishini amalga oshirish, xavfsiz virtual xususiy tarmoqlarni yaratish va mobil aloqa orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatishni ta'minlash imkonini berdi.

Natijada sug'urta sohasidagi integratsiyalashgan axborot tizimlari ma'lumotlarni qayta ishlashning ikkita asosiy quyi tizimini o'z ichiga ola boshladi:

- OLTP (On-Line Transaction Processing) tizimi bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchilarga kirishni ta'minlab, tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlashga mo'ljallangan;

U operatsiyalarni muvaffaqiyatsizlik holatlarida qaytarib olinadigan tranzaksiyalarga ajratish orqali ishonchlilik va yuqori ishlashni ta'minlaydi.

OLTP tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarda ishlaydi, aniq belgilangan algoritmlarga amal qiladi va standartlashtirilgan kiritish / chiqarish shakllaridan foydalanadi.

- OLAP (On-Line Analytical Processing) tizimi ma'lumotlar omborlari va ko'p o'lchovli analitik ma'lumotlar bazalari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan.

OLAP tizimlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun statistik tahlil, ma'lumotlarni yig'ish va naqshlarni aniqlash kabi ma'lumotlarni qidirish usullaridan foydalanadi.

OLAP tizimlari boshqaruv qarorlarini simulyatsiya qilish uchun ham qo'llaniladi.

XULOSA

Yuqoridagi tizimlarning asosiy jihatlari mobillik va moslashuvchanlikda bo'lib, sug'urta kompaniyasi xodimlariga moslashuvchanlik va samaradorlikni ta'minlab, istalgan joydan ishlash imkonini beradi. Tizim sug'urta operatsiyalari uchun juda muhim bo'lgan ishonchli tranzaksiyalarni qayta ishlashni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, sug'urta kompaniyalarida axborot jarayonlarini raqamlashtirish ularning raqamli transformatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, samaradorlikni oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Mashinani o'rganish, sun'iy intellekt, robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish, blokcheyn kabi texnologiyalarni joriy etish operatsion jarayonlarni sezilarli darajada yaxshilash va tez o'zgaruvchan bozorga moslashish imkonini beradi. Avtomatlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun to'g'ri texnologiyalarni tanlash, jarayonlarni sozlash va xodimlarning tegishli tayyorgarligini ta'minlash muhimdir.

Shunday qilib, tadqiqot doirasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirishni faol joriy etayotgan sug'urta kompaniyalari nafaqat raqobatbardoshligini oshirish, balki mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash, ularning qoniqish va sodiqligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sug'urta sohasida raqamlashtirishga kompleks yondashuv nafaqat ichki jarayonlarni takomillashtirish, balki bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun moslashuvchan va innovatsion yechimlarni yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Michael Naylor. Insurance Transformed: Technological Disruption Paperback. ISBN-13: 978-3319638362. Palgrave Studies in Financial Services Technology. 348 pages. October 19, 2017.
2. **Sabine L. B. VanderLinden**, Nicole Anderson. The Insurtech Book. **Nashriyot:** John Wiley & Sons. 2018-y. ISBN: 978-1-119-36221-0. 328-r.

3. Anthony A. Tarr, Maurice Thompson. The Global Insurance Market and Change: Emerging Technologies, Risks and Legal Challenges. Informa Law from Routledge. **ISBN:** 978-1032298139. 520-r.
4. [Steysi Makmorou](#), [Mark V. Pauli](#), [Xovard Kunroyter](#). Insurance and Behavioral Economics: Improving Decisions in the Most Misunderstood Industry 0th Edition. ISBN-13 978-0521608268. 338-p.
5. Blyumina A. M. «Informatsionnyy menedjment: avtomatizatsiya informatsionnyx texnologiy i sistem upravleniya». Uchebnik. ISBN 978-5-394-05487-7. 379 str. 2024 g.
6. Gulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari Darslik, “Fan” nashriyoti, 2010 y., 685 b.
7. Alimov R.X., Xodiev B.Yu. Axborot-kommunikatsiyalar bozori: shakllanish, tendensiyalar, ekonometrik modellashirish va rivojlanish. Monografiya. Toshkent. FAN. 2001
8. Begalov B.A., Jukovskaya I.E. Metodologicheskie osnovy vliyaniya informatsionno-kommunikatsionnyx texnologiy na razvitie natsional-noy ekonomiki. Monografiya. Tashkent, “Iqtisodiyot”. 2018. – 178 s.
9. Abdullaev M.K. Korxona boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi. 08.00.14 – “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. T.: - 2019, 184b.
10. Djanadilov Sh.O‘. Sug‘urta faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi - Toshkent.: TDIU, 2018, - 149 bet.
11. Abdusalomov A.B. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatida marketing axborot tizimlaridan samarali foydalanishning uslubiy jihatlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi - Toshkent.: TDIU, 2021, - 175 bet.
12. Ro‘ziev A.O. Sug‘urta faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent: TMI, 2012, 157 bet.

Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi"
kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi
khasanboyvalijonov@gmail.com

DONNI SAQLASH VA QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA DAVAL XOM-ASHYONI QAYTA ISHLASH JARAYONI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Валижонов Хасанбой Акбаралиевич
Соискатель кафедры "Бухгалтерского учёта"
Ташкентского государственного экономического университета
khasanboyvalijonov@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ПЕРЕРАБОТКИ ДАВАЛЬЧЕСКОГО СЫРЬЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ХРАНЕНИЯ И ПЕРЕРАБОТКИ ЗЕРНА

Valijonov Khasanboy Akbaraliyevich
Tashkent State University of Economics
Department of "Accounting" independent researcher
khasanboyvalijonov@gmail.com

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING FOR THE PROCESS OF PROCESSING STATE RAW MATERIALS AT GRAIN STORAGE AND PROCESSING ENTERPRISES

Annotatsiya. Maqolada daval xomashyosini qayta ishlash operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha uslubiy yondashuvlar, bunday operatsiyalarni rasmiylashtirish tartibi va hujjatlar aylanuvini amalga oshirish tartibi ko'rib chiqilgan. Shuningdek donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida daval xom-ashyoni qayta ishlashga asoslangan faoliyatning huquqiy jihatini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini tashkil etishga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: daval xom-ashyo, buyurtmachi, davalchi, qayta ishlovchi, tolling, daval xom-ashyoning buxgalteriya hisobi.

Аннотация. В статье рассмотрены методические подходы к учету операций по переработке сырья, порядок оформления таких операций и порядок осуществления документооборота. Также он посвящен осуществлению правового аспекта деятельности, основанной на переработке давальческого сырья на предприятиях по хранению и переработке зерна, организации бухгалтерского учета.

Ключевые слова: давальческое сырье, заказчик, давальщик, переработчик, толлинг, бухгалтерский учет давальческого сырья.

Abstract. The article examines methodological approaches to accounting for raw material processing operations, the procedure for formalizing such operations, and the procedures for implementing document flow. It is also devoted to the implementation of the legal aspect of activities

based on the processing of tolling raw materials at grain storage and processing enterprises, the organization of accounting.

Keywords: tolling raw materials, customer, tolling agent, processor, tolling, accounting for tolling raw materials.

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tayor maxsulotlarni tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimi ancha batafsil yoritib berilgan. Biroq, donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida daval xomashyosini qayta ishlash xarajatlarini hisobga olish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda va tadqiqotlarda yetarli darajada o'z aksini topmagan, bu esa ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrda «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonining ikkinchi yo'nalishida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini yirma besh foizdan o'ttiz ikki foizga yetkazish va qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini ikki barobarga oshirish vazifasi qo'yildi¹.

Bu esa rezpublikamiz korxonalarida mahsulotni qayta ishlab chiqarishga to'liq jalb qilinmagan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahalliy hom-ashyo resurslarini va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida yuqoridagi vazifalarni bajarishda xom-ashyoni donni qayta ishlash texnologiyasiga ega bo'lgan korxonaga qayta ishlashga berish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu ishlab chiqarish jarayonidagi xom-ashyoni berish va ishlab chiqilgan maxsulotlarni buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 15 martdagi 12 - sonli buyrug'i bilan "Qayta ishlashga berilgan xom ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi" Nizom qabul qilindi².

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Ko'plab ilmiy va o'quv adabiyotlari, ma'lumotnoma va amaliy qo'llanmalar, davriy matbuotdagi nashrlar tahlili shuni ko'rsatdiki, daval xom-ashyoni qayta ishlash operatsiyalari buxgalteriya hisobini rivojlantirish muammolarini hal qilishga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etish alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar, xususan, qayta ishlovchining buxgalteriya hisobida daval operatsiyalarini aks ettirish va ularni hujjatlashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar yoritilmagan.

Soliq va bojxona gazetasida daval xom ashyoga quyidagicha ta'rif berilgan "Buyurtmachiga tegishli bo'lgan va sanoat qayta ishlovi uchun boshqa shaxsga – qayta ishlovchiga – maxsulotlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni

ishlab chiqarish uchun berilgan xom ashyo va materiallar daval deb hisoblanadi. Keyin qayta ishlovchi tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar tuzilgan shartnomaga muvofiq, buyurtmachiga qaytariladi”³.

Rossiyalik olim S.N. Korshikovaning ta’kidlashicha Tolling (ya’ni daval xom ashyoni qayta ishlash) bu bir firmaning materiallarini boshqa firmaga ushbu xom ashyoni qayta ishlash va keyinchalik materiallar egasiga qaytarish maqsadida taqdim etishdir deb ta’rif beradi⁴.

Yana bir Rossiyalik iqtisodchi olim N.N. Parasotskaya fikri bo’yicha “Daval operatsiyalari deganda xomashyo, materiallar, tayyor mahsulot ko’rinishida taqdim etilgan moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini qayta ishlash (ishlov berish) bo’yicha operatsiyalar tushuniladi, bunda davalchi (buyurtmachi) o’z xom ashyosini muayyan turdagi ishlarni amalga oshirish uchun qayta ishlovchiga (pudratchi tashkilotga) topshiradi. Ma’lum vaqt o’tgach, buyurtmachi qayta ishlovchidan tayyor mahsulot yoki qayta ishlangan materiallar ko’rinishida ifodalangan natijalarni oladi” deb izoxlaydi⁵.

Professor N.B. Abdusalomova “Daval xom ashyosini qayta ishlab chiqarish va tolling iqtisodiy adabiyotlarda bir xil deb qaraladi” deb ta’kidlaydi. Shuningdek “Tollingning tashqi va ichki tolling turi mavjud. Tashqi tollingda xomashyo odatda davlat nazorati ostida va bojxona bojlari va soliqlarini to’lamagan holda xorjidan olib kiriladi. Ichki tolling mamlakatning boshqa hududlaridagi korxonalaridan olingan xomashyoni qayta ishlashni ko’zda tutadi” deb ko’rsatadi⁶.

Dotsent D. Mirzaxalilova “Daval xom ashyoni qayta ishlash (yoki "tolling," inglizcha "To11" - boj so’zidan olingan) - bu buyurtmachi tomonidan xom ashyoni mulk qilib sotib olish va uni pudratchining ishlab chiqarish quvvatlarida ushbu xom ashyodan buyurtmachiga kerakli bo’lgan mahsulotni tayyorlash uchun mulk huquqini o’tkazmasdan pudratchiga berish bo’yicha bitimdir” deb ta’kidlaydi⁷.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida bizning fikrimizcha daval xom-ashyosi, buyurtmachi tomonidan qayta ishlash uchun boshqa shaxsga (qayta ishlovchiga) beriladigan, qayta ishlashdan keyingi mahsulot buyurtmachiga qaytarib berish sharti bilan berilgan xom-ashyo va maxsulotlardir. Bunda xom ashyo va maxsulotlar buyurtmachiga tegishli bo’ladi. Shuningdek daval xom-ashyo deganda xo’jalik munosabatlari subyekti tomonidan buyurtmachidan qayta ishlash yoki boshqa ishlarni bajarish, shuningdek mahsulot tayyorlash uchun qayta ishlashga qabul qilingan xom-ashyoni qiymatini to’lamasdan hamda qayta ishlangan maxsulotlarni to’liq qaytarish, bajarilgan ishlarni va tayyorlangan mahsulotni topshirish majburiyati bilan qabul qilib olingan xom-ashyo tushuniladi.


³ Газета СБХ/2021 йил/№27. Дилшод Усмонов молия вазири ўринбосари. Ирина Ахметова “Норма” МЧЖ эксперти

⁴ Коршикова С.Н.. Давальческое сырье: учет и налогообложение / С.Н.Коршикова /. Вестник Академии знаний. №40(5), 2020 г. С.191-196.

⁵ Парасоцкая Н.Н... Ханова А.С. Учет и налогообложение толлинговых операций / Н.Н.Парасоцкая, А.С. Ханова/. Бухгалтер и закон. 2014, №4 (172). С.7-13.

⁶ Abdusalomova N.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishda tolling muomalalarini uslubiy jihatdan takomillashtirish yo’nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil

⁷ D. Mirzaxalilova, K. Mirzaeva . Vnedrenie tollinga v neftepererabatyvayushuyu promyshlennost respubliki Uzbekistan. Biznes-ekspert jurnali 2020 yil 3 (147) son. 139 s.



1-rasm. Shartnoma asosida daval xom-ashyoni qayta ishlash bo'yicha buyurtmachi va qayta ishlovchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ko'rinishi⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzuni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha, deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bergan bo'lsa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli jarayonni tizimli tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ilmiy tahlil jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash va taqqoslash kabi usullar qo'llanilib, tahlil qilish jarayonida esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyoni o'ziniki va buyurtmachining xom-ashyosiga bo'lish shartli xarakterga ega, chunki u qayta ishlash korxonalarining omborlariga umumiy oqimda kelib tushadi, lekin hisob amaliyotida daval xom-ashyosi alohida, tegishli hujjatlarni (xom-ashyoni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, xom ashyoni qayta ishlash shartnomasining bajarilishi to'g'risidagi hisobot) tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Shuning uchun daval xom-ashyosini qayta ishlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishda xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish masalalari alohida o'rganishni talab etadi.

Ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hisobini tashkil etishning zamonaviy talablaridan kelib chiqqan holda, daval (xaridor tomonidan yetkazib beriladigan) xom-ashyoni qayta ishlovchi korxonalardan ham, daval xom-ashyoni bergan korxonalardan ham mahsulotlarni qayta ishlash va sotish hisobini yuritish usullari e'tiborga moliqdir.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Mamlakatimizda daval xom-ashyoni qayta ishlayotgan korxonalar ko'paymoqda. Daval xom-ashyoni qayta ishlash hajmini kengaytirish omillari bu birinchi navbatda, o'z moddiy resurslarining yetarli miqdori va talab qilinadigan sifatining yo'qligi, korxonalarda ish o'rinlarini saqlab qolish va ko'paytirish zarurati, xom-ashyo va materiallarni sotib olish, ayniqsa, ayrim hollarda mahsulotni sotish funksiyalarini vositachi tashkilotlarga o'tkazish imkoniyati va zaruriyatidir. Daval xom-ashyoni qayta ishlash asosan neftni qayta ishlash korxonalarimizda keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda daval xom-ashyoni qayta ishlash donni saqlash va qayta ishlash korxonalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatiga aylanib bormoqda.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari tomonidan daval donni saqlash va qayta ishlash hisobini tashkil etishni batafsil ko'rib chiqamiz. Avvalo, qayta ishlovchi va daval xomashyo beruvchi o'rtasida yuzaga keladigan shartnoma munosabatlarini aniqlab olish kerak.

Qayta ishlash tashkiloti daval donni saqlash va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar uchun tovar emas, balki pul kompensatsiyasini olgan taqdirda, bu munosabatlar mexnat shartnomasi bilan rasmiylashtirilishi mumkin⁹.

Qayta ishlash korxonasi daval donni saqlash va qayta ishlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun don yoki undan tovar kompensatsiyasi olgan hollarda, uning daval xom-ashyo yetkazib beruvchi bilan munosabatlari amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan. Shu sababli, ushbu munosabatlarni daval xom-ashyoni qayta ishlash (saqlash) Shartnomasi bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir, bunda bitim taraflari buyurtmachi va pudratchi bo'ladi.

Shartnomada berilayotgan don miqdori, narxi, sifati, saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotni qaytarish muddatlari, xizmatlar uchun haq to'lash tartibi aks ettiriladi. Xaridor tomonidan yetkazib berilgan donni saqlash va qayta ishlash xizmatlari uchun to'lov naqd pulda ham, xom-ashyoning va qayta ishlangan tayyor mahsulotning bir qismi sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. Ishning baxosi smeta tuzish orqali aniqlanishi mumkin. Bajarilgan ish natijalariga ko'ra, shartnomada qo'shimcha to'lovlar yoki chegirmalar hisobga olinishi mumkin.

Xaridor tomonidan yetkazib beriladigan donni saqlash va qayta ishlash xizmatlarining bozor narxi bir xil xizmatlar bozoridagi talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida o'xshash iqtisodiy (tijorat) sharoitlarda o'rnatilgan narx sifatida tan olinadi. Bitim shartlarining taqqoslanuvchanligini aniqlashda yetkazib berilgan donning miqdori (hajmi), sifati, majburiyatlarni bajarish muddatlari, to'lov shartlari va narxga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa oqilona holatlar hisobga olinadi. Agar ushbu xizmatlar tegishli bozorda mavjud bo'lmasa va bozor narxini aniqlashning iloji bo'lmasa, unda xarajatlar usulini qo'llash mumkin, bunda xizmatlarning bozor narxi sarflangan xarajatlar va ustama summasi sifatida aniqlanadi. Ustama ushbu faoliyat sohasi uchun oqilona va odatiy foydani ta'minlaydigan tarzda belgilanadi.

Daval donni saqlash va qayta ishlash uchun barcha xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'linishi kerak:

1. Moddiy xarajatlar.
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari.
3. Ijtimoiy ehtiyojlar uchun badallar.
4. Asosiy vositalarning amortizatsiyasi.
5. Boshqa xarajatlar.

Korxonaning buxgalteriya siyosati har bir shartnoma uchun alohida-alohida faoliyat turlari bo'yicha umumiy biznes xarajatlarini taqsimlash metodologiyasini aks ettirishi kerak.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 26-bobi

Qayta ishlashga qabul qilingan buyurtmachi tomonidan yetkazib berilgan donning hisobi shartnomada nazarda tutilgan narxlar bo'yicha 003 "Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" balansdan tashqari schyotida yuritiladi. 003 "Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" balansdan tashqari schyotining analitik hisobi buyurtmachilar, xom ashyo turlari, navlari va joylashuvi bo'yicha amalga oshiriladi.

Donni qayta ishlash xarajatlari hisobi 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" schyotida, agar ushbu xizmat turi korxonani tashkil etishdan maqsad bo'lsa, agar xizmatlar korxonaning asosiy faoliyatiga yordamchi bo'lsa 2310-"Yordamchi ishlab chiqarish" schyotlari debetida olib boriladi, ushbu schyotlarning kreditida esa ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Daval xom-ashyo yetkazib beruvchi bo'lgan buyurtmachidan saqlash va qayta ishlash uchun o'tkazilgan don 1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" schyotida hisobga olinadi. Bu schyotda qayta ishlash uchun chetga topshirilgan va keyinchalik olingan mahsulot tannarxiga kiritilgan xom-ashyo harakati aks ettiriladi. Saqlash (quritish, tozalash va hokazo) va pudratchiga to'langan qayta ishlash xarajatlari qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni hisobga olish uchun 2810 -«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyotining debetiga bevosita kiritiladi.

Daval xomashyoni yetkazib beruvchi va qayta ishlovchi o'rtasidagi munosabatlarning muhim xususiyati qayta ishlash xizmatlari uchun to'lov usuli (hisoblashishlar) hisoblanadi. Sotuvchi tomonidan qayta ishlash narxini naqd pulda to'lash eng tabiiy to'lov usuli hisoblanadi. Biroq, daval xom-ashyo beruvchi ko'pincha qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning bir qismi bilan qayta ishlovchilarga pul to'laydilar. Ehtimol, bu qayta ishlovchi uchun eng foydali hisoblash usuli bo'lishi mumkin. Chunki, qayta ishlash xizmati tannarxiga xaridor tomonidan yetkazib berilgan xomashyoni qayta ishlagan korxona foydasi ham kiradi, u qayta ishlash xarajatlari bilan birga 1010-"Xom-ashyo va materiallar" schyotiga kiritiladi. Qayta ishlovchida tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun o'z xom-ashyosi paydo bo'ladi, ayniqsa uni sotishdan olingan daromad unga foyda keltiradi. Bunda qayta ishlab chiqaruvchi daval xom-ashyo beruvchidan daval xom-ashyodan ishlab chiqarilgan maxsulotni bir qismini hisoblashish uchun ushlab qolish usuli mavjud bo'ladi. Hisoblashishning ushbu usuli bilan daval xom-ashyoni qayta ishlash bo'yicha xizmat ko'rsatish qiymati buyurtmachiga topshirilgan tayyor mahsulot tannarxidan qayta ishlovchi tomonidan ushlab qolinadi. Bu qayta ishlab chiqaruvchi uchun ham foydalidir, chunki uning 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotida ishlab chiqarilgan mahsulot paydo bo'ladi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobini tashkil etishda ham daval xom-ashyoni qayta ishlovchi, ham daval xom-ashyo yetkazib beruvchi uchun bir qator xususiyatlarni hisobga olish kerak. Shunday qilib, daval xom-ashyoni qayta ishlovchi daval xom-ashyodan tayyorlangan mahsulotlarning egasi emas. Daval xom-ashyoni yetkazib beruvchi uchun qayta ishlovchi xizmatlarni bajaruvchi sifatida ishlaydi. Shuning uchun daval xom-ashyo qayta ishlovchining 003 "Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" balansdan tashqari schyotida ko'rsatilishi kerak. Daval xom-ashyoni qayta ishlash bo'yicha sanoat xizmatlariga kalkulyatsiya tuzishda kalkulyatsiyada daval xom-ashyoning narxi ko'rastilmaydi. Daval xom-ashyoni qayta ishlash natijasida olingan tayyor mahsulot, uni qayta ishlash uchun haq to'lashi bilanoq, daval xom-ashyo egasining mulkiga aylanadi.

Daval xom-ashyoni qayta ishlash korxonalariga xom-ashyolarni qayta ishlash bo'yicha harajatlarni to'lovi bevosita qayta ishlashdan olingan maxsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarni debetida hisobga olinadi. Agar bu xom-ashyolar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan yangi turdagi xom-ashyolar yoki yarim tayyor mahsulotlar bo'lsa, u holda qayta ishlash va qo'shimcha ishlarga sarflangan xarajatlar ikki schyotning 1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" va 6010

“Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar” schyotlari kreditidan 1010 «Xom ashyo va materiallar» schyotining debetida aks ettiriladi. 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar” schyotning kreditida xom ashyo yoki pul bilan to‘langan qayta ishlash xarajatlari (QQSdan tashqari) aks ettiriladi. Hisobga olinadigan QQS 4410 “Budjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)” schyotning debetida va 6010-schyotning kreditida hisobga olinadi. Biroq, ko‘pincha, xom-ashyo qayta ishlangandan keyin, yetkazib beruvchi tayyor mahsulotni o‘z hisobiga kirim qiladi. Uning buxgalteriya hisobida qayta ishlangan maxsulotlarni hisobdan chiqarishni ham, qayta ishlovchiga to‘langan xizmatlarni ham aks ettirishi kerak. Ushbu xarajatlar 2010 yoki 2310 schyotlarning debetiga yozilishi mumkin, lekin 2510, 2610, 2710, 2910 va 9410 schyotlarning debetiga emas, chunki xom-ashyoni qayta ishlash xarajatlarini o‘zida ishlab chiqarish xarajatlariga hech qanday aloqasi yo‘q. Daval xom-ashyo egalari tayyor mahsulotga ega bo‘lsa-da, ular uni ishlab chiqaruvchilar emas. Shuning uchun ularda ularni ishlab chiqarishga bo‘lgan harajatlari bo‘lmaydi.

2010 yoki 2810 schyotlarning debetida qayta ishlash xarajatlaridan tashqari xom-ashyo va materiallar tannarxi qayta ishlash hisob-kitoblari tugallanganda 1070 schyotning kreditidan hisobdan chiqarilishi kerak. Boshqa korxonalarda mahsulotlarni qayta ishlash xarajatlari mahsulotning yangi nomi bilan tegishli schyotning 2810-“Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyotining debetiga yozilishi kerak. 1070 schyotining kreditidan qayta ishlash uchun ilgari o‘tkazilgan tovarlarning qiymati to‘lovlarni qayta ishlash tugagandan so‘ng xuddi shu schyotga kiritilishi kerak.

Daval xom-ashyo va ularni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lov ko‘rinishidagi xarajatlardan tashqari, daval xom-ashyo yetkazib beruvchi korxonalar daval xom-ashyoni saqlash, tashish va qayta ishlash bilan bog‘liq uchinchi tomon tashkilotlarining xizmatlari uchun to‘lovlarga ham (tashish, saqlash, qadoqlash, qadoqlash xizmatlari uchun to‘lov) mablag‘larni sarflaydilar. Ushbu xarajatlarni 9400-“Sotish xarajatlari” schyotining debetida hisobga olish tavsiya etiladi. Qayta ishlangan xom-ashyo va materiallarni, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yoki daval xom-ashyoni qayta ishlash natijasida olingan tovarlarni kirim qilishda hisobga olishda 9400-schyotining debeti bo‘yicha undirilgan xarajatlar 1010, 2010, 2810 yoki 2910 schyotlarning debetiga yozilishi kerak.



2-rasm. Qayta ishlovchida daval xomashyosini qayta ishlash bo'yicha operatsiyalarni aks ettirishda hujjatlarning aylanmasi¹⁰

Daval xom-ashyo va materiallardan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar uchun ishlab chiqarish natijasi tovar mahsuloti emas, balki sanoat xarakteridagi xizmat ko'rsatishdir. Shu bilan birga, buyurtmachining xom-ashyo, materiallar va tovarlarni qayta ishlash yoki qayta ishlash xarajatlarini hisobga olish tegishli xarajatlarni aks ettiruvchi ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida amalga oshiriladi. Buyurtmachining xom-ashyo,

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

materiallar va tovarlari tannarxi bundan mustasno bo'lib, u balansdan tashqari 003 "Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar" schyotida shartnomalarda va ular uchun texnik shartlarda nazarda tutilgan narxlarda aks ettiriladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu holatda qayta ishlash tugaganidan keyin xomashyo va materiallar o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazishini hisobga olsak, 002 «Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar moddiy boyliklar» balansdan tashqari schyotini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

Qayta ishlov berish uchun olingan xom ashyoni pudratchi (bajaruvchi) tomonidan qayta ishlash bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish¹¹

Bajarilgan ishlar (operatsiyalar) mazmuni	DEBET	KREDIT
1. Qayta ishlash uchun qabul qilingan xom-ashyo va materiallar	003	—
2. Bir vaqtning o'zida xizmatlar uchun to'lov sifatida daval xom-ashyo yetkazib beruvchilardan olingan xom-ashyo va materiallar:	—	003
xom ashyoni kirimi (QQS siz)	1010	6000
QQS hisob-kitobi	4400	6000
3. Daval xom-ashyoni qayta ishlash xarajatlari:		
3.1. Asosiy vositalarning eskirishi	2000 (2300)	0200
3.2. Asosiy materiallar	2000 (2300)	1000
3.3. Yordamchi ishlab chiqarish	2000 (2300)	2300
3.4. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lov	2000 (2300)	6000
3.5. Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar	2000 (2300)	6710
3.6. Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish	2000 (2300)	6510
4. Qayta ishlash uchun olingan xom-ashyodan chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarishdan omborxonaga berilishi vaqtida, shartnoma bahosida saqlash uchun javobgarlikka topshirilganida	002	—
5. Dastlabki hisob hujjatlariga (hisob-fakturalar, bajarilgan ishlar aktlari) muvofiq qayta ishlash uchun olingan xom-ashyoni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar uchun hisoblangan tushum (un tortish haqi to'lovi) summasiga	4010	9030
6. Qayta ishlash uchun olingan xom-ashyoni qayta ishlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisoblab chiqarilgan QQS summasiga	4010	6410
7. Donni qayta ishlash asosida qayta ishlashdagi xizmatlar tannarxini hisobdan chiqarishda	9130	2000 (2300)
8. Saqlash uchun javobgarlikdan, qayta ishlashga berilganligi dastlabki hisobga olish hujjatlari (qabul qilish-topshirish akti va tovar-transport yuk xati) bilan tasdiqlangan mahsulotning hisobdan	—	002

Daval xom ashyosi harakatining nazoratini ta'minlash maqsadida "Qayta ishlashga berilgan xom ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq «Daval xom ashyosini hisobga olish vedomosti»ni yuritish lozim. Daval xom ashyosini hisobga olish vedomosti qayta ishlovchining rahbari tomonidan qonunchilikda belgilangan

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tartibda vakolatlangan shaxslar tomonidan imzolalanadi. Mazkur vedomostda daval xom ashyosining miqdor va summaviy ko'rsatkichlarining kamayishi to'g'risidagi ma'lumot, uning turlari bo'yicha tegishli qatorida «minus» belgisi bilan ko'rsatiladi.

XULOSA.

Bizning fikrimizcha, bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi bosqichida daval xomashyosini qayta ishlash operatsiyalari zarur ishlab chiqarish quvvatlarining yo'qligi, soliq solishning yuqori darajasi va boshqa omillar tufayli tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Donni daval shartlarida saqlash va qayta ishlash korxonalarining ko'proq ixtisoslashuvi hisobiga ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida daval xomashyosini qayta ishlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritishning tanlangan usullari korxonaning hisob siyosatida o'z aksini topishi kerak. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

kelib tushgan daval xom-ashyoni balansdan tashqari schyotga hisobga olish va uni qayta ishlashga hisobdan chiqarish tartibiga;

qayta ishlashning tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarishni va ularning harakatini balansdan tashqari schyotda hisobga olishga;

ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va qayta ishlash mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiya qilish hamda daval xomashyosini qayta ishlash bo'yicha xizmatlarning haqiqiy tannarxini aniqlashga;

buyurtmachining qayta ishlash xizmatlari va mahsulotni yuklab jo'natish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar uchun hisob-kitoblarni rasmiylashtirish tartibiga.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 01.03.1997
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 15 martdagi 12 - sonli buyrug'i bilan "Qayta ishlashga berilgan xom ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi" Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 15 martda 2086-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan).
4. Абдусаломова Н.Б. Саноат корхоналарида бухгалтерия ҳисобини юритишда толлинг муомалаларини услубий жиҳатдан такомиллаштириш йўналишлари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил.
5. Дилшод Усмонов молия вазири ўринбосари. Ирина Ахметова "Норма" МЧЖ эксперти. Газета СБХ/2021 йил/№27.
6. Д. Мирзахалилова, К. Мирзаева . Внедрение толлинга в нефтеперерабатывающую промышленность республики Узбекистан. Бизнес-эксперт журналы 2020 йил 3(147)сон. 139 с.
7. Коршикова С.Н.. Давальческое сырье: учет и налогообложение / С.Н.Коршикова /. Вестник Академии знаний. №40(5), 2020 г. С.191-196.
8. Парасоцкая Н.Н... Ханова А.С. Учет и налогообложение толлинговых операций./ Н.Н.Парасоцкая, А.С. Ханова/. Бухгалтер и закон. 2014, №4 (172). С.7-13

Xasanova Nodira Marifjonovna
Toshkent Kimyo Xalqaro
universiteti tadqiqotchisi.
nodira12qw@gmail.com

MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH

Хасанова Ноди́ра Мари́фжо́новна
Научный сотрудник Ташкентского
международного университета имени
Кимё nodira12qw@gmail.com

КООРДИНАЦИЯ ТРЕХ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ

Xasanova Nodira Marifjonovna
Researcher at Tashkent International
University of Kimyo.
nodira12qw@gmail.com

ADJUSTMENT OF FINANCIAL RESULTS ACCOUNTING TO INTERNATIONAL STANDARDS

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli qarori ijrosini ta’minlashda, amaldagi schyotlar rejasini, jumladan moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, tushum va tannarxni aks ettiruvchi schyotlardagi ma’lumotlarni “Foyda va zararlar yoki boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi” hisobot talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha amaliy takliflar shakllantirilgan.

Tayanch so‘zlar: moliyaviy natijalar, tushum, daromad, tannarx, xarajat, moliyaviy hisobot shakllari, xalqaro standartlar.

Аннотация: В целях обеспечения реализации Постановления Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 высказаны мнения по совершенствованию действующего Плана счетов бухгалтерского учета, в том числе счетов, отражающих финансовые результаты, на основе международных стандартов. Также сформулированы практические предложения по приведению информации на счетах, отражающих доходы и расходы, в соответствии с требованиями отчета "О прибылях и убытках или прочем совокупном доходе".

Ключевые слова: финансовые результаты, выручка, доход, самоокупаемость, расход, форма финансовой отчетности, международные стандарты.

Abstract: In order to ensure the implementation of the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 24, 2020 No. PP-4611, opinions were expressed on improving the current Chart of Accounts, including accounts reflecting financial results, based on international

standards. Practical proposals were also formulated to bring information on accounts reflecting income and expenses in line with the requirements of the report "On profit and loss or other comprehensive income".

Keywords: financial results, revenue, income, cost, expense, financial reporting forms, international standards.

KIRISH.

Bugungi iqtisodiyotni raamlashtirish sharoitida har qanday korxonaning bosh maqsadi foyda olishga qaratiladi. Bu esa, asosan moliyaviy holatini belgilab beruvchi moliyaviy natijasiga bog'liq bo'ladi. Korxona xo'jalik faoliyatining yakuniy ko'rsatkichi moliyaviy natijalar bilan belgilanadi. Demak, ishlab chiqaruvchi korxona bo'ladimi yoki hizmatlar (ishlar)ni bajaruvchi korxona bo'lishidan qat'iy nazar u yuqori foyda olishga xarakat qiladi.

Moliyaviy natija o'zi nima degan savol tug'ilishi tabiiy. Bizning fikrimizcha moliyaviy natija - bu korxonaning ma'lum bir davridagi faoliyatidan olingan foyda (zarar)dir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, foyda olish har qanday korxonaning asosiy maqsadi va mavjudligining ma'nosi hisoblanadi. Moliyaviy natija korxonaning ma'lum bir vaqtdagi holatini ifodalab, mulkdorlar, moliyaviy hisobotdan potensial foydalanuvchilar hamda investrorlarga biznes samaradorligini baholash va undan o'z daromadlarini hisoblash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

"Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning Konseptual asosi"da esa, moliyaviy natijalarni muhim elementi bo'lgan daromad va xarajat tushunchalariga keng to'xtalib o'tiladi. Jumladan, "Daromadlar xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari bilan bog'liq bo'lmagan tarzda xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishidir.

Xarajatlar xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimlashlar bilan bog'liq bo'lmagan tarzda xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishidir"¹.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi tushuncha va yondoshuvlarning nazariy asoslarini tadqiq etishda, quyidagi iqtisodchi olimlarning fikrlarini keltirib o'tish mumkin.

Iqtisodchi S.Tashnazarovning fikriga ko'ra: "Moliyaviy hisobotning nazariy asoslari deganda, uning ta'rifi, ob'ektlari, konseptual asoslari, moliyaviy hisobotning komponentlari va elementlari, axborot foydalanuvchilar va ularning ehtiyojlari, hisobotlarda aks ettirilayotgan axborotlar mazmuni va tarkibi hamda uni tuzish va taqdim etishning metodlari majmuasiga aytiladi. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining konseptual asoslari buxgalteriya hisobi tizimining poydevorini tashkil etadi. Konseptual asoslar moliyaviy hisobotning maqsadini, umumiy qoidalarini, foydalanuvchilar uchun taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotning elementlarini belgilash va tavsiflashni o'z ichiga oladi"².

Shuningdek, Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham moliyaviy natijalar hususida o'z fikrlarini bayon etib o'tganlar.

¹ "Молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг Концептуал асоси". 1-68, 1-69-бандлар.

<https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/>

² Ташназаров С. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: "STEP-SEL" МЧЖ нашриёти, 2023 - 580 бет.

V.Bocharovning fikriga ko'ra: "Kompaniyaning moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritilgan moddalarini tizimlashtiradi va hisobot davrining yalpi foydasidan taqsimlanmagan foydagacha shakllanishini ko'rsatadi"³.

G.Savitskaya bu borada quyidagini ta'kidlab o'tadi: "Korxonaning moliyaviy natijalari olingan foyda miqdori va rentabellik darajasi bilan tavsiflanadi. Foyda - sof daromadning bevosita korxonalar tomonidan mahsulot sotilgandan keyin olinadigan qismi, rentabellik ko'rsatkichlari umumiy ish samaradorligini tavsiflaydi va foydadan ko'ra ko'proq boshqaruvning yakuniy natijalarini aks ettiradi, chunki ularning qiymati ta'sirning pul yoki foydalanilgan resurslarga nisbatini ko'rsatadi"⁴.

M. Kreynina: "Foyda - bu korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, korxonaning barcha turdagi daromadlarining barcha turdagi xarajatlardan oshib ketishidir"⁵.

O.Efimova esa quyidagilarni ta'kidlaydi: "Korxonaning moliyaviy natijasi deganda, foyda tushuniladi, shu bilan birga, yakuniy natija haqiqatan ham egalari tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan natijadir, jahon amaliyotida bu "sof aktivlarning ko'payishi" degan ma'noni anglatadi"⁶.

A.Smetanko va boshqalarning fikriga ko'ra, moliyaviy natijalarni hisobga olish, moliyaviy hisobning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Natijada, korxonalar o'z faoliyatida doimo iqtisodiy o'sishni ta'minlashi maqsadga muvofiqdir. Daromad yoki zarar o'rtasidagi farq esa, oddiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar, asosiy faoliyati sub'ekti bo'lgan operatsiyalardan olingan foyda (zarar); boshqa faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar; asosiy faoliyatidan boshqa operatsiyalardan olingan foyda (zarar); favqulodda hodisalardan moliyaviy natijalardir"⁷.

V.Getmanning fikricha: "korxonaning moliyaviy natijasi foyda yoki zarar elementlari bilan belgilanadi, boshqaruv natijasi va sarflangan xarajatlar samaradorligini umumlashtirilgan shaklda aks ettirib boriladi"⁸.

O.Xolmurodovning ta'kilashicha: "Hozirgi vaqtda moliyaviy natijalarni hisobga olish bilan bog'liq ko'plab ilmiy muammolar mavjud bo'lib, ularni ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Dastavval, buxgalteriya hisobi hisob siyosatini qo'llash, qiymatlarni baholash va taxminlarni amalga oshirishda ma'lum darajadagi sub'ektivlik va mulohazalarni o'z ichiga oladi. Ushbu sub'ektivlik moliyaviy hisobot amaliyotida o'zgarishlarga olib kelishi mumkin, bu moliyaviy natijalarning taqqoslanishi va ishonchliligiga ta'sir qilishi mumkin. Buxgalterlik kasbi va akademik doiralarda sub'ektiv mulohazalar ta'sirini minimallashtirish va moliyaviy hisobotning ob'ektivligini oshirish bo'yicha munozaralar davom etmoqda"⁹.

³ Бочаров В. В. Инвестиции: учебник и практикум для академического бакалавриата / В. Е. Леонтьев, В. В. Бочаров, Н. П. Радковская. – Москва : Издательство Юрайт, 2016.

⁴ Савицкая Г. В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия : учебное пособие / Г. В. Савицкая – Москва : ИНФО – 2014. – 377с.

⁵ Kreynina M. N. Finansoviy menedjment: учебное posobie. – Moskva : Delo i Servis, 2009. – 245 s

⁶ Yefimova O. V. Analiz finansovoy otchetnosti: учебное posobie dlya magistrrov / O. V. Yefimova [i dr.]. – Moskva: Omega-L, 2013. – 388 s

⁷ Smetanko A. V. Aktualnye voprosy audita buxgalterskoy otchetnosti v Rossiyskoy federatsii / A. V. Smetanko, Yu. V. Mixalchik // Nauchniy al'manax. 2016. S. 233–236.

⁸ V.Getman. Buxgalterskiy uchët: učebnik / pod red. prof. V. G. Getmana. – 2-ye izd., pererab. i dop. – Moskva: INΦRA-M, 2017. – 601 s.

⁹ O.Xolmurodov. Moliyaviy natijalarning buxgalteriya hisobi va auditini takomillatirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yichaa falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2025 yil. 57 b.

prof. I.Ochilov va boshqalarning fikricha: “Moliyaviy natijalar- bu xujalik yurituvchi sub’ektning ma’lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o’ziga karashli mablag’larning oshishi(ko’payishi) yoki kamayishidir. Buxgalteriya xisobida bunday faoliyat natijasini hisobot davridagi barcha foyda (daromadlar) va zararlarni xisoblash yo’li bilan aniqlaydi”¹⁰.

Z.Qurbonovning ta’kilashicha: “Foyda-tovar va hizmatlarni sotishdan olingan daromadlarning bu tovarlarni sotish xarajatlaridan ortiq qismidir. Korxonalar va tadbirkorlik xo’jalik faoliyati moliyaviy natijalarining asosiy ko’rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Foyda bozor daromadi bo’lib, uning qonun-qoidalariga binoan vujudga keladi, taqsimlanadi va ishlatiladi”¹¹.

Yuqoridagi bildirib o’tilgan fikr mulohazalar va me’yoriy hujjatlarda keltirib o’tilgan atamalardan kelib chiqib, umumiy holda moliyaviy natija tushunchasiga quyidagi mualliflik yondoshuvi berildi: *“Moliyaviy natija - korxona faoliyatining ma’lum davrdagi foyda yoki zarar sifatida ifodalangan iqtisodiy natija bo’lib, xo’jalik faoliyatida olingan yoki amalga oshirilgan daromadlar va xarajatlar o’rtasidagi farqlarni ifodalaydi”*.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozish davomida moliyaviy natijalarni shakllantirishga oid adabiyotlar sharhi to’liq tahlil etilgan holda, ulardagi jahon va maxalliy iqtisodchi olimlarning korxonalarda moliyaviy natijalar hisobi va hisobotining ahamiyati va zaruriyati bo’yicha bergan fikr va qarashlari atroflicha o’rganildi, shuningdek, ushbu fikrlarga asoslangan yo’nalishlar, jumladan korxonalarda daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda xalqaro standart talablari asosida tadqiqot paradigmasi miqdoriy, ob’ktiv va ilmiy usullardan keng foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) korxonalarda buxgalteriya hisobini tartibga solmaydi, balki ulardagi moliyaviy hisobotlarni shakllantirish qoidalarini belgilaydi. Demak, korxonalarda buxgalteriya hisobi qanday shakllanganligidan qat’iy nazar, barcha uchun umumiy bo’lgan qoidalarni belgilaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida schyotlar rejasi haqida aniq bir ko’rsatma mavjud emas. Har bir mamlakat o’z milliy qoidalaridan kelib chiqib, schyotlar rejasini ishlab chiqadi. Natijada, har qanday schyotlar rejasi moliyaviy hisobotlarni tuzishda foydalaniladigan ko’rsatkichlarni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan schyotlar rejasi eng muhim bo’lgan ikki hisobot, ya’ni “Moliyaviy holat to’g’risidagi” va “Foyda va zarar yoki umumlashgan daromadlar to’g’risidagi” hisobotning moddalariga va bo’limlariga muvofiq bo’lishi talab etiladi.

Xalqaro standartlar talablari asosida shakllantiriladigan moliyaviy hisobotlarga mos schyotlar rejasini ishlab chiqish, amaliyotdagi muammolarni xalq etishga yordam beradi. Jumladan moliyaviy natijalarga tegishli bo’lgan: daromadlar va xarajatlar bo’yicha ham schyotlar rejasini bugungi kun talablari asosida qayta ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda.

Chunki, faoliyat yuritayotgan barcha korxonalar schyotlar rejasidan foydalanishga o’rganishgan, bu esa moliyaviy hisobotlarni, jumladan moliyaviy natijalarni shakllantirishga katta yordam bermoqda. O’z navbatida buxgalteriya xalqaro standartlarga o’tish imkoniyatini yaratadi.

Korxona moliyaviy natijasi - bu uning ma’lum hisobot davrida moliya-xo’jalik faoliyati

¹⁰ I.Ochilov, N.Rizaev, M.Kalonov. Buxgalteriya xisobi. Darslik. (nomutaxassisliklar uchun) Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2022 yil 272 b.

¹¹ Qurbonov Z. Misirok K. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2020 yil. 756 b.

jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishi sifatida belgilanadi. Buxgalteriya hisobida esa, bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlab boriladi. O'z navbatida korxonalarda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan qator ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Amaldagi 21-son BHMSda moliyaviy natijalarni hisobga olishda quyidagi schyotlardan foydalanish ko'zda tutilgan:

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumni hisobga oluvchi schyotlar:

9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»

9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromad»

9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar»

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi»

9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi:

9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi";

9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi";

9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi";

9140 "Davriy hisobda TMZ sotib olish / xarid qilish";

9150 "Davriy hisobda TMZ bo'yicha tuzatishlar".

1-jadval

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks etuvchi majburiy unsurlar¹²

Mahsulot sotishdan tushum	Operatsion faoliyat natijalari	Moliyaviy faoliyat natijalari	Favqulodda foyda va zararlar	Hisobot davri sof foydasi
<i>Asosiy faoliyatning natijasi</i>				
<i>Umumxo'jalik faoliyati natijasi</i>				
<i>Soliq to'lagunga qadar moliyaviy natija</i>				<i>Foydadan soliq to'lovlar</i>
<i>Korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda</i>				

Bu schyotlar esa, yuqoridagi Nizomda belgilangan yalpi foydani aniqlash va "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi" hisobot shakliga muvofiq keladi. Ya'ni: mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda:

$YaF = SST - IT$ bunda,

YaF – yalpi foyda, SST – sotishdan olingan sof tushum, IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

¹² Muallif ishlanmasi.

“Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning yalpi foydani aniqlash tartibi¹³

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davrida	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	010	2220961615	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020	x	1233672911
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (010 – 020)	030	987288704	

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahsulotlarni sotishdan sof tushum miqdori - 2220961615 so‘m 9010 - “Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad” schyotining kredit aylanmasi ma’lumotlaridan hamda sotilgan mahsulotlar - 1233672911 so‘m esa, 9110 “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyotining debet aylanmasidan olingan. Ushbu ma’lumotlar bo‘yicha buxgalteriya hisobida quyidagi o‘tkazmalar berilgan:

Mahsulotni sotishdan tushum:

Debet 4010 - “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

Kredit 9010 - 9010 - “Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad” schyoti.

Sotilgan mahsulotlar tannarxini hisobdan chiqarish:

Debet 9110 - “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyoti

Kredit 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulot” schyoti.

Moliyaviy natijalarni schyotlarda aks ettirishning ushbu tartibi buxgalteriya hisobi milliy standartlaridan (BHMS) foydalanuvchi korxonalar uchun qulay bo‘lishi mumkin. O‘z navbatida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni to‘g‘ri shakllanishiga olib keladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi 4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiq uyg‘unlashtirish vazifasi belgilab berilgan edi.¹⁴ Bu esa, o‘z navbatida, korxonalarda moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi daromadlar va xarajatlar schyotlarini ham xalqaroga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va xalqaro amaliyotni o‘rganish natijasida moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi, ya’ni yalpi foydani shakllanishida muhim ma’lumotlarni beruvchi schyotlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar berildi:

1. 9000 - “Tushum” schyoti bo‘yicha:

9010 - “Bir vaqtning o‘zida tan olingan tushum” schyoti;

9020 - “Davri davomida tan olingan tushum” schyoti;

9030 - “Tushumga tuzatish kiritish” (kamaytirish uchun) schyoti.

¹³ “Qizilqumsement” AJning moliyaviy hisobotlari asosida olingan.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-sonli qarori. 2020 yil 24 fevral. (3-bandi) <https://lex.uz/docs/4746047>

2. *“Tannarx” schyoti bo‘yicha:*

9110 - “Bir vaqtning o‘zida tan olingan tannarx” schyoti;

9120 - “Davr davomida tan olingan tannarx” schyoti

9130 - “Tannarxga tuzatish kiritish” (kamaytirish uchun) schyoti

Natijada, biz tomonimizdan taklif etilgan schyotlar asosida quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

1. *“Tushum” ni tan olish:*

Debet 4010 - “Xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar” schyoti yoki “Xaridor va mijozlarning qisqa muddatli debitorlik qarzlari” schyoti.

Kredit 9010 - “Bir vaqtning o‘zida tan olingan tushum” schyoti;

2. *“Tannarx” ni tan olish:*

Debet 9110 - “Bir vaqtning o‘zida tan olingan tannarx” schyoti.

Kredit 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulot” schyoti yoki “Tayyor mahsulot” schyoti (Qisqa muddatli aktivlar).

Taklif etilayotgan 9010, 9020 va 9030 schyotlar korxonada tushumlarni bir vaqtni o‘zida, davr mobaynida tan olish va unga tuzatishni kiritishda xalqaro 15-son MHXS “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum” nomli standartda belgilangan quyidagi qoidalariga uyg‘unligini ta’minlaydi.

Standartga ko‘ra, agar quyidagi mezonlardan biri bajarilsa, korxona tovar yoki xizmat ustidan nazoratni muayyan davr mobaynida o‘tkazadi va shu sababli muayyan davr mobaynida bajarish javobgarligini bajaradi va tushumni tan oladi:

xaridor korxona ushbu bajarish javobgarligini bajarish bilan ta’minlanadigan naflarni bir vaqtning o‘zida qabul qiladi va iste’mol qiladi;

korxona o‘z bajarish javobgarligini bajarish jarayonida aktiv (masalan, tugallanmagan ishlab chiqarish) yaratiladi yoki yaxshilanadi, xaridor uning ustidan nazoratni ushbu aktiv yaratilishi va yaxshilanishi bilan oladi;

korxonaning o‘z javobgarligini bajarishi tashkilotning muqobil maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lgan aktivni yaratmaydi (36-bandga qarang) va bunda tashkilot shartnomaviy ishlarning shu kungacha bajarilgan bir qismi uchun to‘lovni olish bo‘yicha qonun bilan himoyalangan huquqqa ega bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, agar daromad ma’lum bir vaqtda tan olinsa, bu davrni qanday aniqlash mumkin bo‘ladi. Fikrimizcha agar tushum ma’lum bir vaqtda tan olinadigan bo‘lsa, bu vaqtda tushum korxona tovar yoki xizmat ustidan nazoratni mijozga topshirganda tan olinishi mumkin. Shunday bo‘lsada, korxonada tayyor mahsulotlar yoki xizmat ustidan nazorat o‘tkazilganligini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlarni hisobga olishga ahamiyat berish lozim deb hisoblaymiz:

birinchi, korxona tayyor mahsulot yoki xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish huquqiga egami?

ikkinchi, mijozning tayyor mahsulot yoki xizmatlarga egalik huquqi bormi?

uchinchi, korxona tayyor mahsulot yoki xizmatlarga jismoniy egalik huquqini mijozga topshirdimi?

to‘rtinchi, mijoz tayyor mahsulot yoki xizmatlarga egalik qilish bilan bog‘liq jiddiy xavf va mukofotlarga duchor bo‘ladimi?

beshinchi, mijoz tayyor mahsulot yoki xizmatlarni qabul qildimi?

Demak, muayyan vaqt o'tishi bilan tushum tan olinganda, umumiy tamoyil shundan iboratki, tushum sotuvchi korxona o'z majburiyatlarini bajarganlik darajasida tan oladi. Xalqaro 15-son MHXS tan olinishi kerak bo'lgan tushum miqdorini hisoblash uchun natija usulida yoki resurs usulidan foydalanishga ruxsat beradi. Natija usuli bo'yicha tushum sanaga o'tkazilgan tovarlar yoki xizmatlar tannarxining to'g'ridan-to'g'ri o'lchovlari asosida tan olinadi, resurs usulida esa tushum iste'mol qilingan resurslar, sarflangan xarajatlar kabi ko'rsatkichlar asosida tan olinadi. Shuningdek, resurs usullaridan foydalanilganda foydalanilgan resurslar va tovar yoki xizmatlarni mijozga o'tkazish o'rtasida bevosita bog'liqlik bo'lmasligi alohida qayd etilgan. Shunga ko'ra, tovar va xizmatlarni o'tkazish bo'yicha sotuvchining faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan resurslar chiqarib tashlanadi.

Taklif etilgan schyotlarni korxonalar misolida ko'rib o'tishga xarakat qilamiz. Masalan: "Qizilqumsement" AJ o'z mijozi "SAMO" MChJ bilan sement yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzadi (Shartnoma qiymati 150 mln.so'm). Bu yerda sement mahsuloti belgilangan sifat bo'yicha ishlab chiqarilgan va uni mijozga yetkazib berish rejalashtirilgan. "Qizilqumsement" AJ tushumni bir vaqtning o'zida yoki vaqt o'tishi bilan tan oladimi?

Fikrimizcha, 15-son MHXS qoidalariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyati tomonidan bajarilgan ishi uchun, ya'ni ishlab chiqarilgan sement mahsuloti uchun haq to'lash huquqiga ega yoki yo'qligiga bog'liqlik bo'ladi. Natijada, "Qizilqumsement" AJ vaqt o'tishi bilan daromadni tan oladi, chunki:

birinchidan, muqobil foydalanishga ega bo'lmagan sement mahsulotini yaratadi (yuqori sifatli va xalqaro darajadagi tan olingan markada);

ikkinchidan, to'lovni amalga oshirish huquqiga egadir.

"Qizilqumsement" AJ buxgalteri tomonidan quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

1. Tan olingan tushum summasiga:

Debet 4010 - "Xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar" schyoti yoki "Xaridor va mijozlarning qisqa muddatli debitorlik qarzlari" schyoti - 150 mln so'm.

Kredit 9010 - "Bir vaqtning o'zida tan olingan tushum" schyoti - 150 mln.so'm.

2. Sotilgan sementning tannarxi summasiga:

Debet 9110 - "Bir vaqtning o'zida tan olingan tannarx" schyoti - 110 mln so'm.

Kredit 2810 - "Ombordagi tayyor mahsulot" schyoti yoki "Tayyor mahsulot" schyoti - 110 mln so'm.

O'z navbatida aksiyadorlik jamiyatiga to'lash huquqiga ega yoki yo'qligini baholash korxona faoliyat yuritadigan huquqiy tizimga juda bog'liq. Korxonalar har bir shartnoma uchun alohida to'lov huquqini baholashlari kerak, chunki har bir shartnoma boshqacha bo'ladi va hatto bir xil kelishuvlar boshqa yurisdiksiyalar tufayli boshqa xulosaga olib kelishi mumkin. Demak, umumiy tamoyil shundan iboratki, tushum ma'lum bir vaqtda tan olinadi. Shunday bo'lsada, yuqoridagi 15-son MHXSning tegishli bandlaridagi mezonlardan biri bajarilsa, daromad vaqt o'tishi bilan tan olinishi ko'rsatilgan.

Taklif etilayotgan 9000 - "Tushum" schyoti bo'yicha: 9010 - "Bir vaqtning o'zida tan olingan tushum" schyoti, 9020 - "Davri davomida tan olingan tushum" schyoti, 9030 - "Tushumga tuzatish kiritish" (kamaytirish uchun) schyoti. Shuningdek, "Tannarx" schyoti bo'yicha: 9110 - "Bir vaqtning o'zida tan olingan tannarx" schyoti, 9120 - "Davri davomida tan olingan tannarx" schyoti va 9130 - "Tannarxga tuzatish kiritish" (kamaytirish uchun) schyotlardagi yozuvlar qoldiq ega bo'lmaganligi uchun, o'sha davrning o'zida yakuniy moliyaviy natijalar schyotiga o'tkaziladi.

Fikrimizcha, yakuniy moliyaviy natijalar tushunchasiga ham o'zgartirish kiritish vaqti keldi, ushbu atamani xalqaro standartlarga (15-son MHXS) muvofiq 9900 - "Davri uchun foyda yoki zarar"

nomi bilan nomlashni taklif etamiz. To'g'ri, amaldagi 21-son BHMS tartibi bo'yicha 9000, 9100 va 9900 schyotlar boshqa nom bilan ataladi, bizning taklifimiz esa, xalqaro standartlarga o'tayotgan yoki ularni qo'llayotgan korxonalar uchun tavsiya etilgan, ularni boshqa raamlarda masalan 6000 yoki 7000 bilan qo'llash mumkindir, lekin, korxonalarga tushunish osonroq va qulay bo'lishi maqsadida, amaldagi raqamlarni saqlab qolgan holda, ularning nomlanishiga o'zgartirishlar kiritildi hamda bajaradigan funksiyasi bo'yicha ham xalqaro standartlar talablari bo'yicha "Foyda va zararlar yoki boshqa umumlashgan daromadlar" nomli hisobot shakliga moslashtirilgan, o'z navbatida korxonalar hisob siyosatida asosiy yoki ishchi schyotlar sifatida aks ettirib boriladi.

Bunda, 9010, 9020 va 9030 schyotlar hisobot davri oxirida taklif etilayotgan 9910 - *"Davrdagi foyda yoki zarar (bosh tashkilot egalariga tegishli)"* schyoti yoki zarur hollarda 9020 - *"Foyda va zararlar (nazorat qilinmagan ulushlarga tegishli davr uchun)"* schyotlari bilan yopiladi.

Taklif etilayotgan mazkur schyotlar tartibi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzuvchi korxonalar uchun tavsiyaviy ko'rinishga ega bo'lib, korxonalarga moliyaviy hisobotlarning ishchi jadvalini shakllantirish, buxgalteriya hisobi va xalqaro standartlar asosida hisob siyosatini ishlab chiqishda ishchi schyotlar sifatida qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu esa, milliy schyotlar rejasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda ko'priki, ya'ni tranzit vazifasini bajaradi, xalqaro standartlarni tezroq tushinib olishga hamda ularni amaliyotda qo'llashni osonlashtiradi.

XULOSA.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni shakllantirishda muhim ma'lumotlarni o'zida ifodalovchi schyotlar daromadlar va xarajatlar yoki tushum va tannarx bilan bog'liq schyotlarni taklif etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida schyotlarni qo'llash. Ya'ni schyotlar rejasini haqida ma'lumotlar yoki tushuntirishlar berilmagan. Shu sababli, xalqaro standartlarga o'tayotgan korxonalar uun moliyaviy natijalar bilan bog'liq tavsiya etilayotgan schyotlar kelgusida xalqaro talablar va qoidalarni tushunishga imkon beradi;

ikkinchidan, taklif etilayotgan tushum va tannarxni hisobga oluvchi schyotlar ko'pchilik korxonalarga, jumladan moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay imkoniyatlarni yaratish mumkin;

uchinchidan, xalqaro standartlar schyotlar rejasiga emas, asosan e'tiborni moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratganligi tufayli. Mazkur schyotlar hisobotlarni shakllanishida muhim manba sifatida baholanadi;

to'rtinchidan, bugungi kunda har qanday potensial investorni investitsiya kiritmoqchi bo'lgan korxoaning foydasi qiziqtiradi, shu nuqtai nazardan, moliyaviy natijalarni shakllanishida taklif etilayotgan schyotlar tartibi ishonchli axborotlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020 yil 24 fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. 15-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti: *Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum. Rasmiy tarjima. T-2022 yil.*

3. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avt. – T.: 2009. – 32 b.
4. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019-y. 624 b.
5. Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik.-T.: «Iqtisod-Moliya».2019.-556 b.;
6. Tashnazarov S. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1 [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “ STEP- SEL” MChJ nashriyoti, 2023 - 580 bet.
7. Bocharov V. V. Investitsii: uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata / V. Ye. Leontev, V. V. Bocharov, N. P. Radkovskaya. – Moskva : Izdatelstvo Yurayt, 2016.
8. Saviskaya G. V. Analiz xozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya : uchebnoe posobie / G. V. Saviskaya – Moskva : INFO – 2014. – 377s.
9. Kreynina M. N. Finansovyy menedjment: uchebnoe posobie. – Moskva : Delo i Servis, 2009. – 245 s
10. Yefimova O. V. Analiz finansovoy otchetnosti: uchebnoe posobie dlya magistrrov / O. V. Yefimova [i dr.]. – Moskva: Omega-L, 2013. – 388 s
11. Smetanko A. V. Aktual'nye voprosy audita buxgal'terskoy otchetnosti v Rossiyskoy Federatsii / A. V. Smetanko, Yu. V. Mixalchuk // Nauchnyy almanax. 2016. S. 233–236.
12. V.Getman. Buxgal'terskiy uchët: uchebnik / pod red. prof. V. G. Getmana. – 2-ye izd., pererab. i dop. – Moskva: INFRA-M, 2017. – 601 s.
13. O.Xolmurodov. Moliyaviy natijalarning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2025 yil. 57 b.
14. I.Ochilov, N.Rizaev, M.Kalonov. Buxgalteriya hisobi. Darslik. (nomutaxassisliklar uchun) Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2022 yil 272 b.
15. Qurbonov Z. Misirok K. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2020 yil. 756 b. Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisod fan.dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
16. Ergasheva Sh., Mannapova R. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyot va ta’lim / 2020 № 4. 136-142 b.

Xolpo'lotov Rustam O'ktamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
«Buxgalteriya hisobi» kafedrası asistenti

SHUBHALI DEBITORLIK QARZLARI BO'YICHA REZERV TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Холполотов Рустам Октамович
Ташкентский государственный экономический университет
Ассистент кафедры "Бухгалтерский учет"

УЛУЧШЕНИЕ РЕЗЕРВА ПО СОМНИТЕЛЬНОЙ ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ

Kholpulotov Rustam Uktamovich
Tashkent State Economic University
Assistant of the department "accounting"

IMPROVEMENT OF PROVISION FOR DOUBTFUL RECEIVABLES

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy instrument hisoblanadigan debitorlik qarzdorliklariga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini asosida shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv hisobini tashkil etishni takomillashtirish tartibi ochib berilgan.

Butun dunyo bo'ylab so'nggi yillarda moliyaviy bozorlarda moliyaviy instrumentlar hilma-hilligi va murakkabligi keskin o'sib bormoqda. Moliyaviy instrumentlar uchun buxgalteriya hisobi amaliyotida muammo bo'lib hisoblanadi va shuning uchun xalqaro standartlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Tayanch so'lar: Shartnoma, moliyaviy aktiv, moliyaviy majburiyat, ulushli vosita, qarqli vosita, debitorlik, shubhali debitorlik qarzlari.

Аннотация: В статье описана процедура совершенствования организации резервного учета сомнительной дебиторской задолженности на основе международных стандартов финансовый отчетности по дебиторской задолженности, рассматриваемой как финансовый инструмент в хозяйственных субъектах.

Разнообразие и сложность финансовых инструментов на финансовых рынках по всему миру резко возросли за последние годы. Учет финансовых инструментов представляет собой проблему на практике, поэтому желательно широкое использование международных стандартов.

Ключевые слова: Договор, финансовый актив, финансовое обязательство, долевой инструмент, долговой инструмент, дебиторская задолженность, сомнительна дебиторская задолженность.

Abstract: The article describes the procedure for improving the organization of reserve accounting of doubtful accounts receivable based on international financial reporting standards for accounts receivable, considered as a financial instrument in business entities.

The diversity and complexity of financial instruments in financial markets around the world

have increased dramatically in recent years. Accounting for financial instruments is a problem in practice, so it is desirable to widely use international standards.

Keywords: Contract, financial asset, financial liability, equity instrument, debt instrument, accounts receivable, doubtful accounts receivable.

KIRISH. Hozirgi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda, o'z navbatida, davlat budjetining daromad qismi ham oshmoqda. Bu kabi iqtisodiy o'zgarishlar mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, pul-valyuta va to'lov intizomi mustahkamlanib borishiga asos bo'lmoqda. Neft-gaz sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligi ular o'rtasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'z vaqtida bajarilib borilishiga bevosita bog'liq.

Bir korxonaning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oldidagi debitorlik va kreditorlik qarzlarning bajarilmay qolishi zanjirsimon ta'sirini yuzaga keltirib, juda ko'plab korxonalarning moliyaviy holatiga va ohir-oqibatda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Debitorlik qarzдорlik moliyaviy instrumentlar tarkibiy qismi hisoblanadi. "O'zbekneftgaz" AJning hisob siyosatida debitorlik qarziga quyidagicha tarif berilgan. Debitorlik qarzlari - bu xaridorlarning yoki boshqa biznes kontragentlarining kompaniya oldidagi qo'shma korxona shartnomalari bo'yicha taqdim etilgan tovarlar va xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Moliyaviy instrumentlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish tartibi xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. Ular jumlasiga, B.E.Milova o'tkazilgan tadqiqotlar asosida "Moliyaviy instrumentga quyidagi ta'rifi taklif etgan "Moliyaviy instrument bitim taraflari o'rtasida moliyaviy aktiv va moliyaviy majburiyat (kapital vosita) bir vaqtning o'zida paydo bo'lishiga olib keladigan shartnoma munosabatlari" [7] deb ta'rif keltirishgan.

Yu.A.Astaxova o'zining ilmiy ishida "Moliyaviy instrumentlar bu bitimning bir ishtirokchisi uchun moliyaviy aktivning paydo bo'lishiga olib keladigan moliyaviy risklar bilan birga keladigan mablag'lar va moliyaviy shartnomalarni birlashtirgan buxgalteriya toifasi va boshqasi uchun moliyaviy majburiyatlar yoki kapital vositasi"[8] deb tarif bergan.

Ye.A.Tatarko fikricha "Moliyaviy instrumentlarning analitik hisobining tizimli registrilarini yuritish, bizning fikrimizcha, ushbu toifadagi buxgalteriya hisobi va moliyaviy instrumentlar turlari kontekstida tashkil etilishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Qimmatli qog'ozlar" schyoti bo'yicha analitik buxgalteriya hisobi, "Boshqa moliyaviy aktivlar" schyoti bo'yicha analitik buxgalteriya hisobi va "Hosilaviy moliyaviy instrumentlar" schyoti bo'yicha analitik hisobni yuritish taklif etilgan"[9].

M.V.Sklyarov o'zining ilmiy ishida moliyaviy investitsiyaga shunday taklif kiritgan "Moliyaviy investitsiyalar - iqtisodiy samara olish uchun kapitalni moliyaviy aktivlarga qo'yish"[10].

V.V.Kovalyovning fikricha "Moliyaviy tahlil: kapitalni boshqarish. Investitsiyalar tanlash. Hisobot tahlili", unda quyidagi ta'rif berilgan: "Eng umumiy shaklda ular (moliyaviy instrumentlar) qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarning turli shakllarini o'z ichiga oladi, ular bilan savdo moliya bozorlarida amalga oshiriladi: aksiyadorlik va qarz qimmatli qog'ozlari, depozitar tilxatlari, opsiolar, varrantlar, forvard shartnomalari, fyucherslar va svoplar"[11].

A.B.Feldman "Moliyaviy mahsulot" va "Moliyaviy instrument" tushunchalpriga quyidagicha tarif bergan "Moliyaviy mahsulot deganda bozor ishtirokchilari o'rtasida tegishli talab va taklifni keltirib chiqaradigan ma'lum bir iste'mol qiymatini tushunish taklif etiladi. Moliyaviy mahsulotlar bozor ishtirokchilarining o'zaro ta'siri natijasida ularga huquqiy shakllar berib, bozor aylanmasida ishtirok etuvchi aniq moliyaviy instrumentlar shaklida o'z ifodasini topadi"[12].

Olima D.M.Mavlyanova fikricha "Shubhali qarz - bu korxonaning shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmagan debitorlik qarzdorligi bo'lib tegishli kafolatlar bilan ta'minlanmaganligidir"[14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada taqqoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, guruhlash va boshqa tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Buxgalteriya hisobida qarzдорlikni baholash usullari shubhali qarz rezerv aniqlash mazmuniga asoslangan.

Moliyaviy hisobotlarda oshkor qilinadigan debitorlik qarzlarining ba'zi qismlari uning qiymatini qabul qilmasa, haqiqiy vaziyatni noto'g'ri aks ettirishi mumkin. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zararni hisobga olishda dargumon qarzlar bo'yicha rezervlar yaratish talab qilinadi. Bunday rezervlarni yaratish tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy ahvolidan haqiqiy holatiga bog'liq.

Belgilangan muddatda qaytarilmaydigan va tegishli kafolatlar bilan ta'minlanmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qarzlar shubhali hisoblanadi. Kontragent tomonidan to'lov muddati buzishi yoki kontragentning moliyaviy muammolari to'g'risida olingan ma'lumot rezervni yaratish uchun sabab bo'lishi mumkin.

Xalqaro tajribaga muvofiq shubhali qarzlar uchun rezerv yaratishda quyidagi usullardan foydalanish va ularni hisob siyosatida aks ettirish maqsadga muvofiq:

1. Interval usuli.
2. Ekspertlar usuli.
3. Statistik usul.

1. Interval usuli. Rezervga ajratmalar miqdori kechikish muddatiga ko'ra qarz miqdori foiz stavkasi sifatida har chorakda (oylik) hisoblanadi. Ya'ni har bir dargumon qarz bo'yicha rezerv uchun ajratilgan mablag'lar kechikish davri bilan mutanosibdir.

2. Ekspert usuli. Har bir dargumon qarz uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning fikriga ko'ra, yuqori ehtimollik bilan qaytarilishi mumkin bo'lmagan miqdorda rezerv tuziladi.

3. Statistik usul. Eng ko'p vaqt talab etuvchi variant mazkur korxonalarning statistik ma'lumotlari bo'yicha rezervga ajratmalar miqdorini bir necha soliq davrlari bo'yicha qarz ulushi sifatida aniqlashdan iborat bo'lib, ular debitorlik qarzдорligi umumiy summasiga nisbatan qoplanmagan bo'lib qoladi.

Shuningdek, dargumon qarzlar uchun rezervlar yaratilganda, rezerv yaratishning u yoki bu usulini tanlashdan oldin, u nima uchun yaratilganligini aniqlash zarur.

Agar korxona bankdan kredit olishi uchun balans talab etilsa, u holda iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha ortiqcha rezervlar yaratish balansni «jozibador» ko'rsata olmaydi.

Dargumon qarzlar bo'yicha rezerv yaratish umidsiz debitorlik qarzlarini bevosita hisobdan chiqarish usulidan foydalanishga nisbatan birmuncha murakkabdir.


Shunday qilib, doimo dargumon qarzlarini hisobdan chiqarish xarajatlariga noto'g'ri baho berilishi mumkin degan xavf mavjud. Ular juda past baholansa, bu debitorlik qarzдорligi va foyda oshirilishiga olib keladi. Baholashda debitorlik qarzlar oshirilib, sof daromad yetarlicha baholanmaydi. Dargumon qarzlar bo'yicha rezerv yaratish zarurati muvofiqlik prinsipiga rioya qilish natijasida yuzaga kelib, u MHXS bo'yicha hisobning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi;

umidsiz debitorlik qarzlarini xarajatlarga kiritib hisobdan chiqarish ular yuzaga kelgan hisobot davrida amalga oshiriladi;

bundan tashqari, dargumon qarzlar bo'yicha rezerv yaratish balansdagi debitorlar qarzдорlikni aniqlash baholash imkonini beradi.

Xorijiy adabiyotlar tahlil qilinib, shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblashning quyidagi tartib qoidalari taklif etiladi.

Taklif etilayotgan shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblash 5 bosqichlik quyidagi model orqali aniqlanadi(1-rasm):



1-rasm. Shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblashning 5 bosqichli modeli.

Manba: muallif ishlanmasi

Birinchi bosqich "Sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarni muddatlar bo'yicha ajratish"da quyidagi jadvalga asosan debitor qarzdorliklarni muddatlariga qarab 13 ta kichik guruxlarga ajratish va har bir guruhga to'g'ri keladigan sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarni kamida ikki yillik ma'lumotlari kiritilishi lozim.

1-jadval

Sotuv bo'yicha debitorlik qarzdorliklarni muddatlarlar bo'yicha ajratish

№	Muddatlarlari bo'yicha debitorlik qarzdorliklarining guruhlanishi	31.01.2022	28.02.2022	...	31.12.2023
1	2	3	4	5	6
1-Guruh	30 kungacha	D_1^1	D_2^1	...	D_{24}^1
2-Guruh	30 kundan 60 kungacha bo'lgan	D_1^2	D_2^2	...	D_{24}^2
3-Guruh	60 kundan 90 kungacha bo'lgan	D_1^3	D_2^3	...	D_{24}^3
4-Guruh	90 kundan 120 kungacha bo'lgan	D_1^4	D_2^4	...	D_{24}^4
5-Guruh	120 kundan 150 kungacha bo'lgan	D_1^5	D_2^5	...	D_{24}^5
6-Guruh	150 kundan 180 kungacha bo'lgan	D_1^6	D_2^6	...	D_{24}^6
7-Guruh	180 kundan 210 kungacha bo'lgan	D_1^7	D_2^7	...	D_{24}^7
8-Guruh	210 kundan 240 kungacha bo'lgan	D_1^8	D_2^8	...	D_{24}^8
9-Guruh	240 kundan 270 kungacha bo'lgan	D_1^9	D_2^9	...	D_{24}^9
10-Guruh	270 kundan 300 kungacha bo'lgan	D_1^{10}	D_2^{10}	...	D_{24}^{10}
11-Guruh	300 kundan 330 kungacha bo'lgan	D_1^{11}	D_2^{11}	...	D_{24}^{11}
12-Guruh	330 kundan 360 kungacha bo'lgan	D_1^{12}	D_2^{12}	...	D_{24}^{12}
13-Guruh	360 kundan ko'p	D_1^{13}	D_2^{13}	...	D_{24}^{13}
Jami		***		***	***

Manba: muallif ishlanmasi

Yuqoridagi jadvalning 1-ustunida guruh raqami joylashtiriladi, 2-ustunda sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarini muddatlari ko'rsatiladi, 3-ustunda sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarini dastlabki sanadagi summasi qo'yiladi, 4-5-ustunda sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarini dastlabki sanasidan keyingi sanalardagi summalar joylashtiriladi (ya'ni 22 oylik ma'lumotlar), 6-ustunda sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarining ohirgi sanasidagi summa qo'yiladi.

Ikkinchi bosqich "Bir guruhdan keyingi guruhga o'tish foizini aniqlash"da birinchi bosqich ma'lumotlaridan foydalanilgan holda sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarni bir guruhdan keyingi guruhga o'tish foizi aniqlanadi. Bunda quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

2-jadval

Sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarini keyingi guruhga o'tish foizini aniqlash

Muddatlarlari bo'yicha debitorlik qarzdorliklarining keyingi guruhga o'tish ketma-ketligi	28.02.2022	31.03.2022	...	31.12.2023
1	2	3	4	5
1-Guruhdan-2-Guruhga (30 kungachadan-30 kundan 60 kungacha bo'lgan)	F_1^1	F_2^1	...	F_{23}^1
2-Guruhdan-3-Guruhga (30 kundan 60 kungacha bo'lgandan-60 kundan 90 kungacha bo'lgan)	F_1^2	F_2^2	...	F_{23}^2
3-Guruhdan-4-Guruhga (60 kundan 90 kungacha bo'lgandan-90 kundan 120 kungacha bo'lgan)	F_1^3	F_2^3	...	F_{23}^3
4-Guruhdan-5-Guruhga (90 kundan 120 kungacha bo'lgandan-120 kundan 150 kungacha bo'lgan)	F_1^4	F_2^4	...	F_{23}^4
5-Guruhdan-6-Guruhga (120 kundan 150 kungacha bo'lgandan-150 kundan 180 kungacha bo'lgan)	F_1^5	F_2^5	...	F_{23}^5
6-Guruhdan-7-Guruhga (150 kundan 180 kungacha bo'lgandan-180 kundan 210 kungacha bo'lgan)	F_1^6	F_2^6	...	F_{23}^6
7-Guruhdan-8-Guruhga (180 kundan 210 kungacha bo'lgandan-210 kundan 240 kungacha bo'lgan)	F_1^7	F_2^7	...	F_{23}^7
8-Guruhdan-9-Guruhga (210 kundan 240 kungacha bo'lgandan-240 kundan 270 kungacha bo'lgan)	F_1^8	F_2^8	...	F_{23}^8
9-Guruhdan-10-Guruhga (240 kundan 270 kungacha bo'lgandan-270 kundan 300 kungacha bo'lgan)	F_1^9	F_2^9	...	F_{23}^9
10-Guruhdan-11-Guruhga (270 kundan 300 kungacha bo'lgandan-300 kundan 330 kungacha bo'lgan)	F_1^{10}	F_2^{10}	...	F_{23}^{10}
11-Guruhdan-12-Guruhga (300 kundan 330 kungacha bo'lgandan-330 kundan 360 kungacha bo'lgan)	F_1^{11}	F_2^{11}	...	F_{23}^{11}
12-Guruhdan-13-Guruhga (330 kundan 360 kungacha bo'lgandan-360 kundan ko'p)	F_1^{12}	F_2^{12}	...	F_{23}^{12}

Manba: muallif ishlanmasi

Ushbu jadvalning 1-ustunida muddatlarlari bo'yicha debitorlik qarzdorliklarining keyingi guruhga ketma-ketlik asosida o'tishi ko'rsatiladi. 2-5-ustunda quyidagi jadval asosida guruhdan guruhga o'tish foizlari topiladi.

3-jadval

Sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarini keyingi guruhga o'tish foizini aniqlash algoritmi (tartibi)

N _o	28.02.2022	31.03.2022	...	31.12.2023
1	$F_1^1 = \frac{D_2^2}{D_1^1} * 100\%$	$F_2^1 = \frac{D_3^2}{D_2^1} * 100\%$	...	$F_{23}^1 = \frac{D_{24}^2}{D_{23}^1} * 100\%$
2	$F_1^2 = \frac{D_2^3}{D_1^2} * 100\%$	$F_2^2 = \frac{D_3^3}{D_2^2} * 100\%$	...	$F_{23}^2 = \frac{D_{24}^3}{D_{23}^2} * 100\%$
...	...	...	...	...
12	$F_1^{12} = \frac{D_2^{13}}{D_1^{12}} * 100\%$	$F_2^{12} = \frac{D_3^{13}}{D_2^{12}} * 100\%$	...	$F_{23}^{12} = \frac{D_{24}^{13}}{D_{23}^{12}} * 100\%$

Manba: muallif ishlanmasi

Uchunchi bosqich “Shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasi aniqlash (foizini)”da sotuv bo'yicha debitorlik qarzdorliklarining extimollik darajasining foizi topiladi. Bunda quyidagi jadval to'ldiriladi.

4-jadval

Shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasi

N _o	Muddatlarlari bo'yicha debitorlik qarzdorliklarining guruhlanishi	31.01.2023	28.02.2024	...	31.12.2023
1	2	3	4	5	6
1-Guruh	30 kungacha	E_1^1	E_2^1	...	E_{12}^1
2-Guruh	30 kundan 60 kungacha	E_1^2	E_2^2	...	E_{12}^2
3-Guruh	60 kundan 90 kungacha	E_1^3	E_2^3	...	E_{12}^3
4-Guruh	90 kundan 120 kungacha	E_1^4	E_2^4	...	E_{12}^4
5-Guruh	120 kundan 150 kungacha	E_1^5	E_2^5	...	E_{12}^5
6-Guruh	150 kundan 180 kungacha	E_1^6	E_2^6	...	E_{12}^6
7-Guruh	180 kundan 210 kungacha	E_1^7	E_2^7	...	E_{12}^7
8-Guruh	210 kundan 240 kungacha	E_1^8	E_2^8	...	E_{12}^8
9-Guruh	240 kundan 270 kungacha	E_1^9	E_2^9	...	E_{12}^9
10-Guruh	270 kundan 300 kungacha	E_1^{10}	E_2^{10}	...	E_{12}^{10}
11-Guruh	300 kundan 330 kungacha	E_1^{11}	E_2^{11}	...	E_{12}^{11}
12-Guruh	330 kundan 360 kungacha	E_1^{12}	E_2^{12}	...	E_{12}^{12}

Manba: muallif ishlanmasi

Yuqoridagi 3.3-jadvaldagi 3-4-5-ustunlarda **extimollik darajasi** topiladi. Misol uchun 1-guruhning **extimollik darajasining** foizi quyidagicha topiladi.

5-jadval

Shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasini aniqlash algoritmi (tartibi)

N _o	31.01.2023	28.02.2024	...	31.12.2023
1	$E_1^1 = F_1^1 * F_2^1 * F_3^1 * ... * F_{12}^{12}$	$E_2^1 = F_2^1 * F_3^1 * ... * F_{13}^{12}$	...	$E_{12}^1 = F_{12}^1 * F_{13}^1 * ... * F_{23}^{12}$
2	$E_1^2 = F_2^2 * F_3^2 * ... * F_{12}^{12}$	$E_2^2 = F_3^2 * F_4^2 * ... * F_{13}^{12}$	...	$E_{12}^2 = F_{13}^2 * F_{14}^2 * ... * F_{23}^{12}$
...	...	...	...	...
12	$E_1^{12} = F_{12}^{12}$	$E_2^{12} = F_{13}^{12}$	...	$E_{12}^{12} = F_{23}^{12}$

Manba: muallif ishlanmasi

To‘rtinchi bosqich “Sotuv bo‘yicha debitor qarzdorlik zaxirasi miqdorini aniqlash”da sotuv bo‘yicha debitor qarzdorligining rezervlar miqdorini aniqlanadi. Bunda quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

6-jadval

Sotuv bo‘yicha debitorlik qarzlari bo‘yicha rezerv miqdorini aniqlash jadvali¹

№	Sotuv bo‘yicha debitorlik qarzlari muddatlariga ajratish	31.12.2023		
		Sotuv bo‘yicha debitorlik qarzi	Shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasining o‘rtachasi	Debitorlik qarzlari bo‘yicha rezerv miqdori
1	2	3	4	5=3*4
1-Guruh	30 kungacha	D_{24}^1	E_1	$R_1 = D_{24}^1 * E_1$
2-Guruh	30 kundan 60 kungacha	D_{24}^2	E_2	$R_2 = D_{24}^2 * E_2$
3-Guruh	60 kundan 90 kungacha	D_{24}^3	E_3	$R_3 = D_{24}^3 * E_3$
4-Guruh	90 kundan 120 kungacha	D_{24}^4	E_4	$R_4 = D_{24}^4 * E_4$
5-Guruh	120 kundan 150 kungacha	D_{24}^5	E_5	$R_5 = D_{24}^5 * E_5$
6-Guruh	150 kundan 180 kungacha	D_{24}^6	E_6	$R_6 = D_{24}^6 * E_6$
7-Guruh	180 kundan 210 kungacha	D_{24}^7	E_7	$R_7 = D_{24}^7 * E_7$
8-Guruh	210 kundan 240 kungacha	D_{24}^8	E_8	$R_8 = D_{24}^8 * E_8$
9-Guruh	240 kundan 270 kungacha	D_{24}^9	E_9	$R_9 = D_{24}^9 * E_9$
10-Guruh	270 kundan 300 kungacha	D_{24}^{10}	E_{10}	$R_{10} = D_{24}^{10} * E_{10}$
11-Guruh	300 kundan 330 kungacha	D_{24}^{11}	E_{11}	$R_{11} = D_{24}^{11} * E_{11}$
12-Guruh	330 kundan 360 kungacha	D_{24}^{12}	E_{12}	$R_{12} = D_{24}^{12} * E_{12}$
13-Guruh	360 kundan ko‘p	D_{24}^{13}	100%	$R_{13} = D_{24}^{13} * 100\%$
Jami:		$\sum_{1}^{13} D$	-	$\sum_{1}^{13} R$

Manba: muallif ishlanmasi

Yuqoridagi jadvaldagi 4-ustun shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasining o‘rtachasi quyidagicha topildi.

$$E_1 = \frac{E_1^1 * E_2^1 * \dots * E_{12}^1}{12}$$

$$E_2 = \frac{E_1^2 * E_2^2 * \dots * E_{12}^2}{12}$$

$$\dots$$

$$E_{12} = \frac{E_1^{12} * E_2^{12} * \dots * E_{12}^{12}}{12}$$

So‘ngi 13-guruh sotuv bo‘yicha debitorlik qarzining muddati 360 kundan ko‘p bo‘lgan shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasining o‘rtachasini 100% deb hisobga olamiz.

So‘ngi beshinchi bosqichda savdo debitorlik qarzlari yoritib beriladi. Bunda quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Savdo debitorlik qarzlari yoritib berish

Segment	Savdo debitorlik qarzlari muddati bo'yicha					
Segment	Muddat i o'tmagan	Muddati 30 kundan 90 kungacha bo'lgan	Muddati 90 kundan 180 kungacha bo'lgan	Muddati 180 kundan 300 kungacha bo'lgan	Muddati 300 kundan 360 kungacha bo'lgan	Muddati 360 kundan ko'p bo'lgan
1	2	3	5	6	7	8
Savdo debitorlik qarzlari qiymati	D_{24}^1	$D_{24}^2 + D_{24}^3$	$D_{24}^4 + D_{24}^5 + D_{24}^6$	$D_{24}^7 + D_{24}^8 + D_{24}^9 + D_{24}^{10}$	$D_{24}^{11} + D_{24}^{12}$	D_{24}^{13}
Shubxali debitorlik qarzdorlik rezerv miqdori	R_1	$R_2 + R_3$	$R_4 + R_5 + R_6$	$R_7 + R_8 + R_9 + R_{10}$	$R_{11} + R_{12}$	R_{13}
Savdo debitorlik qarzlari balans qiymati	$D_{24}^1 - R_1$	$(D_{24}^2 + D_{24}^3) - (R_2 + R_3)$	$(D_{24}^4 + D_{24}^5 + D_{24}^6) - (R_4 + R_5 + R_6)$	$(D_{24}^7 + D_{24}^8 + D_{24}^9 + D_{24}^{10}) - (R_7 + R_8 + R_9 + R_{10})$	$(D_{24}^{11} + D_{24}^{12}) - R_{11} + R_{12}$	$D_{24}^{13} - R_{13}$
Kutilayotgan shubxali debitorlik qarzlari o'timlilik darajasi (foizda)	E_1	$\frac{E_2 + E_3}{2}$	$\frac{E_4 + E_5 + E_6}{3}$	$\frac{E_7 + E_8 + E_9 + E_{10}}{4}$	$\frac{E_{11} + E_{12}}{2}$	100%

Manba: muallif ishlanmasi

Biz taklif qilayotgan 5 bosqichli modelda foydalanilganda korxona savdo debitorlik kontragentlarimizning boshqa korxonalar bilan hisob-kitobi ma'lumotlari kerak bo'lmaydi. Korxona faqat kontragentlarimizning korxona bilan hisob-kitoblari asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa Respublikamizda faoliyat yuritayotgan xar qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun ham qulay hisoblanadi.

Xulosa.

Mavzuni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga erishildi:

1. Moliyaviy instrumentlarni ma'lumotlarni yoritib berishda milliy standart mavjud emasligini inobatga olgan holda 25 sonli "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib" BHMSni ishlab chiqish zarur.
2. Debitorlik qarzdorliklariga shubxali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv hisobini tashkil etishning normativ huquqiy bazasini takomillashtirish zarur.
3. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy instrumentlar

ma'lumotlarni yoritib berish yondashuvlarni umumlashtirish va xususiyatlarni aniqlash lozim.

4. Amaldagi qonunchilik asosida moliyaviy instrumentlarni ma'lumotlarni yoritib berish sxemasini taklif qilish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish zarur.

Mavzuni o'rganish natijasida quyidagi takliflarga erishildi:

1. Shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblash uchun sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarni muddatlar bo'yicha, bir guruhdan keyingi guruhga o'tish foizi, shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasi, debitor qarzdorlik zaxirasi miqdorini va ular haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish tartibdagi ketma-ketlikni qo'llash zarur.

2. Shubhali debitorlik qarzlarning extimollik darajasi elementini inobatga olgan xolda shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblash zarur.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisobotiga ilova sifatida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning toifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali takomillashtirilgan izohli shakl taklifi asoslangan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>.

2. MHXS (IAS) 32 "Moliyaviy instrumentlar: tan olish" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

3. MHXS (IFRS) 7 "Moliyaviy instrumentlar: axborotni oshkor qilish". tan olish" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

4. MHXS (IFRS) 9 "Moliyaviy instrumentlar" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

5. Abdurakhim Turaev, Tae-Hyoung Mun. Impact of the Introduction of New ISA on Uzbekistan's Auditing Environment. Journal of international trade and commerce. Vol 16, 4, Avgust 2020 (pp61-73).

6. D.Э.Норбеков, А.Н.То'раев, Ш.Ш.Рaxmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019. -332 b.

7. B.E.Milova "Uchet finansovix instrumentov tema" tema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF 08.00.12. 2008g.

<https://www.dissercat.com/content/uchet-finansovykh-instrumentov>

8. Yu.A.Astaxova "Sovremenniy podxod k uchetu finansovix instrumentov" tema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF 08.00.12. 2013g.

<https://www.dissercat.com/content/sovremennye-podkhody-k-uchetu-finansovykh-instrumentov>

9. Э.А.Татарко "Организация бухгалтерского учета финансовых инструментов на предприятии" тема диссертации автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2010г.

<https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-bukhgalterskogo-ucheta-finansovykh-instrumentov-na-predpriyatii>

10. М.В.Скляров " Организация бухгалтерского финансовых инструментов в соответствие с российскими и международными стандартами" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2005г

<https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-bukhgalterskogo-ucheta-finansovykh-instrumentov-v-sootvetstvii-s-rossiiskimi-i>

11. V.V.Kovalev «Finansovyy analiz: Upravlenie kapitalom. Vibor investits'i. Analiz otchetnosti» - M.: Finani i statistika, 1995.

12. Feldman A.B., Proizvodniy finansoviy i tovarniy instrumenti. - M.: 2003
14. D.M.Mavlyanova “Joriy aktivlar hicobi, tahlili va auditini uclubiy jihatlarini takomillashtirish” disertatsii Toshkent-2020
13. [http: ifrs.com](http://ifrs.com)

Karimov Akrom Abbasovich - iqtisodiyot fanlari doktori,
professor, “Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası professori.
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti.

Karimovaa53@mail.ru

Rizayev Nurbek Kadirovich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
“Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası professori. Toshkent
Kimyo xalqaro universiteti rizayevnk220874@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA YASHIL BUXGALTERIYANI TASHKIL ETISH.

Каримов Акром Аббасович - доктор экономических наук,
профессор, профессор кафедры «Финансовый учет и отчетность»
Ташкентский государственный экономический университет.

Karimovaa53@mail.ru

Ризаев Нурбек Кадиорович - доктор экономических наук, профессор,
профессор кафедры «Банковское дело и бухгалтерский учет».
Ташкентский Международный Университет Кимё.

rizayevnk220874@gmail.com

ОРГАНИЗАЦИЯ ЗЕЛЕНОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Karimov Akrom Abbasovich - Doctor of Economics, Professor, Professor
of the Financial accounting and reporting Tashkent State University of
Economics.

Karimovaa53@mail.ru

Rizaev Nurbek Kadirovich - Doctor of Economics, Professor, Professor
of the Department of Banking and Accounting. Kimyo International
University in Tashkent

rizayevnk220874@gmail.com

ORGANIZATION OF GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida iqlim o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lgan “yashil buxgalteriya”ning ahamiyati, mohiyati va zaruriyati haqida keng to‘xtalib o‘tilgan. Yashil buxgalteriyani amalga oshirishdagi jahonda tashkil topgan standartlar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. O‘zbekistonda “yashil buxgalteriya”ni tashkil etishda maqsadlarni belgilash, tizimni yaratish, atrof-muhitga ta’sirini aniqlash va baholash, atrof-muhitga qilingan xarajatlar va ulardan olinadigan foydani hisoblash yuzasidan tavsiyalar shakllantirilgan.

Tayanch so‘zlar. yashil buxgalteriya, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishi, chiqindi, atmosfera, yashil xarajat, yashil foyda.

Аннотация: Подробно рассматриваются важность, сущность и необходимость «зелёного учёта», возникшего в результате изменения климата в процессе глобализации. Обсуждаются установленные в мире стандарты внедрения «зелёного учёта». Сформулированы рекомендации по постановке целей, созданию системы, выявлению и оценке воздействия на

окружающую среду, расчёту экологических затрат и выгод при организации «зелёного учёта» в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёный учёт, окружающая среда, изменение климата, отходы, атмосфера, зелёные затраты, зелёные выгоды.

Abstract: The importance, essence and necessity of "green accounting" that emerged as a result of climate change in the process of globalization are discussed in detail. The standards established in the world for the implementation of green accounting are discussed. Recommendations are formulated on setting goals, creating a system, identifying and assessing environmental impact, calculating environmental costs and benefits in organizing "green accounting" in Uzbekistan.

Keywords: green accounting, environment, climate change, waste, atmosphere, green costs, green benefits.

KIRISH.

Respublikamizda «O‘zbekiston-2030 Strategiyasi»da ham «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish masalasi ustivor sifatida belgilab olingan. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyoji uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdorini 120 milliard kVtga yetkazish, tabiiy gaz qazib olish hajmini 62 milliard kub metrga yetkazish, iqtisodiyot tarmoqlarining energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish, energiya resurslari bozorini tartibga solish bo‘yicha mustaqil regulyatorni tashkil etish, elektr energiyasini sotib olish, sotish va yetkazib berish funksiyalarini ajratish, elektr energiyasi va tabiiy gazni taqsimlash, generatsiya qilish va iste’molchiga yetkazish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, uglevodorodlar xom ashyosi zaxiralarini ko‘paytirishga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlariga xorijiy investorlarni jalb qilish hamda barcha turdagi energiya resurslari hisobini yuritishni to‘liq raqamlashtirish [1]. Albatta ushbu vazifalarni amalga oshirishda respublikamiz buxgalteriya hisobi tizimida yangi yo‘nalish "Yashil buxgalteriya hisobi"ga e‘tiyoj paydo bo‘ldi.

Jahonda global iqlim o‘zgarishi natijasida qo‘llash zaruriyatiga aylangan "yashil buxgalteriya" tushunchasining paydo bo‘lganligiga qariyb 40 yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsada, ushbu tushuncha bugungi kunda eng dolzarb va o‘z ahamiyatini tobora oshib borayotgan hisob usullaridan biriga aylandi (mazkur tushunchaga o‘tgan asrning 80 yillarida Piter Vud tomonidan asos solingan).

Ma’lumki, Respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini xalqaro standartlarga o‘tkazish bo‘yicha huquqiy asosi yaratildi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 4611-sonli qarori qabul qilingan edi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlashda iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qator ustivor vazifalar belgilanib olindi. Shunday vazifalardan biri - bu iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini o‘lchash hamda hisobot berish usuli hisoblangan "yashil buxgalteriya" (Green accounting) ga o‘tishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Korxonalarda yashil buxgalteriya amaliyoti moliyaviy va boshqaruv jarayonlariga ekologik masalalarni integratsiyalash va muvofiqlashtirishga qaratilgan turli xil usullar orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Shunday bo‘lsada, respublikaizda yashil buxgalteriya hisobini tashkil etishda o‘ziga xos muammolar mavjud. Bu borada iqtisodchi olim Sh. Xalilov o‘zining tadqiqotlari davomida quyidagi xulosaga keladi: "yashil buxgalteriya hisobini joriy qilish yo‘lida qiyinchiliklar mavjud. Uslubiy bo‘shliqlar, ma’lumotlarning yetishmasligi, institutsional cheklovlar va manfaatdor tomonlarning keng qamrovli ishtiroki zarurati hal qilinishi kerak bo‘lgan muhim to‘siqlardir. Ushbu

muammolar atrof-muhit resurslarini to'g'ri baholash va bu qadriyatlarni milliy hisob tizimlariga integratsiya qilishning murakkabligini ta'kidlaydi"[5].

M.Glazovning fikricha: "O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun energetika korxonalarining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish zarur, bu esa ularning "yashil" hisobini yuritish metodologiyasini modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Shu maqsadda "yashil" buxgalteriya hisobi O'zbekistonda energetika kompaniyalarining barqaror rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadigan korporativ boshqaruvning iqtisodiy amaliyoti sifatida asoslanadi"[7].

Firimizcha, yashil buxgalteriya - bu tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va kam miqdorda iste'mol qilgan holda samaradorlikni ta'minlashga hizmat qiladigan buxgalteriya hisobining muhim turidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolani yozishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot usullari, ilmiy adabiyotlar va korxonalarda yashil buxgalteriya hisobining zaruriyatini o'rganish, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

